


Z.T.NISHANOVA, G.K.ALIMOVA,
A.G'.TURG'UNBOEVA M.X.ASRANBOEVA

BOLALAR PSIXOLOGIIYASI
VA
PSIXODIAGNOSTIKASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Z.T.NISHANOVA, G.K.ALIMOVA,
A.G‘.TURG‘UNBOEVA M.X.ASRANBOEVA**

BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXODIAGNOSTIKASI

*O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2017 yil
28 iyuldagi 434 sonli buyrug‘iga asosan 5111800 – maktabgacha ta‘lim yonalishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.*

TOSHKENT- 2017

Darslikda bolalar psixologiyasining predmeti, metodlari haqida soʻz yuritiladi. Unda chaqaloqlik, goʻdaklik, ilk bolalik, maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari hamda psixodiagnostik uslublari aks ettirilgan. Darslik oliy pedagogik oʻquv yurtlari 5111800 – maktabgacha taʼlim yonalishi talabalari, magistrlar, oʻqituvchilar, mustaqil izlanuvchi-tadqiqotchilar uchun moʻljallangan.

В учебнике раскрыты предмет, методы детской психологии. В нем отражены психологические особенности и психодиагностические методики развития детей новорожденного, младенческого, раннего детского и дошкольного возраста. Учебником могут пользоваться студенты высших педагогических учебных заведений по направлению 5110800- дошкольное воспитание, магистры, соискатели.

In textbook disclosed subject, methods of child psychology. It reflects the psychological features and diagnostics instruments of newborn children, infant, early childhood and pre-school age. Users can Textbook students of higher educational institutions but the direction 5110800- pre-school education, masters, candidates.

Taqrizchilar: TTA professori, psixol.f.d. B.M. Umarov
TDPU dotsenti, psixol.f.n. N.S.Joʻraev

Psixologiya fanlari doktori, professor Z.T.Nishanovanning umumiy tahriri ostida.

KIRISH

Sogʻlom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bogʻliq ezgu intilish boʻlgani bois istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustuvor vazifalarimizdan biri boʻlib kelmoqda. Taʼkidlash joizki, istiqlolning birinchi kunlaridan yurtimizda oʻsib kelayotgan yosh avlodni jamiyatning haqiqiy tayanchi va suyanchiga aylantirish masalasiga eʼtibor kuchaytirilgan. Ammo shiddat bilan oʻzgarib borayotgan davrda bu sohadagi ishlarni yaxshilash yoshlarning manfaatlarini taʼminlashga va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani yanada takomillashtirish orqali yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlarni ochib berishni taqazo etmoqda.

Hozirgi davrda respublikamizda bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilayotgan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablaridan kelib chiqqan holda kasb-hunarga yoʻnaltirish sohasida mavjud boʻlgan ilmiy xulosalarni taʼlim islohotlari bosh maqsadidan kelib chiqqan holda qayta koʻrib chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Maktabgacha talim sogʻlom va etuk, shu bilan birga maktabga tayorlangan holda shakllantirish maqsadini koʻzlaydi Maktabgacha talim tizimini takomillashtirish, taʼlim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan toʻgʻri tashkil etilishi, maʼsul shaxslar tomonidan uni nazorat qilishning afzalligini taʼminlash, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiyasi bilan shugʻullanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida “Bolajon” tayanch dasturi “Taʼlim toʻgrisida” gi Qonun, Kadrlar tayorlash Milliy dasturi, Maktabgacha taʼlim Konsepsiyasi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qoʻyadigan Davlat talablari asosida ishlab chiqildi¹.

Taʼlim tizimining boshlangʻich shakli boʻlgan maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari, metodistlari, mudiralari maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini va psixodiagnostikasini chuqur bilishlari lozim.

Darslik mualliflarning 2006 yilda nashr etilgan “Bolalar psixologiyasi va uni oʻqitish metodikasi” nomli oʻquv qoʻllanmasi asosida tayyorlandi. Uning 1-3 boblari Z.Nishanova tomonidan, 4-5 boblari G.Alimova tomonidan, 6 bobi NamDU oʻqituvchisi M.Asranboeva tomonidan, 7 bobi NamDU oʻqituvchisi A.Turgʻunboeva tomonidan tayyorlandi.

¹ Bolajon tayansh dasturi.-T.: Sano-standart .2010 -229 b.

I. BOLALAR PSIXOLOGIYASI O'QUV FANI SIFATIDA

Reja

1. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Fanning asosiy kategoriyalari.
3. Bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Bolalar psixologiyasi: nazariya va amaliyot.

Mavzu maqsadi: Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning asosiy kategoriyalari, boshqa fanlar bilan aloqasini bayon etish.

Vazifalar: Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, fanning asosiy kategoriyalari, boshqa fanlar bilan aloqasini asoslash.

Tayanch tushunchalar: Bolalar psixologiyasi, predmeti, maqsadi, vazifa, kategoriya, bolalik, taraqqiyot, yosh

1. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari

Bolalar psixologiyasi - psixologiya fanining alohida tarmog'i bo'lib, u turli yosh davrlarida bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, shuningdek, bir yosh bosqichidan boshqasiga o'tish qonuniyatlarini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e'tibori tug'ulgandan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongning qanday rivojlanishiga qaratilgan. D.B.Elkonin yozganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, uning qonuniyatlarini bolalar psixologiyasi tadqiq etadi.

Bola rivojlanishining turli tomonlarini har xil fanlar – anatomiya, fiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiena, etnografiya va boshqalar o'rganadi. Tug'ulgandan etuklik davrigacha bola psixik taraqqiyotini o'rganish esa psixologik bilimlarning maxsus sohasi - bolalar psixologiyasining zimmasidadir. Chunki bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlari, rivojlanishning turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlar haqidagi fandır.

L.F. Obuxova ta'kidlaganidek, bolalar psixologiyasi fanining predmeti tarixan o'zgarib borgan. Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, yosh davrlarini, bir yosh davridan boshqasiga o'tish sabablarini aniqlashdan iborat. Agar pediater bolalarning jismoniy

salomatligi bilan shug'ullansa, bolalar psixologi bola psixikasining qanchalik to'g'ri rivojlanayotgani va faoliyat ko'rsatayotganini, bordiyu, bu sohada kamchilik bo'lsa, uni nimaning hisobiga kompensasiyalash mumkinligini o'rganadi.

Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi fani predmetining kengayib borishi kuzatilmogda. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o'rganish natijasida ro'y bermogda.

2. Fanning asosiy kategoriyalari

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy kategoriyalari, ya'ni tushunchalari qatoriga quyidagilar kiradi: "yosh", "bolalik", "taraqqiyot", "o'sish", "determinizm", "geteroxronlik", "tizimlilik". Albatta, fanning kategoriyalari faqat bu tushunchalar bilan cheklanmaydi. Asosiy kategoriyalar jumlasiga bulardan tashqari, "taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati, "yetakchi faoliyat tipi" va boshqa bir qator tushunchalarni kiritish mumkun. Bu tushunchalar psixologiya sohasidagi ilg'or tadqiqotlar natijasida shakillangan va fanga olib kiritilgan. Bolalar psixologiyasi fanini o'rganish ma'lum ma'noda ushbu fanning kategoriyalarini o'zlashtirishdan iborat. Quyida biz bolalar psixologiyasi fanining ayrim asosiy kategoriyalari xususida alohida to'xtalib o'tamiz:

Bolalik – ontogenezninig dastlabki davrlarini belgilash uchun (tug'ilgandan o'smirlikkacha bo'lgan davrni belgilash uchun) qo'llanadigan tushuncha. Yosh davrlarining an'anaviy tasnifiga ko'ra bolalik – go'daklik (tug'ilgandan 1yoshgacha), ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha yosh (3 yoshdan 6-7 yoshgacha) va kichik maktab yoshi (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) davrlarni o'z ichiga oladi. Bolalik – jadal psixik taraqqiyot davridir.


Taraqqiyot – narsa yoki hodisalarning vaqt o'tishi bilan miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi natijasida yuqoriroq darajaga ko'tarilishi. Psixika taraqqiyoti – tug'ilgandan boshlab yosh davrlari o'tishi bilan psixika faoliyatining takomillashishidir. Psixik taraqqiyot bolaning insoniyat tarixi davomida to'plagan bilim va tajribalarni o'zlashtirishi hamda shaxs sifatida shakllanib borishi jarayonidan iborat.

Yosh – individ psixik taraqqiyotning aniq vaqt chegarasiga ega bo'lgan bosqichi. Psixik taraqqiyotning har bir bosqichida individda muayyan fiziologik va psixologik o'zgarishlar kuzatiladi. Odatda psixologiyada xronologik va psixologik yosh ajratiladi. Xronologik yosh inson tug'ilgandan boshlab necha yosh yashaganini ifodalaydi. Psixologik

yosh esa inson psixik rivojlanishi darajasini aks ettirib, ko'pincha aqliy yosh deb ataladi. Aqliy yosh turli yoshdagi odamlar uchun mo'ljallangan maxsus test topshiriqlari orqali aniqlanadi. Aqliy yoshning xronologik yoshga nisbati bola psixik taraqqiyotining o'ziga xos ko'rsatkichi – intellectual rivojlanish koeffitsientini hosil qiladi, bu koeffitsient ingliz tilidan IQ harflari orqali belgilanadi.

3. Bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

Falsafa va bolalar psixologiyasi. Falsafa – tabiat, jamiyat va inson taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan. Falsafa qonunlari boshqa fanlarning, shu jumladan, bolalar psixologiyasi fanining qonunlari bo'lib hisoblanadi. Masalan, falsafa qonunlari orasida dialektika ta'limotining uch qonuni – qarama qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkorni inkor etish qonunlari asosiy o'rinni egallaydi. Bola taraqqiyoti ham qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, ya'ni mavjud ehtiyojlar bilan bolaning real imkoniyatlari o'rtasidagi kurash natijasidir. Falsafa qonunlari bolalar psixologiyasi fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.



Pedagogika va bolalar psixologiyasi. Pedagogika – ta'lim va tarbiya qonunlari, metod va usullari haqidagi fan. U ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarini, ularning shaxs taraqqiyoti va jamiyat hayotidagi o'rnini ochib beradi. Pedagogika va psixologiya fanlarining insonga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi hamkorligi chuqur tarixga ega. O'z davrida mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy pedagogika barkamol shaxs tarbiyasining rejasini ishlab chiqish uchun inson haqidagi barcha fanlarning yutuqlariga tayanishi kerakligi, bu fanlar orasida esa psixologiya markaziy o'rin egallashini ta'kidlagan edi. Bolaga ta'lim va

tarbiya berishga oid vazifalarni hal etishda pedagogika qanday qilib ta'lim- tarbiya berish kerakligini aytsa, psixologiya nima uchun aynan shunday qilish kerakligini aniqlaydi. Masalan, pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va tarbiyasida o'yin usullaridan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. Psixologiya esa buning sababi ushbu yosh davrida o'yin yetakchi faoliyat ekanligini tushuntiradi.

Tibbiyot va bolalar psixologiyasi. Tibbiyot – inson salomatligi va kasalliklari, kasalliklarning oldini olish va ularni davolash, shuningdek, salomatlikni mustahkamlash haqidagi fan. Tibbiyot va psixologiyaning o'zaro hamkorligi natijasida psixosomatika – psixologik omillarning salomatlikka kasalliklar kelib chiqishiga ta'sirini o'rganadi. Bolalarda uchraydigan ko'pgina kasalliklarning manbai psixologik xarakterga egadir. Masalan, tadqiqotlarning ko'rsatishicha bronxial astma bilan og'rigan kasallarning ko'pchligida bolaligidan ota-onalari emotsiyalarni erkin ifodalash, tashabbus ko'rsatish imkoniyatini chegaralaganlar.

Umumiy psixologiya va bolalar psixologiyasi. Umumiy psixologiya – umumiy psixologik qonuniyatlarni, psixologiyaning nazariy tamoyillarini, asosiy kategoriyalarini, metodlarini o'rganuvchi nazariy va eksperimental tadqiqotlardir. Masalan, umumiy psixologiya tafakkur faoliyatining xususiyatlari, tafakkur turlari va operatsiyalari haqida umumiy tasavvurni hosil qiladi. Bolalar psixologiyasi esa turli yosh bosqichlarida tafakkurning qanday xususiyatlar kasb etishini, tafakkurning qanday rivojlanishini o'rganadi. Bunda u, umumiy psixologiyadagi tasavvurlarga tayanadi, uning metodlari va kategoriyalaridan foydalaniladi.

Ijtimoiy psixologiya va bolalar psixologiyasi. Ijtimoiy psixologiya – psixologiya fanining tarmog'i bo'lib, insonlarning ijtimoiy guruhlarga mansubligi bilan taqozolangan, xulq-atvori va faoliyatini, shuningdek, shu ijtimoiy guruhlarning o'zini o'rganish bilan shug'lanadi. Bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyotini o'rganar ekan, albatta, bolalar guruhi, bu guruhda bolalar o'rtasida amalga oshuvchi munosabatlarni e'tibordan chetda qoldirmaydi. Bolalar psixologiyasi, ayniqsa, bolaning tengdoshlari va kattalar bilan bo'lgan muloqoti va uning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yosh psixologiyasi tarkibidagi o'rni.

Bolalar psixologiyasi – yosh psixologiyasi fanining bo'limlaridan biridir. Yosh psixologiyasi, shu jumladan, bolalar psixologiyasining psixologiya fanidagi boshqa tarmoqlaridan farqi shundaki, u psixik

hodisalarning o'zini emas, balki rivojlanishi va yosh bilan bog'liq ravishda o'zgarishini tadqiq etadi.

Yosh psixologiyasining bugungi kundagi eng muhim muammolari quyidagilardan iborat:

a) turli psixofiziologik funksiyalarning yoshga oid me'yorlarini ilmiy jihatdan asoslab berish;

b) individ, shaxsning yetuklik mezonlari va na'munalarini aniqlash;

c) hayotning turli bosqichlarida insonning real va potensial imkoniyatlari qanday bo'lishini aniqlash;

d) inson hayotining dastlabki bosqichlari uning kelgusidagi taraqqiyotida qanday rol o'ynashini tushunish va ilmiy bashorat qilish.

Ushbu muammolarni hal etish uchun inson hayotining har bir bosqichida – bolalikda, o'spirinlikda, yetuklik va qarilikda uning psixikasida o'zgarishlarni chuqur o'rganish talab etiladi.

Ayrim o'rinlarda bolalar psixologiyasiga sinonim sifatida "genetik psixologiya" tushunchasi ishlatilmoqda. Bu holatni to'g'ri deb baholash mumkni emas. Chunki genetik psixologiya psixik jarayonlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasining predmeti esa faqat psixik jarayonlar taraqqiyoti bilangina cheklanib qolmaydi.

4. Bolalar psixologiyasi: nazariya va amaliyot

Psixologiya fani nazariyasi va amaliyoti ajralmas birlikni tashkil etadi. Albatta, ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. O'rtadagi farq ularning maqsadlari, konseptual apparati, metodologiyasi va ular doirasida amalga oshiriladigan chora tadbirlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Fundamental – nazariy tadqiqotlarning asosiy maqsadi amaliyot uchun bo'lgan ahamiyatidan qa'tiy nazar, psixik hodisalar haqidagi bilimlarni kengaytirib borishdan iborat. Amaliy psixologiya esa kundalik hayot bilan bog'liq konkret muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazadi. Fundamental tadqiqotlarda tadqiqotchi shaxsining ta'sirisiz ham ilmiy metod o'z vazifalarini bajaradi. Ammo amaliy psixologiyada psixolog shaxsi metodning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Nazariy izlanishlarda qo'llanayotgan metodlarning ishonchliligi, validligi, reprezentativligi muhim ahamiyat kasb etsa, amaliy psixologiyada bular asosiy rolni o'ynamaydi. Shunga qaramay, bola psixik taraqqiyotiga xos qonuniyatlar va nazariy bilimlarni egallabgina haqiqiy professional mutaxassis psixolog, tarbiyachi bo'lib yetishish mumkin. L.F Obuxova o'rinli ta'kidlaganidek, bolalar

psixologiyasi sohasidagi nazariy vazifalar hal etilgandan keyin ilmiy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlari ham kengayadi.

Shunday qilib, ushbu bobda bolalar psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari, asosiy kategoriyalari, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikr yuritildi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini bayon eting?
2. Fanning asosiy kategoriyalari nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi nimalarda ko'rinadi?
4. Bolalar psixologiyasi: nazariya va amaliyotga misollar keltiring?

Mavzu yuzasidan test savollari?

1. Bolalar psixologiyasi fani nimani o'rganadi?

- *A. Turli yosh davrlarini, bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, bir yosh bosqichidan boshqasiga o'tish qonuniyatlarini
- B. Turli yosh davrlarini;
- C. Bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini;
- D. Bir yosh bosqichidan boshqasiga o'tish qonuniyatlarini.

2. Bolalar psixologiyasi fanining kategoriyalariga qaysilar kiradi

- A. Yosh , bolalik taraqqiyot bir yosh bosqichidan boshqasiga o'tish qonuniyatlarini
- B. Tizimlilik, taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati, yetakchi faoloyat tipi
- *C. Yosh, bolalik taraqqiyoti, o'sish, determinizm, geteroxronlik, tizimlilik, taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati, yetakchi faolcyat tipi
- D O'sish ,determinizm, geteroxronlik, bir yosh, bosqochidan boshqasiga o'tish qonuniyatlarini, bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini

3 Bolalar psixologiyasi fani qaysi fanlar bilan aloqador

- A Qiyosiy pedagogika, falsafa, psixologiya
- B Qiyosiy pedagogika, falsafa, etika, estetika, matematika, mantiq, sotsiologiya
- C Psixologiya, anatomiya, fiziologiya, pedagogika
- *D falsafa, pedagogika, tibbiyot, umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya

4 Odatda psixologiyada yosh ajratiladi.

A fiziologik va psixologik

B anatomik va psixologik

C xronologik va psixologik

*D intellekt va psixologik

5 Taraqqiyot bu -

A Narsa va hodisalarning vaqt o'tishi bilan yuqoriroq darajaga ko'tarilishi

*B Narsa va hodisalarning vaqt o'tishi bilan miqdor jihatdan o'sishi

C Narsa va hodisalarning vaqt o'tishi bilan sifat jihatdan o'sish kattalashuvi

rivojlanish

D Narsa va hodisalarning kattalashuvi

II. BOLALAR PSIXOLOGIYASI FANINING METODLARI

Reja:

1. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari.
2. Bola psixikasini o'rganish prinsiplari.
3. Psixologik tadqiqotni o'tkazish shakllari
4. Bolalar psixologiyasining asosiy va yordamchi metodlari

Maqsad:

Bolalar psixologiyasi fanining metodlari, bola psixikasini o'rganish prinsiplari, psixologik tadqiqotni o'tkazish shakllari, bolalar psixologiyasi asosiy va yordamchi metodlarining mazmun-mohiyatini bayon qilish.

Vazifalar:

Bolalar psixologiyasi fanining metodlari, bola psixikasini o'rganish prinsiplari, psixologik tadqiqotni o'tkazish shakllari, bolalar psixologiyasining asosiy va yordamchi metodlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar:

Metod, prinsip, kuzatish, eksperiment, test, so'rov, proektiv metod

1. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari

Bolalar psixologiyasi fanining taraqqiyoti ikki asosiy yo'nalishda kechadi: psixik taraqqiyot manbalari muammosining nazariy hal etilishi va bolalar psixikasini o'rganishning yanada samaraliroq metodlarini qidirish. Psixik taraqqiyot manbalari muammolari nazariy hal etish deganda, ushbu muammo bilan shug'ulangan asosiy psixologik maktablar va yo'nalishlar vakillarining qarashlari tushuniladi. Bola psixikasini o'rganishning yanada samarali metodlarini qidirish bolalar psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar haqida aniqroq axborot olishga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab chiqishni anglatadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga individual yondoshish uchun ularning individual-psixologik xususiyatlarini, shaxsining o'ziga xosligini bilish, o'rganish zarur. "Agar pedagogika odamni har jihatdan tarbiyalarnoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatdan bilib olishi kerak", - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy.

Shuning uchun har bir tarbiyachi bolalarni o'rganish usullari bilan qurollanishi shart. Demak, bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi asoslarini bilish har bir tarbiyachisi, har bir metodist uchun muhim ahamiyatga ega.

Har bir fanning o'z predmetini o'rganish metodlari bo'lgani kabi, bolalar psixologiyasi ham psixologiya fanining alohida bo'limlari

shifotida o'z tadqiqot metodlariga ega. Bolalar psixologiyasining metodlari faqat nazariy, ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki kundalik, amaliy vazifalarni hal qilish uchun ham zarur.

2. Bola psixikasini o'rganish prinsiplari

Bola psixikasini o'rganishda tadqiqotchi bir qator prinsiplar – qoidalarga tayanishi, ularga rioya etishi lozim bo'ladi. Bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

Ob'ektivlik prinsipi tadqiqotchidan ma'lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslikni talab qiladi. Masalan, mahsg'ulot davomida bola oynadan tashqariga qarayotgan edi deb aytilsa, bu muayyan hodisa haqidagi ma'lumot bo'lib hisoblanadi. Lekin "bola e'tiborsiz" deb aytilish hodisaning talqinidir. Hodisaning o'zi bilan uning talqinini aralashtirib yubormaslik kerak. Chunki yuqoridagi misolda ham bola oynaga qarab turgan bo'lsa ham, tarbiyachi so'zlariga katta e'tibor berayotgan bo'lishi mumkin.

Sababiylik prinsipi bola shaxsi va ongida yangi sifatlarni hosil bo'lishni ta'minlochi barcha shart-sharoit va omillarni imkon qadar o'rganishni talab qiladi. Masalan, mahsg'ulot davomida bola tez-tez oyna tarafga qarayotgan bo'lsa, bu hodisaning iloji boricha ko'proq sabablarini aniqlashga urinish kerak: ko'chadagi biron narsa bola e'tiborini o'ziga tortdimi, mahsg'ulotda bola charchab qoldimi. O'tilayotgan material bolaga yaxshi tanishmi va hokazo.

Sinchkovlik va muntazamlik prinsipi bola psixikasi shakllanishi jarayonini, bunda psixolog va pedagoglar ta'sirini sinchkovlik bilan kuzatib borishni talab qiladi. Ushbu prinsipga muvofiq oldindan:

a) tadqiqot joyi va vaqti aniqlanishi kerak;

b) tadqiqotda o'rganiladigan sinaluvchilar tanlanmasi tuzilishi lozim;

c) tadqiqot qaysi vaqtda va qanday vaqt oraliqlarida o'tkazilishini belgilash zarur. Ushbu bandlar belgilangach, ulardan chetga chiqmaslik kerak, ya'ni qandaydir sub'ektiv sabablar bilan shoshilinch xulosalar chiqarmaslik, tadqiqotni bevaqt tugatish hollariga yo'l qo'ymaslik kerak. Aks holda ob'ektivlik prinsipi buzilgan bo'ladi.

3. Psixologik tadqiqotni o'tkazish shakllari

Bolani o'rganish ikki asosiy shaklda amalga oshiriladi: "ko'ndalangiga kesim" va "uzunasiga kesim" metodi deb nomlanuvchi tadqiqot shakllari amalga oshiriladi.

Tadqiqot ko'ndalangiga kesim shaklida o'tkazilganda turli yoshdagi bolalar guruhlarida muayyan psixologik jarayon, holat yoki xususiyat o'rganiladi va har xil yosh bosqichidagi bolalarning natijalari o'zaro solishtiriladi. Masalan, D.B.Elkonin kichik, o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning syujetli-rolli o'yinlariga xos xususiyatlarni o'rganib, o'zaro solishtirib bolalar o'yinlari taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatni aniqlagan. Ko'ndalangiga kesim shaklidagi tadqiqotda asosiy e'tibor sinaluvchi bolalar yoshidagi farqlarga qaratilishi kerak. Farq qanchalik kichik bo'lsa, psixolog-tadqiqotchi bola psixikasi va shaxsidagi muhim o'zgarishlarni payqash uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi.

Tadqiqot uzunasiga kesim shaklida o'tkazilganda bir yoki bir necha bolaning muayyan vaqt oraligidagi hayoti o'rganiladi. Tadqiqotchi uzluksiz ravishda bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o'tishda bola psixikasida hulq-atvorida ro'y beruvchi o'zgarishlarni aniqlab boradi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasasida yangi dastur bo'yicha ish boshlangan bo'lsa, muassasaga endi qabul qilingan bolalarni 4-5 yil uzluksiz o'rganish orqali dasturning bola taraqqiyotiga ta'sirini aniqlash va u haqida xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Uzunasiga kesim shaklidagi tadqiqot shuningdek, ayrim hollarda longityud tadqiqot ham deb ataladi. Tadqiqotning bu shakli ancha murakkab va ko'p vaqt talav etadi.

4. Bolalar psixologiyasining asosiy va yordamchi metodlari

An'anaviy ravishda tadqiqot metodlari asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi. Asosiy metodlar – kuzatish va eksperiment – bola taraqqiyoti haqida ishonchli ma'lumot bera oladi. Yordamchi metodlar – test, so'rov, faoliyat mahsullarini o'rganish – tasvirlovchi ma'lumot berib, bu ma'lumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkin bo'ladi.

Kuzatish. Kuzatish – psixologik tadqiqotning asosiy empirik metodlaridan biri bo'lib, psixik hodisalarni maqsadga muvofiq va tizimli ravishda idrok etishga asoslangandir. Kuzatish – tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib maxsus tashkil etilgan idrok jarayonidir. Kuzatish quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Kuzatishdan oldin uning maqsadi aniq belgilanishi kerak: bola psixikasi, hulq-atvori va faoliyatining qaysi tomonlari kuzatilishini aniqlashtirish lozim;

2. Kuzatish ob'ektiv bo'lishi kerak: kuzatishda faqat u yoki bu holat, hodisani qayd etish, uni sub'ektiv talqin etishga o'tmaslik lozim;
3. Kuzatish muntazam, katta vaqt oraliqlarisiz o'tkazilishi kerak;
4. Kuzatish shunday o'tkazilishi kerakki, bola uning kuzatilayotganini bilmasligi lozim;

Kuzatishni amalga oshirayotgan tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalarni tez qayd eta olish mahoratiga ega bo'lishi zarur.

Kuzatishning quyidagi turlari mavjud:

- a) ichki kuzatish, tashqi kuzatish va kiritilgan kuzatish;
- b) standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan kuzatish;
- c) frontal va tanlanma kuzatish.

Kuzatish metodining asosiy kamchiligi shundaki, unda kuzatilayotgan hodisalarga faol ta'sir ko'rsatish, ularni o'zgartirish, kuzatish amalga oshirilgan vaziyatni xuddi shunday ko'rinishda qaytadan yaratib bo'lmaslik kabi xususiyatlar qayd etiladi. Shunga qaramay bu metod haligacha asosiy psixologik metodlardan biri bo'lib kelmoqda.

Ekspiriment. Ekspiriment – ilmiy bilishning asosiy metodlaridan biri. Uning kuzatishdan asosiy farqi shundaki, unda tadqiqotchi o'rganilayotgan vaziyatga faol ta'sir ko'rsatadi, bir yoki bir necha o'zgaruvchilar bilan manipulyatsiya amalga oshiradi. Ekspirimentda psixik xususiyatlar maxsus sharoitlarda o'rganiladi.

Ekspirimentning ikki turi ajratiladi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment. Laboratoriya eksperimenti maxsus jihozlangan joylarda, qattiq nazorat ostida amalga oshiriladi. Tabiiy eksperiment esa sinaluvchi eksperiment ob'ekti ekanini bilmaydi. Bu holat laboratoriya eksperimentida vujudga keladigan emotsional zo'riqish, tadqiqot natijalarini o'zgartirib yuborishga intilish kabi sinaluvchiga xos xususiyatlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Masalan, maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasini o'rganish uchun uni alohida xonaga olib chiqib, shu yerda unga bir qator so'zlarni o'qib berib, so'ngra qaytarishni talab qilish mumkin. Ammo mazkur sharoit bola uchun odatiy emas. Shuning uchun bolaning ichki emotsional zo'riqishi (xavotirga tushishi, shubhalana boshlashi va hokazo) unga topshiriqni imkoniyatlari darajasida boshlashi uchun yo'l qo'ymaydi. Demak, eksperimentdan olingan natijalarni haqqoniy deb bo'lmaydi. Bordi-yu, bola bilan o'yin o'ynab, unga xaridor rolini berib aytilgan narsalarni "do'kondan" xarid qilish vazifasi topshirilgan bo'lsa, u olib kelgan narsalariga qarab nimani eslab qolganini, nimani

unutganini aniqlash qiyin emas. Demak, shunday shaklda tabiiy eksperiment natijalari ancha haqqoniy bo'лади.

Ekspirimental tadqiqotni tashkil etish va amalga oshirishda bir qator talablarga rioya etish kerak. Ushbu talablar G.U.Uruntayeva va Yu.A.Afonkina tomonidan tizimlashtirilgan bo'lib, ular quidagilardan iborat:

1. Rejalashtirish bosqichida tadqiqot maqsadini, sinaluvchilar tarkibini aniq belgilash, eksperimentda ishlatiladigan metodikalarni, eksperimentni o'tkazish sharoitini (joy va vaqtini) aniqlashtirish, barcha sharoitlarni oldindan yaratib qo'yish zarur;

2. Eksperimentni o'tkazish jarayonida tadqiqotda ishtirok etayotgan bola bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatini o'rnatish, muloqotga do'stona, iliq ohang baxsh etish, bolani o'z oldiga o'tkazish, bolaning xatolariga ortiqcha e'tibor bermaslik, sinov sur'atlarini bolaning individual-psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarur.

Bola bilan o'tkazilayotgan eksperiment uzoq davom etmasligi, unga eksperiment jarayonida o'zgarishlar kiritmaslik kerak. Odatda eksperimentda tadqiqotchidan tashqari eksperiment bayonnomasini to'ldiruvchi shaxs ham ishtirok etadi.

Ekspirimentning yana ikki turi-aniqlovchi eksperiment va shakllantiruvchi eksperiment ham ajratiladi. Aniqlovchi eksperimentda bola psixik taraqqiyotga xos muayyan xususiyatlar qayd etiladi. Masalan, ota-onalar o'rtasidagi nizolarning bola emotsional holatiga ta'sirini aniqlash mumkin. Buning uchun nizoli oilada voyaga etayotgan bolalarni aniqlash va ularning emotsional sohasini o'rganish hamda olingan natijalarni boshqa bolalarning natijalari bilan solishtirish kerak bo'лади. Natijada shunday hodisa-ota-onalarning o'zaro nizosi va bola emotsional rivojlanishi o'rtasida aloqadorlik mavjudligini ta'kidlaydi.


Shakllantiruvchi eksperimentda sinaluvchiga faol ta'sir ko'rsatilishi oqibatida unda ro'y beradigan o'zgarishlar aniqlanadi. Masalan, ota-ona o'rtasidagi munosabatni yaxshilash bola emotsional sohasiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash mumkin. Buning uchun ota-onasi o'rtasidagi munosabat yaxshilangan bolalar emotsional sohasiga xos xususiyatlar bilan ota-onasi o'rtasidagi munosabat nizoli bo'lib qolayotgan bolalar emotsional xususiyatlarini o'zaro solishtirish yoki bolaning avvalgi emotsional xususiyatlari bilan keyingilarini o'zaro qiyoslash mumkin.

Shuningdek, ayrim o'rinlarda nazorat eksperimenti ham ajratiladi. Bu eksperiment ko'p jihatdan aniqlovchi eksperimentga o'xshab ketadi. Uni o'tkazishda ko'zlangan maqsad faol ta'sir ko'rsatilgan guruhdagi

o'zgarishlarda aynan ta'sirning roli qanday bo'lganini aniqlashdan iborat. Buning uchun faol ta'sir ko'rsatilgan guruh bilan hech qanday ta'sir ko'rsatilmagan nazorat guruhining natijalari o'zaro solishtiriladi. Agar o'rtadagi farq ancha sezilarli bo'lsa, demak, birinchi guruhdagi o'zgarishlarga aynan o'tkazilgan ta'sir sabab bo'lgan degan xulosaga kelinadi.

So'rov. So'rov – tadqiqotchi va respondentning bevosita yoki bilvosita o'zaro aloqasi davomida birlamchi verbal axborot yig'ishga yo'naltirilgan metod. So'rov anketa yoki intervyu shaklida o'tkazilishi mumkin. Anketa yordamida so'rov o'tkazilganda sinaluvchi yozma savollarga, intervyuda esa og'zaki savollarga javob qaytaradi.

So'rov quyidagi bosqichlarga ega bo'ladi:



1. “Epigraf”. Bunda sinaluvchining fikrlari muayyan yo'nalishga solinadi, sinaluvchilar savollarga javob berishga undaladi.

2. “Ko'rsatma”. Bunda sinaluvchiga so'rov jarayonida savollarga qanday javob qaytarish, undan olingan ma'lumotlar nima maqsadda ishlatilishi haqida ma'lumot beriladi.

3. “So'rovga moslashish”. Bunda sinaluvchi savollarga javob berishga yo'naltiriladi, unda o'ziga nisbatan ishonch hosil qilinadi, u bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabat o'rnatiladi, unda savollarga har qanday javob qaytarish mumkin, degan taassurot hosil qilinadi. Buning uchun so'rovda dastlab emotsional-neytral, oson, umumiy savollar beriladi.

4. “Maqsadga erishish”. Bunda zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Buning uchun ushbu bosqichda tadqiqotchi uchun ham, sinaluvchi uchun ham muhim bo'lgan savollar beriladi.

5. “Zo'riqishni bartaraf etish”. Bunda so'rovdagi masalalar va savollar xususida, butun so'rov jarayoni haqida yig'ilgan hissiyotlar bartaraf etiladi. Buning uchun so'rov so'ngida nisbatan oson, ijobiy

emotsional savollar berilishi, masalan, sinaluvchining ijtimoiy demografik xususiyatlari haqidagi savollar berilishi mumkin.

Sinaluvchiga beriladigan savollar bir-birdan alohida va ajralgan emas. Ular yaxlit bir zanjirning halqalaridir. So'rovdagi bir savol keyingisi bilan bog'liq holda idrok etiladi. Shu tufayli quyidagi holatlarga so'rov jarayonida alohida e'tibor berish lozim:

1. Bir savol va unga beriladigan javob keyingi savollarga beriladigan javoblarga ta'sir o'tkazmasligi kerak.

2. Muayyan savoldan keyingi savol umuman boshqa mavzularga o'tib ketgan bo'lmashligi, bir savoldan boshqasiga o'tishda mavzu keskin o'zgartirilmasligi lozim.


3. Savollarning tashqi ifodalanishi sinaluvchilarni u bilan ishlashga jalb eta olishi kerak (simmetrik to'g'ri bo'lishi, yozuv yoki og'zaki murojaat orqali beriladigan savollar chiroyli va tushunarli bo'lishi zarur).

4. Sinaluvchilarning individual xususiyatlari va so'rovning uzunligi bir-biriga mos bo'lishi (masalan, ota-onalar bilan so'rov o'tkazishda 5-6 savoldan iborat kichik anketalardan foydalanish) zarur.

5. So'rov so'ngida sinaluvchiga nisbatan minnatdorchilik va tashakkur izhor etilishi – "Javoblaringiz uchun tashakkuq", "Yordaringiz uchun rahmat" kabi ifodalarning keltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Proyektiv metodlar. Proektiv metod – shaxsni o'rganishning metodlaridan biri. Unda shunday eksperimental vaziyatlar yaratiladiki, bu vaziyatlar sinaluvchilar tomonidan talqin etilishi mumkin bo'ladi. Aynan sinaluvchining bergan talqinini tahlil etish orqali uning shaxsi haqida muayyan xulosalar chiqariladi. Chunki muayyan eksperimental vaziyatni talqin etar ekan proeksiya mexanizmi tufayli sinaluvchi o'z ichki kechinmalari, o'y xayollari, orzulari, qo'rquv va xavotirlarini tashqariga chiqaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaganda qo'llaniladigan odatdagi proyektiv metodikalar quyidagilardan iborat: "Bola appersepsiya testi", "Jeksonning oilaviy ustanovkalar testi", "Dyuss ertaklari metodikasi" va hokazolar. Ushbu metodikalarni qo'llash asosan individual ish jarayonida amalga oshirilib, ancha ko'p vaqt talab etadi. Proektiv metod bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalarini talqin etishda tadqiqotchidan katta mahorat talab qilinadi.

Faoliyat mahsulini o'rganish metodi. Faoliyat mahsulini o'rganish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni o'rganish haqida gap ketganda, birinchi navbatda, bolalarning tasviriy faoliyati mahsullarini tahlil qilish nazarda tutiladi.



Shu tufayli tasviriy faoliyat mahsullarini o'rganishga asoslangan metodlar o'z nomi bilan grafik metodlar deb ataladi. Grafik metodlar o'z ichiga rasm chizish metodikalari – "Odamni chizgin", "Avtoportret", "Erkin mavzudagi rasm", "Dunyo rasmi", "Oila rasmi", "Oilaning kinetik rasmi", "Uy, daraxt. odam" – "Geometrik shakllardan odam rasmini yig'ish", "Daraxt" grafik testi, "Grafik diktant" va boshqalarni oladi. Yuqorida tilga olingan metodik vositalar adabiyotlarda batafsil tahlil etilgan.

Test. Test metodida muayyan standart topshiriq va vaziyatlar (testlar) qo'llaniladi.

Ushbu metod bir qator ustun tomonlarga ega: tadqiqotni sinaluvchilarning katta guruhi bilan o'tkazish mumkin; natijalarni hisoblash va qayta ishlash ancha yengil va sodda. Metodning asosiy kamchiligi shundaki, u bolaning kelajakdagi rivojlanishi haqida ma'lumot berolmaydi.

Psixologiya fanida hozirda maktabgacha yoshdagi bola shaxsiga xos xususiyatlar, uning emotsional-irodaviy sohasiga xos sifatlar, motivatsion sohasiga tegishli xususiyatlar, individual-tipologik xususiyatlari, bolaning bilish jarayonlariga xos xususiyatlarni aniqlaydigan maxsus testlarning to'plamlari mavjud.

Talabalarning mavzuni qanchalik o'zlashtirganliklarini va mustaqil fikrlarini bilish uchun T-chizma grafik organayzeridan foydalanish mumkin.

T-chizma grafik organayzerlari

1)

Anketa metodining afzalliklari	Anketa metodining kamchiliklari

2)

Test metodining afzalliklari	Test metodining kamchiliklari

3)

Faoliyat mahsulini o'rganish metodining afzalliklari	Faoliyat mahsulini o'rganish metodining kamchiliklari

4)

Proektiv metodikalarning afzalliklari	Proektiv metodikalarning kamchiliklari

5)

Sotsiometriya metodining afzalliklari	Sotsiometriya metodining kamchiliklari

Shunday qilib, ushbu bobda bolalar psixologiyasi fanining asosiy va yordamchi metodlari, bola psixikasini o'rganish prinsiplari, psixologik tadqiqotni o'tkazish shakllari haqida talabalarga ma'lumot berildi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari mohiyatini ochib bering?
2. Bola psixikasini o'rganish prinsiplarining mazmunini so'zlab bering? .
3. Psixologik tadqiqotni o'tkazish shakllari qanday?
4. Bolalar psixologiyasining asosiy va yordamchi metodlariga nimalar kiradi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Bolalar psixologiyasining asosiy metodlariga qaysilar kiradi?

- *A. kuzatish, eksperiment,
- B. test, anketa, faoliyat mahsulini o'rganish
- C. genetik metod, donalash metodi, introspeksiya
- D. introspeksiya, sub'yektivlik

2. Bola psixikasini o'rganish prinsiplariga qaysilar kiradi?

- A. ob'yektivlik, sub'yektivlik, sababiylik va determinizm prinsipi
- *B. ob'yektivlik, sababiylik, sinchkovlik va muntazamlik prinsipi
- C. ob'yektivlik, sababiylik, sinchkovlik va faoliyat prinsipi
- D. sub'yektivlik va ob'yektivlik, tashabuskorlik va rohatlanish prinsipi

3. Eksperiment metodining qanday turlari bor?

- A. tabiiy va sun'iy
- B. aniqlovchi va shakllantiruvchi

*C. laboratoriya va tabiiy

D. ilmiy va amaliy, standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlanganda qo'llaniladigan odatdagi projektiv metodikalarga qaysilar kiradi?

A. "Dunyo surati", "Oilaning kinetik surati", "Uy daraxt odam"

B. "Odamni chizgin", "Avtoportet", "Oila rasmi", "Tugallanmagan gaplar", "Rorshax siyox dog'lari

C. Oilaning kinetik surati", "Odamni chizgin", "Bola appersepsiya testi",

*D. "Bola appersepsiya testi", "Oilaviy ustanovkalarining Jekson testi", "Dyuss ertaklar metodikasi"

5. Kuzatish metodining qanday turlari mavjud?

*A. ichki, tashqi va kiritilgan kuzatish, standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan

B. frontal va tanlanma

C. standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan

D. qo'shilib kuzatish, dala sharoitida kuzatish, uxlab kuzatish, begonalarni

kuzatish, sog'lom bolalarni kuzatish

III. BOLALAR PSIXOLOGIYASI MUAMMOLARINING O'RGANILISHI

Reja

- 1.L.S.Vigotskiyning madaniy tarixiy konsepsiyasi.
- 2.A.N.Leont'evning faoliyat nazariyasi.
- 3.V.N.Myasishchevning munosabatlar psixologiyasida bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarining yoritilishi.

Maqsad: bolalar psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarda metodologik asos bo'ladigan konsepsiyalar, nazariyalar bilan tanishish.

Vazifalar: L.S.Vigotskiyning madaniy tarixiy konsepsiyasi, A.N.Leont'evning faoliyat nazariyasi, V.N.Myasishchevning munosabatlar psixologiyasida bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarining yoritilishini bayon qilish.

Tayanch tushunchalar: madaniy tarixiy konsepsiya, faoliyat nazariyasi, munosabatlar psixologiyasi.

1. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi

L.S. Vigotskiy (1896-1934) eng mashhur rus psixologi va faylasuflaridan biridir. Olim o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab g'oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L.S. Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi turadi. L.S. Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar, ya'ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo'lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko'rsatdi. Aynan L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qildi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, muhit oily psixik funksiyalarning taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi ro'li yosh o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq atvorning tug'ma shakllari mavjud bo'lmaydi. Odamning psixik taraqqiyoti faoliyatning tarixan shakllangan turlari va usullarini o'zlashtirish orqali kechadi. Miyaning morfofizologik xususiyatlari va muloqot bola taraqqiyoti uchun sharoit sifatida xizmat qiladi. Taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ta'limdir.

L.S.Obuxovaning fikricha, L.S.Vigotskiyning katta xizmati shundaki, u bolalar psixologiyasi faniga tarixiylik tamoyilini kiritgan. Ushbu tamoyilga ko'ra, psixik hodisalar harakatdagi narsa sifatida o'rganilishi lozim.

Madaniy-tarixiy konsepsiya – L.S. Vigotskiy tomonidan XX asrning 20-30 yillarida ishlab chiqilgan inson psixik taraqqiyoti haqidagi nazariyadir. Konsepsiyaning asosiy mazmuni quyidagilardan tashkil topgan: mehnat qurolarini ishlatishi tufayli odam tabiatdan ajralib chiqqan. Tabiatga ishlov berish uchun odam ushbu qurollardan foydalansa, o'z psixikasiga ta'sir ko'rsatish uchun u psixologik qurollarni qo'llaydi. Psixologik qurollar belgilardan iboratdir. Ushbu qurollar ixtiyoriy psixik funksiyalar – ixtiyoriy diqqat va xotira, mantiqiy fikrlash, irodaviy harakatlar va hokazolarning asosini tashkil etadi. Ixtiyorsiz psixik funksiyalarni L.S.Vigotskiy natural yoki tuban funksiyalar, deb atagan, ixtiyoriy psixik funksiyalar ijtimoiy kelib chiqishga ega, belgilar bilan vositalangan, odam tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan funksiyalardir. Ushu funksiyalar avval boshqa odamlar bilan hamkorlik shakli sifatida paydo bo'ladi, so'ngra individuallashtirib boradi. Psixologik qurol – belgilarni egallash interiorizatsiya jarayonida amalga oshadi. Interiorizatsiya tufayli interpsixologik munosabatlar intrapsixologik turdagi munosabatlarga aylanib boradi. Bu jarayon katta odamning tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan madaniy belgilar – vositalar yordamida ta'sir ko'rsatishi bilan boshlanadi. Keyinchalik bola atrof olamga (o'yinchoqlarga, hayvonlarga, bolalarga, kattalarga) ushbu belgilar bilan ta'sir ko'rsata boshlaydi. Shundan keyingina, unda o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish qobiliyati shakllanadi. Bolaning quloqsizlik qilishi yoki o'quv faoliyatida orqada qolishi psixologik qurollarni o'zlashtirmaganlik natijasidir. Masalan, bola kiyim kiyishda ketma-ketlikni buzish xotirasining zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan psixologik qurollarni egallamaganligi tufaylidir. Shunday qurol sifatida, bolaga kiyimlarni to'g'ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar taqdim etilishi mumkin.

Madaniy-tarixiy konsepsiyaning muhim g'oyalariidan biri rivojlanishning eng yaqin zonasi haqidagi nazariy qarashdan iborat. Rivojlanishning eng yaqin zonasi – bola rivojlanishining ayni vaqtdagi darajasi bilan kelajakda erishish mumkin bo'lgan taxminiy darajasi o'rtasidagi vaqtinchalik masofadan iborat. Bu zonaga yetilmagan, ammo yetilish jarayonida bo'lgan funksiyalar kiradi. Bolaning aktual

rivojlanish darajasi uning bugungi kundagi taraqqiyot darajasini, bola rivojlanishining eng yaqin zonasi ertangi kunda bola o'z taraqqiyotida erishishi mumkin bo'lgan taraqqiyot darajasini ifodalaydi. Rivojlanishning eng yaqin zonasini bola katta odam yordami bilan bajara oladigan vazifalar darajasi belgilaydi. Agar bola o'zi uchun qiyin bo'lgan vazifani katta odam yordami bilan bajara olsa, bu vazifa bola rivojlanishining eng yaqin zonasida joylashgan bo'ladi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi ta'limdir. Ta'lim psixik taraqqiyotni o'z ortidan tortadi va uni tezlashtiradi. U kutilgan natijani berishi uchun taraqqiyotdan oldin bo'lishi, ya'ni rivojlanishning eng yaqin zonasiga mo'ljall olishi lozim.

L.S.Vigotskiy o'z konsepsiyasida bola psixik taraqqiyotining 4 asosiy qonunini ta'riflab berdi. Bu qonunlar quyidagilardan iborat:

1. Bola taraqqiyot ritmlarining farqlanish qonuni. Bu qonunga ko'ra bolaning rivojlanishi o'z sur'atlariga ega, bu sur'atlar vaqt ritmiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun chaqaloqlikdagi hayotning 1 yili o'smirlikdagi 1 yilga teng bo'lmaydi;

2. Bola taraqqiyotidagi metamorfoza qonuni. Bu qonunga ko'ra, rivojlanish sifat o'zgarishlarning zarjiridan iborat. Bola kamroq biladigan, qo'lidan kamroq narsa keladigan odam emas, balki psixikasi sifat jihatdan kattalar psixikasidan farqlanuvchi mavjudotdir;

3. Bola taraqqiyotining notekislik qonuni. Bu qonunga ko'ra, bola psixikasining har bir tomoni o'z taraqqiyotining optimal davriga ega bo'ladi, har xil psixik funksiyalar notekis, noproportional rivojlanadi;

4. Oliy psixik funksiyalarning shakllanish qonuni. Bu qonunga ko'ra, har qanday oliy psixik funksiya avval bolaning atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi, keyinchalik u individual sohaga ko'chadi. Shuningdek, L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola taraqqiyotida barqaror davrlar inqirozli davrlar bilan almashadi. Inqirozlar ikki yosh davri tutashgan joyda, bola psixikasi va xulq-atvoridagi eski xususiyatlarning yo'qolib, yangilari shakllanishi davrida ro'y beradi.

Demak, L.S.Vigotskiy psixologiyada madaniy-tarixiy yondoshuvga asos solgan. Mazkur yondashuv bolalar psixologiyasidagi nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda ham katta ahamiyatga egadir.

2. A.N.Leont'evning faoliyat nazariyasi

A.N.Leont'ev (1903-1979) – mashhur rus psixologi, faoliyat nazariyasining asoschilaridan biri. Faoliyat nazariyasi ong va faoliyat birligi tamoili bilan bog'liq. Ushbu nazariyaga ko'ra, faoliyat sub'ektning predmetli olam bilan bo'lgan ta'sirlashishi jarayoni bo'lib, bu jarayon unga o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun imkoniyat beradi. Faoliyat – bu faol, maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Predmetlilik faoliyat bilan bog'liq. Ehtiyoj-individidan tashqarida bo'lgan, ammo individ normal hayot kechirishi, shaxsning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan narsalarga nisbatan zaruratni his etish holati. Motiv-ehtiyojning namoyon bo'lish shakli, insonni faoliyatga undaydigan sabab, yani faoliyatning nima uchun amalga oshirilayotganligidir. U yoki bu motiv insonni muayyan maqsadni qoyishga undaydi. Maqsad-faoliyatning kutilayotgan natijasi. Faoliyat quyidagi darajalarga ega bo'ladi.

1. Maxsus faoliyat turlari darajasi.
2. Harakatlar darajasi.
3. Operatsiyalar darajasi.
4. Psixofiziologik funksiyalar darajasi.

Har qanday faoliyat ma'lum harakatlar ketma-ketligi shaklida amalga oshadi. Harakat-ongli maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan faollik, faoliyatning asosiy tarkibiy birligidir. U sharoitga bog'liq ravishda turli usullar bilan amalga oshiriladi. Harakatni amalga oshirish usullari operatsiyalar deb ataladi. Operatsiyalar - avtomatlashgan, odatda anglanmaydigan harakatlardir. Faoliyat o'z motivini yo'qotish va harakatga aylanishi, harakat esa maqsadi o'zgarishi bilan operatsiyaga aylanishi mumkin. Muayyan sharoitda harakatdan ko'zlangan maqsad butun faoliyat maqsadidan muhimroq ahamiyat kasb etishi va natijada maqsad motivga aylanib qolishi kuzatiladi.

Faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan faoliyat inson ongi shakllanishining sharti va omili, ong faolligining shaklidir. A.N. Leont'ev o'z izlanishlarida faoliyatning bola taraqqiyotiga ta'siri muammosini ham chuqur o'rgangan. Tadqiqot natijasida faoliyat nazariyasi doirasida “yetakchi faoliyat” tushunchasi shakllandi. Yetakchi faoliyat deganda taraqqiotning muayyan davrida bola shaxsidagi asosiy psixologik o'zgarishlarga sabab bo'luvchi faoliyat tushuniladi. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat o'yin faoliyatidir. Bir yosh davridan ikkinchisiga o'tishda yetakchi faoliyat turi o'zgaradi, bunda bola faoliyatida maqsadning motivga aylanishi, A.N.Leont'ev ta'biri bilan aytganda “motivning maqsadga ko'chishi” kuzatiladi. Yangi

faoliyat turi yangi motivlar paydo bo'lgach, vujudga keladi. A.N. Leont'ev fikricha, shaxs ikki marta tug'uladi, shaxsning birinchi tug'ulishi maktabgacha yosh davriga to'g'ri keladi. Bu hodisa insonning o'z impulsiv xatti-harakatlarini ijtimoiy me'yorlarga bo'ysundirishga ilk bora urinishi, motivlar o'rtasida ierarxik munosabatlarning tarkib topa boshlashi bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning ikkinchi tug'ulishi o'smirlilik davrida yuz beradi. Bu hodisa insonning o'z motivlarini va intilishlarini anglashi va ularni bo'ysundishi bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, A.N. Leont'evning ilmiy qarashlari jahon psixologiya fani taraqqiyotida ulkan hissa bo'lib qo'shildi, ular bolalar psixologiyasi sohasida ko'plab nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun ham zamin bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

3. V.N.Myasishchevning munosabatlar psixologiyasida bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarining yoritilishi

V.N. Myasishchev (1892-1973) rus psixologi, shaxs munosabatlar konsepsiyasining ijodkori. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, shaxsning asosini uning atrof olamga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimi tashkil etadi. Munosabatlar tizimi inson ongiga atrof voqelikning aks ettirilishi natijasida paydo bo'ladi, uning o'zi ham voqelikni aks ettirilishining shakllaridan biridir. V.N. Myasishchev insonning rivojlanishida faoliyatning rolini kamsitmaganda odamlar o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordamni talab qiluvchi munosabatlar tarkib topmagan taqdirda faoliyatning o'zi asosiy psixik sifatlarning shakllanishida neytral jarayon bo'lib qolishi mumkin, degan xulosaga keladi. Psixologlar o'rtasida baxs-munozaralar natijasida shu malum bo'ldiki, hatto, munosabat ko'p jihatdan harakatga teskaridir. Birinchidan, munosabat maqsadga ega bo'lmaydi va u ixtiyoriy bo'lishi mumkin emas. Ikkinchidan, munosabat jarayon emas, u fazo va vaqtda chegaralanmagan. Uchinchidan, munosabat maxsus tashqi madaniy vositalar bilan amalga oshirilmaydi, u umumlashma shaklda o'zlashtirilishi mumkin emas. Munosabat har doim individualdir. Biroq munosabat harakat bilan chambarchas bog'liq. U harakatni keltirib chiqaradi, o'zi ham harakat davomida shakllanishi va o'zgarishi mumkin. Munosabat harakat manbai ham, natijasi ham bo'lishi mumkin, ammo bo'lmasli ham mumkin. Chunki munosabat har doim ham tashqi faollikda namoyon bo'lmaydi. Qolaversa, inson ayni damda yoki umuman mavjud bo'lmagan faqat uning o'z ongida mavjud narsalar ham

qandaydir munosabatda bo'lishi mumkin. V.N.Myasishchevning ta'kidlashicha, munosabat sub'ekt va ob'ekt mavjud bo'lgan joyda vujudga keladi. Odamning psixologik munosabatlari uning ob'ektiv voqelik bilan bo'lgan ongli aloqalarni ifodalaydi. V.N.Myasishchev mazkur voqelikning 3 kategoryasini ajratib ko'rsatdi: 1) tabiat hodisalari va narsa buyumlar olami; 2) odamlar va ijtimoiy hodisalar; 3) sub'ektning o'zi. Tabiatni idrok etish ko'p jihatdan ijtimoiy tajriba ta'siriga to'be bo'ladi., odamning o'ziga bo'lgan munosabati uning boshqalarga bo'lgan munosabati va boshqalarning unga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shu sababli psixologik munosabatlar tizimida V.N.Myasishchev odamning boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlari birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. V.N.Myasishchevning ta'kidlashicha, odamning atrof voqelikka bo'lgan munosabatining turlariga ehtiyojlar, emotsiyalar, qiziqish va e'tiqod kiradi.

V.N.Myasishchev o'z ilmiy qarashlarida munosabatning bilish jarayonlari bilan bo'lgan aloqasini yoritib berishga uringan. Idrok voqelikni hissiy aks ettirish shaklidir. Idrokning mustahkamligi faol ijobiy munosabatni talab qiladi, ob'ektga nisbatan befarq munosabat hukmron bo'lgan sharoitda idrok jarayoni ham beqaror bo'ladi. Idrokning tanlovchanligi ham turli ob'ektlarga nisbatan inson turlicha munosabatda bo'lishi bilan bog'liqdir. Biron ma'lumotni mustahkam eslab qolish ham unga bo'lgan qiziqish va emotsional munosabatga bog'liqligi ko'plab tajribalarda o'z tasdig'ini topgan. Tafakkur voqelikni bilvosita aks ettiradi, ammo tafakkurning mantiqiy shakli bo'lgan hukmlarda ham shaxsiy munosabat ifodalanadi. Shu tufayli aynan bir hodisa haqidagi har xil insonlarning hukmlari bir-biridan farqlanishi mumkin.

Insonning rivojlanishi masalasini ham V.N.Myasishchev munosabatlarning shakllanishi bilan chambarchas bog'laydi. Kuzatishlar va tabiiy eksperimentlarning ko'rsatishicha, shatsiz reflektor reaktivlik paydo bo'ladi. Ikki yoshdayoq hali unchalik beqaror bo'lmasa-da, bolada uning muayyan narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi "xohlayman-xohlamayman", "kerak-kerak emas", "qiziq-qiziq emas" kabi so'zlar jo'rligida amalga oshiriladigan reaksiyalarni kuzatish mumkin. Eng muhimi, bola reaksiyasining mazmuni ishlatayotgan so'zlarning mazmuni bilan hamohangdir. Ikki-uch yoshdan boshlab bolalar ancha aniq namoyon bo'luvchi tanlovchan munosabatlarni namoyon etadilar. Bu munosabatlar orasida ota-onasiga, bolalarga,

tarbiyachilarga, o'yinlarga bo'lgan munosabat, ayniqsa, yorqin namoyon bo'ladi. Munosabatlarning ayrim xususiyatlari bu yoshdayoq xarakterning sifatlari – mustaqillik, tashabbuskorlik, muloqotchanlik va boshqalarda namoyon bo'ladi. Ushbu yosh davrida munosabatlar vaziyat bilan bog'liqligi va tez o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Munosabatlarning xarakteri va rivojlanish darajasi mazkur yosh davrida bolaning voqelik bilan bo'lgan munosabatlari yanada murakkablashadi va turli-tuman bo'la boshlaydi. Munosabatlar tizimida yangilik – oiladan tashqari majburiyatlar va majburiy o'quv faoliyatining paydo bo'lishi yuz beradi. Bu davrda munosabatlar tizimi ob'ektiv zarurat talablari bilan belgilanadi. Shu tariqa nazariy qarashlariga ko'ra V.N.Myasishchev insonning psixik rivojlanishi uning atrof voqelik va eng avvalo boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlari tizimining murakkablashib, kengayib borishiga bog'liq bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Shunday qilib, rus psixologlari – L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, V.N.Myasishchev ilmiy qarashlarining qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu olimlarning izlanishlarida inson psixik taraqqiyoti masalasi markaziy o'rin egallagan. Har bir olim o'z ilmiy yondashuviga ega bo'lgan bo'lsa-da, ularning barchasini psixik taraqqiyotining manbalari va qonuniyatlari bilan bog'liq muammolar qiziqtirgan. Rus psixologlarining ushbu muammolarni o'rganish sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari psixologiya fanining, shu jumladan, bolalar psixologiyasining taraqqiyoti uchun xizmat qildi va qilib kelmoqda.

Toifalash jadvali

Toifalar		
L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi	A.N.Leont'evning faoliyat nazariyasi	V.N. Myasishchevning munosabatlar psixologiyasi

FSMU

F	Muloqot ehtiyojini qondirilishi shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi
S	
M	
U	

Shunday qilib, ushbu bobda bolalar psixologiyasi borasida olib boriladigan psixologik tadqiqotlarga metodologik asos bo'ladigan, L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi, A.N.Leont'evning faoliyat nazariyasi hamda V.N.Myasishchevning munosabatlar psixologiyasi nazariyalariga to'xtalib o'tdik.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

- 1.L.S.Vigotskiyning madaniy tarixiy konsepsiyasining mohiyati nimadan iborat? .
- 2.A.N.Leont'evni faoliyat nazariyasining mazmunini asoslang?.
3. A.N.Leont'evning bolalar psixologiyasi faniga qo'shgan hissi ni nimadan iborat?
- 4.V.N.Myasishchevning munosabatlar psixologiyasida bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarining yoritilishini izohlang?.

Mavzu yuzasidan test savollari?

1. Oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonunni kim yaratgan?

- A. L.F.Obuxova
- B. D.B.Elkonin
- *C. L.S. Vigotskiy
- D. K.D.Ushinskiy

2. Qaysi olim bolalar psixologiyasi faniga tarixiylik tamoyilini kirgizgan?

- A. S. L. Rubinshteyn
- *B. L.S. Vigotskiy
- C. N. M. Andreeva
- D. I. V Dubrovina

3. Madaniy tarixiy konsepsiya kim tomonidan va qachon ishlab chiqilgan

- A. L.S. Vigotskiy XX asrning 40-50 yillarida
- B L.F.Obuxova XX asrning 80-90 yillarida
- *C. L.S. Vigotskiy XX asrning 20-30 yillarida
- D. D.B.Elkonin XX asrning 20-30 yillarida

4. Qaysi qatorda faoliyat nazariyasining asoschisi to'g'ri ko'rsatilgan

- A. S. L. Rubinshteyn

- *B. A. N. Leontev
- C . N. M. Andreeva
- D. I. V. Dubrovina

5. Faoliyat nazariyasi qaysi tamoyilga asoslangan?

- A. shaxsga yonaltirilgan didaktika tamoyili, determinizm tamoyili
- B. tarixiylik tamoyili, determinizm tamoyili
- C. tarixiylik tamoyili, determinizm tamoyili
- *D.Ong va faoliyat birligi tamoyili, determinizm tamoyili

IV. CHAQALOQLIK VA GO'DAKLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Chaqaloqlik davrida jismoniy rivojlanish.
2. Chaqaloqlik davrida psixologik rivojlanish xususiyatlari sensor va perseptiv hamda kognitiv rivojlanish predmetlar bilan o'ynash his-tuyg'uning o'sishi yoki jonlanishi kompleksi
3. Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari.
4. Go'dak va muloqot, go'daklik davrida nutqning vujudga kelishi, kognitiv va perseptiv jarayonlarni rivojlanishi uchun shart-sharoitlar.
5. Go'daklik davrining diagnostikasini o'ziga xosligi

Maqsad: Shaqaloqlik va go'daklik davrining psixologik xususiyatlarini bayon qilish.

Vazifalar: Chaqaloqlik va go'daklik davrining psixologik xususiyatlari, sensor va perseptiv hamda kognitiv rivojlanishning o'ziga xosligini yoritish.

Tayanch tushunchalar: chaqaloq, go'dak, sensor, perseptiv, kognitiv rivojlanish

1. Chaqaloqlik davrida jismoniy rivojlanish

Bolaning ona qornida paydo bo'lgandan tug'ilgunga qadar bo'ladigan o'zgarishlar homilaning prenatal ichki rivojlanishini tashkil etadi. Har bir davr ona qornida bo'lajak farzandning rivojlanish bosqichiga tegishli atama bilan nomlanadi. Ona qornida rivojlanish o'rtacha 38 hafta davom etadi va 3 bosqichga, ya'ni zigota bosqichi, embrion bosqichi va homila bosqichiga bo'linadi.

Zigota bosqichi (1-2 haftalik)

Birinchi haftaning oxiriga kelib, zigota onaning qon tomirlari bilan birlashadi, bu hodisa implantatsiya deb ataladi. Implantatsiya jarayonining tugallanishi uchun ikki hafta kerak bo'ladi, shundan so'ng garmonal o'zgarishlar boshlanadi, bu hayz ko'rishning vaqtinchalik to'xtashiga olib keladi, ayol kishiga bu belgi uning homiladorligidan darak beradi. Zigotaning aylana o'lchamlari 1 mmdan kamroq bo'ladi, uning hujayralari bo'linishni boshlaydi.

Homila tanasi murtak diski hujayralaridan rivojlanadi, bu bosqichda murtak diski zigota markazida joylashgan hujayralar to'plami ko'rinishida bo'ladi. Boshqa hujayralar rivojlanayotgan organizmni himoya qiluvchi va oziqlantiruvchi asosli to'qimalarni hosil qilishi

zarur. Implantatsiya va hujayralarning ajralib hosil bo'lishi zigota bosqichining tugallanishi belgilari bo'lib hisoblanadi. Zigota 36 hafta davomida murtakdan bola tug'ilishigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishga tayyor holga keladi.


Embrion bosqichi (3-8 hafta)

Bu ona qornida rivojlanishning yangi embrional davri odatda murtak hosil bo'lgandan keyin uchinchi haftadan boshlanib, sakkizinchi haftaning oxirigacha davom etadi. Bu vaqt davomida tana tuzilishi va ichki organlar rivojlanadi. Davr boshida embrionda uch qavat hujayralar tiklanadi. Tashqi qavatda - ektodermadon sochlar, terining tashqi qavati va nerv tizimi rivojlanadi. O'rta qavatda - mezodermadon, muskullar, suyaklar va qon tomirlari tizimi hosil bo'ladi. Ichki qavatda yoki endodermadon ovqat hazm qilish tizimi va o'pkalar rivojlanadi. Uch haftalik embrion bilan sakkiz haftalik embrion solishtirilganda uning ko'rinishida sezilarli o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. 3 haftalik embrion uzunligi 2 millimetrdan oshmaydi. Hujayralarning darajalarga bo'linishi boshlanib, organizm ko'proq salamandrani eslatadi. O'sish va rivojlanish tezlik bilan amalga oshadi, 8 haftalik embrionda ko'zlar, og'iz, qo'l va oyoqlarni ko'rish mumkin, miya va nerv tizimi ham juda tez rivojlanadi, embrion yuragi bir oy avval o'z faoliyatini boshlab yuborgan bo'ladi. Embrionda odamga xos organlar u yoki bu shaklda mavjud bo'ladi, lekin uning o'lchamlari onaga sezilarli daraja bo'lmaydi.

Embrionga amnion suyuqligi bilan to'lgan amnion qobig'i joylashadi. Amnion qobig'i embrionni himoya qilib, doimiy haroratini ta'minlab turadi. Embrion ona bilan ikki tizimcha orqali bog'langan. Kindik tizimchasi embrionni yo'ldosh bilan bog'lovchi qon tomirlaridan iborat. Yo'ldoshga qon tomirlar kindik tizimchasi orqali onaning qon tomirlarigacha yetib boradi, lekin bevosita ular bilan birlashmaydi. Qon kindik qon tomirlarining barmoqsimon o'simtalari - qilchalar orqali oqadi. Qilchalar ona qon tomirlariga bevosita yaqin joylashgan, bu vitaminlarning o'tishi, shuningdek, ona qoniga almashinuv mahsulotlarining diffuziya mexanizmi hisobiga ajralish imkonini beradi. Tana qismlari va organizm tizimlari embrional davrda shakllanadi va homila bosqichida o'z vazifalarini samarali bajara boshlaydi. Tana qismlari va ichki organlar hosil bo'lishi bilan ona qornida rivojlanishning ikkinchi muhim bosqichi nihoyasiga yetadi. Organlarning o'z vazifasini bajara boshlashi navbatdagi oxirgi bosqichga to'g'ri keladi.

Homila bosqichi(9- 38 hafta)

Homila bosqichi oxirgi va eng uzoq davom etadigan bosqich bo'lib, to'qqizinchi haftasidan boshlab, tug'ruq bilan tugallanadi. Bu vaqtda homilaning tana o'lchamlari kattalashadi va organizm tizimlari faoliyat yurita boshlaydi. 4 oylikdan homilaning og'irligi 113,4 grammdan 226,8 grammgacha yetadi. Oxirgi 5 oyda homilaning og'irligi 1984,5 grammdan 2268 grammgacha o'lchamlari kattalashib borishini ko'rish mumkin.



1. Tuxumdon va urug'don differentsiatsiyasi
2. Qon tomir tizimining faoliyati
3. Homila harakatining onaga sezilishi.
4. Homila boshida soch qoplanishining hosil bo'lishi .
5. So'rish va yutish faoliyati.
6. Bosh miyaning maxsus faoliyati.
7. Homilaning hayotchan davri.
8. Og'irligini tezda ko'paytirib olishi.
9. Tug'ruq.

Bu davrda organizm uchun muhim bo'lgan nerv, nafas olish va ovqat hazm qilish kabi organlarning shakllanishi tugallanadi.

Bu davrning eng muhim hodisalari quyidagilardan iborat.

- Urug'lanishdan 5-6 oydan so'ng homilaning qoshlari, kipriklari va sochlari paydo bo'ladi. Embrional davrning oxiriga borib, erkak embrionda urug'don, qiz embrionda tuxumdonlar rivojlanadi. Uchinchi oyda urug'donda tashqi jinsiy belgilar rivojlanishiga ta'sir ko'ratuvchi garmonlar sintez qilishni boshlaydi: qiz embrionda bu garmon sintezlanmaydi va o'xshash hujayralardan jinsiy organlar hosil bo'ladi.

• 4 -haftada hujayralar qavati naysimon bo‘lib o‘raladi. Nayning bir uchi kengayib, undan bosh miya hosil bo‘ladi, qolgan qismidan orqa miya shakllanadi. Homila bosqichi boshlanishiga kelib, bosh miya tarkibida turli tuzilmalar bo‘lib, organizm funksiyalarini boshqaradi. Bu bosqichda miyaning barcha sohalarining o‘shishi amalga oshadi, xususan, odam xulq-atvorining ko‘plab muhim turlarini boshqaruvchi bosh miya po‘stlog‘ining xususiyatlari ham rivojlanadi. Bu o‘zgarishlar homilaning 22 va 28 haftalar o‘rtasida rivojlanayotgan organlarning ko‘pchilik tizimi ishonchli ravishda faoliyat yurita boshlaydi, shuning uchun homila hayotining bu davri homilaning hayotchan davri deb ataladi. Bu vaqtda homila bola ko‘rinishini oladi. Vaqtdan avval tug‘ilgan bolalarning nafas olish organlarida muammolar tug‘ilishi mumkin. Shuningdek, ular tana haroratini doimiy tarzda boshqarib turolmaydilar. Chunki, ularda teri osti qavatidagi yog‘qavati mavjud bo‘lmaydi. Bu qavat homilaning 8-oyida hosil bo‘ladi. Hozirgi zamon neonatal yordamning imkoniyatlari yordamida erta tug‘ilib qolgan bolalar yashab qolishi mumkin. Homila bosqichida xulq-atvor paydo bo‘ladi, homilada faollik davri ko‘rinadi. Ko‘pchilik onalar homila harakatchanligi va tinch vaqtlarini aytib berishlari mumkin. Homilaning ko‘z va quloqlari ta’sirlarga javob beradi, yuragi tezroq urishni boshlaydi, ko‘zlari yorug‘likka pirpirash bilan javob beradi.

Bunday ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, ona qornidagi oxirga oylar homilani mustaqil hayotga, ya’ni, ona organizmidan tashqi hayotga tayyorlab beradi, bu o‘zgarishlar homilador ayol o‘zining bo‘lajak farzandiga sog‘lom atrof-muhitni ta’minlagandagina amalga oshishi mumkin.

Sog‘lom bola tug‘ilishi uchun bo‘lajak onalarga vrachlar asosiy 5 ta tavsiyani ta’kidlab o‘tadilar:

1. Homilador ayol davolovchi vrach ko‘rigidan muntazam o‘tib turishi, har oyda, homiladorlikning oxirida har haftada vrach qabuliga borib turishi shart.

2. Homilador ayol to‘g‘ri ovqatlanish tartibiga rioya qilishi shart. Asosiy ozuqa 5 ta asosiy mahsulotlar guruhidan: yormalar, meva va savzavotlar, sut mahsulotlari, go’sht yoki dukkakli o‘simliklardan tayyorlangan ozuqalar bo‘lishi kerak. Barcha vitaminlar, minerallar va temir moddalardan iborat taomlarni tanovul qilishlari kerak.

3. Alkogol va kofein tutuvchi ichimliklarni iste’mol qilish, chekish tavsiya etilmaydi. Biror bir dori-darmon yoki tibbiy muolajani qabul qilishda avval vrach bilan maslahatlashishlari kerak.

4. Homiladorlik davrida badan tarbiya bilan shug'ullanish zarur. Agar homilador ayol yaxshi jismoniy holatda bo'lsa, tana qo'shimcha og'irlikni ko'tarishda qiyinchilikka uchramaydi.

5. Homilador ayol o'zining toliqib qolishiga yo'l qo'ymasligi, ayniqsa, homiladorlikning oxirgi haftalarida, maxsus mashg'ulotlarga qatnashishi zarur. U yerda ayollarni tug'ruqqa va yangi tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishni o'rgatadilar.

Bola hayotining har bir oyi uning jismoniy va psixik imkoniyatlarining shakllanishidagi muhim davrdir. Ikki, uch oylik bola ham yangi tug'ilgan chaqaloqdan ancha farq qiladi, uch yashar bola esa o'z taraqqiyoti bilan bir yashar boladan birmuncha ustun turadi. Ilk bolalik davrida bolaning shaxsi, xarakteri, xulq-atvori ma'lum darajada tarkib topadi. Shu sababli bolaning ma'lum davrdagi rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilganda, bu rivojlanishning oldingi bosqichlarda qanday bo'lganligini bilish kerak. Bu faqat bolaning rivojlanish jarayonini takomillashtirish va tezlashtirish uchun emas, balki ana shu jarayonning bola kuchiga yarasha va yosh imkoniyatiga mos keladigan bo'lishini ta'minlash uchun ham kerakdir.

Pedagogik tajribalarga va mavjud psixologo-fiziologik tekshirish natijalariga asoslanib maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti quyidagi yosh bosqichlariga ajratiladi. (Bunda bola tug'ilgandan tortib, to maktabda o'qiy boshlaguncha bo'lgan davr hisobga olinadi.)

1. Tug'ilgandan bir yoshgacha: chaqaloqlik davri (hayotining birinchi oyi); hayotining birinchi yili - go'daklik davri.

2. Bir yoshdan uch yoshgacha: ilk bolalik davri.

3. Uch yoshdan yetti yoshgacha: maktabgacha bo'lgan davr.

Bola psixikasi taraqqiyotining mana shu ko'rsatilgan davrlari umuman qabul qilingan bo'lsa ham, bu davrlarni absolyut davr deb hisoblash mumkin emas. Yosh davrlariga ajratishda qat'iy chegara yo'q. U hech kim yil fasllarining almashinuv oyi va soatini ko'rsata olmaganidek, odam hayotining davrlari o'rtasidagi chegarani ham aniq ajratish mumkin emas. Shuning uchun yuqoridagi davrlarga ajratishni absolyut deb bo'lmaydi.

Bola tug'ildi. Ona organizmi bilan anatomik bog'lanish uzilgan bo'lsa-da, bola mustaqil hayot kechira olmaydi, chunki bola ona bilan fiziologik jihatdan bog'langandir, ona uni o'z suti bilan boqadi. U yangi, o'zgacha muhitda yashay boshlaydi. Bola hayotining birinchi kunlari tug'ilganidagi og'irlikni yuqotadi. Bunga tashqi dunyo sharoitiga

moslashish davrida energiyaning ko'plab sarflanishi sababdir. Bola organizmining, ma'lum vaqt o'tib, tug'ilgan davridagi og'irligiga teng kelishi uning tashqi muhitga, yangi sharoitga moslashganligidan darak beradi. Odatda chaqaloqning og'irligi 10-12 kun o'tgach, asli holiga keladi.

Yangi tug'ilgan bola anatomik-fiziologik tomondan hali yetilmagan bo'lib, katta kishi organizmidan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Yangi tug'ilgan bola suyak-muskul tizimining tez o'sishi bilan kattalardan keskin farq qiladi. Ularning muskul va muskul to'qimalari juda bo'sh bo'ladi. Muskullar asta-sekin qota boshlaydi. Oldin bo'yin muskullari (bola boshini tuta boshlaydi), keyin tana muskullari (bola o'tira oladi), undan keyin esa oyoq va qo'l muskullari yetiladi, predmetlar bilan harakat qilish imkoniyati paydo bo'ladi, bola yura boshlaydi.

Bolaning chaqaloqlik davri jismoniy jihatdan juda tez rivojlanish davridir. Odatda odamning yoshi tug'ilgan kundan boshlab hisoblanadi. Lekin aslida odamning dunyoga kelishi, rivojlanishi tug'ilmasdan ilgarigi, ya'ni ona qornidagi davridan boshlanadi. Bola onaning qornidaligi davrida, ya'ni to'qqiz oy mobaynida juda tez va juda murakkab taraqqiyoti uning ona qornidagi taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

Shuning uchun bolaning tug'ilgunga qadar bo'lgan taraqqiyotiga ham diqqat-e'tibor bilan qarash lozim, chunki tug'ilgunga qadar ham bolaga tashqi muhit ta'sir qiladi. Lekin bu ta'sir faqat ona orqali, onaning organizmi orqali bo'ladi. Homiladorlik davrining har jihatdan normal o'tishi bolaning ona qornidagi normal taraqqiyotini va har jihatdan yetuk tug'ilishini ta'minlaydi.

Bolaning tug'ilgandan keyin bir yoshgacha davri nisbatan kam harakat va "nutqsiz" taraqqiyot davridir. Bu davrda bolaning o'sishi va taraqqiyoti tor, oila va yasli doirasida yuzaga keladi. Ammo shunday bo'lsa ham bu davr har jihatdan juda tez rivojlanish davridir. Bu davrda bola deyarli faqat ona suti bilanagina ovqatlanadi, u hali gapira olmaydi va mustaqil harakat qila olmaydi. Bu davrda bola ojiz bo'lib, kattalarning doimiy va to'g'ri parvarish qilishlariga muhtoj bo'ladi.

Yangi tug'ilgan va bir yoshgacha bo'lgan bolalarning tashqi qiyofalari katta odamlarning tashqi qiyofalaridan ancha farq qiladi. Yangi tug'ilgan bolaning boshi gavdasiga nisbatan juda ham katta (gavdasining to'rtidan bir qismiga barobar), bo'yin deyarli yo'q darajada qisqa, gavdasi uzun, oyoq-qo'llari gavdasiga nisbatan qisqa bo'ladi.

Katta yoshli odamning boshi gavdasining sakkizdan bir qismiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari chaqaloq bolaning yuzi juda kichkina bo'ladi, chunki yuqorigi va pastki jag'lari hali ishlaganligi tufayli rivojlanmagan bo'ladi. Chaqaloq bolalar ichki organlarining holati va faoliyati ham katta odamlarnikidan anchagina farq qiladi. Masalan, o'pkadagi havo kiradigan mayda pufakchalarning soni miqdor jihatdan katta odamlarniki bilan barobar bo'lsa ham, ular juda mayda bo'ladi (katta odamlarnikiga nisbatan uch barobar kichik bo'ladi). Shuning uchun chaqaloq bolalar katta odamlarga nisbatan uch barobar tez hafas oladilar. Chaqaloq bola bir minutda 50-60 marta nafas olsa, katta yoshdagi odam huddi shu vaqt ichida 14-16 marta nafas oladi. Chaqaloq bola jismoniy jihatdan juda tez o'sayotganligi tufayi sof havoga ayniqsa muhtoj bo'ladi. Ilk yoshdagi bolalarning taraqqiyotida, buni albatta hisobga olish zarur.

Agar chaqaloq bola o'ringa o'ng'ay holatda yotqizilmasa, siqib yo'rgaklansa va ochiq havoga olib chiqilmasa, uning nafas olishida qo'shimcha qiyinchilik vujudga keladi.

Chaqaloq bolaning yuragi katta odamning yuragiga nisbatan anchagina tez uradi. Masalan, katta odamning yuragi bir minutda o'rtacha 70-75 marta ursa, chaqaloq bolaning yuragi 120 va undan ortiq marta uradi. Buning asosiy sababi chaqaloq bolalar yuragining har bir qisqarishida bosib chiqargan qon hajmining (miqdorining) ozligi, yurak muskullarining hali zaifligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, chaqaloq bolalar yuragining nisbatan tez urishi ular organizmida modda almashish jarayonining intensivligi jadalligi bilan ham bog'liqdir.

Chaqaloq bolalarda badanning haroratini idora qilish hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Chaqaloq bolalarda tanasining vazniga qaraganda terisining umumiy sathi (yuzasi) nisbatan katta hamda terisi katta odamlar terisiga qaraganda ancha yupqa bo'ladi. Shu sababli ular normal taraqqiyot uchun kerakli haroratni yo'qotib sovuq qotishi mumkin. Chaqaloqlarning temperaturalari tez o'zgaruvchan bo'ladi. Bolaning ortiqcha harakatlari ham, ovqat yeyishi ham temperaturasiga ta'sir qiladi. Shu sababli chaqaloq bolalarni tarbiyalashda rejimning ahamiyati nihoyatda kattadir. Chaqaloq bolalarni hamisha o'z vaqtida ovqatlantirish, uxlatish va o'z vaqtida u bilan shug'ullanish (gaplashish, o'ynatish) kerak.

Chaqaloq bolalarning ovqat hazm qilish a'zolari ham o'ziga xos xususiyatga ega. Ularning oshqozonlari hali juda kichkina, oshqozon va

ichak muskullari rivojlanmagan, juda zaif bo'ladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi ovqati ona sutidir. Bolalar katta odamlarga nisbatan tez-tez ovqatlantiriladi. Buning sababi ravshan. Agar katta odamlarga ovqat sarf qilgan quvvatlarini tiklash maqsadida kerak bo'lsa, bolalar uchun esa ovqat sarf qilgan quvvatlarini tiklashdan tashqari o'sishlari uchun ham kerak. Bolaning organizmi esa to'xtovsiz o'sadi, buning uchun esa juda ko'p ozuqa moddalar kerak bo'ladi. Ozuqa moddalarni bola ovqat orqali oladi. Shu sababli bolaning jismoniy jihatdan normal o'sishida o'z vaqtida ovqatlanishi va ovqatning sifati juda katta ahamiyatga ega.

Normal tug'ilgan bolaning o'rtacha vazni 2800-3500 g, bo'yi 45-52 santimetr bo'ladi bir yil davomida uning vazni va bo'yi ayniqsa sezilarli o'zgaradi. Normal o'sib ulg'ayayotgan bola yarim yoshga eytganida uning vazni ikki barobar, bir yoshga yetganida esa uch barobar ortadi. Bolaning vazni dastlabki oylarda, ayniqsa, bir-uch oyligida ko'proq ortadi. Keyinroq borib vaznning ortishi birmuncha sekinlashib boradi va bir yoshga to'lgach, bolaning vazni 9 kg ga yetadi.

Tarbiyachi bolalarning umumiy psixik taraqqiyotlari va psixologik sifatlarini turli faoliyatlar jarayonida o'rganib, ular haqida to'la ma'lumotlarga ega bo'la olmaydi. To'la ma'lumotga ega bo'lish uchun tarbiyachi bolaning uy sharoitida, hulq-atvori va xatti-harakatlariga doir ma'lumotlardan ham xabardor bo'lishi shart. Tarbiyachi har bir bolaning fe'l-atvori va xatti-harakatlariga doir kuzatgan faktlarni yozma ravishda qayd qilib borishi va har bir bolaga maktabga chiqish oldidan to'la psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzishi lozim.

Bir yoshga to'lgunga qadar bolaning bo'yi ham juda tez o'sadi. Xuddi vazni kabi bolaning bo'yi ham dastlabki oylarida ayniqsa tez o'sadi. Keyin bo'yining o'sishi ham ancha sekinlashadi. Agar bola bir yoshga to'lguncha taxminan 25 sm ga o'ssa, keyingi ikki yil ichida faqat 18 sm ga o'sadi.

Yangi tug'ilgan bolaning suyaklari, ya'ni skeleti hali katta odamlarniki singari qattiq va mustahkam bo'lmaydi. Chaqaloq bolaning skeleti deyarli yumshoq tog'aydan iborat bo'ladi. Keyingi taraqqiyot davrida, ya'ni bir yoshga to'lguncha uning skeleti suyakka aylana boshlaydi. Agar bola chaqaloqlik davrida noto'g'ri parvarish qilinsa, uning skeletidagi turli qismlar noto'g'ri o'sib, biror yeri qiyshiq bo'lib qolishi mumkin. Ko'pchilik hollarda bolaning noto'g'ri o'sishi, noto'g'ri yotishi natijasida umurtqa suyagi qiyshayib qolishi mumkin, chunki umurtqa suyagi juda elastik (egiluvchan) bo'ladi.

So'ngi yillarda bolalar organizmini noto'g'ri parvarish bilan bog'liq bo'lgan skolioz kasalligi haqida ko'plab gapirilmoqda. Darhaqiqat, bolalarda paydo bo'lgan skolioz (umurtqa suyagining qiyshayib qolishi) kasalligi ko'pchilik hollarda bolalar gavdasining normal o'sishiga ota-onalar va tarbiyachilarning befarq munosabatda bo'lishlari tufayli yuzaga keladi. Skolioz (bukir) kasalligi juda og'ir majruhlikdir. Skolioz asosan ikki yo'l bilan paydo bo'ladi. Ulardan birinchisi tug'ma skolioz bo'lsa, ikkinchisi individual hayot davomida orttirilgan skoliozdir. Biz asosan ana shu individual hayot davomida bo'ladigan skoliozning oldini olishimiz, ya'ni uning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Skolioz kasalligi dastavval mutlaqo bilinmaydi va juda sekinlik bilan rivojlanadi, vaqt o'tishi bilan u ko'zga tashlana boshlaydi.

Skolioz kasalligi qiyin davolanadi. Uni davolashda ortoped-vrachlar juda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar. Skolioz kasalligi o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham uchraydi. Qiz bolalarning muskul va skeletlari o'g'il bolalarga nisbatan zaifroq bo'lganligi tufayli ular skolioz kasalligiga moyilroq bo'ladilar. Bolalarda uchraydigan skolioz kasalligi muskul va skeletlarning tez o'sishi va bu o'sish davomida bolalarni noto'g'ri o'tirishlari va noto'g'ri yotishlari tufayli vujudga keladi. Skolioz kasalligiga uchragan bola juda nogiron qiyofaga kirib qoladi.

Skolioz kasalligiga uchramaslik uchun bola yotadigan to'shak tekis, boshiga qo'yiladigan yostiq ham ortiqcha baland bo'lmasligi kerak. Bola yurishni o'rganayotganda goh o'ng, goh chap qo'lidan ushlab unga yordam berish lozim. Ana shu kabilarga rioya qilgandagina bolani skolioz (bukir) kasalligidan saqlab qolish mumkin

Yangi tug'ilgan bolaning suyagida ohak va boshqa tuzlar kam bo'lib, u asosan tog'ay to'qimalaridan iboratdir. Bosh suyaklar bola 2-3 oylik bo'lgandagina bir-biri bilan tutashib ketadi. Bosh suyagining peshona va tepa qismlari tepasida katta liqildoq deb ataladigan oraliq bo'lib, u qalin parda va teri bilan qoplangan bo'ladi. Bu oraliq bir-bir yarim yildan keyingina suyak bilan qoplanib ketadi.

Yangi tug'ilgan bola nerv tizimining yuksak qismi — bosh miya yarim sharlari tashqi ko'rinishdangina kattalar miyasiga o'xshaydi. Aslida chaqaloqning boshi katta ko'rinsa-da (miya og'irligi butun tananing sakkizdan birini, kattalarda esa qirqdan birini tashkil etadi), hali taraqqiy etmagan bo'ladi. Tanasining umumiy og'irligi 3-4 kilogramm bo'lgani holda, miyaning og'irligi 300 grammdan oshadi. Chaqaloq

miyasidagi nerv hujayralari, «ariqchalar» va «izlar»ning soni katta kishilar miyasidan farq qilmaydi, ammo bola miyasi tuzilish jihatidan bir shaklda bo'lib, «izlar» aniq ko'rinmaydi, nerv hujayralari tarmoqlarining miqdori kam bo'ladi.

Nerv tolalarining bir-biridan yetarli darajada ajralmaganligidan tashqi olamdan kelayotgan o'zgarishlar boshqa nerv markazlariga ham ta'sir etadi, bosh miya yarim sharlarida hech qanday aniq va barqaror o'zgarish joylari paydo bo'lmaydi. Uning uchun chaqaloq tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga qo'l, oyoq va boshini tartibsiz harakat qilib javob beradi. Miyaning eng «qadimiy» bo'limlari nafas olish, qon aylanishi, emish, yutinish kabi jarayonlarni ta'minlaydi. Bu nerv tolalari bolaning yashashi uchun yetarli miqdorda (nerv tolasi) mielen qobig'i bilan qoplangan.

Chaqaloq bola bizga eng ojiz zotdek tuyuladi. Shunga qaramay, xuddi shu yoshning ham kuchli tomoni bo'lib, bu jihati bilan go'daklar kattalardan ustun turadi,- deb ta'kidlaydi professor Ye. A. Arkin. Uning fikricha, bolaning kuchi uning o'sish energiyasida namoyon bo'ladi. Bola tanasining og'irligi hayotining birinchi yilida uch barobar ko'payadi, bo'yga nisbatan yetti oylik bola juda tez o'sadi va sakkiz oylik bo'lganda, bo'yi ikki barobar ortadi, o'ttiz oyga yetganda to'rt marta ortadi. Bolalar har oyda 2 santimetr o'sadi. Uning miya og'irligi har kuni 1,5 grammdan ko'payadi. Miyaning rivojlanish sur'ati haqida gapirganda shuni e'tiborga olish kerakki, yetti oylik bolaning miyasi 2 marta ko'paysa, 2-3 yoshga kelib, uning og'irligi uch marta ortadi. Miyaning kattaligi deyarli 20 yil mobaynida ortib boradi, katta yarim sharlarning ustki «izlari» murakkablashib boradi. Bolalarning o'sishidagi bu qadar ulkan jadallik vegetativ nerv tizimiga, bir qator ichki sekresiya bezlari (bo'qoq bezi va boshqalar)ga bog'liq.

Ichki sekresiya bezlari ishlab chiqaradigan maxsus garmonlar qonga o'tib, organizmning o'sishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Go'daklarning bu qadar tez o'sishi ushbu davrning o'ziga xos tomonini ifodalaydi. Shuning uchun bu davrda bolaning o'sishiga va rivojlanishiga ta'sir etadigan barcha narsalar yaxshi bo'lishi, sifatli ovqat, sof havo, quyosh nuri yetarli miqdorda bo'lishi kerak.

Bolaning nerv faoliyati ikki xil ta'sirda o'z ifodasini topadi. Bularning birinchisiga shartsiz yoki tug'ma reflekslar, ikkinchisiga esa shartli reflekslar kiradi. Shartsiz reflekslar bolaning tug'ilish paytiga kelganda, ancha yetilgan bo'ladi, buning natijasida qon aylanish, nafas olish va ovqat hazm qilish singari eng zarur vegetativ funksiyalar amalga

oshiriladi. Masalan, qorni ochgan chaqaloqning labiga bir narsa tegishi bilan oq, unda emishni bildiruvchi harakatlar paydo bo'ladi, bu ovqatlanish refleksi, ya'ni shartsiz refleksdir.

Yuqorida qayd qilinganidek, tug'ilish davrida bosh miya katta yarim sharlari og'irligi, hajmi va funksiyasi jihatidan rivojlangan darajada bo'lmasa ham, bosh miya mavjud shartsiz reflekslar zaminida yangi tug'ilgan bola bilan tashqi muhit o'rtasida eng zarur aloqalar o'rnatish imkoniyatini beradigan elementar shartli reflekslar hosil qilishga qodirdir.

Bola hayotining birinchi kunlaridan boshlab individual hayot kechirish jarayonida tashqi muhit bilan aloqa vujudga keladi. Bola hayotining ikkinchi oyida unda barcha sezgi organlariga xos shartli reflekslar hosil bo'ladi. Lekin tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, bola hayotining bu davridagi reflekslar zaif ifodalangan va beqaror bo'ladi.

Bolaning o'sishi va rivojlanishi jarayonida egallayotgan reaksiyalari barqarorlashadi, tez paydo bo'la boradi va anchagina differensiyalashadi. Modomiki, bolada shartli reflekslar hayotining birinchi oylarida paydo bo'lar ekan, bola tarbiyasini ham hayotining birinchi oylaridan boshlab to'g'ri tashkil etish lozim. Bu esa bolaning rivojlanishi va xulq-atvorida salbiy xususiyatlar kelib chiqmasligining oldini oladi, bola taraqqiyotining normal bo'lishini ta'minlaydi. Markaziy nerv tizimining ruhiy bo'limlari rolining ortib borishini asosiy nerv jarayonlari — qo'zg'alish va tormozlanishning ifodalanishida aniqroq ko'rish mumkin bo'ladi. Odatda tormozlanish ikki turda: ichki va tashqi turga ajratiladi. Ichki tormozlanishning eng yorqin ifodasi uyqudir. Tormozlanishning tashqi ifodasi bolani tarbiyalash tufayligina hosil bo'ladi. Buning uchun asosiy ozuqa (masalan, sut) bilan birga, bolaga yana boshqa qo'shimcha (doimo sut ichiriladigan shishachani almashtirib qo'yish) ham ta'sir etadi. Chaqaloq tug'ilgandan boshlab uning atrofida har tomonlama qo'llab-quvvatlaydilar. Ular bola organizmini jismoniy parvarish bilan ta'minlaydilar, o'rgatadilar, tarbiyalaydilar, insoniy psixologik va axloqiy jihatlarni o'zlashtirishga, jamiyatda yashash sharoitlariga moslashuviga yordam beradilar. Bolani ota-onalar va kattalar tomonidan qo'llab quvvatlash, tug'ilishidan boshlab, toki bola katta bo'lib, mustaqil hayot tarzini kechira olguncha davom etadi.

2. Chaqaloqlik davrida psixologik rivojlanish xususiyatlari sensor va pertseptiv hamda kognitiv rivojlanish predmetlar bilan o'ynash his-tuyg'uning o'sishi yoki jonlanish kompleksi

Chaqaloq tug'ilgandayoq amalda qo'llashga tayyor bo'lgan sensor va harakat malaka instinktlariga ega bo'ladi, bu uning olamga moslashib olib o'z rivojlanishida tezgina o'sib ketishga yordam beradi. Chaqaloqda tug'ilganidan boshlab, masalan, ko'pgina murakkab harakatlar, asosan organizmni yetilish jarayonida genetik berilgan dastur asosida, shuningdek, reflektor, ya'ni bu harakatlar dasturi kaliti sifatida kodlangan o'ziga xos ichki va tashqi rag'batlar ta'sirida hayotining birinchi soatlaridan keyin maxsus tayyorgarliktsiz, darhol yuzaga keladi. Go'daklik davri inson hayotidagi organik ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti-harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti-harakatlarni va yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'dak yoshidagi bolalarning asosiy xususiyatlaridandir. Organik ehtiyojlarning yetarli darajada qondirib borilishi, to'g'ri tashkil etilgan kun tartibi, rejim va to'g'ri tarbiya natijasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotlarga ega bo'lishiga, harakatga, muloqotga, nisbatan yangi turdagi ehtiyojlar turkumi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bola tug'ilishining birinchi haftasidanoq, uning ko'rish va eshitish sezgilari jadal sur'atda rivojlanadi.

Tug'ruqxonalarda bolalar hayotlarini birinchi kunidayoq kunduzgi yorug'lik tushib turgan deraza tarafiga yuzi bilan instinktiv buriladi. O'tkazilgan tadqiqotlardan aniqlandiki, tug'ilganiga bir yarim sutka bo'lgan bola miyasida ko'ruv organiga rangli qo'zg'atuvchilar ta'siriga javob potentsiallarini ko'rish mumkin. Bu vaqtga kelib miyada shartli reflekslar shakllanishi yuzaga keladi.

Hid bilish eng muhim sezgi organi sifatida u tug'ilgandan keyin darhol ishlay boshlaydi. Shunday o'ziga xoslikka oddiy ko'rish, harakat va eshitish ham ega. Bola hayotining boshlang'ich ikki oyida og'zini chetiga qandaydir predmet bilan teginganda, bunga javoban reflektor o'girilish qobiliyatini namoyon etadi, barmoqlari ustiga tegilsa, ularni qattiq siqib oladi, qo'llari, oyoqlari, boshi bilan umumiy koordinatlashmagan harakatlarni amalga oshiradi. Unda yana harakatlanayotgan ob'ektlarni ko'zi bilan kuzatish, ular tomoniga boshini o'girish qobiliyati ham mavjud.

Chaqaloq narsalarning mazasini ajrata oladi. U boshqa narsalar mazasiga qaraganda shirin suyuqlikni xush ko'radi va hatto shirinlik darajasini aniqlay oladi. Chaqaloq hidlarni sezadi, ularga boshini burish, yurak urishi va nafas olishi chastotasining o'zgarishi bilan javob beradi. Yana bola organizmiga o'zini saqlash va rivojlanishiga yordam beruvchi jarayonlar guruhi tug'ma ravishda berilishini alohida aytib o'tish joizdir. Ular ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish, tana harorati, moddalar almashinuvi jarayonlari va hokazolarni boshqarish bilan bog'liq. Shubhasiz, so'rish, himoyaviy, mo'ljal oluvchi, ushlab oluvchi, tayanch harakati va qator boshqa reflekslar tug'ma hisoblanadi, bularni barchasi bola hayotining ikkinchi oyida aniq ko'rinadi.

O'tkir yorug'likdan bola «bevosita» ta'sirlanadi, ya'ni o'tkir yorug'likka qaray olmay, undan ko'zini yumadi. Predmetlarni ko'z bilan idrok qila olmaydi, chunki ularda ko'rish mexanizmi hali o'sib yetmagan bo'ladi, bu mexanizmlar kattaroq yoshda paydo bo'ladi. Yetti - to'qqiz kunlik bola ba'zan sekin harakatlanayotgan predmetga qarab qoladi, lekin uzoq vaqt qarolmaydi. Ko'zini bir nuqtaga qaratish psixik taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi. Bola ikki-uch oylik bo'lganda, yaqinidagi predmetlarni ikki ko'zi bilan kuzata oladi, unda asosiy rang va shakllarni farq qila olish qobiliyati paydo bo'ladi. Olti oyligida u ranglarga nisbatan o'z munosabatini ham bildira boshlaydi, yoqqan rangiga intilsa, yoqmaganini itaradi, undan yuzini o'giradi. Yangi tug'ilgan bolaning eshitishi zaifroq bo'ladi, shunga ko'ra u hali o'zi eshitib, odatlanib qolmagan juda kuchli qo'zg'ovchilarga javob beradi, lekin ovozning qaysi tomondan kelayotganligini ajrata olmaydi. Bola ikkinchi oyining oxirlariga borgandagina eshitayotgan tovushiga e'tibor bera boshlaydi, tovushning qaerdan kelayotganini qidirib, u yoq bu yoqqa qaraydi. Tovush manbaini topishni o'rgangan uch oylik bola gapirayotgan kishini o'z ko'zlari bilan tez topib oladi, o'sha tomonga qarab, gapiruvchiga o'z munosabatini ifodalaydi. Ana shu vaqtdan boshlab, uning tevarak-atrofiga bo'lgan munosabati ancha kengaya boradi.

Bolaning tobora diqqat bilan eshita va ko'ra borishi uning umumiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Lekin ko'rish, eshitish va boshqa analizatorlar faqat bolaning tevarak-atrof bilan o'zaro munosabatida bo'lishi natijasida takomillashadi. Bolaning o'z ko'zi bilan ko'ra olishi ma'lum hayot tajribasi natijasidir. Bolaning eshitish orqali idrok etishi ham oldindan tovushlarni ajratishga va ularni sintez qilishga

o'rganib boradi. Bolaning eshitib bilib olishi shartli bog'lanishlarning sifatiga bog'liqdir. Yangi tug'ilgan bolada diqqat qilish qobiliyati bo'lmaydi. Unda turli qo'zg'ovchilar ta'sirida asta-sekin ixtiyorsiz diqqat rivojlanib boradi. Bolaning tasavvur doirasi qancha qisqa bo'lsa, uning o'zi uchun tanish va yangi bo'lgan predmetga nisbatan diqqati shuncha intensiv va davomli bo'ladi. Diqqatning psixik ta'siri ma'lum, u sezgi kompleksini idrokka aylantirib, psixik jarayonlarning o'tishini kuchaytiradi va tasavvurlarning xotirada mustahkam saqlanishiga yordam beradi.

Bola organizmiga o'zini saqlash va rivojlanishiga yordam beruvchi jarayonlar guruhi tug'ma ravishda berilishini alohida aytib o'tish joizdir. Ular ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish, tana harorati, moddalar almashinuvi jarayonlari va hokazolarni boshqarish bilan bog'liq. Shubhasiz, so'rish, himoyaviy, mo'ljal oluvchi, ushlab oluvchi, tayanch harakati va qator boshqa reflekslar tug'ma hisoblanadi, bularning barchasi bola hayotining ikkinchi oyida aniq ko'rinadi.

Tug'ilganidan boshlab bolaning nafaqat sezgi organlari ishlashga tayyorligi ma'lum bo'lmay, balki bosh miyasi ham faol ishlay boshlaydi. Onalar chaqaloqning faqatgina psixika va xulqning tug'ma shakllarinigina bilmasdan, balki organizmni tabiiy rivojlanish jarayonini ham bilishi kerak. Hayotining *birinchi oylarida harakatlarning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega.*

Chaqaloq motorikasi tug'ilganidan boshlab yetarlicha tashkiliylikka ega, u holatlarni boshqarishga mo'ljallangan ko'pgina mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Chaqaloqda ko'pincha oyoq-qo'llarining yuqori harakatchanlik faolligi paydo bo'ladi, bu kelajakda koordinatlashgan harakatlarni murakkab majmuini shakllanishida ijobiy ahamiyatga ega. Chaqaloq bolalarda qo'l-oyoqlar bukilib, barmoqlar musht bo'lib turadi.

Hayotining birinchi oylarida, bola bezovtalanagan paytlarda, qo'l va oyoqlarning harakati juda betartib, bir-biriga moslashmagan, beixtiyor holda bo'ladi. Keyin harakatlar asta-sekin «ongli»lashib boradi va bu harakatlar yangi sezgilarning manbai bo'lib xizmat qiladi, bu murakkabroq harakatlarga o'tishni tayyorlaydi. 3-3,5 oylik bola, unda hali aniq koordinatsiyalashgan harakat bo'lmasa ham, qo'llarini o'yinchoqlarga uzatadi. Aniq koordinatsiyalashgan harakat 4 oyli bolada yaxshi ko'rinadi. Bola o'yinchoqni bermalol qo'lga ololadi. Uni tutib olib, u-bu yog'iga qaraydi, og'ziga tegizib ko'radi va shu yo'l bilan ko'plab har xil taassurotlar oladi. Ikki oylik bola, qorni bilan yotqizib qo'yilsa, boshini ko'tara boshlaydi. Uch oylikda esa yotgan holda

tirsagiga tiranib turadi va bemalol u yoq-bu yoqqa qaray oladi. Shu bilan birga, qo'ltig'idan tutib turilsa, oyog'ida turadi. 8-8,5 oyligida boshqalarning yordamisiz o'tira oladi, emaklaydi va biror narsaga suyanib oyog'ida tura oladi. 12-13 oyligida o'tirib, tura oladi, bironing yordamisiz qadam qo'ya oladi, demak, bola yura boshlaydi. Bolaning vaqtida yurib ketmasligiga salomatligining nochorligi, chaqaloqligida ko'p kasal bo'lganligi va umumiy harakat hamda sezgi organlarining kech rivojlanishi sabab bo'ladi. Bolaning harakatlari rivojlanishi hayotini birinchi yilida judayam tez maromda kechadi, o'n ikki oy ichida erishilgan taraqqiyot hayratlanarli.

Cheklangan qo'l-oyoq, boshni tug'ma umumiy elementar harakatlar to'plamidan iborat imkoniyatga ega bo'lgan, amalda yordamga muhtoj mavjudotdan bola kichkina odamga aylanadi, u nafaqat ikki oyoqda oson turuvchi, balki muhitda nisbatan ozod va mustaqil harakatlanuvchi oyoqlar harakati bilan bir vaqtda fazoda qo'l bilan murakkab boshqaruv harakatlarini va atrofdagi olamni tadqiq etishga mo'ljallangan harakatlarni amalga oshira oladi. Yangi tug'ilgan bolada diqqat qilish qobiliyati bo'lmaydi. Unda turli qo'zg'ovchilar ta'sirida asta-sekin ixtiyorsiz diqqat rivojlanib boradi. Bolaning tasavvur doirasi qancha qisqa bo'lsa, uning o'zi uchun tanish va yangi bo'lgan predmetga nisbatan diqqati shuncha intensiv va davomli bo'ladi. Diqqatning psixik ta'siri ma'lum, u sezgi kompleksini idrokka aylantirib, psixik jarayonlarning o'tishini kuchaytiradi va tasavvurlarning xotirada mustahkam saqlanishiga yordam beradi.



3. Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari

Go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan juda jadal ravishda rivojlanadigan, faol, tez ilg'aydigan, harakatchan, yordamga chaqira oladigan quvnoq bolaga aylanish davridir. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlashga va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof-olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, ularni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlarni harakatlantirish yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsional munosabatga kirishadi. Juda qisqa vaqt ichida, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Ilk yoshdagi bolaning harakat faoliyati uning rivojlanish darajasini va nerv tizimining funksional holatini aks ettiradi. **N.D. Levitovning** ko'rsatishicha, yangi harakatlarni egallash analizatorlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'langandir, zotan kichkina bola olamni sezish yordami bilan biladigan mavjudot bo'lganligi sababli, harakatlarning o'z vaqtida taraqqiy etishi bola umumiy psixik taraqqiyotini ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ilk yoshdagi bolalarning muskullari juda bo'sh bo'ladi.

Go'daklik yoshida bolalarni harakat ko'nikmalari, ayniqsa qo'l va oyoqlarning murakkab sensor koordinatlashgan harakatlari tez shakllanadi. Bu harakatlar keyinchalik bolalarni bilish va aqliy qobiliyatlarini yuzaga kelishida judayam sezilarli rol o'ynaydi. Bola qo'l va oyoq harakatlari hisobiga olam haqida axborotlarni ahamiyatli qismini oladi. Qo'lning murakkab harakatlari idrokning birlamchi shakliga kiradi va odamning aqliy faoliyatini mukammallashuvini ta'minlovchi uning ajralmas qismiga aqlanadi. Bola qo'lining katta impulsiv faolligi hayotining birinchi haftasida namoyon bo'ladi. Bu faollik qo'llarni silkitish, ushlab, barmoqlar harakatlarini o'z ichiga oladi. Bola 3-4 oyligida predmetlarga qo'l uzata boshlaydi, katalarning yordami bilan o'tiradi. 5 oyligida u harakatsiz predmetlarni qo'li bilan ushlay oladi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U turli ovozlarga, jumladan, kattalarning tovushlariga e'tibor bera boshlaydi.



Go'daklik davridagi bolaning hayoti to'liq kattalar bilan hamkorliqdagi emotsional munosabat bilan bog'liq bo'lib, bola kayfiyatining yaxshi bo'lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. 4-5 oyligidan boshlab, bola o'z yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaydi. Kattalar bilan emotsional munosabat shu yoshdagi bolalarning asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi bo'lib hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishlariga unga o'z diqqatlarini qaratishlariga odatlanishi, uning o'yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to'g'ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo'ladigan muomalamunosabatini predmetlar, o'yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo'ladi. Kattalarning bolaga nisbatan emotsional munosabati, ularning gaplariga bolaning o'z diqqatini qaratishi, javob qaytarishga harakat qilishi, ba'zi so'zlarni yodida saqlab qolib, emotsiya bildirishi, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Ikki oylik

davridan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3-4 oylikdan boshlab, esa predmetlarning shaklini ajratish layoqati yuzaga kela boshlaydi.

Go'dak bola 2 oylik vaqtdan boshlab, o'z onasining yuzini va ovozini o'zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi.

3-4 oylikdan boshlab, bolalar yaqinlariga o'z harakatlari bilan ko'rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko'rsatadilar. 8 oylikdan boshlab esa, bola o'zgacha muhit va begonalar qo'liga tushsa, o'z xavotirini yig'isi orqali namoyon etadi. Bu xavotir 14-18 oylikda asta-sekinlik bilan kamaya boshlaydi.

2-3 oylik bolalarda yuzaga keladigan narsalarni ushlay olish harakatlarining shakllanishi ularda predmetlarning shakli va hajmini idrok qilishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bir yoshga yetgan bolada atrof muhitni bilishga qiziqishi va rivojlanayotgan bilish faolligi ko'zga tashlanadi.

Go'dak bolalar jismoniy jihatdan tez rivojlanishi bilan birga psixik jihatdan ham juda tez rivojlanadilar. Chaqaloq bolalar psixikasining rivojlanishi, birinchidan, analizatorlarning takomillashuvi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustaqil harakatlarining o'sishi bilan bog'liqdir. Analizatorlarning tez takomillashuvi natijasida bola uch oylik bo'lgandan so'ng unda dastlabki shartli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Demak, ana shu davrdan boshlab bola psixikasi tez rivojlanish yo'liga kiradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, u dastavval bolada harakat analizatorlari bilan bog'liq bo'lgan, undan so'ng eshitish va ko'rish analizatorlari bilan bog'liq bo'lgan shartli reflekslar yuzaga keladi. Ana shu tariqa barcha analizatorlarga nisbatan har xil murakkablikda shartli reflekslar tobora ko'plab yuzaga kela boradi. Shartli reflekslarning yuzaga kelishi bola psixikasining rivojlanishi uchun moddiy zamin bo'ladi.

Keyinchalik, ya'ni ikki-uch oylik bolalarda analizatorlar faoliyatining takomillashuvi natijasida ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilarni farqlash qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Dastavval turli ovozlarni, so'ngra ayrim yorqin ranglarni, ta'mlarni, farqlay boshlaydi. Nihoyat, uch oylik bola atrofidagi juda ko'p narsalardan odamni farqlaydigan va odamga nisbatan qandaydir boshqacha reaksiya qiladigan bo'ladi. Uch oylik bola oldiga kelgan odamga tikilib, emotsional munosabatda bo'la boshlaydi. U odamga uzoq vaqt tikilib qaraydi. Lablarini harakatlantirib, tilini aylantirib, go'yo odamning nutqiga taqlid qilmoqchi bo'ladi. Ana shu

davrdan boshlab bolalar bilan imkoni boricha mehribonlik ohangida gaplashib turish kerak. Ana shunday munosabatlar natijasida bolada qandaydir aktivlik, kattalarga talpinish reaksiyasi yuzaga keladi. Psixologlar bolalarda kattalar bilan bo'lgan munosabatlardan yuzaga keladigan emotsional reaksiyalarni **jonlanish kompleksi** deb ataganlar. Bu kompleksda bola uning bilan munosabatda bo'layotgan odamga muloyim tikilib, jilmayadi, qo'l va oyoqlari bilan talpinib qandaydir ovoz chiqaradi. Bolada qandaydir kuchli mamnunlik hissi yuzaga keladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, agar bolalar bilan keragidan ortiq darajada munosabatda bo'lib, ularda jonlanish kompleksini yuzaga keltira berilsa, ular kattalarga o'rganib qoladilar va o'yinchoqlarga qaramay qo'yadilar.

Go'dak bola yoshiga to'lguncha juda ko'p harakatlarni o'zlashtirib oladi. Bolaning qiladigan turli-tuman harakatlari orasida qo'l harakatlari psixik taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan harakatlardir. To'rt oylik bola narsalarga qo'l cho'zadigan bo'ladi, ammo u hali o'zining qo'l harakatlarini idora qila olmaydi. Bola besh oylik bo'lgach, narsalarni ushlab, uni paypaslab, timirskilab ko'radigan bo'ladi. Bolaning qo'l harakatlari atrofidagi narsalarni bilish quroliga aylanadi, chunki u narsalarni paypaslab, timirskilab ko'rish orqali ularning ayrim xususiyatlarini bilib oladi.

Bolaning psixik taraqqiyotida murakkab harakatlarni egallab borishi juda katta rol o'ynaydi. Bola olti oylik bo'lgach, mustaqil o'tira oladigan bo'ladi. Bola o'tira boshlagandan so'ng uning nazar doirasi kengayib, unda yangidan-yangi taassurotlar paydo bo'ladi. Bola ko'z o'ngida yangi taassurotlarning paydo bo'lishi idrok, diqqat, xotira kabi psixik jarayonlarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Bola sakkiz oylik bo'lgach yana bir murakkab bo'lgan harakatni, yani emaklashni boshlaydi. Bola psixikasining rivojlanishida bu yangi harakatning ahamiyati kattadir. Emaklay boshlagach, bolaning atrofidagi narsalar bilan munosabatda bo'lish imkoniyati kengayadi. Natijada mustaqil harakat qilib, yangidan yangi narsalarni taniy boshlaydi. Bolani hamma narsa qiziqtiradi. U bir narsani olib ikkinchi narsaga urib taqillatadi va chiqayotgan ovozga quloq soladi. Odatda bu yoshdagi bolalar biror narsaning qopg'og'ini ochib yopishni yoqtiradilar. Bunday harakatlar bolaning qo'l muskullarini mustahkamlaydi va narsalarning turli xossalarini bilib olishga yordam beradi.

Og'ir kasallikka uchramay, jismoniy jihatdan sog'lom o'sgan bola 9-10 oylik bo'lganda yura boshlaydi. Bolaning mustaqil tarzda yura

boshlashi, uning hayotida nihoyat katta hodisadir. Bola yura boshlagandan so'ng uning psixik taraqqiyoti uchun juda katta imkoniyatlar yuzaga keladi. Yura boshlagan bolaning faolligi kun sayin ortib, erkin harakat qilish doirasi kengayadi. Bemalol yura oladigan bola tor uy doirasidan tashqariga chiqish inkonoyatiga ega bo'ladi. Bu esa idrok doirasini kengaytirib mazmundor bolishiga yordam beradi.

Olti-yetti oylik bolalarda taqlid qilish harakatlari paydo bo'la boshlaydi. Bola psixikasining taraqqiyotida taqlidning roli juda kattadir. Bola juda ko'p harakatlarni va nutqni asosan taqlid qilish orqali egallaydi. Bolani besh-olti oylikdan boshlab nutqni tushunishga o'rgata boshlash lozim. Buning uchun bolaga o'yinchoq yoki biron narsani bir necha marta nomini aytib ko'rsatish kerak. Keyinchalik bolaga ba'zi narsalarning nomi aytilganda, u ko'zlari bilan shu narsani qidirib topadigan bo'ladi. Bu narsa bolaning kattalar nutqini tushuna boshlaganidan darak beradi. Bola nutqni ozmi-ko'pmi tushuna boshlaganidan so'ng unga faqat narsalarning nomi emas, balki ayrim sodda harakatlarning nomlarini o'rgata boshlash lozim. Harakatning nomini og'zaki takrorlab ayni vaqtda shu harakatning bajarilishini ham bir necha marta ko'rsatilsa, bola harakatning nomini eshitishi bilan uni bajarishga o'rganadi. Masalan, chapak-chapak, deb takrorlab turib chapak chalinsa bola shu so'z aytilishi bilan chapak chaladigan, yoshi bolaga "assalom alaykum", deb ta'zim qilib ko'rsatilsa, bola shu so'zni eshitishi bilan ta'zim qiladigan bo'ladi.

Bola ayrim so'zlarga tushuna boshlagach, kattalar bilan ko'proq aloqada bo'lishni xohlaydi. Ana shundan foydalanib, bola bilan imkoni boricha ko'proq munosabatda bo'lishga, uning nutqini o'stirishga harakat qilish lozim. Buning eng oson yo'li bola bilan mashg'ul bo'lgan paytda unga eng sodda so'z elementlarini to'g'ri ayta bilishni o'rgatishdir. Chunonchi, kuchukning rasrnini ko'rsatib "mana, vov-vov", mushukning rasmini ko'rsatib, "mana, miyov-miyov", xo'roz yoki tovuqning rasmini ko'rsatib, "mana ku-ku" deyish kerak. Bunda bolalar "vov-vov", "miyov-miyov", "kuk-ku" kabi so'z elementlarini ravon talaffuz qilishga o'rganadilar. Bundan tashqari 9-10 oylik bolalarga o'z tana a'zolarining nomlarini ham o'rgata boshlash kerak. Bolaga - "mana burni", "mana og'zi", "mana ko'zi", "mana qoshi", "mana qo'li" deb bir necha marta takrorlab ko'rsatilgandan keyin, bola o'z a'zolarining nomini aytish bilan ularni birin-ketin ko'rsatadigan boladi. Keyinchalik bolalarda ana shunday sodda so'zlarni umunlashtirish qobilyatini ham o'stirish kerak. Bolaga "oyingning ko'zi qani", "qo'g'irchoqning burni

qani”, “akangning qo’li qani?” kabi savollar berilsa, bola a’zolarini to’g’ri ko’rsatishga o’rganadi. Bola dastlabki paytlarda tilga tushuna boshlashi katta odamlarning talaffuz intonasiyalari va bolaga ko’rsatib qiladigan ishora harakatlari bilan bog’liq bo’ladi. Shuning uchun hali yoshiga to’lmagan bolalar har bir so’zni shu so’z orqali ifodalangan konkret narsalar bilan bog’lay olmaydilar. Boshqagha qilib aytganda, yoshiga etmagan bolalarda ayrim so’zlarni tushunish hali ikkinchi signal darajasiga (ya’ni signalning signali darajasiga) ko’tarilgan emas. Bu degan so’z shuki, hali yoshiga etmagan bolalar so’zlarni shu so’zlar orqali ifodalangan narsalar bilan assosiativ tarzda bog’lash orqali emas, balki intonasiya va imo- ishora, harakatlar orqali tushunadilar. Bolalar nutqining o’sishi ular idroki, xotirasi, tafakkuri, xayoli va irodasi kabi yuksak psixik jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, ilk yoshdagi bolaning psixikasi uning aktiv faoliyati, turli-tuman harakatlari, o’z atrofidagi narsalarni ko’proq bilib olishi jarayonida rivojlanar ekan, uning erkin harakatlari uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bola harakatlarini cheklash esa psixikasining normal rivojlanishiga ma’lum darajada zarar etkazadi. Shu sababli bolani harakat qilishga imkon bermaydigan holatga solib qo’yish haddan tashqari qattiq siqib yo’rgaklamaslik, uzoq vaqt yo’rgaklangan holatda qolib ketmasligi kerak. Bir yoshga to’lgan davrdan boshlab bolalarga ayrim gigienik odatlarni singdirib borish kerak. Odat qanchalik yoshlikdan boshlab singdirilsa, u shunchalik mustahkam, ya’ni odamning qalbiga shunchalik chuqur joylashadi. Bolalarga dastavval ozodalik odatlarini singdirib borish kerak. Buning uchun ovqatlantirishdan oldin, bolaning oldiga fartukcha yoki sochiqcha tutub qo’yish va ovqatni qoshiqda oz-ozdan olish kerak. Agar ovqat bolaning og’iz atroflariga surkalib tegib ketsa, shu zahotiy oq artib turish kerak. Ana shularning hammasi so’z bilan ifodalab bajarilsa, bola zehn solib turadi va tez orada shunga odatlanib qoladi. Keyinchalik ovqatlanishdan oldin fartukcha yo sochiq tutmasangiz, bolaning o’zi talab qiladigan bo’ladi.

4. Go’dak va muloqot, go’daklik davrida nutqning vujudga kelishi, kognitiv va pertseptiv jarayonlarni rivojlanishi uchun shart-sharoitlar

Sezgi o’z mohiyati jihatidan birmuncha sodda psixik jarayon (aks ettirish jarayoni) bo’lishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbaidir. Narsa va hodisalarning ayrim belgilarini, xususiyatlarini aks ettirishdan iborat bo’lgan sezish protsessining fiziologik mohiyati

mashhur fiziolog I.M Sechenov va I.P.Pavlovlarning analizatorlar haqidagi ta'limotlarida atroflicha ochib berilgan. Akademik I.P.Pavlov organizmning hissiy aks ettirish apparatlarini analizatorlar deb ataydi. Mana shuning uchun har bir sezgi organi analizatorlarning barcha qismlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, har bir analizator asosan uch qismdan iborat.

1) Tashqi ta'sirlarni qabul qilib oluvchi periferik qism (buni odatda retseptor deb yurgiziladi); 2) taassurotni markazga olib boruvchi (afferent) va markazdan tegishli javob reaksiyasini olib qaytuvchi (efferent) nerv tolalari; 3) analizatorning orqa yoki bosh miyadagi markaziy qismi.

Sezgi mana shu qismlarning yaxshi va ravon ishlashiga bog'liqdir. Analizatorlarning bironta qismi ishdan chiqsa, sezish bo'lmaydi. Demak, sezishning fiziologik asosida analizatorlar ishidan iborat bo'lgan organizmning reflector faoliyati yotadi.

Analizatorlarning asosiy vazifasi organizmga ta'sir etayotgan turli qo'zg'ovchilarni ayrim bo'laklarga ajratishdan, ya'ni analiz qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham sezgi organlari analizatorlar deb ataladi.

Sezgi va idrok rivojlanishi boshqa, tobora qiyinroq bo'lgan bilish jarayonlarining (xotira, hayol, tafakkur) paydo bo'lishi uchun zamin yaratadi. Rivojlantirilgan sensorika zamonaviy odamning amaliy faoliyati takomillashuvining asosidir.

Sensor tariya haqidagi sobiq sovet psixologlarining fikri g'arb olimlari qarashlarining psixologik asoslaridan prinsipial tarzda farq qiladi.

Har ikki tomon nuqtai nazarlari, avvalambor, bola sezgisi va idroki rivojlanishini harakatlantiruvchi sabablarini va uning bu jarayonda tarbiyaviy rolini tushuntirishda farqlanadi. Ko'pgina g'arb psixologlari sensor jarayonlar go'yoki bolada tayyor holda tug'ulganda mavjud bo'ladi. Sensor tarbiyaning maqsadi – bu jarayonlarni mashq qildirish deb hisoblaydi.

Rus psixologlarining nuqtai nazarlari bo'yicha rivojlanish yangi, bolada ilgari bo'lmagan sensor jarayonlarni shakllantirishdir. Albatta, analizatorlarning takomillashuvi (eshitish, ko'rish, teri tuyush, hid bilish va b.) sezgi va idrok rivojlanishining zarur shartlaridan va uning rolini aniqlash mumkin emas. Lekin bu faqat sensor rivojlanishning organik imkoniyati, sharti, biroq, bularning barchasi sezgi tajribasini egallamay turib sodir bo'lmaydi. Tafakkur, nutq, sensor tajriba ortishi natijasidir.

Sensor etalon bo'lib musiqiy tovushlar (do, re, mi,...), ona tilining tovushlar tizimi, geometrik figura, ranglar va boshqalar xizmat qiladi. Sensor namunalarni o'lchov tizimi tarzida egallash idrokni sifat jihatidan o'zgartiradi.

Bola hayotining dastlabki 1-yilida idrok rivojlanishi yo'li ancha murakkabdir. Bu davr mobaynida juda ko'p o'zgarishlar ro'y beradi, birinchi o'rinda bu o'zgarishlar sezgirlik sohasida sodir bo'ladigan rivojlanishga taalluqlidir.

Butun bog'cha yosh davri mobaynida ko'p sezgirligining o'tkirligi ortadi. Shuningdek, ko'z o'tkirligi darajasi faoliyat sharoitiga bog'liqligi ham aniqlangan – o'rin vaziyatida tadqiqot o'tkazilganda ko'zning o'tkirligi sezilarli darajada ortadi.

Bog'cha yosh davrida ranglarni farqlashda ham ancha os'ish kuzatiladi: aniq va tiniqligi ortadi.

Z.M.Istominaning tadqiqotlari bola hayotining ikkinchi yilida ixtiyorsiz tarzda to'rtda asosiy ranglarni farqlaydi: qizil, sariq, yashil, ko'k. Oraliq ranglarni differensirovka qilishda, ya'ni qovoq rang, havo rang va siyoh ranglarni ajratishda biroz qiynaladi.

Eshitish sezgirligi ham bog'cha yoshidagilarda o'ziga xos tarzdagi xususiyatlarga ega. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitishning nozikligi 13 yoshgacha bo'lgan bolalarda kattalarnikiga nisbatan ancha past bo'ladi va bu yosh ortishi bilan o'sib boradi.

5. Go'daklik davrining diagnostikasini o'ziga xosligi

Shaxsni psixologik o'rganishda eksperimental metodikalar majmui qo'llaniladi (S.Ya.Rubinshteyn (1970); B.V.Zeygarnik (1976); V.M.Bleyxer (1976); E.T.Sokolova (1980); L.F.Burlachuk, S.M.Morozov (1989). Lekin bolalar taraqqiyotini psixologik diagnostika qilish metodlariga bag'ishlangan amaliy tavsiyalar juda kam. (I.A.Sikorskiy, 1901; E.Klapared 1911; K.N.Kornilov, 1921; I.V.Kruk, 1983; A.S.Spivakovskaya, 1988). Pedagogika universitetlari va institutlari talabalari uchun pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan aniq psixologik metodlarni beradigan o'quv qo'llanmalar yo'q. Psixologiya bo'yicha mavjud o'quv qo'llanmalar esa talabalarni bolalarni psixologik o'rganish metod va metodikalar bilan juda oz darajada tanishtiradi. (V.S.Muxina, 1985; M.V.Gamezo, I.A.Domashenko, 1986).

Ik bolalik davrining psixodiagnostikasi turli yosh davrlarida bola rivojlanishini baholash imkonini beradigan uning psixik taraqqiyot

me'yorlariga mos yoki mos emasligini aniqlash, mavjud me'yordan chetga chiqishlarini aniqlash, uni tuzatishning individual choralarini rejalashtirish va oldini olish bo'yicha vositalar va metodlar majmuidan iborat.

Turli yosh davridagi bolalar guruhini tekshirishda psixodiagnostika metodikalari o'z xususiyatlariga ega. Masalan, chaqaloqlik davridagi bolalarni tekshirishda sensomotor harakatlarni o'rganishga mo'ljallangan metodlar qo'llaniladi: boshini ushlab turishi, predmetlarni ushlashi, o'tirishi, qayrilib qarashi, predmetning orqasidan ko'z bilan qarashi va boshqalar. (A.Anastazi, 1982). 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirishda sodda harakatlarni og'zaki qo'llanmalarni bajarishga qaratilgan topshiriqlar beriladi. Qalam va qog'oz, plastilin va boshqa o'quv vositalari qo'llaniladigan topshiriqlar bola katta bo'lgan sayin qiyinlashtirib boriladi.

Bolalarni psixologik tekshiruvda chet el va sobiq ittifoq psixologlari foydalangan an'anaviy metodikalarni ko'rib chiqamiz.

Sensomotor ta'sirlanish va diqqatni o'rganish uchun metodikalar

Insonning sensomotor sohasi asosiy nerv jarayonlari harakatchanligi tipini, ixtiyoriy diqqat darajasini, ishga qobiliyatlilik sur'atini xarakterlaydi. Ma'lumki, bola hayotining dastlabki yillarida jismoniy va ruhiy sifatlarining rivojlanishida sensomotor faollik bosh miya faoliyatida shartli reflektor aloqalarning mustahkamlanishiga imkon beradi (Ya.P.Frumkin, S.M.Livshits, 1979). Ular shu bilan birga temperament, iroda, hissiyot xususiyatlarining hamda bilish psixik jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi (E.A.Golubeva, 1980; E.B.AYurova, 1986).

Masalan, 1-2 yoshli bolalar sensomotor sohasini tekshirishda an'anaviy metodlardan foydalanib, u yoki bu harakat malakalarining qanday shakllanganligiga, ularning ma'lum yosh davridagi o'rtacha ko'rsatkichi qanchalik mosligiga e'tibor beriladi. Ko'pincha bu tadqiqotlar bolalar motor harakat rivojlanishidagi kechikishlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Harakat rivojlanishida kechikish mavjudligi keyinchalik bolaning barcha psixik taraqqiyotida kechikish sodir bo'lishining ob'ektiv zamini sifatida qaralishi kerak. Shu bilan birga, erta yurgan bola o'z tengdoshlarini barcha tomondan qoldirib ketadi, deb faraz qilish ham xatodir. Bola hayotining dastlabki ikki yilidagi umumiy jismoniy taraqqiyot bolaning keyingi aqliy taraqqiyotini belgilamaydi (P.H.Mussen, 1987).

Bolaning sensomotor sohada rivojlanish darajasi haqida uning atrofidagi turli predmetlar, jumladan, o‘yinchoqlar bilan harakat qilish xususiyatlari darak berib turadi. O‘yinchoqdan diagnostik qurol sifatida foydalanish uning tevarak-atrofidagi hodisalarni bilishga intilishi va faollik darajasi hamda predmetlardan foydalanishda amaliy ko‘nikmalarning mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Kattaroq bolalarni tekshirishda konkret psixologik metodikalardan foydalanish mumkin. Chunki xuddi shu davrdan boshlab, so‘zli topshiriqlarni bajarish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni tushuna boshlaydi, unda zarur shaxsiy sifatar shakllangan, bilishga qiziqish rivojlangan, u kattalar bilan birga eksperimental psixologik tadqiqotlarda nisbatan uzoqroq ishtirok etish holatida bo‘ladi.

“Aqliy hujum” texnologiyasi

Chaqaloqlik davrida psixologik rivojlanish - bu

3x4 texnologiyasi

Jonlanish kompleksi – bu

Ernotsional taraqqiyot – bu

Go‘daklik davri – bu

Ushbu bobda biz chaqaloqlik va go‘daklik davrida bolaning sensor, kognitiv, perseptiv rivojlanishi hamda ularda nutqning shakllanishi, ushbu yosh davridagi psixodiagnostikaning o‘ziga xosligi haqida to‘xtalib o‘tdik.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. Chaqaloqlik davrida jismoniy rivojlanish xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Chaqaloqlik davrida psixologik rivojlanish xususiyatlarini so‘zlab bering?
3. Go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Go‘daklik davrida nutqning vujudga kelishi, kognitiv va perseptiv jarayonlarni rivojlanishi uchun shart-sharoitlar haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Chaqaloqlik davri bu-

A. jismoniy jihatdan juda tez rivojlanish davri, ona suti bilan ovqatlanadigan davr

B. jismoniy jihatdan juda tez rivojlanish davri

***C.** Kam harakat davr va “nutqsiz” davr

D. Ona suti bilan ovqatlanadigan davr

2. Yangi tug'ilgan bolaning boshi gavdasining necha qismini tashkil qiladi?

A. $\frac{1}{3}$ qismini

B. $\frac{1}{2}$ qismini

C. Gavdasi bilan teng qismini

D. $\frac{1}{4}$ qismini

3 Chaqaloq bola minutiga necha marta nafas oladi?

A. 90-100 marta

B. 20-25 marta

*C. 50-60 marta

D. 70-80 marta

4. Normal tug'ilgan bolaning o'rtacha vazni qanchaga teng?

A. 2000-3000 gr

B. 4000-5000 gr

C. 2800- 3000gr

*D. 2800-3500 gr

5. Chaqaloq bolalar psixikasining rivojlanishi nimalar bilan bog'liq?

A. analizatorlarning takomillashuvi

B. shartli reflekslarning yuzaga kelishi

*C. analizatorlarning takomillashuvi, mustaqil harakatlarning o'sishi

D. mustaqil harakatlarning o'sishi, kop ovqatlanirish va vitaminlar berish

V. ILK BOLALIK DAVRI

Reja :

1. Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv rivojlanish.
2. Bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarining rivojlanishi.
3. Ilk bolalik davrida nutqning o'sishi.
4. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida etakchi faoliyat sifatida.
5. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglash.
6. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot diagnostikasi.

Maqsad: Ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlarini bayon etish.

Vazifa: Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv va nutqning rivojlanishi, bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarini rivojlanishi, nutqning o'sishi, aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida etakchi faoliyat sifatida, o'z-o'zini anglash usullarini bayon etish.

Tayanch tushunchalar: Ilk bolalik, egotsentirizm, predmetli faoliyat, o'z-o'zini anglash.

1. Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv rivojlanishi

Ilk bolalik davri: go'daklik davridan so'ng rivojlanishning yangi bosqichi - ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkoni bolani, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga zamin bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladilar.

Ilk bolalik davridagi psixologik yangilik


***Bola
tomonidan
o'zining
atrofidagilari
dan ajralishi***

***O'zini harakat
subyekti
sifatida
anglashi***

***Boshqa
kishilar bilan
taqqoslasho***

Yurishni o'rganish bolaning jismoniy o'sishi uchungina emas, balki uning psixik taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Bolaning mustaqil harakat qilishi – yurishi tufayli ko'plab predmetlarga duch keladi, ularning nimalarga ishlatilishini «amal»da ko'rib biladi va o'zi ham ulardan kerakli o'rinda foydalana boshlaydi. Bola yurishni o'rgangach, fazoni ham bila boradi. Kichkintoy bolalar «yaqindagi» fazoni qo'llarining harakati yordamida bilib oladilar, bunda ko'z ham ishtirok eta boshlaydi. Bog'chagacha yoshdagi bola «uzoqdagi» fazoni orientirovka qila boshlaydi. Bola yura boshlaganda, o'z oyog'i yordamida masofa va yo'nalish bilan tanishadi, uning ko'z, qo'l va oyoqlarining o'zaro kelishib harakat qilishi, boshlang'ich ko'z o'lchovi o'sadi hamda masofa va predmetlarning turgan joylarini birmuncha aniq aytib berish ko'nikmasi vujudga keladi.

Bog'chagacha bo'lgan yosh davrining birinchi yarmida bolalar predmetlar bilan harakat qilib, tanishib boradilar. Harakatlarning barcha koordinatsiyasi bolada barqaror diqqatning rivojlanishiga, idrokning aniq bo'lishiga va iroda kuchining o'sishiga olib keladi. Ammo bolalarning harakatlari kattalarning harakatlariga taqlid qilish xarakteriga ega bo'ladi. Biror bir harakatni o'z vaqtida o'zlashtirishi bilan bola uni asta-sekin mustaqil bajara boradi, bu harakat unda dadillik, ishonch va sabrmatonatlilik kabi ijobiy xislatlarning tarkib topishiga yordam beradi.



Bola hayotining uchinchi yilida, ya'ni organizmning intensiv o'sishi va rivojlanishi davrida harakatlarning kam bo'lishi bolaning umumiy o'sishiga salbiy ta'sir etadi.

Shu sababli asosiy harakatlar (yurish, yugurish, predmetlarga tirmashib chiqish) bilan birgalikda, qo'l harakatlariining ham to'g'ri va o'z vaqtida rivojlanishi haqida g'arxo'rlik qilish zarurdir. Bolaning harakatlarini asosan uning kundalik faoliyati jarayonida o'stirib borishga e'tibor berish kerak. Masalan, mustaqil ravishda yuvinish, kiyinish, ovqatlanish, gigienik mashqlar, o'yin va boshqalar.

Har xil harakatlarni bajarish va predmetlar bilan harakat qilish tevarak-atrofdagi olamni bilishga olib keladi. Bola predmetlarning fazodagi o'mi, joylanishi, sifati, hajmi, shakli va holatlari bilan tanishadi. Bularning hammasi sezgi organlarining o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Bir yoshlik bola nisbatan yaxshi rivojlangan sezgirlikka egadir. Bola bog'cha davrining boshlanishida ba'zi tovushlarni, o'ziga yaqin kishilarning ovoz tempini aniq ajrata oladi, ba'zi bir narsalarning ta'mi va hidini farq qiladi, ranglarni taniy boshlaydi. Bu yosh davrida ko'rish va eshitish analizatorlarining rivojlanishi ayniqsa yuksak darajaga yetadi. Bola asosiy ranglarni bir-biridan farq qiladi. Lekin bolaga ranglarning nomini aytishga qaraganda, ularni bir-biridan ajratish osonroqdir. Bolalar ranglarni bilsalar ham, bu sohadagi o'z bilimlaridan yetarli darajada yaxshi foydalana olmaydilar. Bolalar qizil rangni osonlik bilan ajrata oladilar-u, binafsha rangni ajratishda ko'pincha yanglishadilar. Ko'pincha bolalar har bir rangning tusini, tovlanishini yaxshi ajrata olmaydilar.

Bu yoshdagi bolalar uchun idrok qilinayotgan predmet obrazlarining bir-biriga o'xshashib ketishi xarakterlidir. Masalan, ular olmani biladilar, olma bolaga bir butunligicha tanish, lekin bola olmaning rangini ham, shaklini ham alohida holda ajrata olmaydi. Predmetni har tomonlama ko'ra bilish, ya'ni uni qismlarga ajratish, belgi va turlariga qarab farqlash — uni analiz qilish demakdir. Bu esa bolaga butunlikni tushunish imkonini beradi. Shu sababli, bolalarni yangi predmetlar bilan tanishtirganda, ularni bir-biridan ajratib turadigan shakli, rangi va qismlariga e'tibor berish lozim. Mana shunday tarbiyaviy ta'sir natijasida bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlari o'sadi. Bola bir yarim yoshga borganda, o'zlari tez-tez uchratib turgan predmetlarni, ularning rangi, hajmi, shaklining o'zgarishidan qat'iy nazar, xatosiz tanib oladilar. Bola ikki yoshga to'lay deganda, tanish kuy va tovushlarni bilib oladi. Borliqni bilish jarayonida bola o'z hayotida va tevarak-atrofidagi kishilar turmushida o'rnatilgan tartibni tushuna boshlaydi. Bu olamni bilishning eng muhim tomoni bo'lgan zamon - vaqtni bilib olishi uchun asos bo'ladi. Bolaning organizmi ma'lum tartibga ko'nika boshlaydi, bu vaqt bilan tanishishdagi dastlabki qadamdir. Keyinchalik bolalar tabiat hodisalari va odamlarning kundalik hayoti singari tushunchalarni anglay boshlaydilar. Albatta, buning uchun kattalar bolalarning e'tiborini hayotning muhim belgilariga qaratishi lozim. Bolaning har bir sezgan va idrok etgan narsalari o'ziga xos sezgilar bilan mustahkamlanishi kerak. So'z bolaning ko'rayotgan predmetlarini tushunib olishini osonlashtiradi, predmetni so'z yordamida bilib olish ko'z va quloq ishini kuchaytiradi.

Bolaning aqliy jihatdan o'sishida makon va zamon haqidagi tushunchalarni anglashga yordam beradigan so'zlarni o'zlashtirib olishi muhimdir. Predmetlar o'rtasida mavjud bo'lgan har xil fazoviy belgilarning (masalan, katta oraliq, tor oraliq) va turli fazoviy munosabatlarning nomlarini (o'ngda, chapda, orqada, bir qatorda) bilib olish natijasida bolalar predmetlar o'rtasidagi bu munosabatlarni ajratib olishga o'rganadilar. Shu tariqa, nutq predmetlarning belgilarini differensiyalash va umumiyalashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, so'z birinchi signal sistemasi bilan bevosita bog'lanmagan lozim. Ikki-uch yashar bolalardagi idrok o'zining yetarli darajada o'smaganligi va beqarorligi bilan ajralib turadi hamda bir kuzatish ob'ektidan ikkinchi kuzatish ob'ektiga tez-tez ko'chib turishi bilan xarakterlanadi. Yaltiroq, chiroyli, ko'zga tez tashlanadigan predmetlar bola diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bog'chagacha bo'lgan yosh davridagi bolalar idroklarini qo'yilgan vazifa asosida tashkil eta

olmaydilar, ulardagi bu xil idrok juda qisqa muddatli bo'ladi. O'zlaridan uzoqda turgan predmetlarni idrok qilishda ayniqsa ko'p xato qiladilar. Bolada idrok asta-sekin mustaqillashib, ma'lum maqsadga tayangan bo'ladi, kuzatuvchanlik rivojlana boradi. Bola o'zini qiziqtirayotgan narsaga uzoq vaqt qarab, uni kuzatishi, o'sha predmet to'g'risida biror narsani so'rashi mumkin.

Lekin bola hali predmet va hodisalarni har tomonlama kuzatib, uning asosiy, muhim tomonlarini ajratib, ayrim elementlarini o'zaro bog'lab olishning uddasidan chiqqa olmaydi. Bolada kuzatuvchanlikni o'stirishda sayr va ekskursiyalar muhim ahamiyatga egadir. Bunda bolalar kattalarning rahbarligida tevarak-atrofdagi predmet va hodisalarda o'zlari uchun yangi bo'lgan muhim va qiziqarli narsalarni aniqlashga o'rganadilar. Rasmlarga qarash, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish idrokning o'sishiga juda yaxshi ta'sir etadi.

Ilk yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi - predmetlarni o'rganishi, predmetlar bilan manipulyativ harakat hisoblanadi.

2. Bola tafakkurida egotsentirizmming yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarini rivojlanishi

Ilk bolalik davridagi bolalar so'zlay boshlagan bo'lishiga qaramay, ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni to'g'ri idrok qila olmaydilar, chunki ularda hali turmush tajribasi yo'q. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin-asta hosil qilib boriladi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz bo'lsa, ikki yoshga to'lgan bolalarning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi. Bola o'sib ulg'aygan sari uning diqqati barqarorroq bo'la boshlaydi. Diqqatning ozmi-ko'pmi barqaror bo'la boshlagani shunda ko'rinadiki, bola o'zini qiziqtirgan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shug'ullana oladi. Ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'ygach so'zlarni tushunadi. So'z boyligi orta borgach, bolaning o'ziga xos bo'lgan situativ tili haqiqiy tilga aylanadi.

Bu yoshdagi bolalarning tafakkurlari o'ziga xos xususiyatlarga hamda konkret xarakterga ega. Ular ayni chog'da idrok qilib turgan narsalari haqida juda sodda tafakkur qila oladilar. Bundan tashqari, bu yoshdagi bolalarning tafakkur jarayonlarida harakat elementlari ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham ularning tafakkurlari ba'zan harakatli tafakkur deb ham yuritiladi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda hali tafakkurning fikriy operasiyalarini, ya'ni analiz, umumlashtirish kabilarni ko'ramiz. Ular

qo'llaridagi o'yinchoqlarini yoki qo'llariga tushgan narsalarni amaliy aylantirib, paypaslab, buzib analiz qiladilar. Lekin sintez qilishga hali qurbi etmaydi. Bu yoshning oxiriga kelib tafakkurning o'sishida nutqning ro'li juda oshadi. Bola yangi so'zlarni mumkin qadar ko'proq bilib olib, ulardan o'z tafakkurida keng foydalana oladilar. Bu esa fiklash operasiyalarining o'sishiga yordam beradi. Bolada so'zlar vositasi bilan analiz va sintez qilish, abstraksiyalash hamda umumlashtirishning dastlabki alomatlari ko'rina boshlaydi.

Tafakkurning o'sishida yana bir muhim bosqich shundan iboratki, ilk bolalik yoshining oxiriga kelib bola ayrim tushunchalarni bilib olishga va bu tushunchalarning eng muhim belgilarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Uch yoshga to'lay deb qolgan bola, katta yoshdagi hamma odamlarning ishga barvaqt ketishlarini juda yaxshi biladi. Agar bu yoshdagi bolaga "adang endi barvaqt ishga ketmaydi" deyilsa, u hayron bo'lib qoladi. Chunki katta odam bo'lgan adasining ishga bormasligi, uning tushunchasiga to'g'ri kelmaydi. Uning tushunchasida hamma katta odamlar barvaqt ishga ketishi kerak. Shuning uchun hech bir o'ylab o'tirmay, "adam kattalar-ku?" deb javob beradi. Bolalar tushunchalardan foydalanib, sodda xulosalar chiqarishga o'rgana boshlaydilar. Ular bir necha hukmlardan foydalanib, katta, kichik, baland, past, ko'p, oz kabi sodda xulosalar chiqara oladilar, bu esa tafakkurning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bo'lmish xayol anchagina rivojlana boshlaydi. Lekin bu asosan ixtiyorsiz xayol bo'ladi. Ular hali ma'lum maqsad asosida ixtiyoriy tarzda xayol yurgiza olmaydilar.

Bola ikki yoshga to'lgach, uning o'yinlarida jiddiy o'zgarish ro'y beradi. Bolaning o'yiniga endi taqlidiy harakatlar qo'shiladi. Bola kattalardan ko'rgan-bilganlarini o'yinda taqlidan takrorlay boshlaydilar. Bu davrda bola mashinasini y yoqdan bu yoqqa siljitish yoki tepalikdan sirg'antirib tushurish bilan cheklanmay, haydovchilarning harakatlarini bajaradilar. Mashinaning motori ovoziga taqlid qilib ovoz chiqaradi, mashinada yuk tashiydi va hokazo.

Nutqning o'sishi bola xayolining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar kattalarning gaplariga tushunadigan bo'lgach, har xil ertak va hikoyalarni qiziqib tinglaydigan bo'ladi. Bolalar o'zlari biladigan, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan narsalar haqidagi hikoyalarni joni dili bilan eshitadilar. Har bir hikoyani eshitganda bolada xilma-xil tasavvurlar yuzaga keladi. Bola bu tasavvurlari yordamida xayol qilish

qobiliyatiga ega bo'ladi. Bola hikoyalarni eshitish orqali olgan tasavvurlarini so'zlar bilan ifodalaydi. So'z esa bolaning narsalarni boshqacha idrok qilishga, ularning boshqa narsalarga o'xshashligini aniqlashiga va ana shunday o'xshashliklarni aniqlash asosida yangi obrazlar, yangi tasavvurlar yaratishga yordam beradi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma'lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga zamin yaratadi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o'sgan bola tevarakatdagi har xil narsalarga ongli munosabatda bo'la boshlaydi. Bola o'zining turli ehtiyojlarini anglab, o'zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashhur fiziolog I.M.Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab, o'z sezgilarini tevarak atrofdagi narsalardan ajratib, o'z-o'zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligida o'z shaxsini bildiruvchi "men" degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo'ladi. Ana shu tariqa bola juda elementlar rarzda bo'lsa ham o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab ilk bolalik davridagi bolalarning shaxsiy (individual) xususiyatlari kamol topa boshlaydi.

3. Ilk bolalik davrida nutqning o'sishi

Go'daklik davridagi bolalarga nisbatan, ilk bolalik davridagi bolalar atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan ko'proq qiziqish bilan qaraydilar. Agar, go'dak bola qo'liga ushlagan narsani oddiy harakatlar bilan kuzatsa, 2-3 yoshdagi bola shu predmet qismlarini diqqat bilan o'rganganidan so'nggina, o'z amaliy faoliyatida ishlata boshlaydi. Bolani dastlab, ayni shu predmetlarning qo'llanish vazifasi, mohiyati qiziqitirib, u o'z savoliga javob olish maqsadida ko'pincha kattalarga "*Bu nima?*" degan savol bilan murojaat qiladilar. 1-3 yoshdagi bola shakllanishda psixik rivojlanishning o'ta ahamiyatligini inobatga olgan holda, ayrim psixologlar (R.Zazzo) inson tug'ilganidan to yetuklik davrigacha bo'lgan psixik rivojlanish asosining taxminan o'rtalari, 3 yoshga to'g'ri keladi, degan mulohazani bildiradilar. Bu yoshdan boshlab, bolalar predmetlarni o'rganish olamiga qadam qo'yadilar. U endi kattalar bilan nutq orqali muomala-munosabatda bo'la oladi va sodda axloq qoidalarga amal qila boshlaydilar. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi. Nutq - bu yoshlarda nafaqat muloqot, balki bola tafakkurining rivojlanishi va o'zini-o'zi, shuningdek, bilish jarayonlarini boshqarish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Uch yoshli bolalarda hukmning oddiy turlarini ko'rish mumkin. Bu hukm turlari doimo faqat o'zi bevosita idrok qilayotgan va yakka predmetlarga taalluqli bo'ladi. Bola 2,5 yoshga yetganda savollar bera boshlaydi. Avval savollar ko'proq predmetlarning nomi to'g'risida bo'lsa, keyinchalik savollar asosan predmetlarning qanday maqsadlarda qo'llanilishi va nimalarga ishlatilishi to'g'risida (masalan, bu nima?, bu bilan nima qilinadi?, bu nimalarga ishlatiladi? kabi) bo'ladi. Hozirgi zamon, o'tgan zamon va umuman vaqt to'g'risidagi aniq tasavvur tushunchasi fazoviy tasavvurlarga nisbatan ancha kech paydo bo'ladi. Bola predmetlar bilan ko'proq aloqa qilishi, ular bilan munosabatda bo'lishi va ularning xususiyatlarini tekshirib ko'rish kerak. Bu bilan unda dastlab ayrim predmetlar va hodisalar haqida tasavvurlar to'plana boradi va keyinchalik shular zaminida umumiy tasavvur va tushunchalar hosil bo'ladi, mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi. 2-3 yoshli bola ko'p narsani ko'rishni, ko'p narsani bilishni va tushunishni istaydi, bu uning qiziquvchanlik va sinchkovlik xususiyatidan kelib chiqadi. U hamma joyga «tiqladi», kattalarga halaqit berib, ularning tinkasini quritib juda ko'plab savollar beradi.

Kattalar mana shu savollarning hammasidan bolalarda tafakkurni o'stirish va tevarak-atrofdagi olamni turli tushunishni tarbiyalash maqsadida foydalanishi g'oyat muhimdir. Bola o'z savollariga tushunarli javob olganidan keyin, bu ma'lumotlarni o'z o'yinlarida aks ettiradi va shu yo'l bilan ularning xotirasida mustahkam saqlanib qoladi. Bola tevarak-atrofdagi olamni kattalarning tushuntirishi bilan bir vaqtda kuzatsa, atrofdagi olamni yaxshiroq tushuna boshlaydi, narsa va hodisalarni solishtiradi, ularning ayrimlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni va buning sabablarini aniqlaydi. Mana shuning o'zi bolada ancha umumlashgan tafakkur paydo bo'layotganidan darak beradi.

Bola tafakkurining rivojlanishi nutqning o'sishi bilan mustahkam bog'langandir, nutqning o'sishi tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi, chunki so'z narsa, predmet va harakatlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. O'z navbatida, tafakkurning rivojlanish darajasi so'z zaxirasining oshishiga, umuman, nutqning o'sishiga yordam beradi.

Bu yoshdagi bolalarning yana bir muhim yutug'i, ona tilini o'zlashtirib olishlaridir. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davr nutqning jadallik bilan o'sish davri hisoblanadi.

Nutq bola hayotining ikkinchi yilida ikki bosqichda tarkib topadi. Dastlabki bosqich birinchi yoshning oxiridan bir yarim yoshgacha bo'lgan davr bo'lib, bolada bu davrda asosan kattalarning unga murojaat

qilib aytilgan gapini tushunish qobiliyati o'sib boradi. Bolaning lug'at boyligi ayniqsa bir yoshdan keyin, ya'ni yurishni o'rganib, tobora ko'p predmetlarga duch kela boshlagan davridan boshlab tez o'sa boradi. Bola predmetlarning nomini tez bilib oladi.

Bola ikki yoshga to'lganda, harakatlarning ham nomlarini bilib oladi. Bu harakatlarga bolaning o'zi bajaradigan yoki kattalar tomonidan bajarilgan, nomi aytilgan va bola kuzatib borgan harakatlar kiradi. Bu «passiv» nutq hisoblanadi, chunki bola so'zlarni tushunadi-yu, lekin ularni talaffuz qila olmaydi.

3 yoshlar arafasida predmetlarning vazifalarini to'la o'zlashtirgan bolalar, o'z o'yinlarida, shu predmetlardan maqsadsiz foydalanib qolmay, balki ularni o'z vazifalariga ko'ra ishlatadilar. Bolaning nutqi u 1,5 yoshga yetgungacha birmuncha sekinlik bilan rivojlanadi. Bu davr ichida u 30-40 ta so'zdan, to 100 tagacha so'zni o'zlashtiradi, lekin ularni analiyotda juda kam qo'llaydi. 1,5 yoshdan boshlab esa, uning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. Endi bola predmetlarning nomlarini aytishlarini so'rabgina qolmay, balki bu so'zlarni o'zi talaffuz etishga ham harakat qiladi. Nutqining rivojlanish darajasi jadallashadi. 2 yoshlarning oxirlariga borib, bola 300 tagacha, 3 yoshlarning oxirlariga borib esa, 500 dan to 1500 tagacha so'zni o'z nutqida ishlata oladi, Shuningdek, so'zlarni ham aniq talaffuz etib, jummalarni to'g'ri tuza oladilar. 1,5 -3 yoshlar nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola bilan so'zlashayotganda kattalar so'zlarni aniq talaffuz etishlari va boladan ham aniq talaffuzni talab etishlari lozim.

Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llash mumkinligini anglash, bola uchun atrof-olamni bilish, o'rganishidagi ahamiyatli burilish hisoblanadi va u dastlabki tasavvurlarini yuzaga keltiradi. Bu yoshdagi bolalar endi, asta-sekinlik bilan kattalar aytib berayotgan ertak, voqea yoki hikoyalarni, shuningdek rasmda chizilgan narsalarni tasavvur eta oladilar. Ertaklarni eslitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir: o'xshatishga harakat qiladi, ba'zida esa u o'zi mustaqil ertak yoki hikoyalarni to'qiy olishi ham mumkin. Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy vazifa hisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bolaning hayotiy tajribalarni o'zlashtirishida dastlab harakatli, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bu borada harakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular ertak, she'r va hikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday

eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv tizimining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof hayoti haqidagi voqea va hodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni hali to'liq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Ilk bolalik davridagi bolalarning analizatorlari yahshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo'lganliklari tufayli bu davrda psixik jihatdan tez rivojlanadilar. Ma'lumki, ilk bolalik davridagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay, yugurish, sakrash hamda baland va past to'siqlardan oshib o'tish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevarak-atrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda katta sharoit yaratib beradi.

Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bo'lgani uchun hamma narsa qiziqtiradi. U o'zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o'zlashtira boshlaydi. Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bola o'zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko'z o'ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko'radi. Natijada juda ko'p yangiliklarni bilib oladi, o'zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va hayolini - umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi.

Bu yoshdagi davrda sezgilarning rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog'liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to'qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Sezgilarning normal rivojlanishi bola idroki o'sishi uchun zamin yaratadi.

Ilk bolalik davridagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo'lsa ham hali katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Birinchidan, bolalarda turmush tajribasi yo'qligi tufayli ularning idroklari ham anglashilmagan xarakterga ega bo'ladi. Ular ko'p narsalarga birinchi marta duch keladilar. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko'p narsalar ularga yangilik, ya'ni dastlabki taassurot kuchiga ega bo'ladi. Ikkinchidan esa, bolalarning idroki ko'pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo'ladi, ya'ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko'zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor

Bolada tilning grammatik ko'rinishini o'rgangan tadqiqotchi olimlar

F.A.Soxin

L.S.Slavina

D.E Ikonin

P.Ya.Galperin

K.I.Chukovskiy

M.I.Popova

A.R.Luriya

**Bola nutqining faollashishiga
Ta'sir etuvchi omillar**

Bolaning qiziqishlariga e'tibor berish, uning mazkur yoshiga xos kattalar bilan muloqotiga e'tibor qaratish kerak;

Bolaga nisbatan murojaat qilishganda aniq ravon, unchalik baland bo'lmagan ovozda, hamda bolaga tushunarli bo'lgan sharoitda gapirish lozim

Muloqot jarayonida uy jihozlari, predmetlar nomlarini kiritish va predmetlar bilan harakat jarayonida emotsional uyg'unlashgan o'rtakona harakatlar bilan boyitilgan hikoyalarni aytish kerak;

Ertak she'r aytish, birgalikda yorqin chiroyli kitoblarni tomosha qilish;

Bolaning gapirishga undovchi vazifalar berish lozim (aytish, derafl berish, chaqirish)

Ilk bolalik davrida kattalar bilan mukammal muloqotning tavsiyalari quyidagilar:

Kattalarga nisbatan yetakchilik harakat xususiyatlari orqali ularning e'tiborini tortishga intilish;

Kattalar bilan predmetli hamkorlikni afzal bilish, o'zining faoliyatlarida kattalarning ishtirok etishini talab qilish;

Ishonuvchaniik, kattalarga nisbatan ochiqlik va emotsional munosabatda bo'lish, unda o'z tuyg'usini uyg'onishi va erkalanishga nisbatan ta'sirchaniik, turli xildagi oiqishlar va qo'llab-quvvatlashlar;

O'zaro aloqada nutqni faol ishlata olish

ko'chib keta beradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo'lgani uchun ular o'zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qiladilar.

Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtira olmaydilar. Atrof-muhitdagi narsalarni qanday bo'lsa shundayligicha idrok qiladilar. Bu xususiyat ularning rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, ikki yarim yashar bolaga otning kallasi solingan surat ko'rsatilsa, hayron bo'lib, otning o'zi qani, deb so'raydi.

Bolalar idrokining takomillashuvida so'z katta ahamiyatga ega. So'z mohiyati jihatidan umumlashgan xarakterga ega bo'lib, u narsalarni umumlashtirish imkonini beradi. Bola so'z yordamida o'xshash narsalarni oddiygina guruhlariga ajrata boshlaydi.

4. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida etakchi faoliyat sifatida

Ilk bolalik davridan boshlab bola uni o'rab turgan predmetlarning xususiyatlarini va ular orasidagi oddiy bog'liqliklarni anglashga harakat qiladi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko'rinishlarini tashkil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, tizimli ravishda ko'rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko'zga tashlanib turadigan belgisiga o'z e'tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko'ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko'z bilan chamalab, harakat qilishiga o'tishda namoyon bo'ladi, endi u predmetning bo'laklarini ushlab ko'rmasdan, balki chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning ko'rsatgan namunasi, rangi, shakli va kattaligiga ko'ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan holda to'g'ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda ko'p predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi. Lekin, bola rasm chizishni boshlash davrida predmetlarning rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g'riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (qizil, olov rang, sariq, yashil, ko'k, siyohrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan har xil narsalarda turlicha namoyon bo'lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni

idrok etganlari bilan nomlarini aniq bilishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan rang va shakllarni eslab qolishlarini talab etishlari noto'g'ridir, buning uchun mos davr 4-5 yoshlar hisoblanadi.

Bola 3 yoshigacha o'zlashtirgan so'zlar asosan predmet va harakatlarning nomlarini bildiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatadi, bunda predmet yoki harakatning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham uning nomi o'zgarmaydi. Shuning uchun ham bola predmetlarning nomlarini ishlatilishini vazifalariga bog'lagan holda tez o'zlashtiradi. Idrok o'ssa, xotira takomillashadi. Xotira bolaning taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga egadir.

Ilk yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Diqqatning ko'p chalg'ishi bu yoshdagi bolalar diqqatining xarakterli xususiyatidir, chunki psixik hayot doimiy ravishda tashqaridan bo'ladigan yangi o'zgaruvchilarga muhtoj bo'lib turadi. Ammo ob'ektga bo'lgan qiziqish qancha aniq va ravshan bo'lsa, bolaning ixtiyorsiz diqqati shuncha barqaror bo'ladi. Ixtiyorsiz diqqatning kelgusi taraqqiyoti qiziqishlarning boyib borishiga bog'liqdir. Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat endigina vujudga kela boshlagan bo'ladi.

Uch yashar bolaning xayol obrazlari tevarak-atrofdagi predmetlarning ta'sirida tug'iladi va ma'lum maqsadga bo'ysunadi. Bola qo'g'irchoqni ko'rib bo'lgandan keyin, uni kiyintiradi va «uxlashga» yotqizadi. Bordi-yu, shu on «ayiqcha»ni ko'rib qolsa, diqqatini qo'lidagi qo'g'irchoq qolib, ana shu «ayiqcha»ga qaratadi va u bilan «o'rmonga sayr qilishga» ketadi. Bolada tajriba ortib borishi bilan xayol ham boyib boradi. Kichkina bolalarda xayol ancha rivojlangan bo'ladi. Lekin bola xayoldagi obraz bilan borliqdagi idrok qilayotgan narsa va predmetlarni aralashtirib yuboradi. Shu sababli bola xayoliga ta'sir etuvchi vositalar ichida ertaklar muhim o'rin egallaydi.

Ilk bolalik yoshidagi bolaning xayoli predmetlar bilan qilinadigan harakatlarga bog'liqligi bilan farqlanadi. Bu yoshdagi bolalarda nutq va tafakkur xususiyatlari o'z hayotining birinchi yilida sodda assotsiatsiya, ya'ni har xil tasavvurlarni bir-biri bilan bog'lash qobiliyatiga ega bo'ladi. Masalan, u sutli shishani ko'rish bilan xursand bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan bolaning assotsiatsiyasi murakkablashib boraveradi. Bola bir yoshga to'lay deganda, onasining ko'chaga kiyadigan kiyimini olib

kelayotganini ko'rib, xursand bo'ladi. Vrachning tekshirishidan yomon ta'sirlangan bolalar xalatlil odamlardan qo'rqa boshlaydilar.

Bola o'z hayotining ikkinchi yilida fazo munosabatlarini aniqlay boshlaydi, xonaning ichidagi predmetlar orasida o'zini to'g'ri tutish malakasini egallab boradi.

Bolaning yoshi ulg'ayishi bilan unda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish ortadi. Kichiktoyidagi sinchkovlik va har narsaga qiziquvchanlik uning kelgusi hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Bola hamma narsani o'zi ko'rishni va eshitishni istaydi. Lekin bolaning hayoti va rivojlanishi uchun ko'rish va eshitish sezgilari asosida vujudga keladigan taassurotlargina emas, balki hid va muskul-harakat sezgilari orqali oladigan taassurotlar ham juda muhimdir.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishga harakat qila olganidan so'ng, uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko'rgazmali-harakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liqliklarni o'rganishga xizmat qiladi. O'zidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo'l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin. Lekin, ular turlicha bo'lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash 2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb hisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola cho'pni qoshiq yoki termometr o'rnida, yog'ochdan yasalgan krovat yoki mashina o'rnida foydalanishi mumkin.

Bola ikki yoshlarga borib, amaliy tafakkurdan birinchi marta foydalana oladi, uchinchi yoshida esa ba'zi tanish harakatlardan konkret masalalarni hal qilishda mustaqil foydalana boshlaydi. Masalan, bu yoshdagi bola vazadagi tugmachani qo'li bilan solib, ololmasa, u vazachani to'ntarib olaveradi. Tafakkurning bu boshlang'ich shaklini ba'zan «qo'l tafakkuri» ham deyiladi. Tafakkurning bu shakli bola aqliy tarqiyotining kelgusi bosqichi uchun juda zarurdir.

5. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglash

Bu davrdagi bolalarning xatti-harakatlari ularning xohish va hissiyotlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, bolaning yig'lashi hamda yig'idan

to'xtashi juda tez o'zgaradi. Ilk davrda bolada o'z yaqinlariga: onasi, otasi, buvi-bualari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Bola o'z yaqinlaridan maqtov olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o'zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof muhitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini himoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishiga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o'z «Men»ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o'zini, o'z xohish va ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va bu uning *“Menga bering”, “Ko'taring”, «Men ham boraman»* kabi talablarida ko'rinadi. Uch yoshli bolalar o'zlarini o'zгалar bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o'z-o'zini baholash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo'lish ehtiyoji yuzaga keladi va bu ularning *«o'zim qilaman»* qabilidagi so'zlarida namoyon bo'ladi.

3 yoshdagi inqiroz: 3 yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (huquqi bo'lgan), ular bajara oladigan harakatlarni bajarishga intiladi. *“Men katta bo'lsam mashina haydayman”, «Men sizga katta tort olib kelaman», «Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi»* kabi xohishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa ham o'zining barcha xohishlarini shu bugun amalga oshirishga harakat qiladi. Ko'pincha bunday xislat qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan bolaning kattalarga bildirgan salbiy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Bola o'zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda *«o'zim qilaman»* boshlanadi va bu yana qaysarlik va o'jarlik tarzida ko'rinadi. 3 yoshdagi inqiroz bola shaxsining ma'lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglashi natijasi hisoblanadi. Inqiroz davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha xususiyatlar uni shaxs bo'lib shakllanishiga tayyorlaydi.

Uch yoshgacha bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi asosiy yangi o'zgarishlar

Yosh davrlari	Bilishi	Harakati	Muloqoti
3 yosh	Nutqning shakllanishi. Ko'rgazmali harakat tafakkurning rivojlanishi. Obrazli tafakkurning dastlabki nishonalari. Atrof-muhitdan o'zini ajratishi; qat'iylikni anglashi	Qo'l predmetli harakatlarning rivojlanganligi o'z xatti-harakatlarini irodaviy boshqarishning ko'rinislari	O'z-o'zini anglashning yuzaga kelishi. Dastlabki axloqiy qoidalarni egallashi
2 yosh	Faol nutqni tushunishi va o'zida yuzaga kelishi	Qo'l va funksiyalarining aniq belgilanishi	Xarakter asoslarining shakllanishi

1 yosh	Nutqni tushunishning dastlabki belgilari	Mustaqil holda tik turish va yurish	Nutqni qo'llashning dastlabki belgilari
10 oylik	Sensomotor intellektning rivojlanishi	Mustaqil holda tik turish va yurishga harakat qilish	Bog'liqlik reaksiyasining yuzaga kelishi, begona muhit va begonalar orasida

8 oylik	Sensomotor intellektning yuzaga kelishi	Tayanib yurishi	Jest, mimika va pantomimika yordamida noverbal muloqot
7 oylik		Yordam bilan turishi	
5 oylik	Sezgilarning rivojlanishi	Yordam bilan o'tirishi	
3 oylik	Ko'rish qobiliyatining shakllanishi	Yon tomoniga o'girilishi	Onaning jilmayishiga javob qaytarishi
2 hafta	Onaning tovushini boshqa tovushlardan	Qo'l va oyoq harakat qat'iylik	
1 hafta	Harakatlarni kuzatishi	Qo'l va oyoqlarning betartib harakati	

6. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot diagnostikasi

Ilk bolalik davrida bolalarning psixik taraqqiyotini diagnostika qilish uchun quyidagi metodikalardan foydalanish mumkin.

Bir-biriga kiradigan kubiklar

Tekshirish materiallari: 4 ta bir-biriga solinadigan kubiklar.

Tekshirish metodikasi: bola stolda o'tiradi. Stoldagi katta kubik ichidan kichik kubik olinadi va hokazo. Bolaga kublarni o'z joyiga qo'yish, ya'ni kichkinasini kattasi ichiga solish taklif etiladi. Agar bola topshiriqni bajarishga kirishmasa, unga kubiklarni olish va solish o'rgatiladi, so'ngra topshiriqni mustaqil bajarish taklif etiladi.

Bajarish: 1 yoshu 6 oylik – 2 ta kubikni bir-biriga soladi;

2 yoshda – 3 ta kubikni soladi;

2,5 yoshda – 4-5 ta kubikni soladi;

3 yoshda – 5 tadan ko'p kubikni soladi.

Sharni yashir

Tekshirish materiali: kattaligi turlicha ammo bir xil rangdagi qopqoqlari bo'lgan 2-3 ta quticha.

Tekshirish metodikasi: bola oldiga 2 ta (1-2 g) yoki 3 ta (2-3 g) quti va ulardan sal narida qopqoqlari qo'yiladi. Eksperimentator katta sharni katta qutiga, kichik sharni kichik qutiga soladi va bolaga qutichalarning qopqog'ini yopib, sharlarni yashirib qo'yilishi taklif

etiladi. Qaysi qopqoqni olish tushuntirilmaydi. Agarda bola qutiga mos qopqoqni olmasa, eksperimentator katta qopqoq bilan katta qutining, kichik qopqoq bilan kichik qutining og'zini yopish kerakligini tushuntiradi.

Matryoshkani yoyish va yig'ish

Tekshirish materiali: 4 qavatli matryoshka.

Tekshirish metodikasi: bolaning oldiga matryoshka qo'yiladi va imo-ishora bilan uni yoyish va yig'ish taklif etiladi. Agarda bola topshiriqni bajarishga kirishmasa, katta odamning o'zi matryoshkani ketma-ketlikda yoyadi va yig'adi. So'ngra bolaga topshiriqni o'zi bajarishini taklif etadi.

Bajarish: 1 yoshu 3 oylikdan, 1 yoshu 6 oylikgacha – 1 qavatli matryoshkani yoyadi va yig'adi;

1 yoshu 6 oylikdan, 2 yoshgacha – ikki qavatli matryoshkani yoyadi va yig'adi;

2 yoshu 2 oylikdan, 2 yoshu 6 oylikgacha – uch qavatli matryoshkani yoyadi va yig'adi;

2 yoshu 6 oylikdan, 3 yoshgacha – to'rt qavatli matryoshkani yoyadi va yig'adi.

Piramidani yoyish va yig'ish

Tekshirish materiali: 3 va 4 halqali piramida

Tekshirish metodikasi: bolaga ko'zi oldida "avval katta halqani, endi kichikrog'ini, undan ham kichikrog'ini va eng kichikinasini o'qqa taxlaymiz", deb piramidaga halqalar yig'iladi. So'ngra bolaga piramidani yoyish va halqachalarning katta-kichikligini e'tiborga olib yig'ish taklif etiladi.

Bajarish:

2 yosh, 2 yoshu 2 oylik – 3 halqachali piramidani halqachalarning katta kichikligini e'tiborga olib yig'adi.

2 yosh 6 oylikdan, 3 yoshgacha – 4 halqachali piramidachani halqalarning katta-kichikligini e'tiborga olib yig'adi.

Tayoqchalardan qurish

Topshiriq idrokning to'liqligi, namunaning ko'ruv fazoviy tahlili, taqlid qilish ko'rsatma bo'yicha harakat qilish ko'nikmasining rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan.

Tekshirish materiali: bir xil rangdagi 4 yoki 6 ta yassi tayoqchalar.

Tekshirish metodikasi: Tayoqchalardan – “bolg‘acha” va “uycha” yasash taklif etiladi: “Mendek, bajar”. Agarda bola ko‘rsatma bo‘yicha topshiriqni bajara olmasa, unga taqlid bo‘yicha bajarish taklif etiladi: “Menga qarab yasa”. So‘ngra yana toshiriqni namuna bo‘yicha bajarish taklif etiladi.

Bajarish:

2 yosh, 2 yoshu 6 oylik – bolg‘achani ikkita tayoqchadan yasaydi;

2 yoshu 6 oylikdan, 3 yoshgacha – uychni 6 ta tayoqchadan yasaydi.

Shunday qilib, ushbu bobda ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot xususiyatlari, bu yosh davridagi yetakchi faoliyat, 3 yoshdagi inqiroz, bu davrda shaxs shakllanishining psixologik xususiyatlariga to‘xtaldik.

Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:

1. Go‘daklik davri, uning tug‘ma xususiyatlari va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari qanday ?

2. Ilk bolalik davridagi muloqotning psixik jihatlari nimalardan iborat?

3. Ilk bolalik davridagi asosiy faoliyat turi nima?

4. 3 yoshdagi krizisning sabablari nimalardan iborat?

5. Ilk bolalik davrida shaxs shakllanishining psixologik asoslari qanday namoyon bo‘ladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Ilk bolalik davri necha yoshlarni o‘z ichiga oladi?

A. 0 – 1yosh;

*B. 1 – 3yosh;

C. 1 – 2yosh;

D. 2 – 3yosh;

2. Ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat nima?

A. O‘yin faoliyati;

*B. Predmetli faoliyat;

C. Muloqot faoliyati.

D. syujetli-rolli oyinlar

3. Bolaning psixik rivojlanishini ta‘minlovchi omillar va shart-sharoitlarni aniqlang.

*A. Tabiiy ijtimoiy muhit, maktabgacha tarbiya muassasalaridagi tarbiya va maktabdagi ta‘lim;

B. Irsiyat, muhit, bolaning shaxsiy faolligi, tarbiya va ta‘lim;

C. Oliy nerv faoliyatining tipi bilan bog'liq bo'lgan asab sistemasiga xos kuch va harakatchanlik.

D. ota-onalarning farzandiga kop gamxo'rlik qilishi

4. 3 yosh krizisi (inqirozi) qanday xatti-harakatlarda ifodalanadi?

A. O'zini o'zgalardan farqlay (ajrata)olish, o'z imkoniyatlarini tushunish, mustaqillikka intilish;

B. Bola o'zining xatti-harakatlarini nima yaxshi-yu, nima yomon degan tasavvurga moslay boshlashi;

*C. Bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlashi, kattalar xatti-harakatlarini bajarishga intilishi, mustaqil harakat qila olishi, qat'iyligi va qaysarligida ifodalanadi.

D. oz menini anglashda

5. Bola to'g'ri yurishni, muloqotga kirishishni, predmetli faoliyatni egallash xususiyatlarini qaysi davrda egallaydi?

*A. Ilk bolalik davrida;

B. Chaqaloqlik davrida;

C. Kichik maktab yoshi davrida.

D Go'daklik davrida

VI. MAKTABGACHA TARBIIYA YOSH DAVRI

Reja

1. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari.
2. O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat sifatida.
3. O'yin faoliyati nazariyalari.
4. Bog'cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari.
5. Bog'cha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti.
6. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining kommunikativ vosita sifatidagi rivojlanishi.
7. Bog'cha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishi.
8. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda oliy hislarning rivojlanishi.
9. Maktabgacha tarbiya yosh davri psixodiagnostikasi

Maqsad: Maktabgacha yosh davridagi psixologik xususiyatlarning mohiyatini bayon qilish.


Vazifalar: Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari, bog'cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari, bog'cha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti, bog'cha yoshidagi bolalar nutqining kommunikativ vosita sifatidagi rivojlanishi, bog'cha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishini bayon qilish.

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola, bilish jarayonlari, syujetli rolli o'yinlar, nutq.

1. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari

Ontogeneza 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3-4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi), (4-5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi), (6-7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i

kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.



Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshdagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaligidan toliqadi.

Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o'z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi o'rtoqlari va qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlashiga yordam beradi. 3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning

ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar.

2.O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat sifatida

Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi. **Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir.** Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

1)predmetli o'yinlar(15-20 minut o'ynaladi);

2)sujetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi);

3) qoidali o'yinlar (1soatdan -2kungacha davom etishi mumkin).

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, haqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- *birinchidan*, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;


- *ilskinchidan*, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik karakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarinigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar o'z vaqtining ko'p qismini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o'yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi: predmetli-boshqaruv va ramziy o'yinlardan tortib to qoidali syujetli-rolli o'yinlargacha. Bu yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin.



Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhliy ijod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o'yinchoqlar bilan yolg'iz o'zlari o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, shuningdek o'z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu

kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik harakteriga ega bo'la boshlaydi.

Sekin-asta o'rta maktabgacha davrga borib o'yin jamoaviy bo'lib boradi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, chiptachi, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlar asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, o'yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o'zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o'yinda qayta ijro etiladigan rollar –oilaviy (ona, ota, buvi, buva, o'g'il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog'chadagi tarbiyachi,) yoki ertak qahramonlari (bo'ri, ayiq, tulki, quyon, echki,) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularning o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

Ushbu yosh davri taraqqiyot uchun zarur bo'lgan ikkita faoliyat turining boshlanishi bilan bog'langan: mehnat va o'qish. Bu yoshdagi bolalarning o'yin, mehnat va o'qishni o'zlashtirishlarini ketma-ketligi

bosqichini aniqlash mumkin, bunda maktabgacha yosh davri tahlil maqsadida shartli ravishda 3 ta davrga bo'linadi: kichik maktabgacha yosh davri (3-4 yosh), o'rta maktabgacha yosh davri (4-5 yosh) va katta maktabgacha yosh davri (5-6 yosh). Ushbu bo'lish yosh davrlari psixologiyasida bolalarning psixologiyasi va xulq-atvoridagi jadal va sifatii o'zgarishlarni qayd etish uchun o'tkaziladi.

Kichik maktabgacha yoshdagilar hali, qoidaga muvofiq, yolg'iz o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Ushbu yoshdagi bolalar syujetli-rolli o'yinlarida odatda kundalik hayotlarida kuzatadigan kattalarning harakatlarini qayta namoyon etadilar.

Sekin-asta o'rta maktabgacha davrga borib o'yin birgalikda bo'lib boradi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlarda quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, o'yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o'zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar. Syujetli-rolli bolalar o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bolalar tarafidan o'yinda qayta ijro etiladigan rollar – bu qoidaga muvofiq, oilaviy rollar (ona, ota, buvi, buva, o'g'il, qiz va h.k) yoki tarbiyaviy (enaga, bog'chadagi tarbiyachi) yoki ertaknamo (echkicha, bo'ri, quyon, ilon) yoki kasbiy (shifokor, komandir, uchuvchi). Rollarni ijro etuvchilar odamlar, kattalar yoki bolalar, yoki ularni o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin.

O'rta va katta maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, biroq kichik maktabgacha yosh davridan o'yinlarga kiritiladigan va amalga oshiriladigan mavzulari, rollari, o'yin harakatlarining qoidalari bilan katta turli-tumanligi bilan farqlanadi. Tabiiy xarakterdagi ko'pgina predmetlar shartlilariga almashtiriladi va ramzli o'yin boshlanadi. Masalan, oddiy kubik o'yindan va unga ajratilgan roldan qat'iy nazar ramziy ma'noda mebellar va mashinalarni, odamlar va hayvonlarni namoyish etadi.

O'yinlarda asosiy rol qoidalarga rioya qilishga va munosabatlarga, masalan, subordinatsiyaga ajratiladi. Bunda birinchi marotaba liderlik paydo bo'ladi, bolalarda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Shu bilan bir qatorda o'yinli individual faoliyatning ramziy shakllaridan yana biri rasm chizishdir. Unga sekin-asta ko'proq tasavvur, xayol va tafakkur qo'shilib boradi. Bola ko'rganlarini tasvirlashdan vaqti bilan bilganlarini, xotirasidagi va o'zi o'ylab topganlarini chiza boshlaydi. O'yin-musobaqalar alohida sinfga ajratiladi, unda yutuq va g'oliblik bolalarni juda jalb qiladi, Taxmin qilinishicha, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta maktabgacha yosh davrida konstruktorlik o'yini mehnat faoliyatiga aylana boshlaydi, o'yin jarayonida bola turmushda zarur bo'lgan nimanidir yasaydi, yaratadi, quradi. Bolalar bunday o'yinlarda oddiy mehnat ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ularda amaliy tafakkur faol rivojlanadi. Bola o'yinda ko'plab uy-ro'zg'or asboblari va predmetlaridan foydalanishni o'rganadi. Unda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyati paydo bo'ladi va rivojlanadi, ko'p harakatlari va aqliy operatsiyalari, tasavvur va xayoli takomillashadi.

Rolli o'yin - bog'cha yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyatidir. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajariladilar. Shu boisdan o'yin faoliyat uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muhit voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaharlaro munosabatlarni umunlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarsi, his-tuyg'u, o'zaro muomala va muloqatlarining xususiyatlarini, o'ziga va o'zgalarga, atrof-muhitga munosabatlarini yaqqol voqelik tarzida ijro etish uchun turli o'yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o'tovchi narsalardan ham foydalaniladi. Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabhalarini qamrab oladigan rolli o'yin ularda birdaniga emas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, mohiyati va mazmuni jihatidan oddiydan murakkabga qarab takomillashib boradi.

Rolli o'yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri-bolada o'z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nuqxa olish, aynan unga o'xshatish tuyg'usining mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-harakatlari bolaning ham tashqi, ham ichki ibrat namunasi bo'ladi va kattalar uning xulq-atvori, yurish-turishining ham ob'ekti, ham sub'ekti hisoblanadi.

3. O'yin faoliyati nazariyasi

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim:

a) taassurotlar tarkib topishi;

b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoligi;

v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqatga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosida ta'sir ko'satish uslubi hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

D.B. Elkonin o'z tadqiqotida rolli o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi.

A.P. Usovaning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulg'ashiga qarab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi:

a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o'ynay oladilar;

b) 4-5 yoshlilar guruhi 2-3 tadan ishtirokchidan iborat bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o'yin davomida qatnashchilar soni ham ortib boradi.

v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni guruh yoki jarnoa bo'lib birga o'ynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, o'yinning qoidalari va shartlari tushuntiradi (o'yin davomida bolalar birlarining harakatini qattiq nazorat qiladilar).

Eng soddada psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakillantirishda o'yinlar katta ro'l o'ynaydi. Bog'cha yosh davrida harakatning o'sishida o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'zidayoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishini sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan o'yin payti emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiriladi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati xatti-

harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushurish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq, ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi.

a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi;

b) chu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan. Z.V. Manuylenkning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil bog'cha yoshi davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida oyindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatgichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tovchi narsalarning aksariyatidan o'yinda bevosita, ob'ekt sifatida foydalanadi. O'yin faoliyatida maskur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli,

xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ko'rinishidagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan hulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. Shuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakavot o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyati va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'ularini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Chunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Bu yosh davridagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san'at ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagi voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o'ziga xosligi haqida mushohada qilish mumkin. Rasmlar orqali bolalar tashqi olamdan olayotgan taassurotlari va bilimlarini yetkazishga harakat qiladilar. Rasmlar bolaning jismoniy va psixologik holatiga ko'ra o'zgarishi mumkin. (kasallik, kayfiyat). Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog'lomlarnikidan ko'pgina jihatlar bilan farq qiladi.



Maktabgacha yosh davridagi bolaning badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlarni va tovushlarni turli asboblarda takrorlash quvonch bag'ishlaydi. Bu yosh davrida birinchi marotaba musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qiziqish paydo bo'ladi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatning rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar qo'shiq aytishga, musiqa ostida turli ritmik, raqs harakatlarini bajarishga o'rganadilar. Qo'shiq aytish musiqani anglash va vokal qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hech bir yosh davri ushbu yosh davridagidek shaxslararo hamkorlikning turli shakllarini talab qilmaydi, chunki u bola shaxsining turli jihatlarini rivojlanishi zarurati bilan bog'liq. Bu tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik, o'yinlar, muloqot va birgalikdagi mehnatdir. Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli

o'yinlar, individual va guruhiy ijod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Maktabga chiqishdan bir yoki ikki yil avval ularga o'quv faoliyati qo'shiladi va 5-6 yoshli bola eng kamida faoliyatning 7-8 turiga tortiladi, ularning har biri bolani o'ziga xos ravishda intellektual va axloqan rivojlantiradi.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, xaqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tug'iladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo'l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- *birinchidan*, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- *ikkinchidan*, bolalar o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladi. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar

xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarinigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks etgiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar holos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega, o'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya quroli hamdir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xususiyatlari (xarakteri, kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi

bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega bo'lib boradi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlana boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o'yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Katta bog'cha yoshida konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi, o'yinda bola sodda mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalari ang'ay boshlaydi, amaliy tafakkur namunalari rivojlana boradi.

3-7 yoshli bolalarning psixik rivojlanishida badiiy-ijodiy faoliyat turi bo'lgan musiqaning ahamiyati ham juda kattadir. Musiqa orqali bolalar ashula aytishga, musiqa ohangiga mos ritmik harakatlar qilishga o'rganadilar. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallashi uchun odam, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

4. Bog'cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari

Bolalarning mehnat faoliyatlarini o'zida qamragan mashg'ulotlar asosan bog'cha yoshidagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo'lsa ham ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta ahamiyatga egadir.

Bog'cha yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar natijasida bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mehnat qilish ishtiyoqi tug'iladi. Kattalarning mehnat faoliyatlariga taqlid, qilish dastavval

bolalarning o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning mehnat faoliyatlarini o'zlarining o'yinlarida taqlidan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar mehnatida bevosita qatnashish uchun, harakat qila boshlaydilar. Masalan, qiz bolalar onalari kir yuvayotganda suv tashish, ayrim kichikroq, narsalarni (dastro' molchalarni) chayishda qatnashadilar, uy va hovlilarni yig'ishtirib supurishga, o'g'il bolalar esa otasi bajarayotgan ishda qatnashishga intila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarni mehnatining natijasiga qarab emas, balki mehnat jarayonining o'ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ishiga baho berib borish ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bolalar kuchlari etadigan ishlarni bajarayotganlarida ko'p xatolarga yo'l qo'yishlari turgan gap. Lekin bunda bolalarni mehnatga jalb qilmaslik kerak, bolalarning bajaradigan ishlarini kattalarning o'zlari bir pastda qilib qo'yishlari mumkin, degan ma'no kelib chiqadi. Sharq halqida bir maqol bor: "Bolani bir ishga buyur, ketidan o'zing yugur". Bu juda to'g'ri, hayotiy gap. Bolalarga biron yumush buyurilganda, uni qanday bajarayotganliklaridan ko'z-quloq bolib turish kerak, degan ma'noni bildiradi.

Bolalarda, xususan, kichik yoshdagi bog'cha bolalarda hali mehnat malakalari yo'q, qo'l muskullari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ana shuning uchun bolalar qasddan yoki anqovliklaridan eras, balki eplay olmasliklaridan biror narsani tushurib sindirib yuborishlari mumkin. Ana shunday "falokat" yuz bergan paytda bolani "anqov, merov, ko'zinga qarasang, bo'lmaydimi" deb urishish yoki koyish yaramaydi. Buning o'rniga bolaga shu mehnatni qanday qilib bajarishni ko'rsatib berish lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda ularni inoq jamoaga uyushtirish katta ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib mehnat qilishda tarbiyachi har bir bolaga ma'lum bir mehnatni bajarishni buyuradi. Ana shu tariqa bolalar jips jamoa bo'lib mehnat faoliyati bilan shugullanadilar.

Masalan, katta guruh bolalari jamoa bo'lib navbatchilik qiladilar. Bunda bir bola stolga dasturxon yozib chiqsa, ikkinchisi qoshiq va vilkalarni qo'yib chiqadi, uchinchi bola esa stulchalarni qo'yib chiqsa, to'rtinchi bola stolga nonlarni qo'yib chiqadi. Bog'chada navbatchilikka o'rgangan bolalar oilada ham yordamlashadigan bo'ladilar.

Umuman, o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalariga oilada kuchlari etadigan mehnat topshiriqlarini berish kerak. Bu ularni

mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda va ularda ayrim mehnat malakalari hosil bo'lishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etmagan bolani keyinchalik mehnatga jalb qilish juda qiyin bo'ladi.

Bog'chada bolalar jalb qilinadigan mehnat faoliyatining turi juda xilma-xildir. Masalan, tabiat burchagidagi jonivor yoki o'simliklarni parvarish qilish, bog'cha hovlisida ishlash, oshxonada va guruhda navbatchilik qilish, kichkintoyalarni kiyintirishga yordam berish va boshqalar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, kichik yoshdagi bog'cha bolalari o'zlarining mehnat faoliyatlarini hali yo'lga qo'ya olmaydilar. Shuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan, yani o'simliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, hovliga suv sepish va shu kabilar shug'ullanadilar.

O'rta va katta guruh bolalari mehnat faoliyatini o'yindan batamom farqlab unga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, yani mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy ro'zg'or ishlariga zo'r ishtiyoq bilan yondoshadilar, kichkintoylar uchun qog'ozdan, kartondan faner va plastilindan turli o'yinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalarning har tomonlamma, yani ham jismoniy, ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta tasir qiladi.

Bog'cha bolalari biron o'yin, ta'lim yoki mehnat faoliyatlari bilan mashg'ul bo'lar ekanlar, ular harakatga soluvchi mayllar yotadi. Kicik bog'cha yoshidagi bolalarning xatti-harakatlari amalga oshirilayotgan sharoitga bog'liq bo'ladi. Ular xatti-harakat motivlarini anglab ham etmaydilar. Shuning uchun ko'pincha o'zlariga mutlaqo xisobot bermay, ma'lum bir vaziyatda u yoki bu xatti-harakatni amalga oshira boshlaydilar.

Bu yosh davrida bolalarning xatti-harakatlari va hulq atvorlarining motivlari ham o'zgarib, rivojlanib boradi. Katta yoshli bog'cha bolalarining xatti-harakat motivlari to'la anglangan motivlardan iborat bo'ladi. Masalan, katta yoshdagi bog'cha bolalarining xatti-harakatlari, hulq-atvorlari asosida yotgan motivlar har tomonlamma katta odamlarga o'xshashdan iboratdir. Ular ana shunday kuchli mayl asosida taqlidiy o'yinlarni, ta'limiy, yani didaktiv mashg'ulotlarni va mehnat mashg'ulotlarini tashkil qilib o'tkazadilar. Bolalarning asosiy maqsadlari

katta odamlar bilan o'zaro munosabatni mustahkamlashdir. Bolalar katta kishilar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga intilar ekanlar, ular katta kishilarning buyurgan topshiriqlarini bajarishga, o'rnatgan tartib qoidalarga so'zsiz bo'ysinishga harakat qiladilar.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida o'z qadr qimmatini anglashi ham yuzaga kela boshlaydi. Bolalar bog'chaga kelganda dastavval o'z tengqurlarini sezmaslikka, payqamaslikka harakat qiladilar. Keyinchalik turli o'yin va majburiy mashg'ulotlar davomida bolalar jamoasiga qo'shilib, o'z tengqurlarining hurmatini qozonishga harakat qiladilar, yani boshqa bolalarga har tomonlama yaxshi ko'rinishga intiladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar xatti-harakatlari motivlarining rivojlanishida ahloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Bolalar o'z xatti-harakatlarini anglaganlari sayin ahloqiy motivlarining yani ijtimoiy ahloqiy qoidalarga rioya qilish motivlari kuchayib boradi. Bolalar endi o'zlarining egoistik manfaatlarini yuzasidan emas, balki ijtimoiy manfaat nuqtai nazaridan harakat qilishga o'rgana boshlaydilar. Masalan, bolalar o'zlari yoqtirgan o'zlariga eng yaxshi o'yinchoqlarini beradigan va xattoki o'zlarining uyidan olib kelgan shirinliklarini ham bo'lib beradigan bo'ladilar. Shu tariqa bolalarda ijtimoiy motivlar rivojlana boshlaydilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalari har doim kichik yoshdagi bolalarga yordam berishga, ijtimoiy motivlar asosida harakat qilishga intiladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar xatti-harakatlari motivlarining rivojlanishida ahloqiy motivlarning roli nihoyatda kattadir. Bolalar o'z xatti-harakatlarini anglaganlari sayin ahloqiy motivlarining, yani ijtimoiy ahloqiy qoidalarga rioya qilish motivlari kuchayib boradi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ana shunday motivlar bilan birga o'z-o'zini anglash, o'zining xatti-harakatlariga baho berish ham tarkib topa boshlaydi. Masalan, "uch ayiq", "uycha", "Aka-uka bahodirlar" kabi hikoyalar ifodali qilib o'qib berish yoki insenirovka qilish orqali bolalarda o'z-o'zini anglash va o'z xatti-harakatlariga baho berish tarbiyalab boriladi.

5. Bog'cha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti

Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli xalqalar, qutichalar va shu singari o'yinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir.

Bog'cha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi.

Uch yashar bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu yoshdagi bolalar yangi so'zlarni ham, hatto chet tillardagi so'zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko'pining ma'nosiga yaxshi tushunmaydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko'proq so'zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo'lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o'z o'yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o'sishlari uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, *birinchidan*, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, *ikkinchidan*, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, *uchinchidan* esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublaniş, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «*ko'p mahmadona bo'lma*», «*sen bunday gaplarni qaerdan o'rganding*», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar. Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zahirasi 4000 taga yetadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Kattalar bolalar nutqini o'zlashtirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Sensor tarbiya tizimining psixologik asoslari. Sezgi o'z mohiyati jihatidan birmuncha sodda psixik jarayon (aks ettirish jarayoni) bo'lishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbaidir. Narsa va hodisalarning ayrim belgilarini, xususiyatlarini aks ettirishdan iborat bo'lgan sezish jarayonining fiziologik mohiyati mashhur fiziolog I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlarning analizatorlar haqidagi ta'limotlarida atroflicha ochib berilgan. Akademik I.P.Pavlov organizmning hissiy aks ettirish apparatlarini analizatorlar deb ataydi. Mana shuning uchun har bir sezgi organi analizatorlarning barcha qismlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, har bir analizator asosan uch qismdan iborat.

1) Tashqi ta'sirlarni qabul qilib oluvchi periferik qism (buni odatda retseptor deb yurgiziladi); 2) taassurotni markazga olib boruvchi (afferent) va markazdan tegishli javob reaksiyasini olib qaytuvchi (efferent) nerv tolalari; 3) analizatorning orqa yoki bosh miyadagi markaziy qismi.

Sezgi mana shu qismlarning yaxshi va ravon ishlashiga bog'liqdir. Analizatorlarning biron qismi ishdan chiqsa, sezish bo'lmaydi. Demak, sezishning fiziologik asosida analizatorlar ishdan iborat bo'lgan organizmning reflektor faoliyati yotadi.

Analizatorlarning asosiy vazifasi organizmga ta'sir etayotgan turli qo'zg'ovchilarni ayrim bo'laklarga ajratishdan, ya'ni analiz qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham sezgi organlari analizatorlar deb ataladi.

Sezgi va idrok rivojlanishi boshqa, tobora qiyinroq bo'lgan bilish jarayonlarining (xotira, hayol, tafakkur) paydo bo'lishi uchun zamin yaratadi. Rivojlantirilgan sensorika zamonaviy odamning amaliy faoliyati takomillashuvining asosidir.

Sensor tarbiya haqidagi sobiq sovet psixologlarining fikri g'arb olimlari fikrining psixologik asoslaridan prinsipial tarzda farq qiladi.

Har ikki tomon nuqtai nazarlari, avvalambor, bola sezgisi va idroki rivojlanishini harakatlantiruvchi sabablarini va uning bu jarayonda tarbiyaviy rolini tushuntirishda farqlanadi. Ko'pgina g'arb psixologlari

sensor jarayonlar go'yoki bolada tayyor holda tug'ulganda mavjud bo'ladi. Sensor tarbiyaning maqsadi – bu jarayonlarni mashq qildirish deb hisoblaydi.

Rus psixologlarining nuqtai nazarlari bo'yicha rivojlanish yangi, bolada ilgari bo'lmagan sensor jarayonlarni shakllantirishdir. Albatta, analizatorlarning takomillashuvi(eshitish, ko'rish, teri tuyush, hid bilish va b.) sezgi va idrok rivojlanishining zarur shartlaridan va uning rolini rad etish mumkin emas. Lekin bu faqat sensor rivojlanishning organik imkoniyati, sharti, biroq, bularning barchasi sezgi tajribasini egallamay turib sodir bo'lmaydi. Tafakkur, nutq, sensor tajriba ortishi natijasidir.

Sensor etalon bo'lib musiqiy tovushlar (do, re, mi,...), ona tilining tovushlar sistemasi, geometrik figura, ranglar va boshqalar xizmat qiladi. Sensor namunalarni o'lchov tizimi tarzida egallash idrokni sifat jihatidan o'zgartiradi.

Bola sezgisining rivojlanishi va idrok. Bola hayotining dastlabki 1-yilida idrok rivojlanishi yo'li ancha murakkabdir. Bu davr mobaynida juda ko'p o'zgarishlar ro'y beradi, birinchi o'rinda bu o'zgarishlar sezgirlik sohasida sodir bo'ladigan rivojlanishga taalluqlidir.

Butun bog'cha yosh davri mobaynida ko'z sezgirligining o'tkirligi ortadi. Shuningdek, ko'z o'tkirligi darajasi faoliyat sharoitiga bog'liqligi ham aniqlangan – o'yin vaziyatida tadqiqot o'tkazilganda ko'zning o'tkirligi sezilarli darajada ortadi.

Bog'cha yosh davrida ranglarni farqlashda harn ancha os'ish kuzatiladi: aniq va tiniqligi ortadi. Z.M.Istominaning tadqiqotlari bola hayotining ikkinchi yilida ixtiyorsiz tarzda to'rtda asosiy ranglarni farqlaydi: qizil, sariq, yashil, ko'k. Oraliq ranglarni differensirovka qilishda, ya'ni qovoq rang, havo rang va siyoh ranglarni ajratishda biroz qiynaladi.

Eshitish sezgirliigi ham bog'cha yoshidagilarda o'ziga xos tarzdagi xususiyatlarga ega. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eshitishning nozikligi 13 yoshgacha bo'lgan bolalarda kattalarnikiga nisbatan ancha past bo'ladi va bu yosh ortishi bilan o'sib boradi.

Bog'cha yosh davrida shuningdek, tovushlarning balandligini farqlash qobiliyati ham rivojlanadi. Biroq, fonematik (og'zaki) va musiqani eshitish parallel tarzda shakllanmaydi. Fonetik eshitish birinchi yilning oxirlariga borib rivojlanib boradi va bog'cha yosh davrining dastlabki bosqichlarida o'z ona tilining deyarli barcha tovushlarni amaliy farqlay oladi, passiv nutq, bilan bir qatorda faol nutqni ham egallaydi.

Bu davrda hid bilish sezgisi ham rivojlanadi. Katta guruh bolalari hidlarni farqlashda kam xatoliklarga uchraydi, hidlarni aniqroq nomlaydi. Teri tuyush hamda og'irlikni seza olish xususiyati ham rivojlanadi. 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda bu qobiliyat taxminan ikki barobarga ortadi.

A.Ya.Xolodnayaning tadqiqotlari ko'rsatishicha, fazoda mo'ljal olishning rivojlanishi bolani o'z tana a'zolarining fazoviy munosabatlarini differensirovka qilishdan (o'ng, chap qo'l, juft tana qismlarni ajratib nomlashdan) boshlanadi. Idrok jarayoniga so'zning qo'shilishi, mustaqil nutqni o'zlashtirishi sezilarli darajada fazoviy munosabatlar, yo'nalishlar haqidagi bilimlarining mustahkamlanishiga yordam beradi (D.A.Lyublinskaya, A.Ya.Xolodnaya, E.F.Ribalko va b.).

Ba'zi chet el psixologlari 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar shaklni farqlashga juda ojizlar va ular predmetni idrok qilishda odatda rangiga tayanadilar. A.A.Lyublinskaya va N.X.Shvachkin va boshqalarning olib borgan tadqiqotlari hatto kichik bog'cha yosh davridagi bolalar ham tanish predmetlarni idrok qilishda, shaklga – predmetning mazmun va mohiyatidan ajralmas bo'lgan biror bir belgisiga asoslanadilar, degan xulosa chiqarish imkoniyatini berdi. Biroq shaklni ajratib, mavhumlashtirishni bunchalik tez bajara olmaydi.

Kichik bog'cha yosh daridagi bola geometric shaklni idrok qila turib odatda uni biror bir predmet bilan o'xshatadi (kvadratni ko'pincha “deraza”, “kubik” va boshqalar deb; aylanani – “koptok”, “g'ildirak” kabi nomlaydi).

O'rta va katta bog'cha yoshidagilar duch kelgan shaklni farqlash ehtiyojini sezadilar. Ular ko'pincha predmet nimaga o'xshashi va ularda mavjud tushunchalar orasidagi boshqa turli shakllardan nimasi bilan farqlanishini aniqlashga urinishadi.

Vaqtning idrok qilish bolalar uchun ancha qiyinchilikni uyg'otadi va buni tushunish ham mumkin. Axir vaqt ko'rgazmali shalga ega emas, o'tib ketuvchi, qaytarilmas, uni idrok qilish sub'ektiv holatiga bog'liq hamda shaxsiy xarakterga ega.

Sutka qismlaridan bolalar ertalab va kechqurunni osonroq, tun va kunni esa biroz qiyalib idrok qilishadi. Dastlab bola vaqtning sifat belgilariga asoslanib, ketma-ketlikda va sistematik tarzda kechadigan hodisa, faoliyatlar hisobiga, kun tartibiga qarab (ertalab – “bu nonushtagacha”, kun - “kunning o'rtasi, ya'ni tushlik vaqti”, kechqurun – “onam ishdan chiqib meni olib ketadigan payt”) mo'ljal oladilar.

Ko'pincha ilk yosh va kichik bog'cha davrida vaqtni mo'ljallashdagi xatoliklar bilan bog'liq chalkashliklar sodir bo'ladi.

Hafta kunlarini tartibsiz tarzda o'zlashtiradilar. Bog'chaga boruvchi katta yoshdagilar "Hafta kunlaridan qaysi birlarini bilasan?" degan savolga ko'pincha shanba, yakshanba va dushanbani – emotsional boy, ular uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan kunlarni atashadilar (shanba va yakshanbani – oila a'zolari bilan birga o'tkazadilar; dushanba – yana do'stlari, tarbiyachi, tabiat burchagidagi hayvonlar bilan uchrashuvni kutayotgan bog'chaga beradilar.

Hozirgi zamon haqidagi tushunchalar erta shakllanishni boshlaydi, o'tgan zamon haqidagi tushunchalari esa hali aniq emas (ayniqsa kichik bog'cha yoshdagilarda).

Biroz kechroq bolalar maqsadi hayot uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan kelgusi zamoni o'zlashtirishni boshlaydilar. Ertangi kunga nazar tashlash, rejalarini tuzish "ertangi kun"ni, kelajakni anglamay turib bo'lishi mumkin emas.

Kelgusi zamon haqidagi elementar tushunchalarning shakllanishi hayotning uchunchi yiliga, ya'ni "qilaman", keyinchalik esa yanada aniqroq bo'lgan "keyin", "ertaga", "sal turib" kabi so'zlarning paydo bo'lish davriga to'g'ri keladi.

Psixologlar boladagi vaqt va fazoni idrok qilishdagi umumiylikni e'tirof qiladilar. Maxsus tadqiqotlar tushunchalardagi umumiylikni bolaning dunyoni yagona vaqtli-fazoviy kompleksda aks ettira olish qobiliyatiga ega ekanligidandir, degan fikrga asos bo'la oladi.

Rus psixologlari badiiy idrokning rivojlanishi shaxs rivojlanishining natijasi sifatida ko'rishadi. U insonga tug'ma ravishda berilmaydi. Bola san'at asarini aynan shu tarzda darhol idrok qila olmaydi, rivojlanishning dastlabki pog'onalarida bola uchun unga nisbatan harakatli munosabat xos (rasmdagi tasvirni bolalar ushlab, paypaslab ko'radilar, uni ushlab ko'radilar va h.). Biroq badiiy idrokning ilk kurtaklari bog'cha yosh davrida namoyon bo'la boshlaydi. Ta'lim va tarbiya ushbu insonga xos bo'lgan qobiliyatlarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Fransuz psixologi A.Bine va nemis psixologi V.Shtern bolalar tomonidan rasmlarni idrok qilishning go'yoki bir-birini to'ldiruvchi va mazkur tartibdagina sodir bo'luvchi bosqichlarini ishlab chiqadilar. A.Bine idrokning quyidagi bosqichlarini ajratadi:

- 1) predmetlarni tarqoq tarzda hisoblash (3 yoshdan 7 yoshgacha);
- 2) rasmdagi predmetlar orasidagi aloqani ilg'agan tarzda tahliliy idrok

qilish bosqichi (o'smirlik davridan). Shunga o'xshash bosqichlarni V.Shtern ham ko'rsatgan.

L.S.Vigotskiy eksperimental yo'l bilan V.Shtern tomonidan ilgari surilgan idrok bosqichlari idrok qilishni emas, balki idrok hamda nutq rivojlanishining ma'lum bir bosqichidagi o'zaro munosabatini izohlaydi, degan tahlilini bildiradi. Badiiy idrokda – tasvirning mazmunini tushunishda asarning kompozitsiyasi, rasmning mazmuniy va strukturaviy mohiyatining muvofiq kelish darajasi katta ahamiyatga ega.

Estetik idroki bolaning turli xil badiiy hamda kundalik faoliyati davomida rivojlanadi. Kattalar tomonidan to'g'ri tarzda rahbarlik qilinishi bog'cha yosh davridayoq estetik idrokning ancha yuqori darajaga ko'tarilishiga olib keladi.

Insonni inson tomonidan idrok qilish kabi murakkab bo'lgan psixik jarayon idrok qiluvchini o'zining rivojlanishi bilan barobar tarzda uning muloqotdagi ehtiyoji o'zgarishida, bilishda hamda mehnatda shakllanadi. Hayotning birinchi oyi oxiri, ikkinchi oyining boshida bola kattalarni o'rab turgan muhitdan, dastlab jilmayish bilan, keyinchalik unga nisbatan jonlanish kompleksi bilan ajraladi. Ushbu ijtimoiy- perseptiv jarayon go'daklik va ilk bolalik davrida faol tarzda rivojlanadi.

Bog'cha yosh davrida insonni idrok qilishi faol tarzda shakllanishda davom etadi. Buni esa yangi faoliyat turlarini (ayniqsa jamoa) bola tomonidan o'zlashtirilishi, muloqot doirasining kengayishi va nosituativ shaxsiy muloqotning paydo bo'lishi taqozo etadi. Bola tomonidan insonni aks ettirishning faol shakli bu o'yindir. Unda bola o'z yaqinlarining obrazlarini yaratadi. Ayniqsa, bolaning tasviriy ijodi insonni idrok qilishining yaqqol namunasidir. Bolaning qanday kishilarni tasvirlab berishiga, ularning obrazlarini qay tarzda ochib chiqishiga qarab ma'lum bir ma'noda bolaning ularga nisbatan munosabatiga baho berishimiz, insondagi nimadan oson ta'sirlanadi, nimaga ko'proq diqqatini qaratadi kabi savollarga javob topishimiz mumkin.

Yorqin ijobiy bahoni bolalar o'rab turgan kishilardan faqatgina ishonchli munosabatda bo'lganlariga bog'liqlikni his qilgan yaqinlarigagina beradilar.

Bolalarda diqqatning rivojlanishi. Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko'rinmasa ham, oradan sal o'tmay, ya'ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko'rina boshlaydi. Demak, bolaning bir oylik davrida uning diqqatini har turli kuchli qo'zg'atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug'lik kabi)

beixtiyoriy ravishda o'ziga jalb qila boshlaydi. Ikki- uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga quloq soladigan (shaqildoqlarning tovushiga ovunadigan) bo'la boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyoriy jalb qila boshlaydi. Bolaning ko'z o'ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo'lsa, bola unga shunchalik ko'p e'tibor beradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o'yinchoq bersangiz u o'yinchoqni juda qiziqib ko'ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o'yinchoqni ko'rsatsangiz, birinchi o'yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Yasli yoshdagi bolalar diqqatning beqarorligi fiziologik nuqtayi nazardan ularda hali tormozlanish jarayonlarining kuchsizligi bilan bog'liqdir. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayonining keng yoyilib ketishini to'xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga chalg'ib ketaveradi.

Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining g'oyat beqaror bo'lishi turmush tajribalarining juda ozligi bilan ham bog'liqdir. Bolalarga hamma narsa yangilik bo'lib tuyulaverganidan ularning diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg'ib ketaveradi. Ana shu nuqtayi nazardan bola ko'z o'ngidagi narsaning o'zi bolaga juda qiziq tuyulgani uchun ham diqqati chalg'ib ketadi. Masalan, N.M.Menchinskayaning hikoya qilishicha, Sasha (1 yosh 8 oylik) echki va uning bolalari haqidagi ertakni zo'r qiziqish bilan tinglaydi. Bo'ri kelib eshikni taqillatgani hikoya qilganda, Sasha bo'rining qanday taqillatganini ko'rmoqchi bo'lib, devorga tap-tap etib uradi, lekin ba'zan taqillatishga shu qadar mahliyo bo'lib ketganidan ertakni tamomila unutib qo'yadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda diqqatning bo'linuvchangligi juda zaif, ko'lami esa tor bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko'zlariga yaqqol ko'rinib turgan bir narsaga qarata oladilar. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi, katta kishilar bilan muloqotda bo'lishdan tashqari, ularning ko'rsatmalarini bajarish imkoniyatini ham beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kichik yoshli bolalar kattalarga qarashishni, imkoniyatlari boricha ularning mehnatlariga aralashishni juda yoqtiradilar. Kattalarning iltimos va topshiriqlarini bajonudil ado etadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid oddiy yumushlarni qiziqib bajaradilar, ota-onalarining uy-xo'jalik ishlarida qarashishga harakat qiladi. Mana shularning hammasi, diqqatni

ma'lum darajada to'plash va muayan bir maqsadga qaratishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi.

Bog'cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq, kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi.

Bog'chada jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo'ysunish, qoidalari o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado etish kabi holatlar bog'cha yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yinning roli juda kattadir. Chunki turli o'yinlar paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarni ilgari suradilar. O'yinlarning qanday qoidalar asosida yo'nalishini o'zlari mustaqil ravishda tanlab oladilar. O'yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o'z harakatlarini o'yin qoidalariga moslashtirishga va o'yinda qatnashuvchi o'rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga kirishadilar. Ana shunday o'yinlarda ixtiyorsiz diqqat bilan birga ixtiyoriy diqqat ham aktiv ishtirok etadi. binobarin, bolalarning o'yin uchun sharoit yaratib beradi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, ixtiyoriy diqqat iroda bilan bog'liq, shuning uchun ham ko'pincha bolalar diqqatining bu turini o'zlaricha mustaqil tashkil eta olmaydilar. Dastlabki paytlarda diqqatning ixtiyoriy turini har xil savollar va topshiriqlar berish yo'li bilan rivojlantirib borish kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya'ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o'rta va katta guruh bolalarining) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o'tira olishlaridan, ba'zi o'yinlarni zerikmay soatlab o'ynay olishlaridan, ta'limiy mashg'ulotlarda chidam bilan o'tira olishlaridan ko'rishimiz mumkin.

Bola diqqatini barqarorlashtirish usullari va vositalari. Bog'cha yoshdagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog'chadagi sharoitgagina emas, balki ko'p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog'liqdir. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va bir darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo'lmasligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborganligi tufayli o'zlarining xatti-harakatlarini, hulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o'tiraolmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan

bo'ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo'lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg'ul bo'la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya'ni ma'lum muddat davomida bir narsaga yo'naltira olmaslik mashg'ulotlarda intizom buzish va boshqalarga halaqit berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo'lishlari (har xil mas'uliyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini hamda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur. Bog'cha yoshidagi bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqatning ko'lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko'lami katta odamlarnikiga nisbatan hali ham juda tor bo'ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko'lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan bog'lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig'dira olsa, bog'cha yoshidagi bolalar diqqatining ko'lami ayni bir vaqtda 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o'rta va katta guruh bolalari 2 ta) sig'dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo'lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqa olmaydilar. Masalan, 3 yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to'kib sochib olib keladi. Bu uning uquvsizligi, bo'shangligi, balki o'z diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo'la olmasligidandir. Bola o'zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to'kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo'la omaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi.

Diqqat ko'laminin kengligi aniq idrok qilish bilan bog'liq bo'lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayniqsa bolalarning o'qish faoliyatlari uchun zarur. Shuning uchun bolaning bog'cha yoshidagi davrida barcha imkoniyatlardan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda asosan, ekskursiyalar, incsenirovkalar, har sohaga doir rasmlar bilan o'tkaziladigan suhbatlar katta rol o'ynaydi. Maktabdagi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan ixtiyoriy diqqat bog'chada didaktik mashg'ulotlar, hikoyalar o'qib berish davomida rivojlantiriladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning diqqati ko'pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog'liqligi sababli konsentrlashgan, ya'ni bir narsaga qaratilgan bo'ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bolalarda diqqatning bo'luvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati bo'luvchanlik xususiyatining zaifligi va ko'laminin torligi sababli, ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshita beradilar. Bu hodisaning

sababi shundaki, bolalar diqqatining ko'лами hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig'dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va etaklarni qayta-qayta aylantirib eshita beradilar.

Shunday qilib, bolaning bog'chagacha va bog'cha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ortiqroq rivojlanadi. Lekin bolaning bog'cha yoshidagi faoliyatlarining va xususan didaktik hamda mehnat mashg'ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, maktabdagi ta'lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun bog'chada turli majburiyat mashg'ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta'lim jarayonida amalga oshiriladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi. Bog'cha yoshidagi bolalar (xususan kichik guruh bolalari) o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymaydilar va hali maqsad qo'yishni uddasidan ham chiqqa olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarda asosan ixtiyorsiz esda olib qolishning hukmron bo'lishi tasodifiy bir xol emas. Buning o'z sabablari bor. Har bir tarbiyachi – pedagog bolalar xotirasiga doir xususiyatlarni yaxshi bilishi kerak. Ana shunda bolalar xotirasini to'g'ri rivojlantirish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasining katta odamlar xotirasidan keskin farqi, avvalo ular oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligidadir. Bir qator psixologlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tekshirish ishlari natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarning nerv sistemasi xuddi ilk bolalik davridagi bolalar nerv sistemasi kabi juda plastik xarakterga egadir, ya'ni ularning nerv sistemalari haddan tashqari egiluvchan, ta'sirotda beriluvchandir. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarda vaqtili bog'lanishlar (assotsiyatsiyalar) juda yengillik bilan hosil bo'ladi. Bolalar nerv sistemasining xususiyati ularning esda olib qolish qobiliyatlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalar ashula, ritimli she'r, qiziqarli va chuqur ta'sir etadigan narsalarni beixtiyor hamda juda tez eslarida olib qolaveradilar.

Ikkinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasi eyngil qo'zg'aluvchan bo'lishi bilan birga yuzaga keladigan vaqtli bog'lanishlar (assotsiyatsiyalar) juda beqaror bo'ladi, ya'ni mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar tomonidan idrok qilingan turli narsa va hodisalar ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qomaydi. Ular tez esga olishlari bilan birga tez unutib ham yuboradilar. Ko'pincha narsa va hodisalarning bog'cha yoshidagi bolalar xotiralarida mustahkam saqlanib qolishi shu narsa va hodisalarning bolaga qanchalik emotsional ta'sir qilishiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar nerv sistemasida qo'zg'alish jarayoniga nisbatan tormozlanish jarayoni ancha sust bo'lganligi tufayli ular o'xshash va birdaniga, ya'ni bir vaqtning o'zida juda ko'p idrok qilingan narsalarning farqini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ular birdaniga idrok qilgan juda ko'p narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar. Agar bog'cha yoshidagi boladan kechagi bayram kuni haqida, ya'ni idrok qilgan narsalarini bir boshidan so'zlab berish iltimos qilinsa, u ma'noli va sistemali qilib so'zlab berolmaydi. Bola bunday holda, gapni tasodifiy esiga tushib qolgan narsalardan boshlab ketaveradi. Chunki birdaniga ko'rgan juda ko'p narsalarini bola tamoman aralashtirib yuborgan bo'ladi.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali sistema yo'q. Shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya'ni esida chuqur o'rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin. Agar bog'cha yoshidagi bolaga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'p narsalar ko'rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtaroq esda olib qololmaydilar.

O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, kichik bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz va mexanik ravishda esda olib qolish hamda esga tushirish qobiliyati biroz susayadi. Ammo bundan, bolalar ulg'aygan sari ularning xotirasi kuchsizlanadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu yerda gap shundaki, bolalar o'sib, turmush tajribasi ortgan va nutqi o'sgan sari, ular narsa va hodisalar surunkasiga, ya'ni to'g'ri kelganicha emas, balki tanlab, ya'ni o'zlariga kerakligini esda olib qoladigan bo'la boshlaydilar.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, keyingi yillar mobaynida bog'cha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda olib qolish ustun bo'ladi, degan fikr mavjud bo'lib, shu bilan birga mexanik esda olib

qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo'yilar edi. So'nggi yillarda o'tkazilgan ekserimental tekshirishlar natijalarining ko'rsatishicha, bog'cha yoshidagi bolalarda ham narsa va so'zlarning ma'nosiga tushunib esda qoldirish samarali ekani aniqlangan. Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga to'la tushiniladigan material berilganda yaqqol ko'rinadi.

Bog'cha yoshidagi kichik bolalarda ko'proq obrazli xotira rivojlangan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan ko'rgan narsalarni yaxshi eslarida olib qoladilar. Uning asosiy sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarning idroklari, konkret obrazli xarakterga ega. Ikkinchidan, ularda hali nutq, to'la to'kis shakllanmagan. Bolalar yuqori guruhlarda nutqni anchagina egallab olganlaridan keyingina so'z bilan ifodalab olingan narsalarni esda yaxshi olib qoladigan bo'ladilar. Bolalar juda ko'p narsalarni asosan turli o'yin faoliyatlari davomida eslarida olib qoladilar. Shuning uchun ularning esda olib qolishlari ko'pincha epizodik va tasodifiy xarakterga ega bo'ladi. Bu esa eslarida olib qolingan narsalarni ma'lum bir tizimga solishni qiyinlashtiradi. Shu tufayli bolalarning xotiralaridagi narsalar tartibsiz bir-biri bilan aralashib ketadi. Natijada biron narsani esga tushirishlari qiyin bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar xotirasiga xos bo'lgan tartibsizlikni yo'qotish va xotirasini o'stirish juda ko'p jihatdan tarbiyachilarga bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarni esda olib qolishlari lozim bo'lgan materialni ularning yosh xususiyatlariga mos qilib tanlashi kerak. Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Umuman, bolaning materialni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog'cha yoshidagi bola xotirasining barcha tiplari o'sa boshlaydi. Biroq shu narsa xarakterliki, xotiraning asosiy turlari orasida (masalan, obrazli, mexanik, mantiqiy kabi) harakat xotirasi nisbatan kuchliroq rivojlanadi. Shuning uchun ham turli harakatlarni hamda musiqa ostida o'ynashni bu yoshdagi bolalar osonlik bilan o'slashtiradilar. Mexanik tarzda o'zlashtiriladigan nutq materialni ham qisman harakat xotirasiga kiritadi. Shu sababli bog'cha yoshidagi bolalar tez aytiladigan turli ritmdagi she'rlarni bir-ikki qaytarishdayoq yodlab oladilar. Masalan, bekinmahoq, o'yini o'ynash oldidan aytiladigan "sanashlar". Bekinmahoq o'yinining sanashlarida hech qanday ma'no yo'q, lekin juda ifodali va jarangli ritmika bor.

Bog'cha yoshidagi bolalarda emotsional xotira yaxshi bo'lsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq

bo'ladi. Katta odamlar kuchli emotsional ta'sir qilgan ba'zi narsa va hodisalarni hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar esa kuchli emotsional ta'sir qilgan narsalarni ham ba'zan eslaridan chiqarib qo'yishlari mumkin. Bolalar xotirasini o'stirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola bilan gaplashilganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Xotiraning taraqqiyoti bolaning bog'cha yoshi davrida tugallanmay, bolaning bundan keyingi taraqqiyotida, ya'ni ta'lim-tarbiya va turmush tarziga qarab o'zgarib o'sib boradi.

Tafakkur muammosi va yosh davrlarida rivojlanishi. Bola tug'ilishidanoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Tafakkur bolaning o'sib, bilim va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanadi. Bola dastlab tashqi olamni va undagi narsalarni sezish, idrok qilish orqaligina biladi. Bunday bilish bolaning ana shu narsalar bilan bo'lgan aktiv faoliyati davomida tobora takomillashib boradi. Kichik yoshdagi bolalar atroflaridagi narsalar bilan qanchalik ko'p munosabatda bo'lsalar bu narsalar o'rtasidagi o'xshashlik tomonlarni shunchalik ko'proq payqay boshlaydilar. Keyinchalik bolalar o'xshash narsalarni umumlashtira boshlaydilar. Masalan, 6-7 oylik bola uyda yolg'iz qolgan paytida stol oldiga emaklab kelib, dasturxonni tortib o'ziga kerakli narsalarni olishga muvaffaq bo'lar ekan, xuddi shunday harakat yo'li bilan karavotning ustidagi narsalarni ham olishga harakat qiladi. U dasturxonni tortgan kabi choyshab yoki ashyoni tortib karavot ustidagi narsalarni olishga urinib ko'radi.

Ilk bolalik yoshidagi bolalarning tafakkuri o'z-o'zicha, ya'ni stixiyali ravishda emas, balki katta odamlarning rahbarligida rivojlana boshlaydi. Katta odamlar bolalarning shu paytgacha orttirgan bilimlariga asoslanib, ularning o'zlari mustaqil egallay olmaydigan tushuncha va bilimlarni o'zlashtirib olishlarida yordamlashadilar. Ana shu tariqa bolalar o'zlarining individual faoliyatlari orqali bilish mumkin bo'lgan ayrim narsalarni va ayrim tushunchalarnigina emas, balki butun insoniyat tomonidan yaratilgan tushunchalarni hamda mantiqiy fikr qilish shakllarini ham egallab ola boshlaydilar.

Bolalarda tafakkur bir yoshga to'lib, ikki yoshga qadam qo'ygan davrdan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. Ana shu davr mobaynida, birinchidan bolalar anchagina turmush tajribasiga ega bo'la boshlaydilar, ikkinchidan tili chiqa boshlaydi. Bolalar bir yoshdan oshgach, o'zlariga yaqin narsalarning nima uchun kerakligini tushunadigan bo'lib qoladilar (masalan, uydagi idish-tovoqlarning, piyola va qoshiqlarning nimaga

kerakligini bilib oladilar). Ikki yoshli bolalar tafakkurining eng ko'zga tashlanib turadigan xususiyati shundan iboratki, ular ayni shu chog'da ko'rib, idrok qilib turgan narsalari haqida tafakkur qiladilar. Tafakkurning asosiy jarayonlari, ya'ni analiz, sintez, umumlashtirish bolalarning narsalar bilan bo'lgan amaliy faoliyatlari jarayonida sodir bo'ladi. Ana shuning uchun ularning tafakkurlari bevosita harakatlari bilan bog'liq bo'ladi, tafakkur harakatlarida namoyon bo'ladi.

Yasli yoshidagi bolalar idrok qilayotgan narsalarining ichki va eng muhim xususiyatlarini hali aks ettira olmaydilar. Shu sababli ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtirganlarida bu narsalarning ko'zga tashlanib turadigan tashqi belgilariga, xususiyatlarigagina asoslanadilar. Masalan, bir yarim yoshli bola olmani, koptokni, yog'ochdan qilingan yumaloq sharni umumlashtirib, ularning hammasini olma deb ataydi. Shunday qilib, kichik yoshdagi bolalarda tafakkur ularning turmush tajribalarining orta borishi, turli xil narsalarga doir bilim va tushunchalarning ko'payishi hamda nutqning rivojlanishi jarayonida takomillashib boradi.

Obrazli tafakkur va so'z mantiqiy tafakkur. Tafakkur bolaning bog'cha yoshdagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshdagi bolalarda turmush tajribasining anchagina ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining nisbatan yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'chada harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshdagi bolalar o'zlarining mustaqil harakatlari davomida atroflaridagi turli xil narsalar bilan bevosita taqqoslash, analiz qilish va nihoyat umumlashtirish kabi fikr qilish jarayonlarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi.

Bolaning bog'cha yoshdagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni yasli yoshdagi davrga nisbatan juda ham kengayib ketadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Bog'cha yoshdagi bolalar o'z tajribalarida ancha narsalarni bilib olganlaridan so'ng narsalarning ichki xususiyatlari bilan ham qiziqqa boshlaydilar. Shu sababli ularda juda ko'p savollar (bu nima? nega bunaqa? kim qilgan? qayerdan kelgan? nima qiladi? kabi) paydo bo'ladi. Bu shubhasiz, tafakkurning faol va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi.

Bog'cha yoshdagi bolalarda har xil sohalarga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining shakllanayotganligidan darak beradi. Shuning uchun bolalarning savollariga doimo ahamiyat bilan qarash kerak. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki katta odamlar uning

savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik, sinchkovlik susaya boshlaydi. Lekin bog'cha yoshdagi bolalarning hamma savolariga javob berish qiyin, chunki ular o'zlari hali mutlaqo tushunmaydigan narsalar va hodisalar haqida ham savol beraveradilar. Tarbiyachi bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda javob berishi va tushuntirishi lozim.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsaga tushina olmaslik, biron narsadan taajjublanish, hayron qolish natijasida hosil bo'ladi. Juda ko'p ota-onalar va ayrim tarbiyachilar bolalar ortiqcharoq savol bersalar, ularni "ko'p maxmadona bo'lma", "sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding", deb jerkib tashlaydilar. Bola bir necha marta ana shunday pand egandan so'ng, kattalarga savol bermaydigan, ayrim murakkab narsalarni o'z bilganicha yoki afsonalardagi kabi xato tushinadigan bo'lib qoladi. Masalan, 7 yoshli katta guruh bolasi "yomg'ir qayerdan yog'adi?" degan savol beradi. Bu bolaga yomg'irning yuzaga kelishi juda sodda va tushinarli qilib gapirib berildi (hatto sovuq oynaga issiq par qilib ta'sir qilganda, suv zarrachalarining yuzaga kelishi misol qilib ko'rsatiladi). Bola bir oz qarab turib, yo'q unaqa emas deb javob beradi. Bo'lmasa, qani sen tushuntirib ber, deb so'raldi. Shunda bola quyidagicha tushuntirib berdi: "Yomg'ir osmonda yashaydi, uning uyi bulutlardan ham balandda. Bulutlar ochilib ketgan paytda yomg'ir yig'ilib ketadi..." deb tushuntirdi. Bolaning ana shunday afsonaviy tushunchasidan voz kechib, to'g'ri, ilmiy tushunchani yuzaga keltirguncha ancha vaqt ketadi. Ana shuning uchun bog'cha yoshidagi, hali turmush tajribasi oz bo'lgan bolalarga tabiat hodisalarini bunday yolg'on afsonaviy tarzda tushuntirish yaramaydi.

Bolalar beradigan savollarining juda qiziq bo'lishiga bir necha sabablar bor. Birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni qanday bo'lsa, shundayligicha, ya'ni yaxlit holda, xuddi rasmdagidek aks ettiradilar, ikkinchidan, ularda katta odamlardagidek idrok qilayotgan narsa va hodisalarni chuqur analiz va sintez qilish xususiyati hali o'smagan bo'ladi, uchinchidan, ularda turli tabiat va jamiyat hodisalariga doir ilmiy tushunchalar hali tarkib topmagan va nihoyat, to'rtinchidan, ularning turmush tajribalari juda oz bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning beradigan savollaridan ular tafakkurining konkret obrazli xarakterga ega ekanligi ham ko'rinib turadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar quyidagi savollarni berishlari mumkin: Bulutlar nega yuradi? Osmon kattami, er kattami? Yulduzlar nechta? Osmondagi yulduzlar nima uchun kunduzi ko'rinmaydi?

Daraxtlar nima yeb o'sadi? Qorbobo odammi? Hozir qorbobo qayerda? Nima uchun qorbobo yozda kelmaydi? Elektr toki qayerdan keladi? Nega simda olov ko'rinmaydi? Bog'cha yoshidagi bolalarni tabiat va jamiyatdagi narsalarning sababiy bog'liqligi hamda ichki taraqqiyot qonunlari emas, balki shu narsalarning o'zi qiziqtiradi. Ular hamma narsani bilishga intiladilar.

Ayrim bolalar haddan tashqari ko'p savollar beradilar, boshqa bir bolalar esa deyarli hech qachon savol bermaydilar. Bolalarning juda ko'plab savollar berishlari ijobiy xarakterga ega bo'lib, bu ularning qiziquvchanligini, faolligi va mustaqilligidan darak beradi. Odatda juda passiv va tortinchoq bolalar savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar ekskursiyalar vaqtida tarbiyachining o'zi savol berishi, shu bilan ularni akriklashtirib borishi lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalarning tajribalari orta borgan sari narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ayrim tabiiy sabablarni tushuna boshlaydilar. Masalan, katta guruh bolalarining gaplariga diqqat qilsak, ular shunday hodisalar haqida mulohaza yurgizishayotganlarining guvohi bo'lamiz. "Temir og'ir narsa bo'lgani uchun suvda cho'kadi, yog'och yengil, shuning uchun u oqadimi", "ichi bo'sh banka yengil, shuning uchun u cho'kmaydi", "urug'ni yerga eksa, ko'karib chiqadi" shu kabilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkur (fikir yuritish) jarayonida ayni shu chog'da idrok qilayotgan narsalargina emas, balki ilgari idrok qilgan narsalariga ham tayana oladilar. Masalan, bolaga ilgari ma'lum bo'lgan biron topshiriq yoki savol berilsa, u o'z tasavvuriga asoslanib, qiynalmay, darhol javob qaytaradi. Chunonchi 6 yoshli bir boladan "yong'oq suvda cho'kadimi yoki oqadimi?" deb so'ralganida, u "oqadi" deb javob bergan. Bolaning to'g'ri javob berganligiga sabab shundaki, u o'z tajribasida yong'oqni suvga tashlab ko'rgan. Ana shu tarzda bog'cha yoshidagi bolalarda induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning eng sodd formalari yuzaga kela boshlaydi.

Sabab-oqibat bog'lanishlarining shakllanishi. Bog'cha yoshidagi bolalar fikrlashining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining hamon konkret obrazli bo'lishidir. Ular o'zlarining mulohazalarida abstrakt tushunchalarga emas, balki konkret faktlarga asoslanadilar. Shuning uchun ular abstrakt tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydilar. Biroq, bog'cha yoshidagi bolalarda, xususan katta guruh bolalarida, ayrim narsa va hodisalarning muhim belgilariga qarab, umumlashtirish qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Masalan, katta guruh

bolalari olma, o'rik, nok, olcha, olxo'ri, uzum, anor, behi va anjirlarning rasmlarini to'plab, meva deb ataydilar. Ular endi meva degan umumiy tushunchadan o'z nutqlarida erkin foydalana oladigan bo'ladilar. Bog'cha bolalari xilma-xil rasmi lotolar bilan o'ynash jarayonida ana shunday umumlashtirishga o'rgana boshlaydilar. Bunday o'yinlarda ba'zan tarbiyachining aralashuvi va bolalarga umumlashtirish yuzasidan (masalan, hayvonlar, hasharotlar, gullar, qushlar, o'yinchoqlar va hokazolar haqida) turli vazifalar berishi yaxshi natijalarga olib keladi. Bolalar bu narsalarning eng muhim belgilariga qarab ularni guruhlarga ajratadilar. Bog'cha yoshidagi bolalar uchun narsalarning eng muhim belgilari ularning nima uchun qo'llanishidir. Chunonchi, ularga "sigir qanday hayvon?" deb, savol berilsa, ular – "sigir sut beradigan hayvon" deb javob beradilar. Bog'cha yoshidagi bolalar har bir narsaning nima uchun kerakligini shu narsaning asosiy belgisi qilib oladilar. "Ot qanday hayvon?" deb savol berilsa, ular "ot minadigan hayvon" deb javob beradilar.

Ma'lumki, bog'cha yoshidagi bolalar juda qiziquvchan bo'ladilar. Ko'pgina narsalarni bilishga qurbilari yetmasa ham, atroflaridagi turli narsa va hodisalarning mohiyati paydo bo'lishi hamda sababiy bog'lanishlariga qiziqadilar. Ular hamma narsaning siridan xabardor bo'lgilari keladi. Bu ularning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan intellektual qiziqishlaridir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda tafakkurni rivojlantirishda turli didaktik va ta'limiy mashg'ulotlarning roli g'oyat kattadir. Masalan, katta guruh bolalari bilan o'tkaziladigan son-sanoq (hisoblash) mashg'ulotlari, nutqni o'stirish mashg'ulotlari ularda tafakkurning taqqoslash, analiz va sintez qilish xususiyatlarini o'stirishga yordam beradi. Lekin shuni unutmazlik kerakki, bolalar ana shunday ta'limiy mashg'ulotlarda narsa va hodisalarni shunchaki passiv o'zlashtirib, faqat ularning nomlarini esda olib qolish bilan cheklansalar, tafakkur qilish qobiliyati yaxshi rivojlanmaydi.

Shunday qilib, bog'cha yoshidagi davrda bolalarning tafakkuri jadal rivojlanadi va uning bundan keyingi o'sishi maktab yoshida, ya'ni tizimli ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Bolalar xayolining xususiyatlari. Yangi tug'ilgan chaqaloq bolalarda hali xayol bo'lmaydi. Xayolning rivojlanishi uchun bolaga turmush tajribasi, tasavvurlar zaxirasi hamda juda ko'p bilimlar kerak bo'ladi. Tajriba esa bolaning tashqi olamdagi narsa va hodisalarni o'zi

ko'rsatishi, voqelik hamda turli sohalarga doir tasavvur hosil qilishi katta odamlar bilan keng munosabatda bo'lishi natijasida ortib boradi.

Xayol jarayonining dastlabki ko'rinishlari bolada ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'yanida ko'rina boshlaydi. Ikki yoshli bolalarda ko'rinadigan dastlabki xayol ma'lum bir maqsadni ko'zlamaydigan ixtiyorsiz xayoldir.

Til chiqishi bolalarda xayol jarayonining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu davrdan boshlab bola tevarak-atrofdagi kishilarning so'zini yaxshi tushunadigan bo'lib o'zidagi tasavvurlar zahirasini bevosita idrok qilingan narsalar orqaligina emas, balki katta yoshli odamlar nutqi ham to'ldirib boradi. Bola o'ziga tushunarli mavzulardagi hikoya va ertaklarni qiziqib tinglaydi. O'zi asosiy qahramon bo'lib qatnashadigan hikoyalarni jonu-dili bilan eshitadigan bo'ladi. Bunday hikoya bolaga juda tushunarli bo'ladi, chunki bola hikoyani eshitib turib, bevosita, o'zining idrokiga tayanadi.

Bu yerda o'ylab chiqarilgan voqea bolaning o'zi haqiqatda ishtirok qilgan voqealarga ulanib ketadi. Bolaning hikoya va ertaklarni eshitishga juda ham qiziqishi, hikoya va ertaklarni tinglayotganida bolalarning tajribasini orttiradigan va xayolini o'stirishga yordam beradigan xilma-xil va aniq tasavvurlar hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Bolalar xayolining o'sishida nutqning ahamiyati yana shundaki, nutq bolaning yangi taassurotlar hosil qilishi va uni boyitish bilangina cheklanib qolmay, balki nutq miyada hosil bo'lgan yangi-yangi obrazlarni so'zlar bilan ifodalashga yordam beradi. Masalan, ikki yarim yoshlardagi qizcha derazalardagi pardalar hilpirab va quyosh nurlarining shu'lalaridan tovlanib turganini ko'rib, o'zini polga tashlaydi va " ... qarang, oyi, go'yo dengizga o'xshaydi. Men cho'milayapman ..." deydi. Bola nutqida shu go'yo so'zining paydo bo'lishi juda ham xarakterlidir. Bola xayolidagi vaziyatni shu so'z bilan ifodalaydi, real narsalar bilan xayolidagi narsalarni bir-biridan ajratadigan bo'ladi.

Bolalar xayolining dastlabki rivojlanishida ular o'yinining roli juda kattadir. Ularning yoshi ulg'aygan sari ular o'yinining mazmuni ham o'zgarib boradi. Ikki yoshga to'lish oldidan bolalar o'yinida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Manipulyasiya o'yinlari bilan bir qatorda tasviriy o'yin elementlari ham paydo bo'ladi. Bola turmushda ko'rgan ish harakatlarini o'z o'yinida aks ettiradi. Masalan bola qo'g'irchog'ini "ovqatlantiradi", yotqizib "uxlatadi", uni "erkalaydi", "arg'imchoqda" uchiradi. Bola katta bo'lgan sayin o'yinda katta yoshli kishilarning harakatlariga taqlid qilish tobora ko'p o'rin egallay boshlaydi. Ayni

vaqtda o'yinlar murakkablashib, mazmuni ham turli-tuman bo'la boradi. Masalan, bola o'ziga g'amxo'rlik qilayotgan onasining xarakterlariga, duradgor, shofyor, sartaoshning harakatlariga taqlid qila boshlaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning harakatlarida tasiriy faoliyat elementlarining paydo bo'lishi xayolning o'sayotganligidan dalolat beradi. Masalan, bola turli nimalarni qog'ozga chizib, nimanidir tasvirlashga urinib ko'radi. Lekin dastlab bunday chizimchilik faoliyati almoyi-aljoyi chizimlar chizishdangina iborat bo'ladi. Ikki yoshga to'lganda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tasviriy faoliyatida yangi, muhim element paydo bo'ladi. U endi o'zi chizayotgan rasmiga nom beradigan bo'ladi. Tasviriy faoliyatining yuzaga kelishi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tasavvur xayolini o'stirishga yordam beradi. Ammo bu yoshda xayolning dastlabki nihollarigina paydo bo'la boshlaydi, bu nihollarni diqqat-e'tibor bilan doimo parvarish qilib turish tarbiyachi va ota-onalarning vazifasidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol bir xilda rivojlanmaydi. Agar kichik yoshdagi bog'cha bolalarida asosan tiklovchi xayol o'sgan bo'lsa, o'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida xayolning ijodiy turi ham o'sa boshlagan bo'ladi.

Bolaning bog'cha yoshida harakat doirasining kengayishi, bilimlarining ortishi, turli xil yangi ehtiyoj, qiziqishlarning paydo bo'lishi unda xayol jarayonini birmuncha tez sur'at bilan rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning xayol qilish qobiliyatlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar xayolidan har tomonlama ustun turadi.

Aktiv xayolning bolalarda rivojlanishi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan ixtiyorsiz va tiklovchi xayol bo'lib, ularning turli-tuman faoliyatlarida o'sib boradi. Biroq shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning o'yinlari ham xilma-xil bo'lmas edi. Demak, bolalarning xayol qilish qobiliyatlari ularni turli xil o'yinlar o'ynashga undasa, o'yin o'z navbatida ularning xayolini o'stiradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli mashg'ulotlarda ham o'sib boradi. Masalan, bolalar loy o'ynashi, ya'ni loydan turli narsalar yasashni (shu jumladan, plastilindan ham), qumdan turli narsalar qurishni, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bu mashg'ulotlar, ayniqsa, rasm chizish mashg'uloti bolalar xayolini o'stirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida hali ijodiy xayolning yo'qligi ularning rasm chizishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, kichik

yoshdagi bog'cha bolalarining chizgan rasmlari hamma vaqt ro'zg'or mavzularidan nariga o'tmaydi. Chunki bu yoshdagi bolalar har kuni ko'rib turadigan narsalari haqidagina xayol qila oladilar.

O'rta va xususan, katta guruh bolalarining rasm chizishlarida ijodiy xayolning yuzaga kela boshlagani aniq ko'rinadi. Ular rasm chizishda tor uy-ro'zg'or mavzulari bilan cheklanib chizmay, uzoq o'tmish va kelajakdagi narsalarga oid rasmlar ham chizadilar. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida va solgan chizmalarida katta odamlarning turli-tuman faoliyatlarini mustaqil tasvirlashga intiladilar. Bunday paytda ular faqat xayoliy tasavvur etish yoki taqlid qilish bilan cheklanib qolmay, balki o'zlari ijodiy ravishda yangiliklar ham qo'shib boradilar. Masalan, ular syujetli o'yin o'ynaganlarida yangi-yangi rollarni o'ylab chiqaradilar "poezd" yoki "vokzal" o'yinida poezdda yoki vokzalda; xizmat qiluvchi kishilardan tashqari passajirlarni vokzalga olib keluvchi transport, ya'ni taksi shofyor rollarini qo'shadilar.

Katta yoshdagi bog'cha bolalari o'zlarining rasmlarida xayoliy obrazlarni (hatto orzularni) aks ettiradilar. Shuning uchun ular ko'pincha erkin mavzuda; o'zlarini qiziqtirgan va ayni chog'dagi ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan narsalar haqida rasm chizadilar. Ana shunday erkin mavzuda rasm chizish jarayonida bolalarning ijodiy xayol qilish qobiliyatlari o'sib boradi. Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining rivojlanishiga turli xil hikoya va ertaklar ham ta'sir ko'rsatadi. Xalq turli qiziqarli, ibratli va ta'limiy ertaklar ijod etishda bog'cha yoshidagi bolalarni ham unutmagan. O'zbek xalqining og'zaki adabiyotida yosh bolalarga tushunarli, sodda til bilan yaratilgan ertaklar mavjud. Bulardan tashqari, rus va boshqa halqlarning tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan ertaklar ham ko'pdir. Bog'cha yoshidagi bolalar uchun yaratilgan ertaklarning ko'pi antropomorfizm xarakteriga egadir. Buning ma'nosi shuki, ertaklarning qahramonlari odamlarga o'xshab "gapiradigan" hayvonlardan iboratdir. Bolalar bunday ertaklarni juda yoqtiradilar va har doim maroq bilan tinglaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida ularda shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabat yuzaga keladi. Masalan, doim yovuzlik qiladigan bo'ri obrazini haddan tashqari ayyor tulki obrazlarini bolalar sevmaydilar. Ularga qo'rqqoq quyon, xo'roz, g'oz, echki, beozor hayvonlarning obrazlari yoqadi. Turli ertaklar bolalarning xayollariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Ular o'z xayol kuchlarini ishga solib, eshitayotgan yoki eshitgan ertaklaridagi turli obrazlarning qiyofasiga kiradilar. Boshqacha

qilib aytganda, eshitgan ertaklari ular o'yinining mazmuniga ham ta'sir etadi.

Bolalar uchun chiqarilgan turli ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutib, pedagog-tarbiyachilar bolalarga ertak aytib berish va o'qib berishga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim.

Shunday qilib xayol bog'cha yoshdagi bolalarning taraqqiy etishlarida katta o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham bog'cha yoshdagi davrda bolaning xayoli yetarli o'sgan bo'lishi kerak, chunki maktabdagi o'qish birinchi kundan boshlab bolalardan xayol qilish qobiliyatining, xususan tiklovchi xayol yaxshi o'sgan bo'lishini talab qiladi.

6. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining kommunikativ vosita sifatidagi rivojlanishi

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqati bilan uzviy bogliqdir. Bola jumalarning mazmuni va shaklidagi o'zgarish uning muloqat shakllari o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo'naltirilgan va nosituativ – shaxsiy muloqot shakliga o'tilishi bolalar nutqiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni hal qilishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog'cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo'ladi. Bog'cha yoshda bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so'z-lug'at boyligining o'sishida 2 muhim tomon – miqdor va sifat tomonlari mavjud.

Lug'at boyligining miqdoriy o'sishi D.B.Elkoninning ko'rsatishicha, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. So'nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug'at tarkibini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V.Loginaning ma'lumotlariga ko'ra 3 yoshga kelib, bola lug'atida 1200 ta so'z mavjud bo'ladi, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 3000-3500 so'zni o'z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 yoshli bolaning lug'ati 400-600 so'zdan, 6 yoshli bolaning aktiv lug'ati esa 2500-3000 so'zdan iborat deb ko'rsatilgan edi.

Situatsion – ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) konkret predmetli vaziyat bilan bog'liq. Bu holat shunda ko'rinadiki, bolaning nutqida ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p bo'ladi. Sifat turkumidagi so'zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarning faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o'lchami (barcha sifatning 96,4%)ni ifodalaydi. 98% fe'llar faqatgina konkret predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi.

Bolalarning nosituativ – bilishga yo'naltirilgan (vaziyatga – situatsiyaga bog'liq bo'lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog'liqlikdan ozod bo'ladi. Astasekin atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so'zlar zahirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so'zlar (11,25%) va emosional xususiyatlarni ko'rsatuvchi so'zlar (5%) paydo bo'ladi, irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe'l turkumidagi so'zlar (6,24%) vujudga keladi.

Nosituativ – shaxsiy muloqotda, bola odamlar o'rtasidagi munosabatlar haqida axborot olishga, o'zining fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qilar ekan, uning nutqida umumiy grammatik murakkablashish ro'y beradi. Sifat turkumidagi so'zlar quyidagi nisbatda bo'ladi: atributiv (tashqi xususiyatlarini ifodalovchi) – 69,80%, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar – 14,65%, ahloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar – 9,3%. Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe'llar ancha ko'payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe'llarning 9,76%ni tashkil etadi.

Bolaning lug'at boyligi nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatdan ham o'sib boradi. Bu asosan bolalarning so'zlar mazmunini o'zlashtirishi bilan kechadi. Lug'atni egallash jarayoni tushunchalarni egallab borish bilan uzviy bog'liq. L.S.Vigotskiy yozishicha, "Psixologik tomondan olib qaraganda, so'zlarning mazmuni va ma'nosi – bu umumlashma yoki tushunchadan o'zga narsa emas. Biz so'zning ma'nosini bemalol tafakkur fenomeni deb hisoblashga haqlidirmiz".

Bog'cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko'rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlariga jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o'zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli xarakterda ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Shu tufayli ham, bog'cha yoshidagi bolalar lug'atida abstrakt (mavhum) tushunchalar deyarli uchramaydi.

Agar 3-7 yoshdagi boladan berilgan topshiriqda nutqiy faoliyatning elementi bo'lmish so'z bilan muayyan amallarni bajarish talab etilsa, masalan, gap tarkibidan so'zlarni ajratib olish vazifasi berilsa, S.N.Karpovanning tadqiqoti ko'rsatishicha, bolada unga aytilgan gap belgilaydigan vaziyatga orientir olishning ancha barqaror moyilligi kuzatiladi. Berilgan gap tarkibida nechta so'z mavjud degan savolga bolalar gapni "boshdan oyoq" qaytadan takrorlaydi. Masalan, "Koptok yumalab ketdi" degan gap berilsa, bola (5-9 yoshli) bu gapda bitta so'z "Koptok yumalab ketdi" degan so'z borligini aytadi.

S.N.Karpovanning tadqiqoti shuni isbotladiki, bog'cha yoshidagi bolada gap tarkibidan barcha turdagi so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Buning uchun ularga so'zning mezonlarini, ya'ni so'z tovushlarining majmuasidan iboratligini, so'z doim muayyan mazmunga egaligini anglashi lozim (albatta, bolalar yoshiga mos keluvchi usullar bilan) bo'ladi. Shunday qilinganda, yoshidan qat'iy nazar bolalarda so'z haqida adekvat va anglangan tasavvurlar paydo bo'ladi.

Katta bog'cha yoshi davrida so'zlarning tuzatilishini stixiyali tarzda o'zlashtirish natijasida bolalarda so'zni tarkibi jihatdan tahlil etishning elementar shakllari yuzaga keladi.

Nutqning fonetik (tovush) sistemasini o'zlashtirish jarayoni tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va fonematik eshitishning rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Nutqning fonetik tarkibini o'zlashtirish 1 yoshning oxirlariga kelib boshlanadi. Bog'cha yosh davrining boshiga kelib, bolalar asosan ona tilining barcha tovushlarini egallab bo'ladilar. Biroq shunday bog'cha yoshidagi bolalar ham uchraydiki, ularda ancha katta yoshda ham nutqiy nuqson, talaffuz kamchiliklari uchraydi. Buning asosiy sababi nutq apparati motorikasining sekin rivojlanishidir. Muloqot deganda o'zaro munosabatlarning shakllanishi, ro'yobga chiqarilishi va namoyon bo'lishini ta'minlovchi informasion emosional va predmetli o'zaro ta'sir jarayoni tushuniladi. Bola shaxsining shakllanishida muloqotning roli benihoya kattadir.

Muloqot jarayonida muayyan shaxsiy munosabatlar shakllanadi. Bolada qanday shaxsiy sifatning tarkib topishi ko'p jihatdan uning atrofdegilar bilan bo'lgan o'zaro munosabati xarakteriga bog'liqdir. Bolaning kattalarga munosabati ishonchli yoki ishonchsiz, yoqimli yoki yoqimsiz va hokazo bo'lishi mumkin. Xo'sh bolalarning kattalarga bo'lgan munosabati nima bilan belgilanadi? Bu munosabat asosida

nimalar yotadi? Bunday masalalar hozircha kam tadqiq qilingan. Ularga nisbatan yondoshuvlar mavjud. Neofreydistlar (Freydning davomchilari) bolalarning kattalarga bo'lgan munosabati shakllanishida onaning o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblaydilar. Ularning fikricha bunga sabab shundaki, ona bolaning "orol ehtiyoji"ni qondiradi. Biroq nega bo'lmasa onasidan ayrilib qolgan bolalarning ham jismoniy va psixik jihatdan normal rivojlanishi holatlari uchraydi. Bolaning uni oziqlantirmagan u bilan faqatgina o'ynagan yoki muloqatga kirishgan kattalarga qattiq bog'lanib qolishini neofreydisk pozitsiyadan turib qanday qilib tushuntirish mumkin? Biologik omilning rolini mutlaqlashtiruvchi psixoanalitik yondashuv ushbu savollarga javob berolmaydi.

"Impiriting" – qayd etish nazariyasining tarafdorlari ham atrofdagilarga bo'lgan munosabatining shakllanishida ilk tajriba muhim birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydilar. "Impiriting" gipotezasiga muvofiq ilk bolalik davridagi bolalarda ular bilan doimiy muloqotda bo'luvchi kishining xususiyatlari – tashqi qiyofasi, ovozi, kiyimi, hidi qayd etib qolinadi.

Boshqa bir yo'nalish – neobixevioristik yo'nalishga muvofiq bolaning katta kishiga bo'lgan munosabati bu kishi bolaning birlamchi, organik ehtiyojlari (oziq-ovqat, issiqlik, qulaylikka bo'lgan ehtiyojlarni) qanchalik qondirishi bilan belgilanadi.

M.I.Lisina boshchiligidagi eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inson ehtiyojining dastlabki 7 yili davomida bolalar va kattalar o'rtasidagi muloqotning bir necha shakli ketma-ket paydo bo'ladi hamda bir-birining o'rnini almashtiradi.

U muloqot shakllarining asosiylari quyidagilardir: bevosita-emosional muloqot, biror bir ish yuzasidan vujudga keluvchi muloqot (ishchan muloqot), ayni paytdagi vaziyatga bog'liq bo'lmagan va bilishga yo'naltirilgan muloqot (bilish muloqoti), odam bilan bog'liq masalalar yuzasidan bo'ladigan muloqot (shaxsiy muloqot).

Dastlab, bevosita – emosional muloqot paydo bo'ladi. Muloqotning bu shakli asosida bolaning unga nisbatan diqqat-e'tiborli ba mexribon bo'lishlariga ehtiyoj his etishi yotadi. Keyinchalik muloqotdagi tashabbusni bola o'z qo'liga oladi.

Yilning ikkinchi yarmidan boshlab nafaqat mehribonlikka ehtiyoj, balki kattalar bilan hamkorlik qilishga bo'lgan ehtiyoj ham kiritiladi. Bunday ehtiyoj ishchan muloqot davomida qondiriladi. Bola ishchan muloqotga kirishganda, kattalardan yordam so'rashi, ularni ma'lum bir

faoliyat bilan shug'ullanishga taklif etishi va boshqalarni amalga oshirishi mumkin. Lekin shu bilan birga bola biror ish bilan bo'lmagan vaziyatda bilishga yo'naltirilgan yoki odam bilan bog'liq masalalar yuzasidan bo'ladigan muloqotga ham kirishadilar.

Bilish muloqotida bola kattalar bilan atrof-olamdagi narsa va hodisalarni muhokama qiladi. Bunda bola biror bir narsa haqida aytib berishi, savollar bilan murojaat qilishi, kattalardan biror narsa aytib berishlarini iltimos qilishi mumkin.

Bunday turdagi muloqotga kirishishdan maqsad kattalardan zarur bo'lgan axborotni olishdan iborat. Shaxsiy muloqotda esa bola kattalar bilan odam haqida suxbatlashadi. Bunda u o'zining emosional holatini tariflab berishi, kattalarni o'zlari haqida gapirib berishlariga undashi mumkin. Bolaning emosional qo'llab quvvatlashiga bo'lgan ehtiyoji atrof-olamga bo'lgan munosabati va unga berayotgan bahosi kattalarning munosabat va bahosiga mos kelishiga intilishi shaxsiy muloqotning asosini tashkil etadi. M.I.Lisining fikricha, aynan shu narsalar bolaning ijtimoiy ehtiyojlari tarkibida markaziy o'rinni egallaydi.

7. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

birinchi davr - bu 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emosional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;

ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish bilan bog'liqdir;

uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir.

Bog'cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot

motivlari - bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rmda paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo'lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rinadi.

Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mehribon bo'lish xususiyati ham shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 yoshlar oralig'ida bolalar o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o'zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan *«Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?»*, *«Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?»* singari savollarida ko'rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo'lishga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan - iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli

shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog'cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnatishida foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo'lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi hislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog'cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Bog'cha yoshidagi bolalarling xayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar. Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari ko'p jihatdan ularni organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaligi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarining qondirilmaligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalarning burch hissi - «nima yaxshiyu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'rganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bo'lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

Bog'cha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishiga oilaviy muhitning roli. Oila bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo'g'inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan tasiri benihoyat kattadir. Bolaning mustaqilligi nisbiy bo'lib, u ko'p jihatdan kattalar qaramog'i va yordamiga muhtoj bo'ladi. Ota-onaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik katta undovchi kuchga ega bo'ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va psixik rivojlanishining stimulyatori bo'lib xizmat qiladi.

Psixiatrlarning ta'kidlashicha, bolani haddan tashqari qattiq qo'llik bilan tarbiyalash unda nevrozlarni va psixosteniyani keltirib chiqaruvchi omillardan biridir.

Albatta, har bir bolaning oiladagi munosabatlari o'ziga xos hamda takrorlanmasdir. Biroq ota-ona va bola munosabatlarining umumiy jihatlari ham mavjuddir. Ota-onalar bolalar xulq atvorini boshqarishda qanday usullardan foydalanishlariga ko'ra o'rtadagi munosabatlar ko'pincha "demokratik" va "avtoritar" nazorat qiluvchi kabilarga ajratiladi.

Bolalarga oilaviy ta'sir etishning "demokratik" shakli uchun quyidagilar xos: bolaga ko'p narsaga ruxsat beriladi, bola bilan ko'p kontakt qilinadi, unga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'linadi, ota-onalar bo'lar-bo'lmas ta'qiblarni qo'ymaslikka harakat qiladilar, buning o'rniga ular bolalarga oiladagi tartib qoidalarini tushuntirishga intiladilar, iloji boricha bolarining savollariga javob berishga, ularning qiziquvchanliklarini qondirishga harakat qiladilar.

Oillardagi "avtoritar" muhit bolalarga nisbatan haddan tashqari ta'qiqlarning ko'pligi bilan xarakterlanadi. "Hukmron" ota-onalar boladan to'liq bo'ysunishini talab qiladilar. Bunday oilalarda bolalarga xulq-atvor qoidalarini tushuntirishga qaratilgan muloqot kamdan-kam o'tkaziladi.

Shu narsa aniqlanganki, "avtoritar" va "demokratik" oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning shaxsiy xususiyatlarida muayyan farq mavjud bo'ladi. "Demokratik" oilalarning farzandlari ijodkorlikka moyil, tashabbuskor, liderlikka intiluvchan, konformizmni (guruh fikriga tobe

bo'lishni) inkor etuvchi, ijtimoiy munosabatlarida ko'proq emotsiyalarni his etuvchi bo'ladilar.

Sotsiometrik tajribalardan ma'lum bo'lishicha oiladagi muhit iliq, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlar demokratik asosga qurilgan bo'lsa, bola o'z tengdoshlarining orasida jamoada yuqori mavqega, aksincha, nosog'lom oilada tarbiyalanayotgan bolalar ancha past mavqega ega bo'ladilar.

Shu narsa aniqlanganki, bola qanchalik ko'p mehr-muhabbat ko'rsa, shaxs sifatida anchagina sekin yetiladi, u passivlikka va apatiyaga moil bo'ladilar, ehtimol, keyinchalik ularda kuchsiz xarakter shakllanadi. Oiladagi psixologik iqlim, ya'ni bolalar bilan bo'lgan muloqat xarakteri, ularga mexr-muhabbat bilan, diqqat-e'tibor bilan munosabatda bo'lishi o'sib kelayotgan inson ahloqiy qiyofasining shakllanishida o'ta muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham barkamol inson tarbiyasi avvalo oiladagi muhitning sog'lom bo'lishini taqozo qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning oila a'zolariga bo'lgan munosabatlari o'g'il va qiz bolalarda farqlanadi. Masalan, o'g'il bolalar qizlarga nisbatan ko'proq o'z jinsidagi oila a'zolari – otasi, akasi, bobosiga o'zini yaqin tutadi.

Oilaning bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni beqiyos ekan, oila a'zolari bolalarning psixik rivojlanishini ta'minlash uchun oilada sog'lom munosabatlar muhitini yaratishlari lozim, tarbiyachilarning eng asosiy yordamchisiga aylanishlari kerak.

Bolaning psixik rivojlanishida uning boshqa bolalar bilan bo'ladigan muloqati muhim ahamiyatga egadir. Tengdoshlariga bo'lgan qiziqish bolada kattalarga bo'lgan qiziqishidan biroz keyinroq 1 yoshning oxirlarida paydo bo'ladi. Biroq u borgan sayin, ayniqsa, bog'cha yosh davrida mustahkamlanib boradi.

4-5 yoshli bola uchun eng og'ir jazo – bu uni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishidan mahrum etishdir. Bolalar guruhiga tushib qolgan davrdan boshlab bolaning individual rivojlanishini uning “bolalar jamiyati” a'zolari bilan bo'lgan munosabatlarini hisobga olmay ko'rib chiqish va o'rganish mumkin emas.

YA.L.Kolominskiy bog'cha yoshidagi bolalar guruhini odamlar ijtimoiy birligining ilk pog'onasi, “kurtagi” deb hisoblaydi.

Bolalar o'z tengdoshlari jamoasiga intiladilar. Biroq har doim ham ular tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishga erishavermaydilar. Ba'zi bolalar guruhda ancha faol bo'lib, o'zlarini go'yo “suvdagi baliqday” his etadilar. Ayrimlari anchagina noqulaylikni,

o'zlariga nisbatan ishonchsizlikni, boshqalarga tobelikni his etadilar. Nega shunday? Tengdoshlar bilan bo'lgan ijobiy munosabatlar bolada birdamlik hissini kuchaytirib, uning guruhga qattiq bog'lanib qolishiga sabab bo'ladi. Biroq ijobiy munosabatlari yo'qligi bolani tushkinlika solib, uni xavotirlanuvchi yoki agressiv qilib qo'yishi mumkin. Bu esa unda bolalarga, umuman, odamlarga nisbatan salbiy adekvat munosabatni shakllantirishi, ularni yakkalanuvchanlikka moyil qilib qo'yishi ham mumkin.

Bordi-yu, guruhda bolaga faqat bir odam simpatiya (yoqtirish, ijobiy munosabatda bo'lish) munosabatini bildirsachi? Unda nima bo'ladi? Bunda simpatiya munosabatining bir tomonlama yoki ikki tomonlamaligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Agar bu munosabat ikki tomonlama bo'lsa, bola kimgadir ijobiy munosabatda bo'lsa-yu, ijobiy javob ololmasa bola og'ir kechinmalarni kechirishi mumkin. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning, o'zaro munosabatlari ijobiy bo'lishi lozim. Bolalar munosabatlarining xarakteri va bolalar guruhidagi mavqei nafaqat uning shaxsiy xususiyatlari bilan, ayni vaqtda bolalarga nisbatan guruxida shakllangan talablar bilan baholanadi. Odatda ko'pchilik orasida har xil o'yinlarni o'ylab topa oladigan "xushchaqchaq, chiroyli rasmlar chiza oladigan, aqliy jihatdan yaxshi rivojlangan, mashg'ulotlarda faol ishtirok etadigan, ancha mustaqil bo'lgan, saramjon-sarishta bolalar shuhrat qozonadilar.

Ko'p bolali oilalarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola shaxsining rivojlanishiga aka-ukalari, opa-singillari ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aka-ukalar va opa-singilar bolaga eng yaqin bo'lgan mikromuhit tarkibiga kirib, unda markaziy o'rinni egallaydi. Bazi tadqiqotchilar, hatto, shunday fikrlardagi, oila a'zolarining soni ko'paygan sari bolalarga ota-onanig ta'siri susayib, aka-ukalar, opa-singillar ta'siri kuchayib boradi. Katta akalari va opalari davrasida bola o'zini emosional himoyalanganday his qiladi. Aka-opalar esa o'zlarini mehribonlik his-tuyg'ularini, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular o'rtasida bola o'zining tashvishlari, qiziqishlari bilan o'rtoqlashishi mumkin. Akalaru, opalar esa uning ehtiyojlari, jumladan, muloqotda bo'lish ehtiyojini qondirishlari mumkin.

Demak bog'cha yoshdagi bolalarning boshqa bolalar bilan bo'lgan ancha murakkab va xilma-xil munosabat turlari shakllanadi va ana shu munosabatlar ma'lum miqdorda uning shaxs shakllanishini belgilab beradi.

O'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishga qiynalayotgan, muloqotda bo'lish ehtiyoji yetarlicha shakllanmagan bolalarning tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlarini aktivlashtirmaslik lozim. Yaxshisi, dastlab umumiy qiziqishlarga ega bo'lgan 1- 2 ta sherikni topish, keyinchalik asta-sekin muloqot doirasini kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda noto'g'ri shakllanib ulgurgan muloqot motivlarini qaytadan qurish, avvalo, boshqalarning fikri bilan hisoblashishga o'rgatish ancha foydalidir.

Kattalarning bog'cha yoshidagi bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri bolaning boshqa faoliyat: rasm chizish, turli narsalar yasashi, applikasiyalar tayyorlashi, o'quv vazifalarini bajarishi vaqtida ham amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatlarni bajarishi davrida bolalarda kattalar va tengdoshlari tomonidan ijobiy bahoga sazovor bo'ladigan narsani yaratishga yo'nalganlik qaror topadi, ijtimoiy yo'nalganlik shakllanib boradi, bilish motivlari, irodaviy va boshqa shaxsiy hususiyatlari tarkib topib boradi .

Insonning psixik rivojlanishi, uning shaxs sifatida shakllanishi o'zini o'zi anglashining ya'ni o'zini jismoniy, ma'naviy hamda ijtimoiy mavjudot sifatida anglashning qaror topishi bilan bog'liq.

O'zini-o'zi anglashning rivojlanishi har bir bolada o'ziga xos tarzda kechadi. Biroq barcha bolalarda, odatda, xayotning birinchi yili oxiriga kelib, o'zini-o'zi anglashning paydo bo'lganini tasdiqlovchi belgilar kuzatiladi: bola o'zini, o'z tanasini uni o'rab turgan fazodan ajrata boshlaydi. O'zini-o'zi anglashning keyingi rivojlanishi bolaning o'z xohishlari va umuman, faoliyati motivlarini anglashi bilan bog'liq bo'ladi. O'z faoliyatining motivlarini anglash bolaga o'zini-o'zi anglashning keyingi bosqichiga o'tishga, ya'ni o'z harakatlaridan ajrata olishga yordam beradi.

Dastlab bola o'zini faoliyat sub'ekti sifatida anglamaydi. "Doniyor sakrayapti", "Sevinch uxlamoqchi", - ilk bolalik yoshidagi bolalar o'zi haqida deb aytishadi.

Xayotning 3-yili o'zini-o'zi anglash rivojidadagi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi. Chunki bu davrda bolada avvallari predmetga mahkam biriktirib qo'ygan harakatni asta-sekin undan ajrata boshlaydi. Bu hodisa birdan, o'z-o'zidan ro'yobga chiqmaydi. Uning amalga oshishiga sabab bolaning avvalgi predmetli harakatini yangi sharoitlarda bajarishi va uni boshqa predmetlarga ko'chirishidir.

"Men o'ynayapman", "Men kiyinayapman", "Men ovqat yeyapman" degan gaplarni hamda "o'zim" degan so'zni 3 yoshli

bolaning nutqida tez-tez uchratishimiz mumkin. O'zini uchunchi shaxs olmoshi bilan ifodalashdan "men" olmoshini ishlatishga o'tishi ilk bolalik davrining eng muhim yutuqlaridan biridir. Ba'zi psixologlar, (L.I.Bojovich) hatto, ilk bolalik davrining oxiriga kelib paydo bo'luvchi "Men" tizimi va uning yuzaga keltiradigan mustaqil harakat qilish ehtiyoji, o'z "Men"ini ro'yobga chiqarishi, namoyon etish ehtiyoji ushbu davrda yuzaga keluvchi eng markaziy yangi tuzulma, deb hisoblashadi. Bu tuzulma ketidan paydo bo'luvchi tuzulmalar orasida o'ziga-o'zi baho berishning yuzaga kelishi bolaning shaxs sifatida rivojlanishida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni ilk bolalik davrining oxiri va bog'cha yoshining boshidagi o'ziga-o'zi baho berishning genezisida (yuzaga kelishida) bolaning kattalar bilan bo'lgan muloqoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bola o'zining imkoniyatlari haqida adekvat bilimga ega bo'lmaganligi tufayli kattalarning unga bergan bahosini qabul qiladi. Boshqacha aytganda bola o'zini kattalar orqali, ularning bola haqidagi fikri orqali baholaydi. Bola bu davrda o'ziga-o'zi baho berishda to'laligicha kattalarning fikriga suyanadi. O'zi haqidagi mustaqil tasavvur elementlari esa biroz keyinroq paydo bo'ladi.

Maxsus taqiqotlarning ko'rsatishicha, (B. G. Nechayev va b.) ushbu elementlar dastlab shaxsiy sifatlar, ahloqiy fazilatlarni baholashda emas, balki predmetli va tashqi xususiyatlarni baholashda namoyon bo'ladi. Bu esa harakatlarning predmetdan to'liq ajralib chiqmaganligini ko'rsatadi.

Bog'cha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishida ancha sezilarli bo'lgan o'zgarish o'zga kishining tashqi xususiyatlarini baholashdan shaxsiy xususiyatlarini baholashga o'tishida ifodalanadi.

Barcha yosh guruhlardagi bolalarda o'zlaridan ko'ra o'zga shaxslarni ob'ektivroq baholashlari kuzatiladi. Biroq bu yerda ham ma'lum bir farqlar uchraydi. Jumladan, katta bog'cha yoshidagi bolalar "Sizlarning orangizdagi eng yaxshi bola kim?" degan savolga odatda "Men" deb javob bermaydilar. Ammo bu bolaning o'ziga-o'zi beradigan bahosi pasayganini bildirmaydi. Bolalarning bunday javobni bermasliklariga sabab shundaki, bu yoshda ular ko'pincha maqtanchoqlik yaxshi emasligini biladilar. Agar o'zlarini ijobiy tomondan baholamoqchi bo'lsalar, buni ko'pincha bilvosita amalga oshiradilar. Masalan, "Sen yaxshi bolamisan yoki yomon bolamisan?" degan savolga bolalar (bog'chaning katta guruh bolalari) "Yaxshi" yoki

“Yomon” deb javob bermaydilar, buning o‘rniga “Bilmadim... Men kattalarga quloq solaman”, “Men ham 100 gacha sanashni bilaman”, “Men doim navbatchilarga yordam beraman” deb aytadilar.

Bog‘cha yosh davrida o‘ziga o‘zi baho berish emosional harakterga ega bo‘ladi. Bolaning boshqalarga beradigan bahosi ham shunday xususiyatga ega bo‘ladi. Bola uni o‘rab turgan kattalardan qaysi biriga ishonch his etsa, mehri tovlansa o‘sha kishiga ijobiy baho beradi. Katta bog‘cha yoshidagi bolalar ularni o‘rab turgan kattalarning ichki olamiga baho berishga harakat qiladilar. O‘rta va kichik bog‘cha yoshidagi bolalardan farqli ravishda kattalarning ichki olamiga anchagina chuqur va differensiallashgan baho beradilar.

Aniqlanishicha, bolaning guruhda egallagan mavqei uning o‘ziga o‘zi beradigan bahosiga ta‘sir etadi. Masalan, guruhdagi mavqei unchalik baland bo‘lmagan bolalarda o‘ziga juda yuqori baho berish, aksincha guruhdagi mavqei ancha yaxshi bo‘lgan bolalarda o‘zini past baholash tendensiyasi kuzatiladi. Bog‘cha yoshining oxiriga kelib, bolaning atrofdagilarga beradigan bahosi ancha chuqur, to‘liq detallashgan va kengaytirilgan tus ola boshlaydi.

Bu o‘zgarishlar shu bilan tushuntiriladiki, katta bog‘cha yoshidagi bolalarda odamlarning ichki olamiga qiziqish ortib boradi, ular baho berishda muhim bo‘lgan mezonlarni o‘zlashtirib boradilar, tafakkur va nutqlari rivojlanib boradi.

Bog‘cha yoshidagi bolaning o‘ziga-o‘zi beradigan bahosida unda rivojlanib borayotgan g‘urur va uyat tuyg‘ulari ham aks etadi. O‘zini-o‘zi anglashining rivojlanishi bolaning bilish va motivatsion sohalari shakllanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o‘zini, ham o‘zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo‘la boshlaydi, yani unda o‘zining ijtimoiy menini anglash shakllanadi. Bu hodisa bolaning keyingi yosh bosqichiga o‘tishida hamda uning maktabga psixologik tayyorligida muhim rol o‘ynaydi. Bog‘cha yoshining oxiriga kelib, bolaning o‘zgalarga va o‘z o‘ziga beradigan bahosidagi mustaqillik, tanqidchanlik ancha o‘sadi. Bog‘cha yoshidagi bolaning motivatsion sohasi aktiv rivojlanib boradi. Kichik bog‘cha yoshidagi bolaning xulq-atvori ilk bolalik davrlarida unchalik farq qilmaydi. Bu davrda ham bolalar asosan situativ emotsiyalari va xohish-istaklari ta‘sirida harakat qiladilar, biror harakatni bajara turib ular nima uchun shunday qilayotganliklarini to‘liq tushunmaydilar va tushuntira olmaydilar. Katta bog‘cha yoshidagi bolalarning xatti-harakatlari ancha aniqlangan tarzda ro‘y beradi. Har

xil motivlar bog'cha yoshining turli bosqichlaridagi bolalarni aynan bir harakatni amalga oshirishga undaydi. Masalan, 3 yoshli bola o'yinchoqlarini yuvishdan maqsadi suv o'ynash bo'lsa, 6 yoshli bolaning maqsadi o'yinchoqlarni toza qilish, onasiga yordam berishdan iborat bo'ladi.

Bog'cha yosh davrida motivatsion sohada aynan shu davrga xos motivlar paydo bo'ladi. Bular orasida bolaning kattalar olamiga bo'lgan qiziqish bilan, ularga o'xshashga harakat qilish bilan bog'liq motivlar ham mavjud bo'ladi.

Maxsus tadqiqotlar (L.Z.Neverovich va b.)ning ko'rsatishicha, o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy bo'lgan motivlar bog'cha yoshidayoq ancha katta, hatto, shaxsiy manfaat va faoliyatining tashqi, prosessual tomonlariga qiziqish kabi motivlardan ham kattaroq undovchi kuchga ega bo'lishi mumkin. Biroq tabiatdan va mazmunan ijtimoiy bo'lgan motivlar spontan ravishda yuzaga kelmay, balki kattalarning tarbiyalovchi ta'siri ostida shakllanadi.

Demak, bog'cha yosh davrida xulq-atrofning yangi motivlari paydo bo'ladi. Bu motivlar muayyan o'zaro munosabatlarga kirishadilar, bir biriga bog'langan holda motivlar ierarxiyasini hosil qiladi. Motivlar ierarxiyasi bog'cha yosh davridagi bolaning motivatsion sohasida paydo bo'luvchi va uning rivojlanishida juda muhim o'rin egallovchi tuzilma bo'lib hisoblanadi.

Motivlar ierarxiyasidagi motivlarning bir-biriga o'zaro tobe bo'lib bog'langanligi tufayli bola muhim, lekin ancha zerikarli vazifani bajarish uchun ayni damda unga qiziqarli bo'lib ko'ringan mashg'ulotdan voz kechishi mumkin. Bog'cha yosh davrida faoliyat motivlari ma'lum bir tizimga tushib, ayrim motivlar boshqalaridan ustun kela boshlaydi. Qanday motivning ustun kelishi bola hulq-atvorining yo'nalishini belgilab beradi. Bog'cha yosh davrida bola shaxsining o'zagi endigina shakllanayotgan bo'lsa ham, shu davridayoq bolalarni hulq-atvorida ma'lum bir yo'nalganlik kuzatila boshlaydi. Bu yo'nalganligi har xil – egoistik yo'nalganlikdan tortib, individualistik, ijtimoiy yo'nalganlikkacha bo'lishi mumkin (albatta, ushbu yoshning imqonyatlari doirasi).

Bog'cha yoshidayoq ba'zi bolalar hulq-atvorida yaratuvchanlik, ayrim bolalarda esa buzg'unchilika, iste'molchilikka bo'lgan mayllar yorqin namoyon bo'ladi. Tarbiyachi va ota-onalar bunday mayllarni tez payqab olishi lozim. Chunki bu salbiy xususiyatlarni o'z vaqtida korreksiya qilish, ijtimoiy jihatdan qadrlanadigan ehtiyoj va motivlarni

shakllantirish, har bir bola uchun o'z-o'zini namoyon etishga sharoit yaratish imkoniyatini beradi.

8. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda oliy hislarning rivojlanishi

Bola faoliyati, atrof olamni va o'zini bilishi, kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan munosabat jarayonida xilma xil emotsiyalar hamda hissiyotlarni o'zidan o'tkazadi. U atrofda ro'y berayotgan hamda o'zi qilayotgan narsalarga muayyan munosabatda bo'ladi. Ana shu munosabat bolada ma'lum bir emotsiyalar va hissiyotlarni tug'diradi. Emotsiyalar va hissiyotlar ham voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakli. U bolaning atrof olamga bo'lgan munosabati, biror bir ehtiyojning qondirilishi yoki qondirilmaslgi tufayli vujudga keluvchi ichki kechinmalarida namoyon bo'ladi.

Emotsiya va xissiyotlar rivojlanishining quyidagi umumiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin: bola xayotiy vaziyatining o'zgarishiga bog'liq ravishda emosional holatlarning shakllanishi; emotsiyalar asosida oliy xissiyotlarning shakllanishi; emotsiya va xissiyotlarning shaxsiy tuzilmalar orasida yangi tuzilma sifatida shakllanib borishi.

Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivoji muayyan o'z qonunlariga ega:

1. Dastlab, ontogenezdagi oddiy kechinmalarni ifodalovchi emotsiyalar paydo bo'ladi. Bu kechinmalar tabiiy ehtiyojlarning qondirilishiga bog'liq ravishda vujudga keladi. (qondirilsa - ijobiy, qondirilmasa - salbiy emotsiyalar vujudga keladi). Bunday emotsiyalar hayvonlarda ham mavjud. Biroq boladagi eng oddiy emotsiyalardan hayvonlardagi eng oddiy emotsiyalarni farqlash kerak. Chunki emotsiyalarning namoyon bo'lish shakli insonda sotsial xarakterga ega.

2 yoshdan boshlab bola uchun bolalarning shodlik, hursandchilik, umuman ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi reaksiyalari eng informativ (ko'p axborot beradigan) bo'lib hisoblanadi. Tajribalardan birida 2-9 yoshdagi bolalarga fotosuratlardan turli mimik reaksiyalarni (xayronlik, jaxl, qo'rquv, xursandchilik va boshqalarni ifodalovchi reaksiyalarni) aniqlab olib, so'ngra ko'rsatib berish taklif etilgan. Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalar birinchi bo'lib xursandchilikni ifodalovchi mimik reaksiyalarni aniqlay olganlar. Ko'rsatib berishda ham eng oldin xursandlikni ifodalovchi mimik reaksiyalarni aniqlay olganlar. Demak, dastlab ijobiy emotsiyalarni ko'rsatib beruvchi

mimik reaksiyalarni aniqlash, boshqa reaksiyalar orasida tanish va namoyon eta bilish qobiliyati shakllanadi.

Shubxasiz, ijobiy emotsiyalar maktabgacha yoshdagi bolaning pisixik va jismoniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq V.A. Suxomlinskiy ta'kidlaganidek, agar bola shodlikni mehnatsiz, ruxiy kuchlarini ishga solmay qo'lga kiritaversa, ertami kechmi uning yuragi bir parcha "muz" ga aylanib qolishi mumkin. Unda sovuqqonlik paydo bo'lishi mumkin.

2. Emotsiyalarning rivojlanishi ularning differensiyasi, kechinmalarning boyib borishi singari ro'y beradi. Ijobiy emotsional yoki salbiy emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan kechinmalarga misol qilib, ozuqaga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi yoki qondirilmasligi tufayli bola o'z boshidan o'tkazadigan kechinmalarni keltirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolada salbiy kechinmalar qo'rquv, jaxl, jirkanish, ijobiy kechinmalar shodlik, bola mehrining atrofda qilarga tovlanib ketishi, ota-onasiga qalban, yaqinlashishi ko'rinishlarida namoyon bo'lishi mumkin.

3. Bolalar hissiyotlarining rivojlanishi muayyan ob'ektga yo'naltirilgan emotsiyalarning umumlashishi sifatida ro'y beradi.

Emotsiya va hissiyotlarning shakllangan tizimida emotsiyalar boshdan o'tkazilayotgan hissiyotning namoyon bo'lishi sifatida gavdalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiya va hissiyotlar tizimi endi-endi shakllanayotgan bo'ladi. Shuning uchun ularning emotsiyalari ular kechirayotgan hissiyotlarning namoyon bo'lishi emas, balki ko'proq oliy hissiyotlarning shakllanishi uchun umumlashtirilishi kerak bo'lgan materialdir.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional sohasining rivojlanishi davomida emotsional kechinmalarni uyg'otuvchi ob'ektdan sub'ektga munosabat ajralib boradi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, uning uchun ob'ekt tavsifi bilan sub'ektiv kechinmalari tavsifi shunchalik bir-biriga yaqin bo'ladi. 3 yoshli betob bola uchun unga ukol qilgan hamshira "yomon xolda"dir. Bunda bola o'z emotsional holatining salbiy tavsifi (xarakteristikasi)ni bu holatning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan odamga ko'chirib o'tkazadi.

5. Maktabgacha yoshda emotsiya va xissiyotlarning dinamik va mazmuniy tomonlari rivoj topadi. Mazmun tomonining rivojlanishi atrof olam haqidagi bola bilimlarining kengayishi va chuqurlashishi, bola barqaror (doimo bir xil) munosabatda bo'ladigan predmet va

hodisalarning ko'payib borishi bilan taqozolanadi. (Shular tufayli emotsiya va xissiyotlar mazmun jihadan rivojlanadi.) Dinamik tomonining rivojlanishi bolada o'z emotsiyalarini nazorat qilish va boshqara olish ko'nikmalarining shakllanishi bilan taqozolanadi. Emotsiya va hissiyotlarning mazmuni emotsional kechirmalarning ob'ektlari, sabablari bilan bog'liq. Dinamik aspekt esa emotsional kechinmalarning chuqurligi, davomiyligi va vujudga kelish chastotasi bilan xarakterlanadi.

Emotsiya va hissiyotlar rivojlanishi boshqa psixik jarayonlar, ayniqsa, nutqning rivojlanishi bilan bog'liq. Nutq yordamida bola o'z xissiyotlari va emotsiyalarini anglaydi va boshqaradi. Nutq orqali bolalarda nafaqat biror narsaga ehtiyoj sezayotganlarini bildiradilar, balki ma'lum bir tarzda o'z kechinmalarini ifodalaydilar.

Bola emotsiyalarining rivojlanishi muayyan ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'liq. Bolaning vaziyatni tushinish, vaziyatni va undagi o'zgarishlarni boshidan kechirishi muayyan emosional holatni hosil qiladi.

Bola uchun odatiy bo'lgan vaziyatlarning buzilishiga bola xayot tarzi, kun tartibining o'zgarishi sabab bo'lishi mumkin. Bu esa ba'zida stress holatini yuzaga keltiradi. A.I.Mishkis va L.G.Golubevaning ma'lumotlariga ko'ra bolalar yangi sharoitlarga moslashishi uchun 2 oy talab qilinadi.

Odatiy vaziyatning buzilishi affektiv reaksiyalarni shuningdek, qo'rquvni keltirib chiqishi mumkun. Affekt (qisqa mudatli, jo'shqin kechadigan emotsional reaksiya) bosh miya po'stlog'i boshqaruv funksiyasining sustligi natijasi bo'lishi mumkun.

Bolalardagi o'zgarish to'rmozlanishdan ustun kelishi mumkun. Bola ijobiy emotsiyalarning jo'shqin ifodalanishini to'rmozlay olmasligi tufayli qarama-qarshi (salbiy) emotsiyalar paydo bo'lishi mumkun. Masalan, jo'shqin xursandchilik ko'pincha yig'i va ko'z yoshi bilan tugaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiya-hissiyotlarining rivojlanish shartlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy xayot talablarini, ya'ni ahloqiy me'yorlarni bajarish yoki bajarmaslikka bog'liq ravishda muayyan kechinmalar yuzaga keladi. Burch hissining ilk bor namoyon bo'lishi 4-5 yoshlarga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda mavjud bilimlar, ko'nikma va malakalar asosida bolada ahloqiy ong shakllana boshlaydi. Chunki bu davrda bolalar kattalarning talablarini tushuna

boshlaydi va ularni o'zining xatti-harakati hamda boshqalarning hulq-atvoriga tadbiq eta boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda faxr va uyat kabi etik kechinmalar ham paydo bo'ladi. Faxr hissining paydo bo'lishi uchun bola ongida konkret fazilatlar bilan atrofda gilarining ularga beradigan ijobiy bahosi o'rtasida mavjud aloqadorlik haqida shakllangan tasavvurlar ichki asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, bola 4-5 yoshli bolalar faoliyatning har xil turlarida erishadigan miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birgalikda chiroyli raqsga tusha olish; tez chopa olish; axloqiy xususiyatlar (chiday olish, quloq solish); ota-onalari bilan faxrlanadilar.

Maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib oliy xissiyotlar tobora ko'proq bola hulq-atvorining motivlariga aylanib boradi. Hissiyotlar vositasida bolalar jamiyatda o'rnatilgan estetik, ahloqiy talablarga muvofiq ravishda o'z xohish istaklari, xatti-harakatlarini boshqara boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiya va hissiyotlarining rivojlanishi bir qator shartlar bilan bog'liq. M.I.Lisining tadqiqotlari ko'rsatishicha, emotsiya va hissiyotlar bolaning kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqati jarayonida shakllanadi.

Xayotning dastlabki yillaridan boshlab oiladan tashqarida tarbiyalangan bolalardagi sust emotsional rivojlanish butun xayotlari davomida saqlanib qolishi mumkin. Buning sababi shundaki, maktabgacha tarbiya muassasalarida bitta kishiga ko'p bola to'g'ri keladi. Natijada tarbiyachilarning har bir bola bilan emotsional kontakti kam bo'ladi.

M.M.Kolsovaning ma'lumotlariga ko'ra oiladagi nosog'lom muhit darhol bolaning chizadigan rasmlarida aks etadi. Oiladagi noto'g'ri munosabatlar ba'zida bir tomonlama affektiv bog'liqlikni (ko'pincha onaga bo'lgan bog'liqlikni) yuzaga keltiradi. Bunda bolaning tengdoshlari bilan muloqatda bo'lishi ehtiyoji susayadi, bolaning hulq-atvori haddan tashqari kattalarga bog'liq bo'lib qoladi, bola, xatto kuchli salbiy kechinmalar (masalan, o'zi bog'lanib qolgan odamga nisbatan rashk)ni boshidan kechirishi mumkin. M.M.Kolsova va V.S.Muxinaning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, ota-onaga nisbatan rashkning namoyon bo'lishi bolada oilada yangi farzandning tug'ilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Emotsiyalar va hissiyotlar maktabgacha yosh davrida yetakchi bo'lgan faoliyat turi - o'yinda juda intensiv rivojlanadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat yetakchi, balki xilma xil kechinmalarga boy faoliyat turidir.

Emotsiyalar va hissiyotlar bola faoliyati amalga oshirilayotgan ijtimoiy-psixologik vaziyat bilan bog'liq. Emotsiogen vaziyatlar, ya'ni kuchli kechinmalarni uyg'otuvchi vaziyatlar yangiligi g'ayrioddiylik bilan ajralib turadi. Bola kattalarga nisbatan ancha ko'p emotsiyalarni boshidan kechiradi. Buning sababi shundaki, bolaning xayoti tajribasi hali kam bo'lganligi uchun ko'p narsa unga g'aroyib va yangi bo'lib ko'rinadi.

Vaziyatga ko'ra bolaning hissiyot va emotsiyalari ham ijobiy (muxabbat, xursandchilik), ham salbiy (jahl, nafrat) bo'lishi mumkin. Agar bola ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatlariga ega bo'lsa ijobiy kechinmalar (stenik kechinmalar) hosil bo'ladi. Bordi-yu, vujudga kelgan vaziyatga bola o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmasa, salbiy (astenik) emosional kechinmalar paydo bo'ladi.

Umuman olganda, bolalar xayotiy vaziyatlarga optimistik munosabatda bo'ladilar, ularga tetik xayotdan quvonuvchan kayfiyat xos. Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek shartlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish bolalarda maktabga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish imkonini beradi. Maktabga psixologik tayyorgarlikning asosiy komponentlaridan biri emotsional tayyorgarlikdir. Bu tayyorgarlik nafaqat maktabda ta'lim boshlashni xursandchilik bilan kutish, balki shu bilan birga oliy hissiyotlarning ancha rivojlangan bo'lishi, bola shaxsining emotsional xususiyatlari shakllangan bo'lishini taqoza qiladi.

Maktabgacha yoshda bola foliyatining vaqt stukturasi emotsiyalarning tutgan o'rni asta-sekin o'zgarib boradi: dastlabki bosqichlarda kechinmalar erishilgan natijaga qo'yidagidan emosional baho sifatida yuzaga kelsa, keyingi bosqichlarda - harakatlarni bajaruncha oldindan emotsional sezish shaklida vujudga keladi.

L.Z. Neverovich o'tkazgan tajribalarda 4-6 yoshli bolalar ma'lum ketma-ketlikda 19 ta aylanachani terib chiqib piramidalar yasashi kerak edi. Bolalar vazifani nafaqat ishning ahamiyati ularga tushuntirilganda (piramida o'yin o'ynash uchun kerakligi tushuntirilganda) shu bilan birga vaziyatni oldindan emotsional sezish hosil qilinganda yaxshi bajarishgan. Vaziyatni oldindan emotsional sezishni hosil qilish uchun eksperimentator bolaga rasmlar ko'rsatdi. Birinchi rasmda yoyilib yotgan aylanachalar oldida yig'lab o'tirgan bolalar tasvirlangan, ikkinchisida esa yasab bo'lingan piramidalarni xursandchilik bilan o'ynayotgan bolalar ko'rsatilgan. Bolalar bilan rasmlarni muhokama

qilish ularda berilgan vazifani bajarish yoki bajarmaslik oqibatlarini haqida emotsional bo'yoqdor tasavvurlarni vujudga keltiradi. Bu esa bolalarni berilgan vazifani oxirigacha bajarishga undaydi. A.V.Zaporojes yozganidek, bola rivojlanib borar ekan, affektiv va bilish jarayonlari o'zaro aloqaga kirishadi hamda odamlarga xos hissiyotlarning bir butun funksional tizimini hosil qiladi. Bu tizim sub'ektga o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini nafaqat oldindan qura bilish, balki ayni vaqtda his eta olish va shu tariqa faoliyatning murakkab shakllarini adekvat emotsional boshqarish imkonini beradi.

P.M.Yakobson ko'rsatib o'tganidek, maktabgacha yosh davrida hissiyotning bola harakatlarining motivi sifatidagi roli o'zgarib boradi. 3 yoshgacha bolaning harakatlari nima yoqimsiz-u, nima yoqimli ekanini anglashga asoslanadi. 3-4 yoshda boladagi jahl, qo'rquv, qayg'urish darhol uni harakatga undaydi. U boshqa bola bilan urishadi, o'yinchoqni tortib oladi yoki kimgadir rahmi kelayotganini ko'rsatadi. 4-5 yoshda bola o'z harakatlarini hissiyotlarini bevosita namoyon etishdan o'zini tuta olishi yoki oliy hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin. Emotsiya va hissiyotlar boshqaruv funksiyasini bajarib, bolaning xulq-atvorini qayta qurishga yordam beradi. Emotsional kechinmalar, xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi, yo'naltiradi yoki tormozlaydi. Bolaning xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan kattalarning ta'sirlari va talablari bola tomonidan emotsional qabul qilinsa, bola harakatlarning undovchisi bo'lib xizmat qiladi va emotsional javobni uyg'otadi.

Bolada oliy (ahloqiy hissiyotlar, bilish xissiyotlar shakllanishi uchun unda yaxshilik va yomonlik go'zallik va xunuklik haqida tushuncha hamda bilish ehtiyoji shakllangan bo'lishi lozim. Xissiyotlar asta-sekin shakllanib boradi. Dastlab bolalar hodisalarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini, keyinchalik ularning umumiy ma'nosini tushunadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oliy hissiyotlarning qo'shib ketganligi xos. Bolalar estetik kechinmalarni chiqaruvchi ob'ekt va hodisalarni ham, etik kechinmalarni uyg'otuvchi ob'ekt va vositalarni ham, intellektual kechinmalarni yuzaga keltiruvchi ob'ekt va hodisalarni ham "yaxshi" degan umumiy baho bilan baholaydilar. Boshqacha aytganda, bu davrda bola uchun yaxshi narsa – bu chiroyli, bu mehribon, bu qiziqarli narsadir. Aynan bir ob'ekt o'zida estetik, ahloqiy hissiyotlarni jamlagan kechinmalarni uyg'otadi.

Keyinchalik maxsus axloqiy va estetik mezonlar asosida analiz qilish va baholash ko'nikmasi shakllangach, sinkretik, (qo'shib,

birlashib ketgan) hissiyotlar estetik, axloqiy va intellektual hissiyotlarga differensiallashadi (ajraladi).

Oliy hissiyotlar 2-3 yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. Oliy hissiyotlarga intellektual estetik va ahloqiy hissiyotlar kiradi.

Bilish faoliyati jarayonida yuzaga chiqadigan hissiyotlar intellektual hodisalar deyiladi. Bularga qiziquvchanlik, hayron bo'lish, yangilikdan zavqlanish hissi, xushchaqchaqlik hissi kiradi. Xushchaqchaqlik hissi maktabgacha yoshdagi bolalarda voqelikni bilish jarayonida namoyon bo'ladi. Atrof olam haqida to'g'ri tasavvurlarga ega bo'lgan bolalar predmetlarga ular uchun xos bo'lmagan belgilarni ato etishni yaxshi ko'radi.

9. Maktabgacha tarbiya yosh davri psixodiagnostikasi

Maktabgacha tarbiya muassasasidagi tarbiyachi bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishi bilan bir qatorda psixodiagnostik uslublarni o'tkazishni ham bilishi zarur. Quyidagi kuzatishni keltiramiz:

Tarbiyachi bog'chada mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida 6 yoshli Gulnora (K.) ismli qizcha xulq-atvoridagi boshqalarnikidan farq qiluvchi ayrim xususiyatlarni payqab qoladi. Qiz mashg'ulotlarda tez-tez chalg'ib ketadi, ko'pincha parishonxotir. Tarbiyachi topshirig'ini bir zumda bajarilmaydi. Bir topshiriqni tashlab, ikkinchisiga tez o'tib ketadi, hech bir ishini oxiriga etkazmaydi. O'quv topshiriqlari bajarilmaydigan boshqa vaqtlarda u o'zgalardan farq qilmaydi. Qizning diqqat, tafakkur hissiy jarayonlarini o'rganish uchun bog'chada tadqiqot o'tkazildi. Tekshiruv natijalari qizning psixik jarayonlarida hech qanday psixik o'zgarish yo'qligini tasdiqlaydi. Topshiriqlarni bajarish vaqtida charchash, faol diqqat darajasining pastligi kuzatildi. Lekin bu xususiyatlar sinaluvchi diqqatini ishning boshqa shakllariga ko'chirish bilan osonlikcha bartaraf etilgan. Shunday qilib, eksperimental psixologik tadqiqot qizning psixik taraqqiyoti normada ekanligini, psixik jarayonlarning o'zgarib turishi esa ba'zi omillarning ta'siri qibatida ro'y berishini ko'rsatdi.

Tarbiyachining vazifasi – bu omillarni to'g'ri aniqlash, keyinchalik bola bilan individual ish olib borib, ko'rsatilgan xususiyatlarni yo'qotishdan iborat. Yuqoridagi misolda ixtiyoriy diqqat darajasining pastligi, ish qobiliyatining sustligi o'zining ob'ektiv sabablariga ega. Qizning 3 yoshgacha rivojlanish tarixidan ma'lum bo'ladiki, u asfiksiya (kislorod etishmasligi sababli bo'g'ilish) bilan tug'ilgan, tug'ruqdan so'ng bosh miyasi yallig'langan. Uzoqroq davom etadigan ish faoliyatida

bu narsa o'z ta'sirini ko'rsatib, qiz tez charchab qoladi. Tarbiyachi bola bilan individual ish olib borganda, albatta shuni hisobga olishi zarur.

Bolalarni eksperimental-psixologik o'rganish natijalaridan o'quv mashg'ulotlari vaqtida psixik jarayonlarning ixtiyoriyligini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.

Psixologik tadqiqot natijalaridan bolalar bilan individual ish olib borishdagina emas, balki guruh o'quv-tarbiya tadbirlarini o'tkazishda ham foydalansa bo'ladi. Bunda tarbiyachi o'quv-tarbiya jarayonida har bir guruh a'zosining rolini to'g'ri aniqlashi mumkin. Shunga asosan ta'sirning u yoki bu shaklidan foydalaniladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlar tarbiyachiga guruhning, har bir shaxsning u yoki bu psixik funksiyalari rivojlanish prinsiplarini hisobga olgan holda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Sensomotor ta'sirlanish va diqqatni o'rganish uchun metodikalar

Insonning sensomotor sohasi asosiy nerv jarayonlari harakatchanligi tipini, ixtiyoriy diqqat darajasini, ishga qobiliyatlilik sur'atini xarakterlaydi. Ma'lumki, bola hayotining dastlabki yillarida jismoniy va ruhiy sifatlarining rivojlanishida sensomotor faollik bosh miya faoliyatida shartli reflektor aloqalarning mustahkamlanishiga imkon beradi (Ya.P.Frumkin, S.M.Livshits, 1979). Ular shu bilan birga temperament, iroda, hissiyot xususiyatlarining hamda bilish psixik jarayonlarining rivojlanishiga yordam beradi (E.A.Golubeva, 1980; E.B.AYurova, 1986).


Masalan, 1-2 yoshli bolalar sensomotor sohasini tekshirishda an'anaviy metodlardan foydalanib, u yoki bu harakat malakalarining qanday shakllanganligiga, ularning ma'lum yosh davridagi o'rtacha ko'rsatkichi qanchalik mosligiga e'tibor beriladi. Ko'pincha bu tadqiqotlar bolalar motor harakat rivojlanishidagi kechikishlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Harakat rivojlanishida kechikish mavjudligi keyinchalik bolaning barcha psixik taraqqiyotida kechikish sodir bo'lishining ob'ektiv zamini sifatida qaralishi kerak. Shu bilan birga, erta yurgan bola o'z tengdoshlarini barcha tomondan qoldirib ketadi, deb faraz qilish ham xatodir. Bola hayotining dastlabki ikki yilidagi umumiy jismoniy taraqqiyot bolaning keyingi aqliy taraqqiyotini belgilamaydi (P.H.Mussen, 1987).

Bolaning sensomotor sohada rivojlanish darajasi haqida uning atrofidagi turli predmetlar, jumladan, o'yinchoqlar bilan harakat qilish xususiyatlari darak berib turadi. O'yinchoqdan diagnostik qurol sifatida foydalanish uning tevarak-atrofidagi hodisalarni bilishga intilishi va

faollik darajasi hamda predmetlardan foydalanishda amaliy ko'nikmalarning mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Kattaroq bolalarni tekshirishda konkret psixologik metodikalardan foydalanish mumkin. Chunki xuddi shu davrdan boshlab, so'zli topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni tushuna boshlaydi, unda zarur shaxsiy sifatlar shakllangan, bilishga qiziqish rivojlangan, u kattalar bilan birga eksperimental psixologik tadqiqotlarda nisbatan uzoqroq ishtirok etish holatida bo'ladi.

SEGEN DOSKASI

Bu metodika oligofrenopedagogika asoschilaridan biri E.Segen tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bolaning shakllarni farqlash qobiliyatini aniqlashga, motorika xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan (N.A.Shivarev, 1970). Qattiq qog'oz kartonga 1-rasmdagi figuralar chiziladi.



1-rasm. Segen doskasi

Keyin ular ehtiyotkorlik bilan qirqib olinadi. Har bir variant bir-biridan murakkabligi bilan ajralib turadi: 1 - doskada 10 ta har xil butun figuralar bor; 2 - doskada 2 ta figura bo'lib, ularning har biri ikki qismdan iborat; 3 - doskada har biri ikki va uch qismdan iborat 4 ta figura; 4 - doskada ikki qismdan iborat 5 figura.

Bolaga 10 soniya davomida doska ko'rsatiladi. Keyin doskadagi figuralar stol ustiga tushadigan qilib ag'dariladi. Eksperimentator ularni aralashtirib, har bir figurani o'z joyiga qo'yishni so'raydi. Tajriba boshida eksperimentator 2-3 namunani ko'rsatib berishi mumkin. Keyin bolaning o'zi topshiriqni qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatadi. Bunda bola «sinash va xato qilish» kabi harakatlar qiladimi, figuralarni joyiga qo'yishda bola qanchalik diqqat-e'tiborli, buni u qanchalik o'rganadi, tadqiqotchi shu kabilarga e'tibor berib, kuzatishi kerak.

Birinchi topshiriqni bajargandan so'ng, keyingi qiyinroq topshiriqqa o'tiladi. Sinaluvchining har bir topshiriqni bajarish vaqti, uning qilgan harakatlari maxsus qog'ozga yozib boriladi (3-jadval). Sinaluvchi topshiriqlarni o'zi bajara olmasa, 1 daqiqadan so'ng unga yordamlashish mumkin.

3-jadval

Figuralarni joylashtirish bo'yicha topshiriqlarni bajarish qarori

Doska №	Sinaluvchi harakatlari	Ko'rsatilgan yordam turi	Topshiriqni bajarish vaqti

Bu metodika juda sodda bo'lib, 3 yoshdan katta bolalarni tekshirishda foydalanish mumkin. Bolalar figuralarni o'yin deb qabul qilib, bu topshiriqlarni qiziqib bajaradilar.

Koss kubiklari

Bu metodika 1923 yilda S.C.Koss tomonidan taklif etilgan bo'lib, fazoda ish tutish, diqqat, ziyraklik, qurish, yasash xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan. Bu metodika D.Wechslerning (1939, 1955) metodikasiga aqlni tekshirish subtesti sifatida kiritilgan. Odatda uni kattalarni tekshirishda qo'llashadi, lekin bunday topshiriqlarni bolalar ham qiziqib o'ynaydilar. Bolalar berilgan namunaga ko'ra kubiklardan figuralar yasashlari kerak(5-ilova).

Tajriba o'tkazish uchun bir xilda bo'yalgan plastmassa yoki yog'och kubiklar kerak bo'ladi. Kubiklarning kattaligi 3x3 sm, shakli va rangi har xil figuralar chizilgan 10 ta rasm zarur. Sinaluvchi uchun ko'rsatma: «Shunday figurani to'rtta kubikdan yasab ko'r». Rasmning birinchi namunasi ko'rsatiladi va sinaluvchi taklif etilgan figurani kubiklardan yasay boshlaydi.

Kubiklarni rasmning ustiga qo'yib, topshiriqni bajarish man etiladi. Vaqt hisobga olinadi. Topshiriqni bajarishning aniqligiga va uzoqligiga bog'liq ravishda miqdoriy baho qo'yiladi.


Bog'cha yoshidagi va boshlang'ich sinfdagi bolalar topshiriqni bajarishganda ozroq yordam berish mumkin. Bola agar qiynalsa, 1-2 figurani yasab ko'rsatish kerak. Bunda eksperimentator faqatgina yasab ko'rsatmasdan, qurish prinsipini ham tushuntiradi. Figurani yasab bo'lgach, eksperimentator kubiklarni buzib tashlaydi va sinaluvchiga mustaqil kubiklarni yasashni aytadi. Tadqiqot qarorida ko'rsatilgan yordam va bajarilgan vaqt yozib qo'yiladi.

«Mantiqsiz tasvirlar» metodikasi

Ushbu metodika yordamida bolaning atrofidagi borliq hamda ushbu moddiy dunyodagi bir qancha ob'ektlarning orasida o'zaro bog'lanishlar va munosabatlar haqida elementar obrazli tasavvurlari: hayvonlar bilan, ularning hayotiy ko'rinishlari bilan, tabiat bilan baholanadi.

Ushbu metodika yordamida bolaning mantiqiy mulohazasi va o'z fikrini grammatik jihatdan to'g'ri ifodalay olishi aniqlanadi. Metodikani tashkil qilish jarayoni quyidagicha olib boriladi:

2-rasmda tasvirlangan ko'rinishlar bolaga tavsiya qilinadi, unda hayvonlar bilan bog'liq bir qancha «mantiqsiz» hodisalar mavjud.



2-rasm

Bolaga rasmni ko'rsatish jarayonida, unga quyidagi ma'noda ko'rsatma beriladi: «Diqqat bilan ushbu rasmdagi tasvirlarni ko'rib chiq hamda bizga shuni ayt-chi, rasmda hamma narsa o'z joyida chizilganmi va ushbu ob'ektlar to'g'ri tasvirlanganmi? Agar sen qaysidir ob'ektni o'z joyida tasvirlangan emas, deb hisoblasang, nima uchun shunday bo'lishi kerakligini tushuntirib ber va sen bizga aslida qanday bo'lishi kerakligini aytib ber?».

Ko'rsatmaning ikkala qismi harn ketma-ketlik bilan bajariladi. Birinchi navbatda bola xatolarni aytib, rasmlarda ko'rsatib beradi, so'ngra haqiqatda qanday bo'lishi lozimligini izohlaydi.

Rasmlarni ko'rish va topshiriqni bajarish vaqti chegaralangan, ya'ni uch daqiqa vaqt beriladi. Bu vaqt mobaynida bola iloji boricha

mantiqsiz voqelikni ko'proq topishi va haqiqatdan qanday bo'lish kerakligini tushuntirib berishi kerak.

Natijalarni baholash

10 ball – agar bola berilgan 3 daqiqa mobaynida rasmdagi hamma mantiqsiz tasvirlarni (jarni 7 ta) aniqlab hamda qoniqarli tushuntirib bera olishga ulgursa va haqiqatdan qanday bo'lishini sharhlab bera olsa, ushbu baho qo'yiladi;

8 - 9 ball – bola hamma mantiqsiz tasvirlarni aniqlab va belgilab chiqsa, ammo birdan uchtagacha tasvirni haqiqatdan qanday bo'lishini sharhlab bera olmasa qo'yiladi;

6 - 7 ball – bola hamma mantiqsiz tasvirlarni aniqlab va belgilab chiqsa, ammo 3 - 4 tagacha tasvirni haqiqatdan qanday bo'lishini sharhlab bera olmasa qo'yiladi;

4- 5 ball – bola hamma mantiqsiz tasvirlarni aniqlasa-yu, ammo 5 - 7 tagacha tasvirni chegaralangan vaqt mobaynida sharhlab berishga ulgura olmasa qo'yiladi;

2 - 3 ball bola chegaralangan vaqt mobaynida 1 - 4ta gacha tasvirni aniqlab bera olmadi va sharhlashga vaqti etmasa;

0-1 ball — chegaralangan vaqt mobaynida bola rasmdagi 7 ta mantiqsiz tasvirlardan 4 tasini topsa qo'yiladi.

Izoh: 4 va undan yuqori ball, agar bola berilgan 3 daqiqa mobaynida topshiriqning birinchi qismini to'liq bajara olsa, ammo ularni tushuntirib va sharhlashga ulgura olmasa qo'yish mumkin.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish:

10 ball — juda yuqori

8- 9 ball — yuqori

4 - 7 ball — o'rtacha

2- 3 ball — past

0-1 ball — juda past

«Yil fasllari» metodikasi


Ushbu metodika 3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan. Bolaga 6-rasm ko'rsatiladi va ushbu rasmlarga diqqat bilan qarab, rasmning har bir qismida yilning qaysi fasli tasvirlanganligi so'raladi. Topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt mobaynida bola nafaqat yil fasllarini aytib berishi, balki nima uchun shunday ekanligini va fasllarning belgilarini ko'rsatib bera olishi hamda ushbu qism aynan mana shu faslga tegishli ekanligini asoslab berishi kerak.

Natijalarni baholash

10 ball – berilgan vaqt mobaynida bola rasmdagi yil fasllarini bir-biri bilan bog‘liq holda to‘g‘ri aytib bera olsa va har bir faslning ikkitadan belgisini ko‘rsatib bera olsa (jami har bir faslning 8 ta belgisi ko‘rsatilsa) qo‘yiladi;

8 - 9 ball – bola rasmdagi har bir yil faslini bir-biriga bog‘liq holda to‘g‘ri aytib bersa va yil fasllarining umumiy olganda 5- 7 tagacha belgisini to‘g‘ri ko‘rsatib bera olsa qo‘yiladi;

6-7 ball – bola yil fasllarini to‘g‘ri aniqlab, armmo o‘z fikrini tasdiqlovchi jami 3 - 4 ta fasl belgisini ko‘rsata olsa qo‘yiladi;



3-rasm

4 - 5 ball – bola faqat yil fasllarining 2 tasini aniqlab bera olsa va o‘z fikrini tasdiqlovchi jami 1 - 2 tagacha yil fasli belgisini ko‘rsatib bersa qo‘yiladi;

0 - 3 ball – bola yil fasllarining birortasini ham to‘g‘ri aniqlay olmasa va birorta ham fasl belgisini ko‘rsatib bera olmasa (ushbu ballar bolaning yil fasllarini topishga harakat qilganligiga bog‘liq holda) qo‘yiladi.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish.

10 ball — juda yuqori

8 - 9 ball — yuqori


6 - 7 ball — o‘rtacha

4 - 5 ball — past

0 - 3 ball — juda past

«Bu erda nima ortiqcha?» metodikasi

Ushbu metodika 4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga mo'ljallangan va bundan oldingi metodikaga o'xshashdir. Bu metodika bolalarning obrazli, so'z-mantiqli tafakkur jarayonini analiz va umumlashtirish operatsiyalarini tadqiq qiladi. Metodikada bolalarga har xil predmetlar tasvirlangan rasmlar tavsiya qilinadi va quyidagicha ko'rsatma beriladi: «Har bir rasmda tasvirlangan 4 ta predmetdan biri ortiqcha. Diqqat bilan rasimga qarab, qaysi predmet ortiqcha va nima uchun ortiqcha ekanligini tushuntirib ber». Topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.



4-rasm

Natijalarni baholash

10 ball – bola o'ziga berilgan topshiriqni 1 daqiqadan kam vaqtda bajarib, har bir rasmdagi ortiqcha predmetning nima uchun ortiqcha ekanligini sharhlab bera olsa qo'yiladi;

8 - 9 ball – bola topshiriqni 1 daqiqadan 1,5 daqiqagacha to'g'ri bajara olsa qo'yiladi;

6 - 7 ball – bola topshiriqni 1,5 daqiqadan 2 daqiqagacha to'g'ri bajara olsa qo'yiladi;

4 - 5 ball — bola topshiriqni 2 daqiqadan 2,5 daqiqagacha to‘g‘ri bajara olsa;

2 - 3 ball – bola topshiriqni 2,5 daqiqadan 3 daqiqagacha to‘g‘ri bajara olsa qo‘yiladi;

0-1 ball – bola 3 daqiqa mobaynida topshiriqni to‘g‘ri bajara olmasa qo‘yiladi.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish:

10 ball — juda yuqori

8 - 9 ball — yuqori

4 - 7 ball — o‘rtacha

2 - 3 ball — past

0-1 ball — juda past

Rasmlarga qanday predmet etishmaydi metodikasi

Bu metodika 3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarning tafakkurini diagnostik tadqiq qilish uchun mo‘ljallangan. Topshiriqni bajarishdan oldin bola bilan tushuntirish ishlari olib boriladi, ya‘ni unga rasmlar ko‘rsatilib, bu rasmlarda bolalar tasvirlanganligi, ushbu tasvirlar to‘liq bo‘lishi uchun qanday predmetning etishmasligi, bu predmetlar rasmning pastki qismida tasvirlanganligi aytib o‘tiladi.

Bolaga beriladigan topshiriqning asosiy mohiyati shundan iboratki, u iloji boricha rasmdagi tasvirlar to‘liq bo‘lishi uchun zarur predmetlarni topib ko‘rsatib berishi kerak.



5-rasm

Natijalarni baholash.

10 ball— topshiriqqa ketgan vaqt 30 soniyadan kam bo'lsa qo'yiladi;

8 - 9 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 31 soniyadan 49 soniyagacha bo'lsa qo'yiladi;

6 - 7 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 50 soniyadan 69 soniyagacha bo'lsa qo'yiladi;

4 - 5 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 70 soniyadan 89 soniyagacha bo'lsa qo'yiladi;


2 - 3 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 90 soniyadan 109 soniyagacha bo'lsa qo'yiladi;

0 - 1 ball — topshiriqni bajarishga ketgan vaqt 110 soniya va undan ko'p bo'lsa qo'yiladi.

«Guruhlarga bo‘lib ko‘r-chi» metodikasi

Ushbu metodika 4 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning obrazli so‘z-mantiqli tafakkurini baholash uchun mo‘ljallangan. Bolaga 6-rasmdagi tasvirlar ko‘rsatilib, quyidagi yo‘riqnomalar beriladi:

«Diqqat bilan ushbu rasmdagi tasvirlarni ko‘rib chiq va ularni iloji boricha ko‘p guruhlarga bo‘l. Har bir guruhga, umumiy belgisi bir xil bo‘lgan figuralarni kirit va har bir figuraning nomini ayt hamda qanday belgilar asosida bo‘lib chiqqanini tushuntirib ber».



6-rasm

Topshiriqni bajarishga 3 daqiqa vaqt berilgan.

Natijalarni baholash.

10 ball — bola hamma figuralarni 2 daqiqadan kam vaqtda guruhlarga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi.

Bu figuralar guruhi quyidagicha: uchburchak, aylanalarda, kvadratlar, romblar, qizil figuralar (rasmda ular qora rangda berilgan), ko‘k figuralar (ular to‘g‘ri chiziq bilan shtrix qilingan), sariq figuralar (katakalar bilan belgilangan), katta figuralar, kichik figuralar;

8 - 9 – ball bola hamma figuralarni 2,0 daqiqadan 2,5 daqiqagacha bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

6 - 7 ball — bola hamma figuralarni 2,5 daqiqadan 3,0 daqiqagacha bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

4 - 5 ball — 3 daqiqa mobaynida bola 5 dan 7 tagacha guruhga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;

2- 3 ball — 3 daqiqa mobaynida bola 2 dan 3 tagacha guruhga bo‘lib chiqsa qo‘yiladi;


0-1 ball – 3 daqiqa mobaynida bola 1ta guruhdan ko‘p guruhga bo‘la olmasa qo‘yiladi.

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa yuqoridagi metodika singari chiqariladi.

KO‘RGAZMALI - HARAKATLI TAFAKKUR TURINI BAHOLASH UCHUN METODIKALAR

«Konturlarni birlashtirish» metodikasi

Bolalarga 7- rasm ko‘rsatiladi va ushbu metodikadagi topshiriqning maqsadi tushuntirib beriladi, ya'ni qalam ruchka yordamida imkoni boricha tez va aniq chap tomondagi konturlarni o‘ng tomonda berilgan rasmlarga ko‘chirib chiqish zarur. Bunda bolaning chiziqlarni to‘g‘ri chizganligiga va figuralarning burchaklarini aniq birlashtira olishiga e‘tibor qaratish zarur. Topshiriq bajarib bo‘lingandan so‘ng vazifaning toza, aniq va tez bajarilganligi baholanadi.



7-rasm

Natijalarni baholash

Topshiriq bajarish tezligi va sifatiga qarab ballarda baholanadi.

10 ball – bola hamma topshiriqni bajarishga 90 soniyadan kam vaqt sarflab, figuralarning burchaklarini to‘g‘ri va aniq birlashtira olsa hamda chiziqlar berilgan konturlarga aniq mos kelsa qo‘yiladi;

8 - 9 ball – topshiriqni bajarishga 90 soniyadan 109 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo‘lsa: bir ikkita chiziqning to‘g‘ri emasligi; ikki yoki uchta chiziq figura burchaklari noto‘g‘ri birlashtirilgan bo‘lsa; ikkitadan to‘rttagacha

chiziqlar konturdan tashqariga chiqib ketgan bo'lsa; to'rttadan beshtagacha figura burchaklarini birlashtirishda noaniqlikka yo'l qo'yilgan bo'lsa qo'yiladi;

6- 7 ball – hamma topshiriqni bajarishga 105 dan 120 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo'lsa: uch yoki to'rtta chiziqning egriligi; to'rttadan oltitagacha figura burchaklarining noto'g'ri birlashtirilganligi; beshtadan oltitagacha chiziqlar konturdan tashqariga chiqib ketganligi; oltitadan ettitagacha figura burchaklarini birlashtirishdagi noaniqlik bo'lsa qo'yiladi;

4-5 ball – topshiriqni bajarishga 120 dan 135 soniyagacha vaqt sarflansa, ammo quyidagi kamchiliklarning birortasi mavjud bo'lsa qo'yiladi: besh yoki oltita chiziqning egriligi; ettitadan o'ntagacha burchaklarning noto'g'ri birlashtirilganligi; ettita sakkizta chiziqning konturdan chiqib ketganligi; sakkiztadan o'ntagacha burchaklarning noaniq birlashtirilganligi;

2 - 3 ball – topshiriqni bajarishga 135 dan 150 soniyagacha vaqt sarflansa, quyidagi kamchiliklardan birortasi mavjud bo'lsa qo'yiladi: 7 tadan 10 tagacha chiziqning egriligi; 11 tadan 20 tagacha burchaklarning noto'g'ri birlashtirilganligi; 9 tadan 10 tagacha chiziqlarning konturdan tashqariga chiqib ketganligi; 11 tadan 17 gacha burchaklarning noaniq birlashtirilganligi;

0-1 ball – topshiriqni bajarishga 150 soniyadan ko'p vaqt sarflansa, bir yoki ikkita chiziqdan tashqari, qolgan chiziqlarning noto'g'ri chizilganligi; bir yoki ikkita burchakdan tashqari, qolgan burchaklarni birlashtirishdagi xatoliklar uchun qo'yiladi.;

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish.

10 ball – juda yuqori

8 - 9 ball – yuqori

4 - 7 ball – o'rtacha

2 - 3 ball – past

0-1 ball – juda past

«Labirintdan chiqish, yo'lini top» metodikasi

Ushbu topshiriqda bolalarga 8-rasm ko'rsatilib, topshiriqda labirintning tasvirlanganligi, unda strelka bilan labirintga kirish nuqtasi va chiqish joylari ko'rsatilganligi tushuntirib o'tiladi. Bunda bola uchli tayoqchani olib, rasm ichidan yurgizib, labirintdan imkoni boricha tez chiqib ketishi hamda tayoqchani imkoni boricha aniq yurgizib, labirint devoriga tegib ketmasligi kerak.



8-rasm

Natijalarni baholash

10 ball – topshiriq bola tomonidan 45 soniyadan kam vaqt mobaynida bajarilsa, ammo bola tayoqcha bilan labirint devoriga biror marta ham tegib ketmasa qo‘yiladi;

8 - 9 ball – topshiriq bola tomonidan 45 soniyadan 60 soniyagacha vaqt mobaynida bajarilsa, o‘tish jarayonida 1-2 marta labirint devoriga tegib ketsa qo‘yiladi;

6 - 7 ball – topshiriq 60 soniyadan 80 soniyagacha vaqt mobaynida bajarilsa va labirintdan o‘tish jarayonida 3 - 4 marta labirint devoriga tegib ketsa qo‘yiladi;

4 - 5 ball – topshiriq 80 soniyadan 100 soniyagacha bajarilsa, bola labirintdan o‘tish jarayonida, labirint devoriga 5 - 6 marta tegib ketsa qo‘yiladi;


2 - 3 ball – topshiriq 100 soniyadan 120 soniyagacha bajarilsa, bola labirintdan o‘tish jarayonida, labirint devoriga 7- 9 marta tegib ketsa qo‘yiladi;

0-1 ball – topshiriqni bajarishda 120 soniyadan ko‘p vaqt sarflasa yoki unuman bajara olmasa qo‘yiladi.

«Figuralarni qirqib chiq» metodikasi

Ushbu metodika 4-5 yoshli bolalarning ko‘rgazmali - harakatli tafakkurini o‘rganishga mo‘ljallangan. Topshiriqning maqsadi, qog‘ozga chizilgan figuralarni tez va aniq qirqib olishdan iborat. 9-rasmda berilgan 6 ta kvadratda har xil figura tasvirlangan. Ushbu rasmlar bolaga bir

butun holatda berilmaydi, balki har bir kvadratdagi rasmlar alohida beriladi. Buning uchun tadqiqotchi rasmlarni oltita kvadratga qirqib chiqadi. Bolaga har bir kvadratdagi tasvirlar ketma- ketlikda beriladi. (Rasmlar tartib raqami bilan belgilangan) va qaychi bilan figuralarni imkoni boricha tez va aniq qirqib olish kerak.



9-rasm

Natijalarni baholash

Metodika natijalarini baholashda, bola topshiriqni bajarishga sarflangan vaqt va aniqlikka e'tibor qaratiladi.

10 ball – hamma figuralar bola tomonidan 3 daqiqadan kam vaqtda qirqib olinsa hamda figuralar konturi andazadan 1 mm.dan ko'p farq qilmasa qo'yiladi;

8-9 ball – hamma figuralar 3 daqiqadan 4 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 1.mm dan 2 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;

6-7 ball – hamma figuralar 4 daqiqadan 5 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 2.mm dan 3.mm gacha farq qilmasa qo'yiladi;

4-5 ball – hamma figuralar 5 daqiqadan 6 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 3 mm.dan 4 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;

2-3 ball – hamma figuralar 6 daqiqadan 7 daqiqagacha qirqib olinsa hamda figuralar konturi aslidan 4 mm.dan 5 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;


0-1 ball – bola topshiriqni 7 daqiqadan ko‘p vaqt mobaynida bajara olmasa hamda qirqib olingan figuralar konturi aslidan 5 mm.dan ko‘p farq qilsa qo‘yiladi.

«Tasvirlarni ko‘chirish» metodikasi

Ushbu metodika 3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan. Topshiriqning mohiyati shundan iboratki, 9-rasmda o‘ng tomondagi maxsus tayyorlab qo‘yilgan kvadratlar ichiga, shu rasmdagi, chap tomonda berilgan kataklar ichidagi tasvirlarni ko‘chirish kerak. Buning uchun bolaga qora flomaster hamda quyidagicha ko‘rsatma beriladi:

«O‘ng tomondagi kataklarga, aynan chap tomondagi figuralarga o‘xshash rasmlarni chizish kerak. Bunda iloji boricha toza va bo‘yaladigan joylarda bo‘shliq qoldirmaslikka hamda figuralar konturidan chiqib ketmaslikka harakat qilish lozim».

Topshiriqni bajarishga ajratilgan vaqt – 5 daqiqa.



10-rasm.

Natijalarni baholash.

10 ball – bola hamma topshiriqni 5 daqiqa mobaynida bajarib bo‘ldi. Unda bo‘yaladigan joylarda bo‘shliq qolmasa, chizilgan figuralar konturi esa topshiriq andozasidan 1 mm.dan ko‘p farq qilmasa qo‘yiladi;

8 - 9 ball – bola topshiriqni bajarishga 5 daqiqa vaqt sarflasa, bo‘yaladigan har bir figuralarning 1-2 joylarida bo‘shliq qolsa, chizilgan figuralar konturi aslidan 1 mm.dan ko‘p farq qilmasa qo‘yiladi;

6 - 7 bal – bola topshiriqni bajarishga 5 daqiqa vaqt sarflasa, bo‘yaladigan har bir figuralarning 3 - 4 joyida bo‘shliq bo‘lsa, chizilgan

bir necha figuralar konturi aslidan 1,5 mm.dan ko'p farq qilmasa qo'yiladi;

4 - 5 ball – bola 5 daqiqada 4 - 5 figurani bo'yashga ulgursa, ammo bo'yalgan figuralarning 5 dan 1 qismidan kam joylarida bo'shliq bo'lsa va aslidan 2 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;

2 - 3 – ball bola 5 daqiqada 2 - 3 figurani bo'yashga ulgursa, ammo bo'yalgan figuralarning 5 dan 1 qismidan kam joylarida bo'shliq bo'lsa va aslidan 2 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;

0-1 ball – bola 5 daqiqada bitta figurani bo'yashga ulgursa hamda bo'yalgan figuraning 4 dan 1 qismida bo'shliq bo'lsa va figura aslidan 3 mm.gacha farq qilmasa qo'yiladi;

Taraqqiyot darajasi haqida xulosa chiqarish.

10 ball — juda yuqori

8- 9 ball — yuqori

4- 7 ball — o'rtacha

2 - 3 ball — past

0 - 1 ball — juda past

Bolalar topshiriqni bajarishda xatoga yo'l qo'yadilar. Lekin ular bu topshiriqni tezroq bajarish. 10-11 yoshli bolalar qo'llanmani yaxshi tushunadilar, o'z xatolarini o'zlari tuzatishadi.

Maktabgacha yosh davridagi psixik rivojlanish uchun xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang. Bunda quyidagi jadvalda keltirilgan jumalarda tushirib qoldirilgan fikrni har bir jumla ostida ko'rsatilgan variantlar orasidan topib, to'g'ri variantni ochiq qoldirish ikki noto'g'ri variant ustidan esa chizib qo'yish talab qilinadi.

1.Ontogenezdagi psixik rivojlanish davomida eng avval ... paydo bo'ladi		
qoidal o'yin	predmetli o'yin	rolli o'yin
2.Qoiydali o'yinlar bolalarda ... ning rivojlanishi uchun o'ta muhim ahamiyatga egadir		
qiziqishlar	dunyoqarash	irodaviy sifatlar
3.Maktabgacha yosh davrida taxminan 4 yoshdan boshlab ...		
bolalar shakllarning konturini ajrata oladi	emotsiyalar ambivalentligi hodisasini tushuna oladi	chin va namoyish etilayotgan emotsiyalarni ajrata oladi

4.Maktabgacha yoshda yaqqol namoyon bo'ladigan tafakkur egotsentrizmi asosan ... gacha deyarli butunlay yo'qolib ketadi		
8-9 yosh	12-14 yosh	16-18 yosh
5.Maktabgacha yoshdagi bolaning o'ziga unchalik qiziq bo'lmagan topshiriqni uzoq vaqt bajarishga qodirligi uning maktab ta'limiga ... jihatdan tayyorligini bildiradi		
intellektual	emotsional	sotsial
6.Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasida gender farqlar taxminan ... yoshdan namoyon bo'la boshlaydi		
3-4 yosh	5-6 yosh	7-8 yosh
7.Rejisyorlik o'yini ... ning bir turi bo'lib hisoblanadi		
predmetli o'yin	syujetli-rolli o'yin	didaktik o'yin
8.Rasm chizishda maktabgacha yoshdagi bolalar ... dan keyingina rangni narsa-buyumlarning muhim belgisi sifatida ishlata boshlaydi		
2 yosh	4 yosh	6 yosh
9.Maktabgacha yoshdagi bolalarning agressiv harakatlarida 3 yoshdan 5 yoshgacha ...		
vokal harakatlar kamayadi va motor harakatlar kuchayadi	vokal harakatlar kuchayadi va motor harakatlar kamayadi	vokal harakatlar ham, motor harakatlar ham kamayadi
10. ... dan qo'rqish maktabgacha yosh davrida paydo bo'ladi		
notanish odamlar	qorong'ulik	o'lim

Shunday qilib, ushbu bo'limda maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixologik xususiyatlari, bu yosh davridagi yetakchi faoliyat, ularda bilish jarayonlarining shakllanishi, nutqning rivojlanishi, bu yosh davridagi psixodiagnostik metodikalarga to'xtalib o'tdik.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar o'qishining umumiy shart-sharoitlari nimalardan iborat?
2. O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat ekanligini asoslang?
3. Bog'cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Maktabgacha tarbiya yoshida bilish jarayonlari qanday rivojlanadi?
5. Bog'cha yoshidagi bolalarda nutqning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu yuzasidan test savollari?

1. Maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat bu-

- A. Mehnat
- B. Ta'lim
- *C. O'yin
- D. O'qish

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy hususiyati nima?

- A. Muloqatchanligi va harakatchanligi
- B. Muloqatchanligi va tashabbuskorligi
- *C. Harakatchanligi va taqlidchanligi
- D. Tashabbuskorligi va harakatchanligi

3. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga hos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan biri bu-

- A. Har narsani yangilik sifatida ko'rishga bo'lgan ehtiyoj
- *B. Har narsani yangilik sifatida ko'rishga bo'lgan ehtiyoj har narsani har tomonlama bilib olishga bo'lgan intilish
- C. hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj
- D. tan olinish tabiiy ehtiyojlar

4. Bog'cha yoshidagi bolalarning diqqati asosan qanday bo'ladi?

- A. ixtiyoriy
- B. ixtiyoriydan so'nggi
- *C. ixtiyorsiz
- D. ixtiyoriy va ixtiyorsiz

5. Qaysi olim bog'cha yoshidagi bolalar guruhini odamlar ijtimoiy birligining ilk pog'onasi "kurtagi" deb hisoblaydi?

- *A. Ya.I.Kolomunskiy
- B. A. S. Karpova
- C. G.A. Belyakova
- D. L.E. Jurova

VII. MAKTABGACHA TARBIYA YOSH DAVRIDA O'QUV FAOLIYATI

Reja:

1. O'quv faoliyati va uning o'ziga xos tomonlari.
2. Bog'cha yoshidagi bolalarda irodaviy faoliyatlarni tarkib topishi.
3. Maktabga psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlik.
4. Maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi.

Maqsad:

Maktabga psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlikning mazmun-mohiyatini bayon qilish.

Vazifa: Maktabga psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlik, maktabga psixologik tayyorgarlikni aniqlovchi psixodiagnostik metodikalarni bayon qilish.

Tayanch tushunchalar: psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlik.

1. O'quv faoliyati va uning o'ziga xos tomonlari

O'quv faoliyati muammosi – yosh va pedagogik psixologiyaning markaziy mummolaridandir. Bog'cha muassasalarida bolalarni o'qitish bizning mamlakatimizda boshlang'ch maktab ta'limiga tayyorlov pog'onasi sifatida qaraladi. Shu bilan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangandek, bog'chadagi ta'lim uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichidir.

Nemis psixologi O.Kronning fikricha, uch yashar bola unga berilayotgan bilimni o'zlashtirishga, yani ta'lim olishga qodirdir. V.Shtern esa qarama-qarshi nuqtai nazarni ilgari surdi. Uning fikricha hayotining dastlabki olti yilida bola olgan bilimlar o'ziga xos tarzda egallanadi. Bog'cha bolasi hali "o'qish uchun anglanilgan irodaga ega emas, maktab o'quvchisi uchun esa o'qish berilgan materialni ongli tarzda o'zlashtirish niyati va bu bilimlardan o'zining kelajagi uchun mulk sifatida foydalanish, butun holicha saqlab qolish istagidir." Shtern "bog'cha bolasi ayni buguni bilan shunchalik mashg'ulki, ertaga, kelajak uchun biror bir narsani egallash istagidan uzoqdir", deydi. Uning o'qishi boshqa faoliyatning mahsuli hisoblanib, tevarak atrofdan olgan taassurotlarni "ongsiz tarzda tanlash" asosida hosil bo'ladi.

J.Piaje bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida (yashash sharoitiga moslashish) intellect operatsiyalari strukturasi rivojlanishi sodir bo'ladi, deydi. Tobora yuqori intellectual operatsiyalar ("konkret operatsiyalar", "formal operatsiyalar", "invariantlilik", "munosabatlilik" va boshqalar) paydo bo'lishi va rivojlanishi o'z qonuniyatlariga ega. Ta'lim faqat aqliy

o'sishni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin, lekin unga tabiiy ta'sir etmaydi. J.Piaje va uning izdoshlari, masalan, agar bolada mantiqiy operativ tafakkur qaror topmagan bo'lsa, fikrlashga o'rgatishdan mani yo'q deydi. Ta'lim bola rivojlanishi qonuniyatlariga bo'ysunishi lozim. L.S.Vigotskiy bog'cha bolasining psixologik xususiyatlarini pedagogik ta'sir mohiyatining analizi bilan uzviy bog'liqlikda o'rganib bordi. Bog'cha davrida o'qitishning ahamiyatli momentlaridan biri, deydi Vigotskiy, bolaning kattalar talablariga munosabatidir. Shunday qilib, xorij va rus psixologlari maktabgacha ta'lim muassasalarida beriladigan ta'limga katta e'tibor beradilar.

O'quv faoliyati shakllanishining dastlabki xususiyatlari.

Hayotning dastlabki uch yilida bola onasi yoki boshqa kishilar masalan, tarbiyachi dasturi bo'yicha emas, balki go'yoki o'zining dasturi bo'yicha o'qiydi. Bu davrda bolaning u yoki bu bilim va ko'nikmalarining o'zlashtirilish muhlatiga alohida talablar qo'yilmaydi. Ilk bolalik davrida tarbiya dasturi hali sub'ektiv tarzda bola uchun mavjud emas. Sistematik o'qishga layoqatli bo'lgunga qadar u tayyorlov bosqichini bosib o'tadi. Bu bosqichda chetdagi boshqa kishilarning bolaga nisbatan yangi talablari asta sekin uning "o'zining dasturiga" aylanishi lozim. Bog'cha yosh davrining oxirlariga boribgina, bola kattalar tomonidan ishlab chiqilgan "dastur bo'yicha" o'qiy boshlaydi va maktab talablariga – asta amal qila boshlaydi. L.S. Vigotskiyning fikri bo'yicha bog'cha yosh davri ta'lim dasturi:

1) bolani maktab dasturiga yaqinlashtirishi, uning bilim doirasini kengaytirishi, predmetli ta'limga tayorlashi;

2) bolani o'zining dasturi bo'lishi, uning qiziqishi va ehtiyojlariga javob berishi lozim.

Shuningdek L.S. Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida, ta'limning yetakchi roli haqidagi qonunini ilgari surdi va aniq ifodaladi: ta'lim taraqqiyot oldida boradi va o'zining orqasidan etaklaydi.

O'quv faoliyati bolalarni hursand qilishi, ularga zavq berib, qoniqqanlik hissini uyg'otishi kerak. Ilk bolalik davridanoq bolalarga bilishga qiziqishni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki ulargina inson faoliyatining ahamiyatli motivlari bo'lib, shaxs yo'nalganligining anglanilganligini aks ettiradi, barcha psixik jarayon va funksiyalarga ijobiy ta'sir etadi, qobiliyatini faollashtiradi, qiziqish mavjud holatida barcha insoniy kuchlar ko'tariladi. Shuni ayniqsa, bog'cha bolasining o'quv faoliyatini tashkil etishda inobatga olish kerak.

Pedagog va psixologlarning olib borgan tadqiqotlari o'qishga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sharoitini ajratish imkonini beradi:

1. O'quv faoliyatini shunday tashkil etilishi kerakki, bola unda faol ishtirok etsin, yangi bilimlarni mustaqil tarzda qidirishi va "topishi"ga undalsin, muammoli xarakterga ega bo'lgan savollarni echsin.

2. O'quv faoliyati turli xil bo'lishi kerak. Bir xillikka ega bo'lgan materiallar va bir xil usullar bolalarni tez zeriktirib qo'yadi.

3. Berilayotgan materiallarning kerakliligi va ahamiyatligini tushunishi kerak.

4. Yangi berilayotgan material ilgari o'zlashtirilgani bilan yaxshi bog'langan bo'lishi kerak.

5. Yengil bo'lgan va o'ta murakkab material qiziqishni uyg'otmaydi. O'quv topshiriqlar bog'cha yoshidagi bolalar uchun qiyin, lekin imkoniyati etadigan darajada bo'lishi kerak.

6. Bolaning barcha yutuqlarini ijobiy baholash lozim. Ijobiy baho bilishga nisbatan faollikni stimullashtiradi.

7. O'quv materiallari yorqin va emotsional bo'lishi kerak.

A.P.Usovaning ta'kidlashicha, o'qitilayotgan materialni idrok qila olmaslik hodisasi harakatning usul va vositalarida o'ta osonlik usuliga asoslangan, ilgari ko'rsatilgan noto'g'ri tarbiyaviy ta'sirning asorati natijasidir.

Ayni vaqtda ko'pincha ta'lim olishga tayyorlikning quyidagi tarkibiy qismlari ajratiladi:

1. tafakkur qila olish kabi faoliyatning umumlashganligi;

2. amaliy va so'z mantiqiy tomonlarining o'zaro muvofiqligini belgilovchi tafakkurniing anglanilganligi;

3. tafakkur qilish faoliyatining elastikligi;

4. tafakkur qilish faoliyatining barqarorligi;

5. tafakkurning mustaqilligi hamda uning yordamga moyilligi.

O'quv faoliyati rivojlanishining asosiy xususiyatlari. A.P.Usova bog'cha yosh davridagi bolalarning o'quv faoliyatini o'zlashtirganligining aniq belgilarini ko'rsatadi. U tomonidan o'zlashtirilganlikning uch saviyasi ajratilib, ular o'quv faoliyati rivojlanganligining turli darajalarini xarakterlaydi.

1-darajasi. Bilish faoliyati barcha jarayonlarining mahsuldorligi va maqsadga qaratilganligi bilan o'qishga nisbatan faol va qiziquvchanlik kabi munosabatning, o'zining harakatlarini nazorat qilish va natijalarini

baholash qobiliyatiga egaligi bilan farqlanadi. O'zlashtirilganlar asosida bolalar amaliy va aqliy faoliyatida qurbi etadigan vazifalarni echa oladi.

2-darajasi – kuchsizroq. O'quv faoliyatini egallashning barcha ko'rsatkichlari etarli rivojlanmagan. Lekin shu bilan birga bolalar ta'lim olishi mumkin ba'zi bir og'shishlar ham bundan mustasno emas.

3-darajasi. Mashg'ulotlatda o'quv faoliyati shakllanishining boshlanish davri.

Ta'lim jarayonida savodxonlikning rivojlanishi. Ona tilidagi tovushlarni o'zlashtirishda nutqning sensor asosi – fonematik eshitishning rivojlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Fonematik eshitish deganda, nutq tovushlarini idrok etish, so'zlar tarkibida ularni har xil ma'noli birliklar sifatida birlashtirish va ajratish tushuniladi.

N.X.Shvachkin bolalar fonematik eshitishini dastlabki rivojlanish bosqichlarida o'rganib, 1-7 yoshdayoq fonematik eshitish shakllanib bo'lishini isbotladi. Bu davrga kelib, bola atrofda kattalar nutg'ining tarkibidagi barcha fonematik xususiyatlarni farqlab oladi. Shuning uchun atrofda tilning to'g'ri va noto'g'ri talaffuzini payqay oladi. Bog'cha yoshidagi bola noto'g'ri talaffuz etilgan so'zlarni asta-sekin farqlamay qo'yadi. Bolada so'zlar va tovushlarning fonetik obrazlari shakllanadi. Bu davrda bolalar nutqning fonetik tomoniga katta diqqat bilan qaraydi.

L.E.Jurovaning fikricha, bolalarni til olamiga o'rta bog'cha yosh davrida, ya'ni til xususiyatlarini ayniqsa, o'tkir his etish davrida olib kirgan ma'qul. L.E.Jurova va N.V.Durovalarning eksperimental tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 4 yoshli bolalar nafaqat so'z tarkibidagi tovushlarni intonasion ajratib olishni, balki jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlashni, so'zdagi birinchi tovushni aytib berishni o'rgana oladilar. Bu esa 5 yoshli bolalarda tovushlarni tahlil etish ko'nikmalari rivojlanishining muhim zaruratidir.

Nutq juda erta bolaning va atrofda tilning amaliy faoliyati bilan bog'lanib L.S.Vigotskiy aytganidek, anchagina erta amaliy tafakkur vositasiga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda nutqning amaliy faoliyati bilan aloqadorlik shakllaridan biri bo'lajak harakatlarni rejalashtirish, kechayotgan harakatlarga nutqning yo'ldosh bo'lishi va harakat natijalarini nutq vositasida ta'kidlab qo'yishda namoyon bo'ladi. Bularning bari esa aqliy faoliyatning shakllanishi uchun juda zarur.

Maktabgacha davrning oxiri kichik va o'rta bog'cha davrlarda nutq bolaning amaliy faoliyati tarkibiga tez-tez kirib turadi.

Bog'cha yosh davrida bola o'zining harakatlari, ularda ishlatayotgan buyumlari haqida hech kimga murojaat qilmay aytib

beradi, kelajakdagi harakatlarini rejalashtiradi va natijalarni analiz qiladi. (“Qo’g’irchoq uxlayapti”, “Mashinani tuzatishsa, u yuradi”, “Odamcha yiqilib ketdi, hozir men uni ko’tarib qo’yaman”). Bunda nutq muloqot uchun xizmat qilmaydi. Bunday turdagi nutqni J.Piaje “egosentrik nutq” deb atadi. J.Piajening fikricha, egosentrik nutq bola tafakkurining egosentrik xarakteri, individual nutqning hali yetarlicha ijtimoiylasha olmaganligi natijasidir.

Biroq L.S.Vigotskiy shuni isbotladiki, egosentrik nutq J.Piaje aytganidek, ijtimoiylashgan nutqqa qarama-qarshi nutq emas, balki o’z tabiatiga ko’ra u ham ijtimoiy nutqdur. Uning paydo bo’lishiga sabab hali bolaning o’ziga va o’zgalarga yo’naltirilgan nutqni o’zaro farqlay olmasligidadir. Egosentrik nutqning yuzaga kelishi kichik bog’cha yoshidagi bolalarning kattalar bilan hamkorlikda faoliyat qilishga moyil bo’lishlari bilan bog’liq. Bolaning mustaqil faoliyat ko’rsatishi qanchalik sust bo’lsa, ushbu moyillik yuqori bo’ladi. Egosentrik nutq esa kattalar bilan hamkorlik qilishning o’rmini bosuvchi o’ziga xos nutqiy o’rinbosor vazifasini bajaradi.

Tadqiqotlarning ko’rsatishicha, egosentrik nutq faoliyatni rejalashtirish vazifasini ham bajarar ekan. Bola oldindan o’z faoliyatining maqsad-muddaosini og’zaki ifodalaydi. So’ngra faoliyatni bajarish davrida olingan natijalarni og’zaki qayd etadi, og’zaki ravishda yangi harakatlarni rejalashtiradi, duch kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

Bog’cha yoshining oxiriga kelib, bolaning mustaqil faoliyati 2 bosqichdan iborat bo’ladi:

- 1) og’zaki tarzda qaror qabul qilish va faoliyatni rejalashtirish;
- 2) tuzilgan reja va qabul qilingan qarorlarga muvofiq faoliyatni amalga oshirish. Bunda egosentrik nutq asta-sekin yig’ilib, interiorizasiyalanib (ichki tomonga yo’nalib), 5-6 yoshli bolalarda ichki nutqqa aylanadi.

Bola faoliyati va muloqotidagi yangi-yangi ehtiyojlar nutqni intensiv ravishda o’zlashtirishga sabab bo’ladi. Bola nutqi borgan sari mazmunliroq bo’lib boradi. Situativ nutq – kichik bog’cha yoshdagi bola nutqining asosiy shakli asta-sekin kontekst nutqqa, axborot beruvchi nutqqa o’rmini bo’shatib beradi. Kontekst nutq bu nutqni suhbatdosh faqat til vositalari asosida, vaziyat (situasiya) ga tayanmay turib, tushuna olishi bilan xarakterlanadi.

Nutqning kontekst shakli fikrning to’laligicha, mantiqiy to’g’ri ketma-ketlikda bayon etilishini, yangi grammatik shakllarning

qo'llanilishini taqozo qiladi. O'z tuzilishiga ko'ra kontekst nutq yozma nutqqa yaqinlashadi. Kontekst nutqning muhim xususiyati uning ixtiyoriyligidir.

Bog'cha yoshidagi bolalarni savodxonlikka o'rgatish bo'yicha olib boriladigan ishlar D.B.Elkonin ishlab chiqqan nazariy tamoyillarga asoslanadi. Savodxonlikka o'rgatishning bog'cha yoshiga mo'ljallangan shakl va metodlari D.B.Elkonin metodi asosida L.E.Jurova tomonidan ishlab chiqilgan.

Bolalar tomonidan savodxonlikni egallash imkoniyatlari va xususiyatlarini o'rganishga hamda buning uchun eng optimal yosh davrini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotda N.S.Voronsova 5-6 yoshli bolalar savodxonlikni o'rganishda tanlovchan tipdagi qabul qilish xususiyatiga ega ekanligini, 6 yoshdan esa o'qishga e'tiborli bo'lishini aniqladi. Shundan kelib chiqib, N.S.Voronsova 5 yoshni tovushlarni analiz qilishga o'rgatishning eng optimal davri, 6 yoshni esa o'qishga o'rgatishga eng optimal (eng yaxshi va qulay) davr ekanligini ta'kidladi.

Shunday qilib, bog'cha yosh davrining eng muhim xususiyatlaridan biri 4-5 yoshlarga kelib, nutqning rejalashtirish funksiyasi paydo bo'lishidan iborat. Dastlab rejalashtirish og'zaki tarzda amalga oshirilsa, keyinchalik bog'cha yoshining oxirlarida ichki nutq orqali rejalashtirish boshlanadi.

2. Bog'cha yoshidagi bolalarda irodaviy faoliyatlarni tarkib topishi

Irodaviy harakatlar ma'lum maqsad asosida amalga oshiriladigan, to'la anglangan harakat bo'lgani uchun bunday murakkab harakatlar hali chaqaloq bolalarda bo'lmaydi. Chaqaloq bolalardagi aktivlik asosan ixtiyorsiz, reflektor harakatlardan iborat bo'ladi. Chaqaloq bolalar o'zlarining bironta ham harakatlarini idora qila olmaydilar. Masalan, kichkina bola o'ziga yoqqan yoki uni qiziqtirgan biror narsani ko'rgan paytida juda ko'p betartib (qo'l-oyoqlari, boshi bilan) harakatlar qila boshlaydi. Lekin harakatlarning birontasi ham ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lmaydi.

Bola uch-to'rt oylik bo'lgandagina o'zining boshini tik holatda ushlay oladigan bo'ladi. Ana shu davrdan boshlab bolaning ixtiyoriy harakatlari rivojlana boshlaydi. Bola 5-6 oylik bo'lgach tanasining muvozanatini saqlab bemalol o'tira oladilar, qo'llari bilan o'z atrofidagi narsalarni ushlab ko'radigan bo'ladi. Ana shu tariqa bolaning ixtiyoriy harakatlari rivojlana borib, bola bir yoshga to'lgach, o'z harakatlarini ixtiyoriy ravishda idora qilib yura boshlaydilar.

Ilk bolalik yoshidagi bolalarning irodaviy harakatlarini rivojlantirishda nutqni egallash nihoyatda katta rol o'ynaydi. Bola nutqni egallab olgach, u kattalar bilan nutq orqali munosabatga kirishadi, ularning topshiriqlarini quvonib bajaradi. Masalan, kichkina bolalar katta odamlarning "bu yoqqa kel", "mana bu yerga o'tir", "qo'lingni ber" kabi topshiriqlariga bemalol tushunib sidqidildan bajaradilar.

Yasli yoshida bolaning ixtiyoriy harakatlari tez sur'at bilan rivojlana boshlaydi. U o'zini qiziqtirgan narsalarni olib ushlab, uni aylantirib har tomonlama timirskilab ko'radi. Bola shu davrdan boshlab kattalarga taqlid qilgan holda ixtiyoriy irodaviy harakatlarni bajara boshlaydi. Shuning uchun ham ularning irodaviy harakatlarini to'g'ri yo'lga solish, rivojlantirib borish kattalar zimmasiga yuklatiladi.

Irodaviy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan asosiy ixtiyoriy harakatlar bog'cha yoshidan boshlab yuzaga kela boshlaydi. Lekin kichik yoshdagi bog'cha bolalarida hali ixtiyorsiz harakatlar ustunlik qiladi. 3 yoshli bolaning ko'pgina harakatlari uning tafakkuriga emas, balki hissiyotiga tobe bo'ladi. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalar hali biron bir ishga o'zlarini majbur etib uddasidan chiqa olmaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarini rivojlanishida ular nutqining tobora o'sib borishi juda katta ahamiyatga ega. Tarbiyachilar va ota-onalar turli yoshdagi bolalarga og'zaki suratda turli xil vazifalarni topshiradilar. Bolalar ayni chog'dagi o'yinlarni yoki boshqa qilayotgan ishlarini qo'yib, kattalarning topshirgan vazifalarini bajarishlari kerak. Ana shunday topshiriqlar berish orqali bolalarda ixtiyoriy harakatlarni o'stirib borish mumkin. Lekin og'zaki topshiriqlarni bog'cha yoshidagi hamma bolalar ham bir xilda bajaravermaydilar. Masalan, kichik yoshdagi bog'cha bolalari, ya'ni uch yoshli bolalar og'zaki berilgan topshiriqlarni xotiralarida uzoq vaqt saqlab turolmaydilar. Ular topshiriqni tezda unutib qo'yib, uning o'rniga o'zlari xohlagan ish bilan shug'ullanadilar. Bunday holat ularni tashvishlantirmaydi. Nutq asosan o'rta va katta gurux yoshidagi bolalar irodasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yoshda bolalar topshiriqlarni ixtiyoriy ravishda bajarishda so'z orqali tushuntirib berilgan usullarga rioya qilishga intiladilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy harakatlar rivojlanishi bilan birga irodaviy jarayonlar ham ko'rina boshlaydi (maqsad qo'yish, yo'l-yo'riq hamda vositalarni belgilash, qarorga kelish va qarorni ijro etish). Lekin kichik yoshdagi bolalarda bunday irodaviy jarayonlar hali aniq emas. O'tkazilgan tekshirishlarning ko'rsatishicha, 3 yoshli bolalarning

harakatlari qo'yilgan qat'iy bir maqsaddan kelib chiqmaydi. Aksincha, biror maqsad harakat davomida belgilanadi. Ularning maqsadlari ham juda tez o'zgarib turadi. Shuning uchun ular ko'pincha boshlagan ishlarini oxiriga yetkazmay, bir ishdan ikkinchi bir tamomila boshqa ishga o'tib ketaveradilar. Buning asosiy sababi shundaki, kichik yoshdagi bog'cha bolalarining ixtiyorsiz harakatlarida hissiyot juda katta o'rin egallaydi. Bu yoshdagi bolalar o'zlarida tug'ilgan bir talay hissiyotlar ta'siri bilan bir maqsadni belgilaydilar. Agar bolalarning oldilariga qo'yilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uyg'otsa, bunday paytda bolalar o'zlariga xos ravishda iroda kuchi va qat'iylik ko'rsatishlari mumkin.

Iroda rivojlanishining asosiy jihatlari. Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarining rivojlanishida o'yin juda katta rol o'ynaydi. O'yin bolalar irodasini o'stiruvchi va mustahkamlovchi omillardan biridir. Bolalar o'zlarining turli-tuman o'yinlarida o'z oldilariga ma'lum maqsadlarni qo'yadilar, ba'zan uchrab qolgan to'sqinliklarni yengib, ko'zlagan maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda rollarga bo'linib o'ynaydigan hamda qoidali o'yinlarning ahamiyati g'oyat kattadir. O'yin qoidalariga rioya qilishda o'z iroda kuchini ishga solishga to'g'ri keladi, chunki bola o'yin paytida o'zining harakatlarini o'ynovchilarning maqsadlari bilan moslashtirishi kerak. Kichik gurux bolalari esa buning uddasidan chiqa olmaydilar, ya'ni o'yin qoidalariga to'la rioya qila olmaydilar. Shuning uchun ular qoidali o'yinlarga katnashganlarida juda sodda rollarni bajaradilar. Masalan, "poezd" o'yinida faqat passajir (yo'lovchi) rolini o'ynaydilar.

Bog'cha yoshidagi bolalar irodaviy harakatlarini o'stirish va mustahkamlashda ularni mehnat mashg'ulotlariga jalb qilishning ham ahamiyati kattadir. Bolalarga biron mehnat topshirig'i berilsa, ular ayni chog'dagi o'zlarining mayl-xohishlarini yengib, mehnat topshiriqlarini o'z vaqtida bajarishga intiladilar. Ular ko'pincha hatto o'ynab turgan o'yinlarini ham to'xtatib, topshiriqni bajarishga kirishadilar. Bu esa ularda irodaviy harakatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Bolalardagi irodaviy harakatlarni rivojlantirish maqadida ularni o'z-o'ziga xizmat qilish, supurish-sidirish, guruxda navbatchilik qilish, poliz ekinlarini, gullarni parvarish qilish va tabiat burchaklarida navbatchilik qilish kabi mehnat turlariga jalb qilish zarur. Bunda faqat mehnat topshiriqlari berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning bu topshiriqlarni qanday bajarayotganliklarini ham tizimli ravishda

tekshirib, nazorat qilib turish lozim. Ana shunday qilgandagina bolalarda javobgarlik hissi yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning biron maqsadni aniqlash va biron qarorga kelishlarida motivlar kurashi ham ko'rinadi. Masalan, kichik yoshdagi bog'cha bolasiga ikkita o'yinchoqni ko'rsatib, shulardan birini tanlab olish taklif etilsa, u darrov tanlab ololmaydi. U qo'lini goh u o'yinchoq, goh bu o'yinchoqqa cho'zadi. Bunday holda juda sodda bo'lsa ham motivlar kurashi yuzaga keladi, bola qaysi bir o'yinchoqni olish haqida qarorga kelolmaydi. O'rta va katta gurux bolalar esa biron o'yin o'ynashni tanlashda (ya'ni o'yin maqsadini aniqlashda) anchagina tortishadilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarda ijtimoiy motivlarning ta'siri bilan bir qator iroda sifatleri, ya'ni qat'iylik, mustaqillik, tashabbuskorlik, dadillik kabi sifatlar tarkib topa boshlaydi. Lekin bog'cha yoshidagi bolalar irodasining bunday sifatleri katta odamlarnikidek mustahkam, ya'ni xarakter xislatlariga aylanib ketgan darajada bo'lmaydi. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalarida ko'rinadigan ba'zi iroda sifatleri (qat'iylik, mustaqillik kabi) ko'pincha epizodik xarakter kasb etadi. Bu yoshdagi bolalar bajarayotgan ishlarida biron to'sqinlik uchrab qolsa, o'zlari mustaqil ravishda bartaraf qilishga urinadilar. Lekin bu ishning ular uchun og'irlik qilayotganligi sezilib turadi. Shu sababli bunday to'sqinliklar chiqib qolgan paytda ular kattalarni yordamga chaqiradilar. Uzoqroq davom etadigan to'sqinliklarni yengishga bog'cha yoshidagi bolalarning chidamlari yetmaydi. Bajarayotgan ishlari ularni juda qiziqtirsa, ular uzoq davom etadigan to'sqinliklarni ham chidam bilan yengishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, bog'cha yoshida bolaning irodaviy harakatlari har tomonlama rivojlanib, mustahkamlanib boradi. Bolalar irodasini rivojlantirib borish ularni maktabga tayyorlash shartlaridan biridir. Maktabdagi o'qish jarayoni dastavval bolalardan irodaviy (ixtiyoriy) harakatlarni va iroda sifatlarining anchagina rivojlangan bo'lishini talab qiladi. Agar bolalar o'z xatti-harakatlarini o'zlari idora eta olmasalar, maktabning qat'iy tartib-qoidalariga rioya qila olmaydilar. Natijada ularga tizimli bilim berish mumkin bo'lmay qoladi. Shuning uchun tarbiyachilar va ota-onalar bolalariga har xil topshiriqlar berish orqali ularning irodalarini tarbiyalab borishlari zarur.

Bog'cha yoshidagi davrda bolalarning malaka va odatlari ham rivojlanib boradi. Dastavval ilk yoshdagi bolalarda (chaqaloqlarda) malaka ham, odat ham bo'lmaydi. Malaka va odatlar odamning

individual hayoti davomida, turmush tajribasining ortishi bilan tarkib topib boradi. Bolada 5-6 oylik bo'lganda o'tirish, yoshiga to'lgach yurish malakasi, uch yoshga yaqinlashgach esa mustaqil kiyinish, yechinish, ovqatlanish malakalari hosil bo'lib boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda juda sodda bo'lsa ham ayrim mehnat malakalari, ya'ni guruxni ozoda va tartib bilan yig'ishtirish, gullarni parvarish qilish, idish-tovoqlarni yuvish va artish malakalari tarkib topa boshlaydi. Bog'cha yoshida bolalarda madaniy gigiena odatlari, ya'ni yuz-qo'llarni yuvish, ozoda kiyinish hamda ijobiy, ahloqiy odatlar tarkib topa boshlaydi. Bunda kattalarning ularga o'rnak ko'rsatishlari juda katta ahamiyatga egadir.

Katta yoshdagi bog'cha bolalarida bog'chada o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida ayrim ta'lim ishlari, ya'ni o'qish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan malakalar tarkib topadi. Bola rasm chizish mashg'ulotlarida qalamni to'g'ri ushlab malakasini orttiradi, sanoq va ona tili mashg'ulotlarida birdan o'ngacha sanash va boshqa malakalarga ega bo'la boradilar. Ana shunday malakalarni tarkib toptirishda mashqning roli kattadir. Ta'limiy mashg'ulotlarda tarbiyachi har bir harakatning qanday bajarilishini oldin o'zi ko'rsatishi va undan so'ng bolalardan talab qilishi kerak. Mashq qilish orqali bolalarda juda elementar qisoblash, yozish va o'qish malakalari hosil qilinadi.

Umuman, malaka va odatlarning inson hayotidagi roli bag'oyat katta. Buni biz maktabga bog'chadan va to'ppa-to'g'ri uydan kelgan bolalarning taraqqiyot darajalari o'rtasidagi farqdan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

3. Maktabga psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlik

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga *jismoniy* jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni ham bema'lol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar.

6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor

berish, shuningdek, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsion tayyorgarlik. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. *"Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi"*, *"Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman"*, *"Maktabda uxlatishmaydi"*. Bunday motivlarni bolalarga odatda ota-onalar singdiradilar. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi. Ota-onalar, pedagog, tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o'rganish motivlarini singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o'qish omili bo'lib xizmat qila oladi. *"Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak"*, *"Yozishni juda yaxshi ko'raman"*, *"O'qishni o'rganaman"*, *"Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman"* - bunday motivlar to'g'ri motivatsion tayyorgarlikka misol bo'la oladi.

Aqliy tayyorgarlik. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog'liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik

maktab yoshidagi o'quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy, ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtog'ining salbiy xususiyatlarini ko'pchilik va begonalar o'rtasida bemalol ayta olish xususiyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axloqi va odobi jihatidan tanqidga uchrayotgan bolani o'rtoqlari jamosiga qo'shilishdan bosh tortishga yoki umuman maktabga kelishni istamasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sabab bolani o'rtoqlari va ustozlari tomonidan tanqidga uchramaydigan darajada axloq-odob qoidalari o'rgatish ahamiyati jihatidan kam bo'lmagan axloqiy tayyorgarlik hisoblanadi. Bolani maktabga irodaviy tayyorgarligi uni yangi kun tartibiga amal qilishida, dars jarayonida qunt bilan bilimlarni o'zlashtirishida, uy vazifalarini bajarishida o'z yordamini ko'rsatadi. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim.

Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga



kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bu yoshdagi

bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramziylikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi. Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi.

6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Bolalarning maktabga o'tishlari, ularning yaslidan bog'chaga o'tishlariga qaraganda murakkab bosqichdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi

bilan uning ijtimoiy holatida ham o'zgarish ro'y beradi. Chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada "katta" deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana "eng kichkinalar" qatoriga tushib qoladilar.

Bolalarning maktabga o'tishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda tuib, ularni maktabga yangi har tomonlama tayyorlash kerak.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarga har tomonlama tarbiya berib, ularning taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa, o'z navbatida maktabdagi o'qitish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida ma'lum izchillik bo'lishini talab qiladi.

Bog'chada bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va ahloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o'tkaziladigan turli didaktik mashhulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, hayol hamda tafakurlari, irodalari sistemali tarzda taraqqiy ettirib boriladi.

Bolalarni maktabdagi o'qish jarayoniga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish, juda zarur shartlardan biridir. Shuning uchun katta guruh bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi o'rganishlariga, ya'ni so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak. Bolalarning tashqi olam haqida tasavvurlarini kengaytirish, boyitish ishlari ular nutqini o'stirish asosida olib borilishi kerak.

Shu yoshda bolalarda birmuncha makon tushunchalari (uzoq, yaqin, o'ng, chap, katta, kichik), dumaloq va doira haqidagi tushunchalar, vaqt (zamon, bugun, erta, indin, hozir) haqida tasavvur va shuningdek, ahloq tushunchalari (yaxshi, yomon, rost, yolg'on, uyalish) paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bola jismoniy jihatdan ham o'sadi. Uning nerv sistemasi, miyasi, muskullari, qo'llari yanada yetiladi. Bu davrda bolaning xarakteri va o'ziga xos individual xususiyatlari ko'zga tashlana boshlaydi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hamma bog'chalardagi maktab yoshiga to'lgan bolalar maktabdagi o'qishga bab-baravar tayyor bo'lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat yetishmayotgandek ko'rinadi. Bu o'rinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o'qishga tayyor deb

hisoblash mumkin. Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lishi lozim. Biroq hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o'qish jarayoni uchun ma'lum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lish maktabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Boshqa bir olimlar, bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir, deyдилar. Bu fikr bir yoqlamalikka yo'l qo'yishdan boshqa narsa emas.

Yetti yoshga to'lish davri go'daklikning tugallanishi davriga to'g'ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yetti yoshga to'lgan davridan boshlab sistemali suratda o'qitishga o'tish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaning maktabdagi o'qish faoliyatiga tayyorligi ayrim psixik jarayonlarning taraqqiyot darajasi bilan emas, balki bola shaxsining umumiy taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi.

Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rinadiki, bolalar o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitda o'z o'rinlarini belgilashga, kattadar bilan yanada yaqinroq, yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rnatishga intiladilar. Katta guruh bolalari maktabga o'tishdan ancha ilgariyoq maktab haqida orzu qila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez surishtirib turadilar. Maktabga borish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda havaslari kelib, o'zlari bog'chada qolganlaridan o'ksinib ketadilar. Katta yoshdagi bog'cha bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar sistemasidan yangini egallashga bo'lgan intilishlarining konkret ifodasidir.

Shunday qilib, bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun ta'lim-tarbiya ishi ko'taradi.

Bola yetti yoshga to'lganda jismoniy jihatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga, nojo'ya xatti-harakatlardan o'zini tiyishga, hulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishga harakat qiladi. U o'zini eplay boshlaydi, o'z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bema'lol uddalaydi, jamoada yashashga ko'nika boshlaydi. Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, ko'p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'pgina she'r va hikoyalarni yoddan bilib oladi. Bolaning nutqi ma'lum darajada o'sgan bo'ladi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suhbat qila oladi.

Yetti yoshli bolalarning xis-tuyg'ulari ancha o'sadi. Xayrixohlik, rahmdillik, o'rtoqlik kabi xis-tuyg'ular mustahkamlana boshlaydi.

Bu davrda bolada turli harakatlar mustahkamlanadi, u qaychi, igna, qalam kabi qurollardan foydalanish malakasini egallay boshlaydi. Biroq bu davrda ham bolada hali beixtiyor aktivlik ancha ustun turadi. Shu sababli bolani qiziqtiradigan yoki unga kuchli ta'sir qiladigan narsalar uning diqqatini jalb qiladi. Bu yoshda ham o'yin judda katta rol o'ynaydi. O'yin jarayonida bola o'zini idora qilishga, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'sundirishga, javobgarlikka, jamoa manfaatini ustun qo'yishga odatlanadi. Bu xislatlar keyinchalik o'qish mehnatiga o'tish uchun zarur bo'lgan hislatlardir. O'yin jarayonida bolaning aql-idroki, zehn va boshqa psixik xususiyatlari o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'qishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta oilada hamda bolalar bog'chasida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Yetti yoshga to'lib, maktabga chiqqan bolalarning psixik jihatdan bundan keyingi o'sishi maktabda hamda oilada olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishi jarayonida amalga oshiriladi.

Ta'limga psixologik tayyorlik deganda bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixoxligi, ishonuvchanligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda

plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan ob'ektga to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. U she'r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z – mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o'qib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operasiyalaridan o'rinli foydalanadi (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi. Umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi).

Olti yoshli bolaning maktabga tayyorligi haqida gapirilganda ko'pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin vazifasini o'tovchi psixik o'sish darajasini nazarda tutamiz. Shuningdek, ta'lim uchun psixik o'sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, intellektual jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorligining ob'ektiv tomonlarini ifodalaydi.

Bola maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishning sub'ektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda o'qish xohishi, intilish, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir.

4. Maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi

Kern Yirasek metodikasi. Birinchi topshiriq. Erkak rasmini chizish.

5 ball- Odam rasmida boshi gavda va qo'l-oyoqlari bo'lishi kerak. Bo'yin, qo'l va oyoqlar haddan tashqari uzun yoki kalta bo'lmasligi kerak. Boshda soch, kiyim, yuzda esa og'iz, burun, ko'zlar bo'ladi. Qo'lning besh barmog'ini ko'rsa bo'ladi. Rasmda erkak kiyimlari belgisi bor.

4 ball- 5 ball bahoga qo'yilgan talablar hammasi bajarilgan, ammo rasmda 3 ta a'zo yetishmasligi mumkin: bo'yin, soch, qo'lda bitta barmoq. Yuzdagi a'zolarning hammasi bo'lishi shart.

3 ball- Odam rasmida boshi, gavadasi va qo'l-oyoqlari mavjud. Qo'l va oyoqlar ikkita chiziq bilan tasvirlangan. Rasmda bo'yin, quloq, soch, kiyim va qo'lida barmoqlar bo'lmasligi mumkin.

2 ball- Rasm juda sodda bosh va qo'l-oyoqlar chizilgan bo'lib, gavda bo'lmasligi mumkin. Qo'l va oyoqlar bir chiziq bo'lib ko'rsatilgan.

1 ball- Rasmda gavda va qo'l-oyoqlarni farqlash qiyin. Noaniq chiziqlar. Yana shuni aytish kerakki, bolalar topshiriqni bajarayotgan vaqtda ularni shoshiltirmaslik kerak.

Ikkinchi topshiriq- Tekst yozish («U osh yedi.»)

5 ball- Yozilgan jumlaning o'qish mumkin, xat unchalik katta ham kichik ham emas. So'zlar bir-biriga qo'shilmadan yozilgan. Gapning to'g'ri chiziq bilan yozilishida pastga yoki yuqoriga qarab qiyshayib ketishi 30 gradusdan oshmaydi.


4 ball- Gapni o'qish mumkin. Harflarning kattaligi namunaga yaqin. Gapning to'g'ri chiziq bo'yicha yozilishiga e'tibor berilmaydi.

3 ball- So'zlar qo'shilib ketgan va harflar ikki guruhga ajratib yozilgan bo'lishi mumkin. Hech bo'lmaganda 4 ta harfni o'qish mumkin.

2 ball- Namunaga hech bo'lmaganda 2 ta harf o'xshaydi. Bolaning yozganlari ozmi ko'pmi xatga o'xshaydi.

1 ball- Xatga o'xshamaydigan har xil chiziqlar.

Uchinchi topshiriq- nuqtalar to'plamini chizish.



- 5 ball-** Namunaga aniq o'xshaydi. Nuqtalar aniq qo'yilgan, nuqtalar joylashuvining simmetriyasi vertikal va gorizantal jihatdan bir xil. Nuqtalar guruhi juda kichik ham, katta ham emas.
- 4 ball-** Nuqtalar simmetriyasi ozgina buzilgan. Bir-ikkita nuqta nuqtalar qatoridan tashqariga chiqqan. Nuqtalar o'rniga aylanacha chizgan bo'lsa ham bo'ladi.
- 3 ball-** Nuqtalar guruhi namunaga nisbatan qo'pol, qiyshiq bo'lsa ham o'xshaydi. Hamma nuqtalar simmetriyasi buzilgan. Nuqtalarning beshburak shakli ozroq saqlangan. Nuqtalar soni ko'p yoki kam

bo'lishi mumkin.(Ammo 7 tadan kam 20 tadan ko'p bo'lmasligi kerak.)

2 ball- Nuqtalar bir to'p qilib qo'yilgan simmetriyasi yo'q. Har qanday geometrik figuraga o'xshatish mumkin. Nuqtalar soni va katta kichikligining aharniyati yo'q.

1 ball- Nuqtalar aralashib ketgan, hech narsani aniqlab bo'lmaydi.

NATIJALARNING TALQINI VA BAHOLASH TARTIBI

Har bir topshiriqning bajarilishi 5 va yomon bajarilishi 1 ballga tenglashtirildi. Demak, bola har bir topshiriq uchun eng yuqori ball olib, jami 15 ball to'plasa, eng yuqori ko'rsatgich olgan bo'ladi. Shuningdek, topshiriqlarning toza, chiroyli, husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozilishi, odam rasmidagi kiyimlarning, a'zolarning nafis, chiroyli chizilishi, qo'shimcha narsalarning kiritilganligi (kiyimlarning shakli, odamning harakatlanayotganligi va hokoza) alohida hisobga olib qo'yiladi. Bu bolalar odatda iqtidorli bolalardir. Kern-Yirasek testida yuqori ball olgan, ayniqsa, odam rasmini nafis va qo'shimcha elementlar bilan chizgan bolalarni boshlang'ich sinflarda kuzatish natijasida (14 bola 4 yil davomida kuzatib borilgan) aniqlandiki, ular o'zlarining intellektual qobiliyatlari bilan ajralib turishlarini ko'rsatdilar. Ular boshlang'ich sinfni «a'lo» va «yaxshi» baholar bilan bitirib, maxsus litsey va gimnaziyalarda o'qishni davom ettiradilar.

Agar bola har uchala topshiriqdan ham uch bahodan olsa, (umumiy ballar soni to'qqiz bo'ladi) bunday bola yetarli darajada tayyor emas hisoblanadi va ikkinchi qism, verbal test savollariga javob berishi shart emas.

Agar bordi-yu, bola uchala topshiriqning har biridan ikki va undan past ball olsa, bu bola ham tayyor emas hisoblanadi va u bola bilan qayta shug'ullanish talab etiladi.

Agar 7-8 yoshdagi bola 4-3 ball olsa, psixolog yoki defektolog bu bola bilan qo'shimcha tekshirishlar o'tkazishi, bolaning ruhiy va jismoniy sog'ligida, kamol topishida kechikishlar bor yoki yo'qligiga e'tiborini qaratishi zarur bo'ladi. Bunday bolalar orasida psixik rivojlanishi sust, aqli zaif bolalar bo'lishi mumkin. Ammo kuzatuvlar natijasida 4-3 ball olgan bolalarning 60% dan oshiqrog'i «pedagogik qarovsiz» bolalar aniqlangan.

Agar bola uchala noverbal testdan jami 10 va undan yuqori baho olsa, uni ikkinchi bosqich verbal test savollariga javob berishga taklif etiladi.

Har bir topshiriqni alohida nazarga olib, bolalarning qaysi sohada (rasm chizishidagi, imlodagi yoki fazoviy tasavvurlardagi) kamchiliklari ko'proq ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin:

Birinchi topshiriq: bolalarning xotirasini, tasavvur obrazlarini va intellektual qobiliyatlarini aniqlashga mo'ljallangan.

Ikkinchi topshiriq: asosan bolalarning yozuv, chizuv malakalarini, mayda qo'l muskullarining qanchalik rivojlanmaganligini aniqlashga mo'ljallangan.

Uchinchi topshiriq: asosan diqqat, fazoviy tasavvurlarni aniqlashga mo'ljallangan.

Verbal testni o'tkazish va baholash

1. Biz ertalab nonushta qilamiz, tushdachi?
 - To'g'ri javob – ovqatlanamiz, tushlik qilamiz, sho'rva ichamiz – 1 ball.
 - Noto'g'ri javoblar – choy ichamiz, uxlaymiz va boshqa xato javoblar – (-3)ball.
2. Osmon ko'm-ko'k, o'simliklarchi?
 - To'g'ri javob – yam-yashil - 1 ball.
 - noto'g'ri javob (-4) ball.
3. Nega hamma avtomobillarda tormozlari bor?
 - To'g'ri javob-2 ta dan ortiq sabab ko'rsatilsin (tepalikdan tushayotganida, sekinlatish, burilishda to'xtatish, boshqa mashinalar, to'siqlar bilan to'qnashmaslik uchun, umuman mashinani to'xtatish uchun) – 1 ball.
 - bitta sabab ko'rsatilsa - 0 ball.
 - noto'g'ri javob (-1) ball.
4. It ko'proq mushukka o'xshaydimi yoki tovuqqami? Nimasi bilan bular bir xil?
 - To'g'ri javob- mushukka, chunki ularning 4 tadan oyoqlari bor, yungi bor, durni, tirnoqlari -0 ball.
 - o'xshashlik belgilarisiz (-1) ball.
 - noto'g'ri javob (-3) ball.
5. Sigirning bolasi-buzoq, itning bolasi nima? Qo'yning bolasi-chi?
 - To'g'ri javob –kuchukcha, qo'zichoq - 4 ball.
 - ikkitadan bittasi – 0 ball.

- noto'g'ri javob (-1) ball.
- 6. Toshkent, Samarqand, Xiva- bular nima?
 - To'g'ri javob- Shaharlar – 1 ball.
 - bekatlar – 0 ball.
 - noto'g'ri javob (-1) ball.
- 7. Bolg'a bilan bolta nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?
 - To'g'ri javob – ikkitadan ortiq umumiy belgi ko'rsatilsa. Ular taxta va temirdan yasalgan. Ularning ushlagichlari bor, ular bilan mix qoqsa bo'ladi. Ular asboblari, ularning bir tomoni tekis – 3 ball.
 - bitta belgi ko'rsatilsa - 2 ball.
 - noto'g'ri javob - 0 ball.
- 8. Qari kishi yosh kishidan nimasi bilan farq qiladi?
 - To'g'ri javob kamida uch belgini ko'rsatsa (sochlari oqargan yoki to'kilgan, betida ajinlari bor, ishlay olmaydi, ko'zlari xiralashgan, qulog'i yomon eshitadi, ko'p kasal bo'ladi, tez o'ladi.) - 4 ball.
 - bitta yoki ikkita belgi aytsa - 2 ball.
 - noto'g'ri javob - 0 ball.
- 9. Olmaxon bilan mushuk nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?
 - To'g'ri javob- ikkita umumiy belgi yoki ular sut emizuvchilar ekanligini ta'kidlash (ularning oyoqchalari 4 tadan, dumlari, yunglari bor. Hayvonlar daraxtga chiqa oladilar) – 3 ball.
 - bitta o'xshashligi ko'rsatilsa – 2 ball.
 - noto'g'ri javob - 0 ball.
- 10. Futbol, tennis, boks, suvda suzish – bular nima?
 - To'g'ri javob-sport, fizkultura – 3 ball.
 - o'yinlar, mashqlar, musobaqalar – 2 ball.
 - noto'g'ri javob - 0 ball.

Javob varaqasining 3-4 betlari verbal qismni egallaydi.
 Verbal test 10 ta savoldan iborat. Baholash mezonlari quyidagicha:

- 5- baho ---- + 25 va undan yuqori ball.
- 4- baho ---- +14 dan + 25 gacha,
- 3- baho ---- 10 dan + 13 gacha,
- 2- baho ---- 5 dan – 10 gacha,
- 1- baho ---- 5 dan past ball.

Tadqiqotchining vazifasi har bir bola bilan qarama-qarshi o'tirib, tartib bilan savollarni o'qib javobini olishdir. Berilgan javobni javob variantlariga tenglashtirilgan ballardan tegishlisini belgilab (doiraga olib) qo'yish bilan cheklanadi.

Shu bilan birga sizning suhbatangiz davlat imtixonlaridek bolani titratib qo'ymasligi kerak. Kerak bo'lsa bolalar bilan hazillashib, testdan tashqari mavzuda suhbatlashish va shu bilan birga bolani o'zingizga o'rgatib olish kerak. Barcha savollarga tegishli javoblar olingach, bolaga ruxsat beriladi.

Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash alohida qiyinchilik tug'dirmaydi. Javob varaqalaridagi musbat va manfiy javoblar alohida jang'arilib, ko'pdan kami ayiriladi. Olingan oxirgi natija bolaning maktabga tayyorgarligi, saviyasini ko'rsatadigan ballardir. Bu ballar yuqoridagi jadvalda keltirilgan nisbatlarga binoan baholarga aylantiriladi, umumiy ijtimoiy yetuklik darajasini beradigan muhim ko'rsatkichga ega bo'lamiz.

Shunday qilib, barcha olingan ma'lumotlar 5 ballik tizimga aylantirilganligi sababli ularni jamlash va umumlashtirish mumkin. Quyidagi namunaviy jadvalda bolalarning to'rttala topshiriqdan olgan baholari va ulardan chiqarilgan yakuniy baho keltirilgan.

№	F.I.	Erkak rasm	Yozuv	Nuqtalar	Verbal test	Umumiy ball
1	A. S.	1	1	1	1	4
2	R. K.	3	2	2	2	9
3	N. Yu.	5	4	4	3	16

Yakuniy baho (umumiy ball) eng yuqori baho 20 ball va eng quyi baho -4 bilan chegaralangan bo'ladi. 4 dan 20 gacha bo'lgan masofa 16 qadamni tashkil etadi. Nazariy jihatdan 4 marta 3, ya'ni 12 umumiy ball olgan bolalar o'rtacha rivojlanganlikni ko'rsatgan bo'ladilar. Psixologik tajribalar va tashxis an'anasidan kelib chiqib, ya'ni 75 va undan ortiq %i bajarilishi yuqori rivojlanganlik belgisi hisoblanadi. Shu hisobdan 12 emas balki 16 va undan ortiq umumiy ball to'plagan bolalar maktab ta'limiga yetuk deb hisoblanadi.

Maxsus (korreksion) tahlil natijalaridan ma'lum bo'ladiki, ikki jadvalning oxirida keltirilgan umumiy ball bolaning psixologik, psixofiziologik va ijtimoiy yetuklik darajasini aks ettiradigan ishonchli ko'rsatkich hisoblanadi.

Bola bilan aloqa o'rnatish va ixtiyoriy xulq-atvorning rivojlanish darajasini aniqlash metodikasi

Mazkur metodika L.Krasilnikova tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, «ha» va «yo'q demagin» deb nomlanadi.

Ko'rsatma: Biz sen bilan hozir bir o'yin o'ynaymiz. Men senga savollar beraman, sen ularga javob berasan. Lekin savollarimga «ha» va «yo'q» degan so'zlar bilan javob bermasliging kerak. Masalan, sendan «o'yinchog'ing bormi?» deb so'rasam, sen «ha» demasdan «Menda - o'yinchoq bor» yoki «O'yinchog'im bor» deya javob berishing kerak. Yoki men sendan «Odamlarning qanoti bormi?» deb so'rasam, sen «yo'q» demay, «Odamlarda qanot yo'q deb» javob berishing kerak, tushundingmi? Qaysi so'zlarni aytmasliging kerak?

Agar bola tushunmasa, ko'rsatma qaytariladi.

Metodika materiali 10 ta «ha» javobiga, 10 ta «yo'q» javobiga ega va 5 ta betaraf sovidan iborat.

Savollar.

1. Isming nima?
2. Sen o'g'il bolamisan yoki qiz bolamisan?
3. Sen bog'chaga borasanmi?
4. Bog'chaga borish senga yoqadimi? (Bog'chaga bormasa)
Bog'chaga borgin keladimi?
5. Bog'chadan uzoqda turasizlarmi? (Bog'chaga bormasa)
O'rtoqlaring bog'chaga boradimi?
6. Muzqaymoqni yaxshi ko'rasanmi?
7. Muzqaymoq qanday rangda bo'ladi.
8. Qora rangli muz qaymoq yeganmisan?
9. Sen qo'lda yura olasanmi?
10. Sen uchishni bilasanmi?
11. Adajoning qo'g'irchoq o'ynaydilarmi?
12. Kechasi quyosh chiqadimi?
13. Bo'ri quyondan qo'rqadimi?
14. Shifokorga borishdan qo'rqasanmi?
15. Shifokor kiyimi qanday rangda?
16. Shifokorlar bolalarning sochini oladimi?
17. Sening isming... mi? (Boshqa ism aytiladi)
18. Sigir uchishni biladimi?
19. Sen hozir uxlayapsanmi?
20. Sen maktabga borasanmi?

21. Hozir boshingda qalpog'ing bormi?
22. Qishda o't bo'ladimi?
23. O't oq rangda bo'ladimi?
24. Qor qanday rangda bo'ladi?
25. Qor issiqmi?

Natijalarni baholash.

To'g'ri javoblar -- qoida buzilmay berilgan javoblar.

Noto'g'ri javoblar -- qoidani buzib berilgan javoblar.

Eslatma: bolaning sukut saqlashi, bosh silkitishi, xatosini to'g'rilashi to'g'ri javob bo'lib hisoblanadi.

To'g'ri javoblar miqdori 11 tadan kam bo'lmasligi kerak.

Eslatma: metodikani o'tkazish vaqtida bolaga javobining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida ma'lumot bermaslik kerak.

Metodika manbasi: Я работаю психологом ... Под ред. И. В. Дубровиной. – М.: «Сфера», 1999. Б.223 – 225

Bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligi va bilish jarayonlari rivojlanish darajasini aniqlash metodlari

Bolalarning maishiy turmush haqidagi tushunchalarini aniqlash, atrof-muhitda mo'ljal ola bilishini o'rganish orqali ham **bilish jarayonlari rivojlanish darajasini aniqlash mumkin**. Bolaning turmush haqidagi tushunchalar boyligiga: o'zi, yaqinlari, qarindoshlari, atrofda gilari, u yashayotgan hududdagi kishilar, buyumlar haqidagi tushuncha va bilimlari kiradi. Bunday bilimlar bola ulg'aygan sari ortib boradi.

Turmush haqidagi tushunchalar boyligini tadqiq etish uchun 6–7 yoshdan 10–11 yoshgacha bolalarga beriladigan savollar 10 tadan oshmasligi kerak. Har bir yosh uchun savollar ma'no jihatidan bir xil bo'lsa ham, lekin asta-sekin murakkablashib boradi. Masalan: maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga «Isming nima?» deb savol bersak, 1-sinf o'quvchisiga bu savol biroz boshqacha beriladi: «Isming va familiyang kim?», 2-sinf: «Ota-onangning ismi va familiyasi qanday?», 3-sinf: «Buving va buvangning familiyasi va ismi qanday?» tarzida o'zgarib boradi. Savollarning har bir yosh xususiyatlarini, shu yoshdagi turmush haqidagi tushunchalar boyligini, shu savollarga javob bera olish qobiliyatini hisobga olib tuzilganligi yuqoridagi misoldan ham ko'rinib

turibdi. Har bir yoshdagi bola shu savollarga javob bera olishiga qarab ball bilan baholanadi.

Quyidagi metodikada javoblar 0-1 ball bilan baholanadi. Lekin ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, bolaning javobini 0 - 1 ball bilan baholab bo'lmaydi, shuning uchun mezonga 0,5 ballni kiritishga to'g'ri keladi. Ba'zan savollarga javob berish jarayonida bola savolga bilmagani uchun emas, bu savolga javob berish imkoniyati yo'qligi yoki xohlamagani uchun javob bermasligi ham mumkin va tadqiqotchi bunday holatni e'tiborga olishi kerak.

TAFAKKURNI DIAGNOSTIKA QILISH METODLARI

«Ob'ektlarning o'xshashligi va farqini aniqlash, sababini tushuntirish, tushunchalarni ta'riflash» metodikasi

Biz tushunchani ta'riflash, sabablarini izohlash, predmetlarning o'xshashlik va farqini aniqlash kabi tafakkur jarayonlarini baholash orqali bolaning aqliy rivojlanish darajasini o'rganishimiz mumkin.

Bu tafakkur jarayonlari bolaning quyidagi savollarga to'g'ri javob berishiga qarab aniqlanadi.

1. Bu hayvonlarning qaysi biri katta? Otmi it?
2. Ertalab odamlar nonushta qiladi. Kunduzi va kechqurun ovqatlanganda-chi? (To'g'ri javob: Tushlik va kechki ovqat)
3. Kunduzi ko'chada yorug', kechqurun-chi? (To'g'ri javob – qorong'i).
4. Osmon ko'm-ko'k, o'tlar-chi? (To'g'ri javob: yashil rangda).
5. Gilos, nok, olxo'ri va olma – bu ... (To'g'ri davom ettirish – mevalar).
6. Poezd o'tayotganda nega shlagbaum tushiriladi?
7. Toshkent, Xiva, Samarqand – nima? (To'g'ri javob –shaharlar).
8. Soat necha bo'ldi? (Bolaga soatni ko'rsatib, vaqtни aytib berish so'raladi) (To'g'ri javob: soat millari ko'rsatgan vaqt).
9. Sigirning kichigini buzoq deyiladi. Kichik it va qo'yni nima deyiladi? (To'g'ri javob: kuchuk va qo'zi).
10. It ko'proq nimaga o'xshaydi? Mushukkami tovuqqa? Javob ber va tushuntirib ber, nima uchun shunday deb o'ylaysan?
11. Avtomobilga tormoz nima uchun kerak? (Kerak bo'lganda avtomobil tezligini pasaytirishni ko'rsatuvchi biror-bir javob to'g'ri deb topiladi).

12. Bolta va arra bir-biriga qay jihatdan o'xshash? (Bajariladigan ishlarni ko'rsatuvchi javob to'g'ri).

13. Olmaxon bilan mushuk orasida qanday o'xshashlik bor? (Kamida ikkita o'xshash belgilarni to'g'ri ko'rsatilgan javob to'g'ri. Masalan, bular – hayvonlar daraxtga chiqa oladilar, qalin yung bilan qoplanganligi, dumi va to'rtta oyog'i borligidir).

14. Mix, vint, shurup bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? (To'g'ri javob – mixning yuzasi tekis, vint va shurup burama kertikli; mix bolg'a bilan uriladi, vint va shurup buraladi; shurup konus shaklida, vint va mix yumaloqdir).

15. Futbol, uzunlikka va balandlikka sakrash, tennis, suzish nima? (To'g'ri javob – bular sport turlari, jismoniy mashqlar turi).

16. Transportning qanday turlarini bilasiz?

(transport vositasining kamida ikki turini aytishi kerak).

17. Yoshlar katta odamdan qanday farqlanadi? (Javobda keksalar bilan yoshlar o'rtasidagi kamida ikkita farq sanaladi).

18. Nima uchun odamlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadi? (Quyidagi javoblar to'g'ri deb topilishi mumkin – o'zining salomatligini saqlab turish, kuchli bo'lish, qaddi-qomati kelishgan bo'lishi, chiroyli bo'lish, sportda muvaffaqiyat qozonish va musobaqalarda yutish uchun).

19. Nima uchun ishlamaslik yomon deyiladi? (To'g'ri javob variantlari – chunki hamma odamlar ishlashlari kerak, negaki, yaxshi yashab bo'lmaydi; chunki bu odam o'rniga boshqalar ishlashi kerak bo'ladi; ishlamas, kerakli narsalarni sotib ololmaydi; oziq-ovqat, turar joy va boshqalar)

20. Nima uchun konvertga marka yopishtiriladi?

(To'g'ri javob – pochta orqali jo'natilayotgan xabarlar uchun to'lanadigan haq)

Natijalarni qayta ishlash

Har bir to'g'ri javob uchun 0,5 ball beriladi, bola to'plashi mumkin bo'lgan yuqori ballar 10 ga teng bo'ladi.

Izoh. Bolaning mustaqil fikr yuritib, savolning mohiyatiga mos keladigan fikri ko'rsatilgan javobda bo'lmasa ham to'g'ri hisoblanadi.

Yuqoridagi metodika maktabga kirayotgan bolaning so'z-mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini psixologik tashxis qilish uchun qo'llaniladi. Bu metodika yuqorida aytilgan aqliy, xulosa chiqara olish qobiliyatidan tashqari bolaning aqliy fikr lay olish faoliyati to'g'risida ham ozmi-ko'pmi xulosa qilish imkonini beradi.

Tekshiruvchida bola javobining to'g'riligiga ishonch noto'g'ri deb xulosa chiqarish uchun asos bo'lmasa, u holda bunday javobga 0,5 ball beriladi.

Bolaning javobini to'g'ri noto'g'ri deb baholashdan avval bola savolni to'g'ri tushunganligiga ishonch hosil qilmoq kerak. Masalan: hamma bolalar ham shlagbaum nimaligini bilavermaydi va bu savolning ma'nosini anglab eta olmaydilar.

Ba'zan «ishlamoq» so'zi ham qo'shimcha tushuntirish talab qiladi, chunki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hammasi ham buni bila olmaydilar.

Rivojlanish darajasi haqida xulosa:

10 ball – juda yuqori

8-9 ball – yuqori

4-7 ball – o'rtacha

2-3 ball – quyi

0-1 ball – juda past

Shunday qilib, ushbu bobda biz o'quv faoliyati va uning o'ziga xos tomonlari, bog'cha yoshidagi bolalarda irodaviy faoliyatlarni tarkib topishi, maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi, maktabga psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlik muammolariga to'xtalib o'tdik.

Takrorlash va muhokama uchun savollar:

1. O'quv faoliyati va uning o'ziga xos tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Bog'cha yoshidagi bolalarda irodaviy faoliyatlarni tarkib topishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Maktabga psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz?
4. Maktabga psixologik tayyorgarlikni aniqlovchi qanday psixodiagnostik metodikalarni bilasiz?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xarakter xislatlaridan qaysilari faol rivojlana boshlaydi?

- A. Irodasizlik, bag'rikenglilik
- *B. Mas'uliyatlilik, qiziquvchanlik
- C. muloqotga kirishuvchanlik
- D. Iroda, mustaqillik, tashabbuskorlik

2. O'jarlik qaysarlik kattalarga itoatsizlik bolalarda qanday holatdan qutulishga bo'lgan harakatda namoyon bo'ladi?

- A. uxlashdan
- B. charchashdan
- *C. qaramlikdan
- D. och qolishdan

3. Bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib takomillashib boradi. Ushbu fikrni kim ta'kidlagan?

- A. K.D.Ushinskiy
- B. D.B.Elkonin
- *C. L.F.Obuxova
- D. L.S. Vigotskiy

4. Bolaning har xil harakatli o'yinlarida muvaffaqiyatsizlikka uchrashi, ko'zlagan ishini bajarishdagi nohush kechinmalar uning ruhiy dunyosida dastlabki vujudga keladigan his qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- *A. affekt
- B. Nevroz
- C. depressiya
- D. psixoz

5. Eng avvalo bola maktabga qaysi jihatdan tayyor bo'lishi kerak?

- A. jismoniy jihatdan
- *B. Psixologik jihatdan
- C. axloqiy jihatdan
- D. aqliy jihatdan

GLOSSARIY

Avtoritarizm – buyruq asosidagi talablarga o‘ylamasdan ko‘r-ko‘rona bo‘ysunish.

Akseleratsiya – bolalar va o‘smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo‘y nisbati va jinsiy taraqqiyotning tezlanishi, jadallashishi.

Aniqlovchi eksperimentda bola psixik taraqqiyotga xos muayyan xususiyatlar qayd etiladi.

Asab tizimi – hayvon va odam organizmining barcha funksiyalarini o‘zaro hamda tashqi muhit bilan to‘g‘irlab, uyg‘unlashtirib turuvchi a‘zolar tizimi. U organizmning ichki muhitida ro‘y beradigan o‘zgarishlar va tashqi muhit ta‘sirida qo‘zg‘alib, turli a‘zolariga ta‘sir etgan holda ularning faoliyatini kuchaytirib yoki susaytirib turadi.

Aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi – rus psixologi P.Ya.Galperin tomonidan ishlab chiqilgan va uning shogirdlari tomonidan rivojlantirilgan ta‘limot bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishining umumiy psixologik asoslari bosqichma-bosqich ma‘lum dastur asosida rivojlanadi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me‘yorlar tizimi, ma‘naviy hujq qoidalari.

Bilish – psixik aks ettirish jarayoni, bilimlarni egallash va uni o‘zgartirishni ta‘minlaydi.

Bine – Simon testi – bolalar aqliy rivojlanish usuli. Fransuz psixologlari Bine va Simon tomonidan ishlab chiqilgan. Ular ilk bor eksperimental psixologiyaga asos solishgan.

Biografik metod – odamni uning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar orqali o‘rganish usuli.

Birinchi signal tizimi – narsa va hodisalarning sezgi a‘zolariga bevosita ta‘sir etishi natijasida bosh miya yarim sharlari qobig‘ida hosil bo‘ladigan shartli muvaqqat nerv bog‘lanishlari. U sezgi va idrok turlarida namoyon bo‘ladi.

Bolalar psixologiyasi – psixologiya fanining alohida tarmog‘i bo‘lib, u turli yosh davrlarida bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, shuningdek, bir yosh bosqichidan boshqasiga o‘tish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Bolalik – ontogenezning dastlabki davrlarini belgilash uchun (tug‘ilgandan o‘smirlikkacha bo‘lgan davrni belgilash uchun) qo‘llanadigan tushuncha

Horliq ob'ektiv olarning ongdan holi bo'lgan holda mavjudligini bildiruvchi falsafiy tushuncha.

Bosh miya – markaziy nerv tizimining old qismi bo'lib, u bosh miya qobig'ida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi. Bosh miyaning o'rtacha og'irligi 1470 g.

Bosh miya katta yarim sharlari – bosh miyaning ikki pallasi. Uning ustki qismi uchun chuqur bo'lmagan o'nqir-cho'nqirlardan iborat. Bosh miya katta yarim shar orqa, old, yon, orolcha, orqa umurtqalarga bo'linadi. Miya nerv kataklari neyronlardan iborat bo'lib, ikki katta yarim sharlar po'stlog'ini tashkil etadi. Miyadagi oq suyuqlik neyron o'simtalaridan tarkib topib, miya yo'llarini ko'rsatib turadi.

Boshqarish – tabiatning turlicha bo'lgan (biologik, ijtimoiy va texnik, tizimlari) funksiyalarini, ularning ishini tashkil qilish, maqsad va dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan jarayon.

Verbal o'rganish – insonning yangi tajribani til orqali o'zlashtirishidir. Bunday o'rganish natijasida inson nutqni egallagan boshqa odamlarga, bilim, ko'nikma va malakalarni uzatishi mumkin.

Vikar o'rganish – boshqa odamlar xulq-atvorini to'g'ridan-to'g'ri kuzatish orqali o'rganish bo'lib, unda inson kuzatilayotgan xulq-atvor shakllarini o'zlashtiradi. Vegetativ nerv tizimi – nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi. Vegetativ nerv tizimi markaziy nerv tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu bosh miya qobig'i tomonidan boshqariladi. Vegetativ nerv tizimi simpatik va parasimpatik nervlar deb ataluvchi ikki qismga bo'linadi.

Genezis – biror bir hodisa yoki narsa rivojlanishi jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.

Genetik metod – psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

Genotip – ota- onadan farzandga o'tadigan genlar majmui, irsiy asosi.

Gerontopsixologiya – psixologiya tarmog'i, qarilik davri psixologiyasini o'rganadi.

Geshtaltpsixologiya – hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri bo'lib, XX asrning 30 – yillarida Olmoniyada bunyodga kelgan. Bular murakkab psixik voqelikni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligini asos qilib oladilar. Asoschilar M. Vertxeymer, V. Kyoler, N. Koffka.

Go'daklik davri – hayotning birinchi yili

Yetakchi faoliyat – faoliyat turlaridan biri bo‘lib, bunda ma‘lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o‘zgarib shakllanadi. Masalan, bog‘cha yoshi davridagi o‘yin faoliyati.

Jonlanish kompleksi – bola uning bilan munosabatda bo‘layotgan odamga muloyim tikilib, jilmayadi, qo‘l va oyoqlari bilan talpinib qandaydir ovoz chiqaradi. Bolada qandaydir kuchli mamnunlik hissi yuzaga keladi.

Zehn – nerv tizimining ba‘zi genetik nazariyalari anatomik- fiziologik hususiyati bo‘lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug‘ma tabiiy zaminidir.

Zigota – 1-2 haftalik homila

Ideal – biror narsaning namunasi, ayrim odam yoki guruh xatti-harakatlari va intilishini belgilovchi oliy maqsad.

Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi – inson tomonidan hayotiy tajribani egallash jarayoni ijtimoiy ta‘sirilar va ular bilan bog‘liq mustahkamlash va jazolash asosida amalga oshadi deb tushuntiruvchi ijtimoiy psixologik nazariya.

Ilk bolalik davri - bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davr

Imprinting – qandaydir xulq-atvor shaklini maxsus o‘rgatilmadan, tug‘ilishi bilanoq o‘zlashtirish.

Interferensiya – malakalardagi salbiy ta‘sir bo‘lib, bunda eski malaka yangisining shakllanishiga halaqit beradi

Iste‘dod – shaxs qobiliyati rivojining yuqori darajasi.

Identifikaatsiya – shaxsning o‘zini o‘zga odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirishi.

Konformlik – individning guruh fikrlariga tashqi tomondangina qo‘shilib, ichki tomondan esa qo‘shilmay o‘z fikrida qolishi, guruhga ongli ravishda moslashishi.

Kuzatish – psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, planli, biror maqsad asosida o‘rganish

Kuzatuvchanlik – shaxs xususiyatlaridan biri, u kishining idrok qilish jarayonida narsalarni kamdan-kam uchraydigan ammo muhim tomonlarini payqay olishida namoyon bo‘ladi.

Ko‘nikma – oldinga qo‘yilgan maqsad va xatti-harakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli harakatlar usullarini tarqatish va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanishdir. Ko‘nikma eksteriorizatsiya qilishni – bilimlarning jismoniy harakatga mujassamlashuvini taqozo etadi.

Ko'ndalangiga kesim shaklidagi tadqiqotda asosiy e'tibor sinaluvchi bolalar yoshidagi farqlarga qaratilishi kerak.

Laboratoriya eksperimenti maxsus jihozlangan joylarda, qattiq nazorat ostida amalga oshiriladi.

Layoqat – nerv tizimining ba'zi irsiy determinlashgan anatomik-fiziologik hususiyati. Odamda qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki yakka, tug'ma, tabiiy zaminidir.

Longityud tadqiqot – tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish. Longityud tadqiqot odamdagi individual va yosh davrlardagi o'zgarishlarni qayd qiladi

Madaniy-tarixiy konsepsiya – L.S. Vigotskiy tomonidan XX asrning 20-30 yillarida ishlab chiqilgan inson psixik taraqqiyoti haqidagi nazariyadir.

Maktabgacha bo'lgan davr – uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr.

Malaka – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarishning avtomatlashgan usullari.

Majburiyat yoki javobgarlikni his qilish – erkinlikning qarama-qarshi jihati bo'lib, bu shaxsning manfaatlariga xizmat qiladi.

Mayl – shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishiga jalb etilganligi. Mayl shaxsda kuchli istak, xohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi.

Mahorat madaniyati – har bir tadbirni zo'r quvonchli qalbdan tashkil qilish.

Ma'naviy madaniyat – talabalarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilishdir.

Maqsad – faolyatning kutilayotgan natijasi.

Metod – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

Miqdoriy tahlil – moddalar hususiyatining tuzilishini miqdoriy jihatdan aniqlash metodlarining yig'indisi

Motiv – inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi kuch, sababdir.

Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni, motivlar yig'indisi bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi.

Muammoli vaziyat – bilish ehtiyojini qondirishda tafakkur qilish sharti bo'lgan psixologik vaziyat.

Muammoli ta'lim – o'quvchining faolligini oshirishga qaratilgan va o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan o'qitish usuli.

Muhit – organizm tug'ilgan, rivojlanadigan va yashaydigan tashqi omillar, sharoitlar va ob'ektlar majmuasi.

Negativizm – bolalar psixologiyasida atrofdagi kishilarga nisbatan bolaning sababsiz qrshtilik ko'rsatishi. Negativizm ikki xil bo'lib, passiv – taklif qilingan faoliyatning bola tomonidan bajarilmasligi. Faol – shaxsiy negativizm – bolalarning qarama-qarshi xarakterga ega bo'lgan faoliyatni bajarishi.

Nutq – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishining tarixan tarkib topgan shakli.

Ob'ektivlik prinsipi tadqiqotchidan ma'lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslikni talab qiladi.

Odatlar – bu kundalik faoliyatda ko'p takrorlanishi natijasida avtomatlashgan va bajarilishi shaxsning funksional ehtiyojiga aylanib ketgan harakatlardan iborat individual xislat.

Ong va faoliyat birligi – psixologiyaning ong bilan faoliyatning birligi, uning o'zaro bog'liqligini e'tirof etuvchi g'oya.

Ontogenez – organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui

Operant o'rganish – bilim, ko'nikma va malakalar sinab ko'rish va xato qilish metodi orqali o'rganiladi. Individ duch keladigan vaziyatlar unda turli instinktiv, shartsiz, shartli reaksiyalarni vujudga keltiradi. Organizm ketma-ket amalda masalani yechish uchun har birini sinab ko'radi va bunda avtomatik ravishda erishilgan natijani baholaydi.

Operasiyalar – avtomatlashgan, odatda anglanmaydigan harakatlardir.

Pedagogik psixologiya – ta'lim va tarbiya jarayonlarining psixologik qonuniyatlari hamda, pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya fani sohalaridan biridir.

Psixik taraqqiyot qonuniyatlari – bir yosh davridan boshqa davrga o'tishda inson psixikasi va xulq-atvorida yuzaga keluvchi o'zgarishlar va ularning sabblarini tavsiflab beruvchi qonundir.

Psixik rivojlanishning revolyusion o'zgarishlari – bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o'tishda inson xulq-atvori va psixikasida yuzaga keluvchi jadal hamda chuqur qayta qurishdir.

Psixik rivojlanishning situativ o'zgarishlari – inson xulq-atvori va psixikasida tashkil etilgan yoki maxsus tashkil etilmagan ta'lim-

tarbiya ta'siri ostida yuzaga keluvchi, ya'ni vaziyat bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar.

Psixik rivojlanishning evolyusion o'zgarishlari – bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o'tishda inson xulq-atvori va psixikasida sekinlik bilan amalga oshadigan, barqaror o'zgarishlar.

Psixologik yosh inson psixik rivojlanishi darajasini aks ettirib, ko'pincha aqliy yosh deb ataladi.

Reprezentativlik – tanlov guruhining o'rganilayotgan sifatlar majmuini ishonchliligini va to'g'riligini ifodalovchi mezon.

Rivojlanishning senzitiv davri – bir yosh davrida psixikaing muayyan tomonlari samarali rivojlanishi uchun optimal imkoniyatlar davri.

Rivojlanishning omillari – bolaning psixikasi va xulq-atvori rivojlanishini belgilovchi omillar tizimi

Rivojlanish sharoitlari – shaxsning shakllanishi bog'liq bo'lgan omillar. Rivojlanish sharoitlariga inson atrofidagi kishilar, ular orasidagi shaxslararo munosabat, moddiy va madaniy madaniyat predmetlari va boshqalar kiradi.

Rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari – insonda yuzaga keluvchi yangi ehtiyojlar bilan uni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat.

Ruhiyat madaniyati – talabalarning ma'naviy ehtiyojlariga to'g'ri ta'sir ko'rsatish.

Rivojlanishning eng yaqin zonasi – murakkab vaziyatni hal etishda bolaning mustaqilligini hamda kattalar rahbarligida bajarilgan vazifa orasidagi farq.

Sababiylik prinsipi bola shaxsi va ongida yangi sifatlarni hosil bo'lishi ta'minlochi barcha shart-sharoit va omillarni imkon qadar o'rganishni talab qiladi.

Senzitivlik – turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi.

Senzitiv yosh davrlari – yoshning o'sish davrlari. Bunda ma'lum yosh davriga xos psixik xususiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi rivojlangan. Oldindan yoki kechikib kelgan senzitiv yosh davri ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

Siyosiy madaniyat – davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo'lish.

Sinchkovlik va muntazamlik prinsipi bola psixikasi shakllanishi jarayonini, bunda psixolog va pedagoglar ta'sirini sinchkovlik bilan kuzatib borishni talab qiladi.

Skolioz – umurtqa suyagining qiyshayib qolishi.

Suhbat – psixologiya metodlaridan biri, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

So'rov – tadqiqotchi va respondentning bevosita yoki bilvosita o'zaro aloqasi davomida birlamchi verbal axborot yig'ishga yo'naltirilgan metod.

Chaqaloqlik davri – hayotining birinchi oyi.

Tabiiy eksperiment – tekshiriluvchini o'ziga bildirmagan holda uni o'yin, o'qish yoki mehnat faoliyatida o'rganishdan iborat psixologik tajriba.

Tarbiya – tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy hislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo'lida tarbiyaviy ta'sir etish jarayonidir.

Ta'lim – u o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi o'quv faoliyatidan iborat bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish jarayonidir, hayotiy tajribani o'qituvchidan o'quvchiga uzatishdir.

Taraqqiyot – narsa yoki hodisalarning vaqt o'tishi bilan miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi natijasida yuqoriroq darajaga ko'tarilishi.

Taraqqiyot omillari – bolaning psixik va xulq-atvor rivojlanishini belgilaydigan omillar tizimi. Taraqqiyot omillari, ta'lim va tarbiya mazmunini, o'qituvchi va tarbiyachilarning pedagogik tayyorgarligini, ta'lim va tarbiyaning usul va vositalari va boshqa ko'pgina bolaning psixologik taraqqiyotiga bog'liq narsalarni o'z ichiga oladi.

Taqlidchanlik – namuna bo'lib hisoblanadigan ob'ekt xulq-atvoridan tezda nusxa olish natijasidaro'y beradigan o'rganish turi.

Test – inson psixologiyasi va xulq-atvorini miqdor hamda sifat jihatdan baholashga mo'ljallangan psixologik tadqiqotning standartlashtirilgan metodi.

Faoliyat – bu faol, maqsadga yo'naltirilgan jarayondir.

Faoliyat mahsulini o'rganish metodi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni o'rganish haqida gap ketganda, birinchi navbatda, bolalarning tasviriy faoliyati mahsullarini tahlil qilish nazarda tutiladi.

Faoliyat nazariyasiga ko'ra, faoliyat sub'ektning predmetli olam bilan bo'lgan ta'sirlashishi jarayoni bo'lib, bu jarayon unga o'z ehtiyojlarini qondirishi uchun imkoniyat beradi.

Xronologik yosh inson tug'ilgandan boshlab necha yosh yashaganini ifodalaydi.

Harakat—ongli maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan faollik, faoliyatning asosiy tarkibiy birligidir.

Homila – 9- 38 haftalik ona qornidagi bola.

Shakllantiruvchi eksperimentda sinaluvchiga faol ta'sir ko'rsatilishi oqibatida unda ro'y beradigan o'zgarishlar aniqlanadi

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

Shartli reflektor o'rganish – shartli refleks mexanizmi bo'yicha yangi qo'zg'atuvchilarga reaksiyalarni o'zlashtirish.

O'zlashtirish – bilim, ko'nikma va malakalarni egallash.

O'z-o'zini tuta bilish – shaxsning muayyan sharoitlarda ortiqcha fikr, his-tuyg'u, xatti-harakatlarni ongli ravishda tiyib turish, o'z fikr, hissiyot va harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olishdan iborat irodaviy xarakter hislati.

O'rganish - insoning o'quv faoliyati natijasida yangi psixologik sifat va xususiyatlarni o'zlashtirganligini bildiradi.

O'qish – bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan o'quv harakatlaridir.

O'quv faoliyati natijasida inson yangi bilim, ko'nikma va malakalar egallaydi, yoki mavjudlarini o'zgartiradi, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan jarayondir.

Qobiliyatlar – shaxsga ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish, bilimlarni tez va osonlik bilan o'zlashtirishga yordam beruvchi individual psixologik xususiyat.

G'oyaviy e'tiqod – bu bilimning, o'sha shaxsga xos bo'lgan intellektual, emotsional va iroda sifatlarining sintezi, g'oyalar va xatti-harakatlar bir butunligining negizidir.

Harakatning orientirlash asosi – aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasida kiritilgan tushuncha. Harakatning orientirlash asosi bolaning shakllantirilayotgan harakat va uni to'g'ri, muvaffaqiyatli bajarish sharoitlari va sifatleri bilan dastlabki tanishish jarayoni va natijasidir.

Yosh – individning ma’lum aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi. Ushbu bosqichda uning shaxs sifatidagi fiziologik va psixologik o‘zgarishlari kuzatiladi.

Yosh davri nizolari – o‘ziga xos, uncha uzoqqa cho‘zilmaydigan ontogenez davrlari bo‘lib, bu vaqtda keskin psixik o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Yosh psixologiyasi – inson psixikasining yosh jihatdan taraqqiyoti, psixik jarayonlar hamda inson shaxsi xislatlarining ontogenezini o‘rganuvchi fan

Empatiya - insonning boshqalarga hamdard bo‘lishi, ularning holatini tushunishi, ularga beg‘araz yordam ko‘rsatishga tayyorligi.

Eksperiment – tajriba – psixologiyaning asosiy metodlaridan, o‘zgaruvchan mustaqil psixologik holatlarning boshqa nomustaqil holatlariga ta’sir etishdagi aniq ma’lumotlarga tayanadi.

Embrion – 3-8 haftlik homila/

Ehtiyoj – individdan tashqarida bo‘lgan, ammo individ normal hayot kechirishi, shaxsning rivojlanishi uchun kerak bo‘lgan narsalarga nisbatan zaruratni his etish holati.

ADABIYOTLAR

1. Абрамова Г.С. Возрастная психология М.: 2001
2. Davletshin M.G. va boshqalar “Yosh davrlar va pedagogik psixologiya”. T.: TDPU 2004
3. Dushmanmedova SH.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova SH.T., Alimbaeva SH.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.- T.: Fan va texnologiya markazining bosmoxonasi.-2013. -344 b.
4. Кайл Р. Детская психология: Тайны психики ребенка. –СПб.: прайм –ЕВРОЗНАК.2002.-416с.
5. Лесгафт П.Ф. “Возрастная и педагогическая психология” М.:1991
6. Немов Р.С. Психология.,-М.: ВЛАДОС. Кн.2. Психология образования. 2003. -608 с.
7. Nishonova Z.T., Alimova G.K. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi”. T.: 2005
8. Соколова У.Э. “Психология развития человека” М.:2001
9. Шаграева О.А. Детская психология.: Теоретический и практический курс. --М.: ВЛАДОС. 2001.-368 с.
10. Gozиеv E.G “Ontogenez psixologiyasi”. T.: Ношир. 2010
11. Юнова Н.И. “Психологическая готовность ребенка к обучению в школе” М.:2003

KIRISH.....	3
I. Bolalar psixologiyasi o‘quv fani sifatida.....	4
I.1. Bolalar psixologiyasi fanining.....	4
I.2. Fanning asosiy kategoriyalari.....	5
I.3. Bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi....	6
I.4. Bolalar psixologiyasi: nazariya va amaliyot.....	8
II. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari.....	11
II.1. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari.....	11
II.2. Bola psixikasini o‘rganish prinsiplari.....	12
II.3. Psixologik tadqiqotni o‘tkazish shakllari.....	12
II.4. Bolalar psixologiyasining asosiy va yordamchi metodlari.....	13
III. Bolalar psixologiyasi muammolarining o‘rganilishi.....	21
III.1. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi.....	21
III.2. A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasi.....	24
III.3. V.N.Myasishchevning munosabatlar psixologiyasida bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarining yoritilishi.....	25
IV. Chaqaloqlik va go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari.....	30
IV.1. Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlari.....	33
IV.2. Chaqaloqlik davrida psixologik rivojlanish xususiyatlari sensor va pertseptiv hamda kognitiv rivojlanish predmetlar bilan o‘ynash his-tuyg‘uning o‘shishi yoki jonlanishi kompleksi.....	41
IV.3. Go‘daklik davrining psixologik xususiyatlari.....	45
IV.4. Go‘dak va muloqot, go‘daklik davrida nutqning vujudga kelishi, kognitiv va pertseptiv jarayonlarni rivojlanishi uchun shart-sharoitlar.....	50
IV.5. Go‘daklik davrining psixodiagnostikasi.....	52
V. Ilk bolalik davri.....	56
V.1. Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv rivojlanishi.....	56
V.2. Bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarini rivojlanishi.....	60
V.3. Ilk bolalik davrida nutqning o‘shishi.....	62

V.4. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida etakchi faoliyat sifatida.....	67
V.5. Ilk bolalik davrida o‘z-o‘zini anglash.....	69
V.6. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot diagnostikasi.....	72
VI. Maktabgacha tarbiya yosh davri.....	76
VI.1.Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar o‘shining umumiy shart-sharoitlari.....	76
VI.2.O‘yin bog‘cha yoshida etakchi faoliyat sifatida.....	79
VI.3. O‘yin faoliyati nazariyasi.....	85
VI.4. Bog‘cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari.....	92
VI.5. Bog‘cha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti.....	95
VI.6. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqining kommunikativ vosita sifatidagi rivojlanishi.....	117
VI.7. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi.....	121
VI.8. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda oliy hislarning rivojlanishi.....	131
VI. 9. Maktabgacha tarbiya yosh davri psixodiagnostikasi.....	137
VII. Maktabgacha tarbiya yosh davrida o‘quv faoliyati.....	156
VII.1.O‘quv faoliyati va uning o‘ziga xos tomonlari.....	156
VII.2. Bog‘cha yoshidagi bolalarda irodaviy faoliyatlarni tarkib topishi.....	161
VII.3. Maktabga psixologik, emotsional, kognitiv tayyorgarlik.....	165
VII.4.Maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi.....	173
GLOSSARUY.....	185
ADABIYOTLAR.....	194

Adadi 50 nusxa. Hajmi 12,25 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.

